XIX asrga kelib o'zbek she'riyati, xususan, Qo'qon adabiy muhitida payrovchilik haddi a'losiga ko'tarilgan. Umarxon davrida saroy adabiyotining qator shoirlari Amiriy g'azallariga payrov qilib, uning mavzusi va shakl unsurlarini saqlagan holda tatabbuchilikni amaliy jarayonga aylantirganlar [3.87]. Fazliyning ma'lumoticha, Amiriyning bir g'azaliga o'nga yaqin yoxud undan ham ziyod g'azal bitilgani va bunda shoirlar mahorat bobida bellashgani ma'lum [4.64] Bu an'ana keyinchalik ham bardavom bo'lgan. CHunonchi, asr avvali shoiralardan biri Jahonotin "nozuk" radifi bilan takrorlanmas g'azal bitgan. Unga javob tarzida Furqat ham shu radifda g'azal yozgan. Furqatga yaqin zamondosh bo'lgan Yormuhammad Yoriy devonida ham shu radifda bir g'azal o'rin olgan. Kezi kelganda shuni ta'kidlashni istardikki, mazkur g'azal oliy filologik ta'lim va kollej, maktab adabiyot kitoblariga kiritilgan. G'azalni o'rganish oson kechmaydi. Uning fasohatini to'liq va to'kis anglash uchun Uvaysiydan keyingi shoirlarning xuddi shu mavzu, vazn, qofiya va radifda yozilgan g'azaliga qiyosan o'rganilsa, ish oson ko'chadi. Buning uchun zikr etilgan uchala g'azalning matni ham tinglovchilarning qo'lida bo'lmog'i shart. Avvalo o'qituvchi Uvaysiy matnini, so'ng Furqat va Yoriy matnlarini ifodali o'qib beradi. Har uchala g'azaldagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar hamda she'rlarning umum g'oyasi tushuntiriladi.

Uvaysiyning bu g'azali 8 bayt. Hazaji musammani solimda. Mazmuni zohiran dunyoviy. Vasf tipidagi she'r. Matla'da tajohuli orifni qo'llab, "kimdirki" so'ziga urg'u berish bilan sub'ktni kim ekanligiga ishora qiladi. U – bir kumushbadan (shu o'rinda "nozuk" so'zi mumtoz she'riyatda go'zallik belgisi ekanligini aytib o'tish o'rinli bo'ladi – M.D.). Lirik qahramonning boshiga ming savdoni soladi

bu kumushbadan. Agar uning xayoli ko'nglida paydo bo'lsa, bu dunyodagi hamma narsa lirik qahramonning yodidan chiqadi va uni bevatani aylaydi. Demak, she'rning dastlabki uch bayti bunday:

*Meni rasvo qilgan kimdirki, sen siyminbadan nozik,
Solgan boshimg'a savdo kimdur, ul gul pirohan nozuk.
Xayoli kirsam ko'glunga chiqar dunyo-u dun mehri,
Qilibdur oqibat, ey do'stlar, ham bevatani nozuk.
Chu sabrim tirmog'ida har kuni yuz ko'hi g'am qozdim,
Mening oldimdadir Farhod — ojiz, Ko'hkan nozuk.*

Uvaysiy g'zalining fasohatini anglash uchun o'qituvchi uchala baytdagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar ma'nosini tushuntirib o'tishi yoki lug'at daftarida ishlatishi lozim, ya'ni "kumushbadan" – sutga chayilganday oppoq, Bu metafora (she'rshunoslikda istiora sanaladi- M.D.) orqali mo'ljalga olingan ma'shuqaning go'zalligiga urg'u berib, oshq o'zining oshiqlik so'zini aytmoqda. Keyingi so'z "savdo". Bu omonim so'zning poetikadagi talqini turli g'am tashvishlar, aziyat hamda ma'shuqa tomonidan oshiq boshiga solingan jabru zulm; yana biri "pirohan" – tajriba ko'rgan, aldashga usta, zulmkor; "ko'hi g'am" – g'am tog'i, benihoya ko'p g'am; "Ko'hkan" – tog' qazuvchi (Farhodning laqabi). SHundan keyin baytlarning mazmuni o'quvchilar bilan birgalikda ishlab chiqiladi:

1-bayt: Meni bundayin g'amboda holga keltirgan kimdirki, U sen – kumushtan go'zal, Sen mening boshimga muhabbat tufayli shunchalar ko'p g'am-tashvish solding.

2-bayt: Uning haqida o'y surar bo'lsam, tamom, bu dunyo tashvishlari, uning mehri mening yodimdan ko'tariladi va oqibat meni bevatani qiladi.

3-bayt: Men sabr qilaman – sabrim tirmog'ida har kuni yuzta g'am tog'ini qaziymanki, buning oldida Farhodning – Ko'hkanning qazigan to'g'i hech bo'lib qoladi.

To'rtinchi baytda vasf masalasi haddi a'losiga ko'tariladi:

*Qading nozuk, qoshing nozuk, ko'zung nozuk, labing nozuk,
Tiling nozuk, so'zing nozuk, tishing durri Adan nozuk.*

Ma'shuqaning yetti a'zosi tanosub san'ati yordamida sifatlanadi [5. 117]. Nega yetti muchasi? Bunda ham hikmat bor. Yetti – ilohiy raqam. SHE'rga alohida mazmun, alohida shukuh olib kirgan. Balki vazn talabi bilan yetti a'zo tilga olingandir. Bizningcha, bunday emas. Agar shunday o'ylasak, yetti a'zoning nozikligiga urg'u bermasdan, bir a'zoni keltirib, shunga ishora qilish ham mumkin edi. Uvaysiy bu o'rinda ilohiylikni nazarda tutmoqda.

Galdagi baytda shoira ma'shuqaning xati (lablari ustidagi tuk)ni madh etadi, undan yana labiga o'tadi, so'ng mijasini bo'ston, yuzini gul (misli chaman bo'lgan gulzor) va keyingi baytda "Boshingdin to oyog'ingg'a qarab tursam,

baring nozuk” deya yotgan shoira yana “Sening g’abg’abing ostida ul zeri zaqan”, ya’ni iyaging chuqurchasi ham nozik, degan xulosaga keladi va endi birlikdan ikkilikka ko’chadi:

*Iki nargis, iki ko’ngil, iki tan, iki jon birlan,
Birin biriga vasl aylab, qiloli anjuman nozuk,*

- deb fikrlarini xotimalaydi. Bu – botillik emas - qo’shiluv; vujudning vujudga vahdati. Maqta’da:

*Uvaysiy, o’z-o’zingcha, so’zlama, tiygil zaboningni,
Mabodo kelmasun nozuk diliga so’z qaran nozuk.*

Bu o’rinda “qaran” so’zini “og’ir”, “qadrlı” ma’nosida faxm etish to’g’ri bo’ladi.

Tipologiya o’xshashlikni mushtarak yoki tafovutli tomonlarini ko’rsatishning o’zi yetarli emas. Integratsiya esa bir narsaning ikkinchisi bilan muqoyasa qilish, ta’sirlanish bo’lar ekan qiyoslanayotgan ikki yoki uch asar bir-biriga muqoyasa qilinar ekan, ayni paytda ulardagi o’ziga xosliklarni ko’rsatish, mualliflar mahoratini dalillash talab etiladi.

Furqatning Jahonotinning yuqorida tahlilga tortilgan g’azaliga tatabbu’sini tahlil qilinar ekan, ayni shu yo’ldan borilgan ma’qul. Har uchala g’azalni bir-biriga taqqoslash jarayonida Furqat shu radifli nazirasida Uvaysiy qo’llagan badiiy vositalardan tortib, yana qanday yangiliklar, shoir uslubining o’ziga xos tomonlariga e’tibor qaratish lozim bo’ladi. Zero, Furqat ham nozikta’b shoir bo’lgan, uning she’rlarida uvaysiyona nazokat birmuncha yuqori nuqtada jaranglaydi. Demoqchimizki Furqatning bu radifli g’azalidagi tasvir Uvaysiyonikiga anchayin yaqin turadi. Mana o’sha g’azal:

*Chaman sahni derlar sarv birla yosuman nozik,
G’alatdur, qomating oldida guldun pirhan nozik.*

*Qachon ul Yusuf Misriyday bu husnu malomat bor?
Fasohatda, sabohatda, hama to’g’rida san nozik.*

*Kaloming halovat topmog’i jonlarni ondinkim,
Dahon nozik, zabon nozik, ki lab nozik, suxan nozik.*

*Qoshing sarkashlik aylab, qon to’karga o’ltirib erdi,
Nechuk bo’ldiki, bosh chekmish ko’zingga ul chafan nozik.*

*Munosibdun seningdek andalibi jannatıy, yo’qsa,
Qachon bo’ldi jahon bog’ida har zog’u zahan nozik.*

*Quling Furqat, dilim dardin ko'p ishfo qilolmasmen,
Ko'tarmas tab'i mavzuning, aning fikricha, san nozik [1.224]*

Furqatda oshiq shiddati ikkinchi planga chiqadi. Furqat ma'shuqaning o'zini – yorning qomatini, dahanini, labini, xattini, qoshini, ko'zini madh etadi va shu orqali ma'shuqaning portretini chizadi. Yoriy ham deyarli Furqatnikiga o'xshash g'azal bitgan. Yoriyning ushbu radifli g'azalida ma'shuqa timsoli go'yo chetdan kuzatiladi – ko'proq uning go'zaligiga, chiroyda atrofidagi barcha narsalardan ustun ekanligiga urg'u beriladi. SHuning uchun mashg'ulot davomida Furqatning bu g'azaliga qarashdan ko'ra, Yoriyga murojaat qilgan ma'qulroq. CHunki uning g'azali tili bugangi o'quvchiga ancha yaqin turadi.

Yoriy Ho'qandiy ham xuddi Furqatga o'xshab, noziktablikda boshqalardan qolishmaydi. SHuning uchun ham u dunyoviy lirikaning ham yaxshi namunlarini yarata olgan. Uning lirikasi shubhasiz, o'tmish adabiyotimizda rivojlanib kelgan zohiriy ishqni tarannum etgan tafriqaga aloqador she'riyatdir. Dunyoning turfa manzaralari, yor, oshiq, uning iztirobi va tuyg'ulari, kechinmalari, ma'shuqaning beparvoligidan tortib, oshiqning, ya'ni muhibning qiynalishlariga bee'tiborliklari kabi yo'nalishlar Yoriy lirikasining asosiy unsurlaridan biri sifatida ko'zga tashlanadi. Nega? Bu savolning javobini, albatta, she'riyatining an'alariga sodiq ravishda rivojlanishi bilan bog'lagan ma'qul.

Lutfiy, Atoiylardan boshlanib, Navoiyning yuksak mahorati bilan eng baland cho'qqisiga chiqqan bu usul Yoriy ijodining ham o'ziga xos bir jihatini tashkil qiladi. Yoriyning dunyoviy lirikasidagi yana bir jihatni ta'kidlab o'tish joiz. Bu ham bo'lsa uning lirik qahramoni, lirik parsonajlari, jumladan, ma'shuqa sharq an'anaviy she'riyatidai shunday obrazlardan real voqelikka yaqinligi bilan ajralib turadi va bu holat shoirning an'anaviy she'riyatga olib kirgan tafovutli unsurlardan hisoblanadi [3.87].

Yoriy dunyoviy yor qiyofasini yaratishda an'ana va yangi usullarni omuxtalay olgan. An'anaviy yo'ldan borib turfa nozik o'xshatishlar, qiyoslar asosida, sifatlashlar vositasida go'zal shakl-u shamoyilga ega bo'lgan ma'shuqaning real portretini chizadi. Hattoki, yordan uning beparvo, bee'tibor ag'yolarga yor rasm-rusumlaridan noliganda ham, ma'shuqaga bo'lgan muhabbat tuyg'usi o'tli bir tarzda diqqatni o'ziga tortib turadi. SHunga ko'ra yor bevafo bo'lsa ham, raqibu ag'yorlarga ham do'st, haqiqiy oshiqqa nisbatan bo'lsa-da, muallif nazdida eng barkamol, go'zallikning yorqin namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Misolga murojaat qilaylik: Ma'lumki, mumtoz she'riyatimizda yor, mashuqa tavsifiga bag'ishlangan she'rlar katta o'rinni tashkil etadi. Ma'shuqa chiroyini oydan-da, kundan-da yorug' deyish azal qiyoslash, ko'zni nargizga o'xshatish, labni aqiq, tishni marjonga o'xshatish azal an'ana. Yoriy ham ana shu yo'ldan borib, mashuqaning go'zallik qiyofasini mahorat bilan chizadi. SHu sababli biz quyida

murojaat qiladigan misralarning mag'zida hayotiy qahramon qiyofasini mahorat bilan chizilganligini ko'ramiz. SHoirning "Nozuk" radifli g'azalida ma'shuqaning go'zal qiyofasi o'ta nazokat bilan tasvirga olinadi. Matla'dayoq yorning "bosh-oyog'i zebo" ligi tasvirlanadi:

*Ul dilbari ra'noni g'uncha dahani nozuk,
Boshidin oyog'i zebo, belu badani nozuk –*

"Nozuk" so'zi mazkur o'rinda bir necha ma'noga ishorat qilayotganligi tabiiy. Ammo bularning eng avvali Yor – lirik qahramonning go'zalligi ma'nosidir. Binobarin, Yoriy mashuqaning go'zalik rutbasini mana shu "nozuk" so'zi zimmasiga yuklagan. "Bel-u badani nozuk" degan birikma bevosita "boshdin oyog'i zebo" ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qilyapti. Keyingi baytda bu fikr rivojlantirilib, yorning go'zalligi, oshiqning aql-u hushini g'orat etganligi va shu bois ma'shuqaning har bir holati, xatti-harakati, fe'lu atvori, nozu karashmasi go'zallik kasb etishi tasvirlanadi:

*Nozuklik ila olding, aql-u hushimni, lokin
Nozukkina dilbari har nav qilig'i nozuk*

Ma'shuqaning ta'rifi uning so'zi, suxani chiqqan og'zining ko'rinmasligi (mubolag'a) bilan ham belgilanadi. Negaki, og'izni g'uncha deb ta'riflash azaldan mavjud. Ammo Yoriy og'iz g'uncha deyishdan ham kuchliroq tashbeh topadi:

*SHahd ila shakkar so'zung la'lidin aylamasdur
Yo'q, og'zi ko'rinmasdur, so'zlar suhani nozuk*

Oshiq o'zi suygan ma'shuqaning har bir xatti-harakatidan hikmat topadi, barchasini chiroyga yo'yadi va bundan mutaassir bo'ladi. SHunga ko'ra tajohuli orif san'atidan foydalanib, ma'shuqaning go'zalligini umumlashtirishga harakat qiladi:

*Anjir-u anor deymu, yo ko'zi xumor deymu,
Qaysi birini deyman, siymin zaqani nozuk.*

Bu usul keyingi baytda rivojlantiriladi. Natija o'laroq, tadrij hosil bo'ladi. Ya'ni yorning go'zalligini ta'riflash uchun uni anor, anjir deyish kifoya emas. Bu o'xshatishlar ma'shuqaning chiroyli ekanligini to'la qamrab ololmaydi. Sarvdek qaddi, shamshoddek qomatini ko'rsatibgina, uning "boshdan oyog'i zebo"ligini yana bir bor ta'kidlash mumkin:

*Ul sarv qaddin deymu, yo qomati shamshodim,
Bu yanglig' jahon ichra, mahbuba qani nozuk.*

SHoir bir yo'la mahbubaning tashqi go'zalligini tasviralab qolmaydi, ayni usul bilan ma'shuqa shamoyilidagi eng go'zal odatlarga ham ishora qiladi. Ma'shuqaning "tabi' mavzun", "xulqi xush", shuning uchun go'zal deydi. Ma'shuqa tashqi va ichki go'zalligi tufayli barkamol, shu sababli bu yorug' olamda undan chiroyli zebo, nozuk kimsa yo'q:

*Tabi'ani mavzundur, xulqi xush-u nozukroq,
Qayrilma qoshi o'ynar, dilbar choponi nozuk.*

Xullas, Uvaysiyning zikr etilgan g'azalini o'rganish jarayonida har uchala g'azalni bir nuqtada tahlilga tortish va bu orqali, Uvaysiyning, Furqatning, Yoriyning badiiy mahoratini o'quvchi ko'z o'ngida jonlantirilsa, umumo'zbek she'riyatining romantik qahramoni va ularda shoirlar mahoratining ma'lum bir nuqtalarda tutash ekanligi dalillanadi. O'quvchilarning mumtoz adabiyotimiz sehridan voqif qilib, ulardagi mumtoz she'riyatga bo'lgan mehrni yanada jonlantiradi.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1976. – Б.369.
2. Увайсий Жаҳонотин. Кўнгил гулзори. Девон. – Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1972.
3. Қаюмов А.П. Қўкон адабий муҳити. Асарлар. 12 жилдлик. 7-жилд. – Т., Мумтоз сўз, 2011,- Б.115
4. Тошболтаева Т. Фазлий Намангоний ва унинг “Мажмуайи шоирон” тазкираси. – Т.: Bookmany print, 2023. – Б.187.
5. Джураев М. Ёрмухаммад Ёрий шоир ва таржимон. –Т.: Bookmany print 2022. – Б.160.

РЕЗЮМЕ

Ushbu uslubiy maqolada Jahonotin Uvaysiyning “nozik” radifli g'azalini filologik ta'limda o'rganish masalasi haqida so'z yuritildi. Uning tilga olingan she'ri tizimli tahlil asosida o'rganilar ekan, avvalo g'azal matni e'tiborda tutildi. Unda ilgari surilgan g'oya, tanlangan so'zlar galereyasi va shoiraning mahoratiga e'tibor qaratildi. Ayni chog'da g'azallarning bir-biri bilan integratsiyasi tipologik tahlil asosida ko'rib chiqildi. Bunda shoirlar Furqat va Yoriylarning Uvaysiy g'azaliga naziralari tahlili orqali javob qilindi.

РЕЗЮМЕ

В данной методической статье рассматривается вопрос изучения «нежной» радифильской газели Джаханотина Увайси в филологическом образовании. При изучении упомянутого им стихотворения на основе систематического анализа в первую очередь учитывался текст газели. Обращалось внимание на выдвинутую идею, галерею избранных слов и мастерство поэтессы. При этом интеграция газелей друг с другом рассматривалась на основе типологического анализа. Ответ на него получен путем анализа взглядов поэтов Фурката и Ёри на газель Увайси.

SUMMARY

This methodical article discusses the issue of studying the «delicate» radifil ghazal of Jahonotin Uvaysi in philological education. While studying his mentioned poem on the basis of systematic analysis, the text of the ghazal was taken into account first. Attention was paid to the idea put forward, the gallery of selected words and the skills of the poetess. At the same time, the integration of ghazals with each other was considered on the basis of typological analysis. It was answered through the analysis of poets Furqat and Yori's views on Uvaysi's ghazal.



ASAR BADIYYATINI O'RGANISHDA FANLAR INTEGRATSIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Tojiyeva X.B.

O'zFinPI dotsenti p.f.b.f.d. (PhD)

Tayanch so'zlar: adabiyot, tarix, axloq, estetika, fanlar integratsiyasi, badiiy asar qimmat.

Ключевые слова: литература, история, этика, эстетика, интеграция наук, ценность произведения искусства.

Key words: literature, history, ethics, aesthetics, integration of sciences, the value of a work of art.

Kirish. Adabiyot o'qitish metodikasi ham boshqa fanlar kabi o'zgaruvchan, rivojlanish xususiyatiga ega. Qolaversa, bugun zamonaviy o'zbek adabiyoti shakl va ham mazmun jihatdan rivojlanib, sharq va g'arb tajribasiga asoslangan o'ziga xos badiiy asar namunalari yaratilmoqda. Bugungi zamonaviy adabiyot jahoniy tafakkur natijasi o'laroq yaratilayotgan ekan, uni o'rganishda, san'at darajasidagi jihatlarni kashf etishda ham yangicha yondashuvlar, jahon adabiy ta'limining ibratli nazariyalari, ilmiy metodologik qarashlar asosidagi yondashuvlaridan foydalanib, adabiyot o'qitish metodikasini yuqori bosqichlarga olib chiqish vaqti keldi.

Adabiyotlar tahlili. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarda qayd etilishicha, adabiyotni davrlashtirish bilan bir qatorda adabiyot ilmini o'rganish bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa fanlarning o'zaro aloqadorligi mavjud bo'lib, muhim ta'limiy ahamiyatga egadir.

Mumtoz adabiyot namunalarini yaratgan ijodkorlar asarlarini qunt bilan o'qilganda, ular qaysidir tabaqa vakili iste'dodli shoir yoki yozuvchi, bilimdon adabiyotshunos, zukko tilshunos, qaysidir san'at turini ixlosmandi, o'z hayvonot va nabodot olamidani xabardor ekanligi ko'zga tashlanadi. Har bir ijodkor o'zi yashagan davrning tarixiy, madaniy, milliy qiyofasini aniq belgilab beruvchi tarixiy qalam sohiblaridir. Ular zamonasining qomusiy ilmlaridan xabardor, o'zga millat asarlarini qunt bilan o'rganish maqsadida til o'rganish qobiliyatiga ega shaxslar hisoblanadi.

Tabiiyki, har qanday fanning o'qitish metodikasi o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifasini hal etishda ayrim fanlarga, birinchi, navbatda adabiyotshunoslik,

tilshunoslik, pedagogika va psixologiyaga suyanib ish qo‘radi. Maktablarda o‘qitiladigan adabiyot fanining ilmiy-nazariy asosini va mazmunini adabiyot haqidagi fan belgilab beradi. Adabiyotshunoslik fanining asosi esa o‘zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishga tayanilgan holda o‘rganiladi. Davrlashtirish esa tarixdan iborat bo‘lib, adabiyot uni badiiylashtirib xalqimizning o‘tmishini ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotini ifodalaydi.

Muhokama. Birgina, Bobur hayoti va ijodiga e‘tibor berar ekanmiz, uning sohib devon shoir, yirik adabiyot nazariyotchisi, fiqh olimi, badiiy tarjimon, yangi yozuv kashfiyotchisi, musiqa sirlarining bilimdoni, mohir sarkarda sifatida harbiy san‘at sirlaridan xabardor, shoirga jahoniy shuhrat keltirgan “Boburnoma”dek etuk badiiy asar muallifi sifatida ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, muallif birgina “Boburnoma” asarida eng avvalo o‘z davri taqazosiga ko‘ra hukmron bo‘lgan shariat qonunlariga murojaat qiladi. Asar tom ma‘noda tarixiy asar bo‘lib, unda 15 asrning oxiri 16 asrning birinchi yarmigacha Xuroson, Movarounnahr, Hindistonda kechgan muhim tarixiy voqealar o‘z aksini topgan.

Ikkinchi tomondan, “Boburnoma” adabiyotshunoslikka oid asar hisoblanadi. Unda elikka yaqin shoirlar nomi tilga olinib, ularning asarlari tahlil qilingan va baho berilgan.

Uchinchidan, tilshunoslikka oid qimmatli ma‘lumotlar ham ko‘zga tashlanadi. Muallif til ilmining etimologiyasi, fonetik xususiyatlarini kuzatganligiga guvoh bo‘lamiz. Shuningdek, asarda san‘atshunoslik, nabodot, hayvonot olamiga oid ilmlarni ko‘rishimiz mumkin. Bobur bu asari orqali o‘zining astraromiya, tabobat, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, matematika, shahar qurilishi, tush ta‘birigacha o‘nlab ilmlardan xabardor ekanligi namoyon bo‘ladi. Bu hol muallifning ajoyib fazilatlarini, ko‘p qirrali faoliyatini o‘quvchilarga etkazishda o‘qituvchi adabiyot fanining bir necha fanlar bilan o‘zaro aloqador ekanligini inobatga olmoq‘i lozim.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar birgina Bobur ijodiga tegishli bo‘libgina qolmay balki, boshqa asarlarida ham qahramon va obrazlar, unda tasvirlangan voqea-hodisalar mohiyatini chuqurroq izohlash uchun yuqorida tilga olingan ilmlardan foydalangan va asar mohiyati shu aloqalarni taqazo etgan.

Ayrim mavzularda yozuvchilar o‘z asarlarida tabiat manzaralarini so‘zlar vositasida ifodalaydi. Haqiqiy, tabiat hodisalari bilan yozuvchining ifodasini qiyoslashda geografiya fani masalaga oydinlik kiritishda yordam beradi.

Ma‘lumki, mumtoz adabiyot namunalari xususan, g‘azal janri bevosita aruz vazni bilan bevosita bog‘liqdir. Aruz esa ohang, musiqa bilan hamnafasdir.

Adabiyot o'qituvchisi ma'lum bir asarga bastalangan kuy yoki qo'shiq haqida so'z yuritganda adabiyotning musiqa bilan uzviy bog'liq ekanligini va bu haqda o'quvchilarga so'zlab berishi lozim. Umumta'lim maktablarining o'quv dasturida tarixiy-me'muar asarlar ham o'rganiladi. Boburning "Boburnoma" asari shular jumlasidandir. Muallif bu asarda davrning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, madaniy va boshqa masalalar ta'rifiga to'xtalar ekan, u bo'lgan joylardagi hayvonot olami, o'simliklar, tabiatning rang-barang ko'rinishlarini mahorat bilan tasvirlaydi. Tabiiyki. Bu tasvirlar botanika va zoologiya fanida chuqur o'rganiladi. Demak. adabiyot fani qaysidir ma'noda tabiiy fanlar bilan ham bog'liqdir.

Aslida filologik ilmlar doirasi keng bo'lib, yuqorida nomlari zikr etilgan ilmlar qatoriga ya'ni ilmi ahloq (etika), ilmi kalom, ilmi muammo (lug'z, chiston), ilmi tafsir, ilmi qiyofa kabi sohalarga doir fanlarni ham qo'shish mumkin. Yuqorida tilga olingan ilmlarning biri ikkinchisi bilan uzviy bog'liq bo'lib, inson ruhiyatini o'rganishda muhim vosita hisoblangan. Ayniqsa, bu o'rinda ilmi nafs (psixologiya), ilmi qiyofa (kishining shaklu shamoiliga qarab, uning qanday odam ekanligini aniqlash) fanlari shakllana borgan. Ba'zi manbalarda bu ilm "Sirli ilmlar" sifatida tilga olinadi ya'ni, "Farosat maydonida farosat bilan hukm qilish kitobi" deb ham yuritilgan. Unda kishining gavda tuzilishi va qiyofasiga qarab uning fe'l atvorini aniqlash usullari bayon qilingan. Insonning tashqi ko'rinishini tashkil etadigan a'zolar "alomatlar" deb atalgan. Bu alomatlar insonning ichki tuyg'ularida kechadigan yaxshi va yomon holatlar va hislatlarga qarab, uning fe'l-atvori bashorat qilingan. Bu fan ham insoniyat tarixining bir tilsimi bo'lib, iste'dodli shoirlaro'z asarlarida bu ilmdan ham foydalanganlar.

Ayniqsa. o'zbek adabiyoti tarixiga oid mavzularni o'tishda, o'qituvchi tarix faniga murojaat qilar ekan, o'quvchiga notanish bo'lgan tarixiy so'z va atamalarning sharhini izohlaydi. Shuningdek. Tarixiy voqealar asarda ifodalangan o'rinlarda madaniyat tarixi, xalq tarixiga oid ma'lumotlarni yoritishda tarixiy manbalariga, darsliklarga murojaat qiladi.

Adabiyot mashg'ulotlarining ayrim mavzularida geografik joy nomlari, yozuvchi tarjimayi holida tilga olingan geografik atamalarga izoh berishda geografiya fanining o'rni va ahamiyati kattadir.

Ma'lumki, har bir davrda o'ziga xos adabiy voqealar, yangi adabiy oqimlar va maktablar yuzaga keladi. Ular esa, tabiiyki. ijodkor yaratgan turli janrdagi asarlarida o'z aksini topadi. Demak har bir davr adabiyotini o'rganishda tarixiy-adabiy nuqtai nazar e'tiborga olinishi kerak. Bu ilmiy muammolar har bir

davrdagi asarni tahlil etishda shu jumladan o'zbek adabiyoti tarixini g'oyaviy-badiiy tomondan o'rganishda muhim o'rin egallaydi.

Mumtoz adabiyot namunalarini o'rganishda, har bir ijodkorning maktab dasturiga kiritilgan janriy jihatdan sodda va murakkab asarlarining tahliliga doir ilmiy, nazariy, uslubiy yo'l tanlanishi muhim ahamiyatga egadir. Mumtoz adabiyot namunalarining mavzu doirasi juda ham keng bo'lib, asosan inson ichki dunyosini insoniy komillikni, orzu-o'ylarini, jamiyatda bo'layotgan salbiy va ijobiy munosabatlarni ijodkor o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib qalamga oladi va o'z badiiy mahoratini namoyon etadi.

Ular turli lirik janrlarda insoniy fazilatlarini ulug'laydi va ayni paytda o'z zamonasining murabbiysi sifatida insonni tarbiyalash bilan bog'liq ezgu ishni ham amalga oshiradilar.

Shu o'rinda mumtoz adabiyot namunasi bo'lgan she'riyat orqali eng ezgu niyatlarni qalamga olgan ijodkorlarning ijod namunalarini ko'rib chiqaylik.

Ma'lumki mumtoz she'riyatning mazmuniga zeb beradigan xususiyat ijodkorning tili va badiiy mahorati bilan o'lchanadi.

Badiiy san'at turini, xususan, ma'naviy turini qo'llamagan shoirni uchratish qiyin. Ta'limiy-diniy mavzuda yaratilgan g'azalda irsoli masal keng foydalanilsa, tarixiy voqealar, shaxslar bilan bog'liq voqealarda tahlil san'ati keng qo'llaniladi. Ishqiy mavzudagi g'azallarni esa husni tahlilsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mumtoz adabiyotda ustoz shoirlar ijodiga tazmin bog'lash keng an'ana bo'lgan. Bu san'at ikki shoir ijodini bir-biriga qiyoslab baho berish imkonini beradi.

Natijalar. Mumtoz she'riyatda qo'llanilgan badiiy san'at ijodkorning mahoratini, iste'dodini namoyon etadi. Tahlilchi esa undan ko'p ma'no yuklatilgan nuqtalarini belgilab olish imkoniga ega bo'ladi. Matn mohiyatiga kirib borish, ma'no qatlamlarini qunt bilan o'rganish, qayta baholash kabi sharoitlar yaratiladi. Tahlil qanchalik keng bo'lsa, g'azal yoki boshqa janrning yaratilishiga sabab bo'lgan asos oydinlashadi. Aniqrog'i, talqinchi bilan muallif orasida mutanosiblik paydo bo'ladi. Shoirning qalam olishga undagan sababni ko'ra oladi. Masalan, Navoiy, Bobur, Mashrab, Bedil g'azallari tahlil qilinganda shunday holni kuzatish mumkin. Shuningdek, tahlil jarayonida biror manbada uchramaydigan shoir bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar, shoir tarjimai holi bilan bog'liq lavhalar, uni iztirobga, hayajonga solgan sabablar g'azal matni qatidan chiqib kelayotgandek bo'ladi. Yoki, aksincha, tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni g'azal matnidagi ishoraga, belgiga qiyoslash ham mumkin.

Mumtoz she'riyat har gal o'qilganda yoki tahlil qilinganda, muxlislar turlicha ma'no topadilar va undan ilhom oladilar. G'azal tahlilining turlicha ko'rinishda

chiqishining sabablaridan yana biri, bu janrlarning aruz vaznida yozilganligidir. 1940-50-yillarga kelib arab alifbosida yozilgan matnlar kirill alifbosiga o'girila boshladi. Aslida, arab alifbosidagi matnni kirill alifbosiga xatosiz ko'chirishning iloji yo'q. Chunki, arab alifbosi imlosidagi ba'zi xarflar va tovushlar, qisqa unlilar kirill imlosida aks etmaydi. Yoki, so'z zamirida kelgan bir harf yonmayon kelsa, bitta shaklda yozilaveradi. Agar tepasida tashdidi bo'lsa, harfning ikkitaligi ma'lum bo'ladi. Lekin xattotlar yozuv belgilarini hamma vaqt ham qo'yavermaganlar. Ana shu ikkilantirilgan tovushlar ba'zan vazn taqozosi bilan bitta tovush sifatida o'qiladi. SHu bois, matn qanday o'qilsa, shu tarzda kirill imlosida yoki lotin imlosida yozilishi kerak bo'ladi.

Qachonlardir mavjud bo'lgan Finikiyaliklarning yaratgan ivrit, moniy, sug'diy kabi yozuvlari keyinchalik davr talablariga javob bera olmay iste'moldan birin-ketin chiqib boshladi. SHu davrlarda bizning xududimizga kirib kelgan arab yozuvini ilmga tashna ajdodlarimiz san'at darajasiga ko'tardi. Maktab va madrasalar ham vatanimiz xududida arab imlosi asosida faoliyat olib bora boshladilar. Uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan o'rta va oliy madrasalar asrlar davomida avlod-ajdodlarimizga ta'lim berdilar. SHuning barobarida, arab madaniyati, tili, adabiyotiga doir ilmlar bilan tanishib bordilar. Bu yozuvning ommalashishi bois, minglab nodir asarlar yaratildi. Ularning mualliflari bo'lgan buyuk allomalar sharq va g'arb ilm-faniga, madaniyatiga hissa qo'shdi.

Xulosa. Bu yozuvda yaratilgan va bizgacha yetib kelgan ulkan ilmiy va adabiy merosni o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelayotgan ekan, bu vazifa yechimini topish maktab ta'limidan boshlanishi kerak. Buning uchun maktab darsliklari, uslubiy qo'llanmalarini yaratayotgan mualliflar zimmasiga yuklatilgan mas'uliyat o'z kuchida qolib kelmoqda. Ammo, darslik va majmualarda tanlab olingan murakkab matnni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarzda o'rgatish masalasi muammoligicha qolmoqda va turli baxslarga sabab bo'lmoqda. Bu hol ayniqsa, she'riy matnning tahlilida ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu yo'lda darsliklar uchun tanlab olinayotgan mumtoz meros namunalarini sharhlash va yosh avlodga o'rgatishda zamonaviy o'qitish usullari qatorida sharqona muqobil usullardan foydalanish samarali natija beradi, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. Dolimov Ulug'bek. Milliy uyg'onish pedagogikasi. – T.: NOSHIR, 2012.-260 b.
2. Hojiahmedov Anvar Mumtoz badiiyat malohati T. Sharq 1999. 240 bet.
3. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. Monografiya. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 244 b
4. Tohirov S. Aruz vazni qoidalari. O'quv qo'llanma. Samarqand. SamDU 2019.-147 b.

5. Tojiyeva X. Matn tahlilining o'tmish va zamonaviy ibrati // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2020.- №7. –63-65-b.
6. Tursunova M. Adabiyot qanday o'qitilishi kerak? // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2003-yil, 23-iyul.
7. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T.: O'zbekiston, 1983. 150 b.
8. Zunnunov A. O'zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar. – T.: O'qituvchi, 1973. 270 b.
9. Zunnunov A. Badiiy asar tahlili metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1992. 120 b.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada umumta'lim maktablari adabiyot darslarida asar badiiyatini o'rganishda fanlar integratsiyasidan foydalanish yo'llari haqida so'z boradi. Adabiyot darslarida asar badiiyatini o'quvchilarga yetkazishda asar mazmunidan kelib chiqib tarix, tilshunoslik, estetika oid bilimlardan foydalanish ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, asar qimmatini belgilashda muallif dunyoqarashining ahamiyati xususida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о способах использования интеграции предметов при изучении искусства труда на уроках литературы общеобразовательных школ. Анализируется важность использования знаний по истории, языкознанию и эстетике на основе содержания произведения в донесении искусства произведения до учащихся на уроках литературы. Также обсуждается значение мировоззрения автора в определении ценности произведения.

SUMMARY

This article talks about the ways of using the integration of subjects in the study of the art of the work in the literature classes of general education schools. The importance of using knowledge of history, linguistics, and aesthetics based on the content of the work in conveying the artistry of the work to students in literature classes is analyzed. Also, the importance of the worldview of the author in determining the value of the work is discussed.



SEHRLI ERTAKLARDA OLTIN SIFATLANISHINING MO''JIZAVIYLIKNI IFODALASHDAGI O'RNI

Abdullaeva X.N.

*Andijon davlat Universtiteti
Birinchi bosqich doktoranti*

Tayanch so'zlar: epitet, fantastik, badiiy-estetik, oltin tamakidon, Midas, oltin sandiqqa, tilla qozon, tilla kapkir, tilla obdasta.

Ключевые слова: эпитет, фантастический, художественно-эстетический, золотая табакерка, Мидас, золотой сундук, золотой казан, золотой капкир, золотой чайник.

Key words: epithet, fantastic, artistic-aesthetic, golden snuffbox, Midas, golden chest, golden cauldron, golden spatula, golden kettle.

Ertaklarda ko'pincha oltin so'zini qo'llash orqali shaxs yoki predmetning sirlilik, mo''jizaviylik xususiyati tasvirlanadi. Shuni inobatga olib, folklorshunoslar O.Safarov va D.O'raeva: "Oltin va tilla so'zlari ko'magida hosil qilingan bu sifatlashli birikmalar, odatda, ertaklar syujetiga xos g'ayrioddiylik, xayoliy uydirma, voqelikni fantastik tarzda bo'rttirish xususiyatini o'zida ifoda etadi". – deb yozadilar.

Darhaqiqat, oltin so'zi ertaklarda inson biror-bir predmet uchun epitet sifatida keng qo'llanib keladi va o'ziga xos badiiy-estetik vazifa bajarib keladi. Ular orqali sirli qahramon yoki g'aroyib, tilsim predmet obrazi yaratiladi.

Ertaklarda uchraydigan tilla kokil bola, oltin g'oz, oltin tuxum, oltin pat, gavhar tuxum kabilarga ishonish va tasavvur qilish qiyin, chunki ular real hayotda uchramaydi. Ular xalqning xayoliy uydirmasi mahsuli bo'lib, mavhum obrazlar hisoblanadi. Ammo oltin beshik, oltin kamar, oltin tumor, oltin tamakidon singarilarga esa ishonish va tasavvur qilish mumkin.

Rus ertakshunoslarining fikricha, "oltin" epiteti quyosh rangi ma'nosini o'zida ifoda etadi.

Ingliz ertagi "Oltin qo'l" ("The Golden Arm"da ham oltin so'zidan sirlilik hosil qilishda foydalanilgani kuzatiladi. Unda hikoya qilinishicha, qadim zamonda butun yer yuzini o'ziga rafiqqa izlab sayohat qilgan odam bo'lgan ekan. U yoshni ham, qarini ham, boyni ham, kambag'alni ham, chiroyli-yu xunukni ham uchratibdi-yu, o'z orzusidagi ayolni sira uchrata olmabdi. Va nihoyat u yosh, vijdonli va boy bir ayolni topibdi. Bu ayolning o'ng qo'li sof oltindan

ekan. Darhol unga uylanibdi va o'zini dunyodagi eng omadli odam deb hisoblay boshlabdi. To'g'risi, u xotinini boshqa xislatlaridan ko'ra oltin qo'lli ekani uchun ko'proq sevarkan.

Kun kelib uning xotini vafot etibdi. Er tim qora kiyinibdi va dafn marosimida yuzida chuqur qayg'u bilan ishtirok etibdi. Ammo bularning bari soxta ekan. U tun yarmida o'rnidan turib, jasadni kavlab, uning oltin qo'lini kesib olibdi.

Keyingi tunda erkak oltin qo'lni yostig'i ostiga yashirgancha uxlab yotarkan, marhuma xotininining arvohi xonaga sassiz kirib kelibdi. Arvoh karovot yoniga o'tib, pardani suribdi-da, eriga gina bilan qarabdi. Er o'zini qo'rqmaganday tutib, arvohdan: "Sening qizil yuzlaringga, atirgulday lablaringga, tilla sochlaringga nima qildi?" deb so'rabdi. Arvoh esa: "Hammasi qurib yo'qolib ketdi", – deb javob beribdi. Er "Oltin qo'lingga nima bo'ldi?" deganida, arvoh "ularni sen olding" debdi.

Inglizlarning Jek nomi bilan bog'liq bir turkum ertaklari borki, ularda oltindan sehrli narsalarning xususiyatini bo'rttirishda alohida foydalanilgan. Bunga "Jek va uning oltin tamaki qutisi" ("Jack and his Golden Snuff-box"), "Jek va loviyapoyasi" ("Jack and beanstalk") ertaklari misol bo'la olda. Ko'rinadiki, ularning ayrimlarida oltin so'zi sarlavhadayoq aks etgan bo'lsa, ba'zisida ertak ichida keltirilgan. Masalan, "Jek va uning oltin tamaki qutisi" (Jack and his Golden Snuff-box) ertagida Jek qishloqda yashovchi kekxa chol va kampirning yakkayu yagona o'g'li. U hech qachon odamlarni ko'rmagan, ammo u juda ko'p kitoblarni o'qigani uchun dunyoda go'zal malikalar borligini bilardi va ularni ko'rishni xohlardi. Shu maqsadda Jek safarga otlanadi. Unga kekxa onasi katta non beradi va o'g'li toqqa chiqib ketib uni ko'rolmagach, orqasidan la'natlaydi.

U yo'lda ketayotib otasini uchratib qoladi. Otasi unga oltin tamaki quttisini beradi va uni faqat o'lim xavfi tug'ilganidagina cho'ntagidan chiqarib ochishini tayinlaydi.

Jekning yo'lida uchragan kishi undan ajoyib bir ko'l barpo etishini va unda bir kancha harbiy xizmatkorlar bilan kemalar bo'lishini talab qiladi. Buning uchun Jek otasi bergan oltin tamakidondan foyldalanadi. U qutti og'zini ochishi zahoti uning ichidan uchta kichkinagina qizil odamchalar chiqib, aytilganlarni darhol ado qilibdi.

Jek keyingi ikkita topshiriq: katta qasr qurishni hamda qasrda o'n ikkita askarlar oltin xaykali ustun bo'lib turishini shu tarzda ado qilibdi.

Jekni ovga chiqib ketganida otboqar uning kiyimlarini yig'ishtirib taxlayotgan otboqar uning cho'ntagidan oltin tamaki quttisini topib oladi. Otboqar quttichani ochadi, shu zahoti quttidan uchta odamcha sakrab chiqadi va "Tila tilagingni" deydi. Otboqar Jek paydo qilgan barcha narsalarni yo'q qiladi.

Jekka sichqonlar qiroli va uning akalari qurbaqalar hamda qushlar qiroli oltin tamaki quttini topishga yordam beradilar. Uning yordamida Jek rafiqasi va yoqimtoy o'g'li bilan yana qayta topishibdi.

“Jek va loviyapoyasi (“Jack and beanstalk”) ertagida Jek devning oltin xamyonini olib qochadi. Keyin esa devning oltin tuxum tug'adigan g'ozini va oltin arfasini ham olib qo'yadi. Sehrli oltin arfaning sadolaridan maftun bo'lgan sirli oltin g'oz oltin tuxumlar tug'adi.

Oltin arfa chalgan chiroyli kuylar evaziga odamlar ona-bolaga pul to'lashar ekan. Shunday qilib, Jek bilan uning onasi boyib ketibdilar va farovon hayot kechiribdilar.

“Rustanzod va Sherzod” nomli o'zbek xalq ertagida ham gavhar tuxum obrazi uchraydi. Ertakda o'g'rilar ovlab kelgan qush cholning uyida yetti yil turib, yettita gavhar tuxum tug'adi. Bu gavhar tuxumning bittasi qiymati butun podshohlikning boyligidan ham ko'p edi. Chol tuxumning bittasini podshoh saroyiga olib borganida, uning qiymatini yaxshi bilgan podsho bir tuya javohir yuklab beradi. Gavhar tuxumlar tufayli kambag'al chol boyib, katta savdogar bo'lib ketadi.

“Oltin tutqich” ertagida evrilish motivi orqali narsalarning ko'z ochib yumguncha oltinga evrilishi tasvirlangan. Bu ertakda Qirol Midas kunlarini oltinlarini sanash bilan o'tkazarkan va tunlari katta boyliklarni orzu qilarkan. Qanchalik ko'p oltin to'plasa ham, bu uning uchun yetarli tuyulmas ekan. Bir kuni qirol Midas o'zining chiroyli gul bog'idan chiqib, yarim echki, yarim odam qiyofasidagi kishini – satirni ko'rib qoladi. Satir yo'lidan adashib qolgan edi, buni ko'rgan qirol Midas unga biroz yeguliklar beradi va to'g'ri yo'lga kuzatib qo'yadi. Satir uning bu iltifotidan juda mamnun bo'lib, Midasni yordami uchun mukofatlamoqchi bo'ladi va undan bir tilak so'rashini aytadi. Qirol Midas uzoq va chuqur o'ylaydi. Nima so'rasi uning barcha xohishlari ro'yobga chiqishi mumkin? Midas o'zini biroz aldangandek his qiladi, chunki aslida uchta tilak mukofot bo'lishini bilardi. U endigina satirga shu haqida aytishga og'iz juftlab turganida xayoliga bir ajoyib fikr kelib qoladi. U pul, boylik va xazina haqida tasavvur qiladi.

“Oltin”, deb qichqiradi qirol. “Mening qo'lim tekkan barcha narsalar oltinga aylanishini xohlayman”. “Oh, menimcha, bu yaxshi fikr emas”, dedi satir. “Sen talabingni yana bir o'ylab ko'r”. Lekin Midas fikridan qaytmadi va satir uning mukofotini bajarishini talab qildi. Midas bu mukofotini darhol sinab ko'rishni xohladi. U bir qoya yaqiniga borib uni ushladi, shu payt ko'zlari hayratdan qotib qoldi, chunki qoya oltinga aylanib qolgandi. Qirol hayratlanib atrofidagi barcha narsalarni – maysalar, barglar, boshhoqlar, gullar va daraxt novdalarini tegina boshladi. Men oltinli ushlagichman, deb o'yladi u. Qirol o'rmon bo'ylab

yugurardi. U nihoyatda baxtli edi. Qirol dunyodagi eng boy odam bo'lishi mumkin edi. Qasriga qaytib qirol katta ziyofat bo'lishini e'lon qildi. U ko'plab go'shtlar, mevalar, pishloqlar va nonlar yeyishni xohlardi. U dunyodagi eng boy qirol bo'layotganidan ko'ziga boshqa hech narsa ko'rinmas, o'zini juda baxtiyor his qilardi.

U ovqatlanishga o'tirishi bilan oq, stulga teginganidan stul oltinga aylanib qoldi. U ichimlik ichmoqchi bo'ldi, ammo qadahni ushlashi bilan u ham qirolning qo'lida oltinga aylanib qoldi. Midas suvdan bir qultum ichmoqchi bo'ldi, ammo shu zahoti tomog'iga bir bo'lak oltin tiqilib qoldi. U bir bo'lak nonni ushladi, u ham darhol oltinga aylanib qoldi.

“Oh, yo'q”, qichqirdi qirol. “Men ochlikdan o'lib qolaman-ku”. Midas tizzalarini quchoqlab o'tirib oldi va yig'lab xudodan o'zining bu ahmoqona fikridan xalos etishni yolvorib so'radi. Yig'laganida uning ko'z yoshlari ham mayda oltin marmarlardek yarqirardi.

Xudoning qiroлга rahmi kelibdi va uni Paktolus daryosiga borib tanasini suvga botirib turishiga, sovg'a evaziga so'ragan la'natlangan holatidan qutulishiga ishora bo'libdi.

Qirol Midas daryo tomonga yugurib boribdi va suvga kirib tanasini yuva boshlabdi. Shu payt uning tanasidan suvga oltin dog'lari yuvilib tushardi. Qirol suvdan chiqib o'zining avvalgi holatiga qaytganini his qilibdi va qizining oldiga yugurib ketibdi.

Qirol endi haqiqatda baxtliligini tushundi. Garchi xudo qirol Midasga axmoqona tushunchasini anglatadigan estalik qoldirgandi. Uning boshidan ikkita eshaksifat quloqlari chiqib turardi va Midas bu saboqni hech qachon unutmabdi.

O'zbek xalqining “Ayiqqolvon” ertagida yigit sayohat qilib yurib, bir bino ichida go'zallar go'zali bo'lgan bir qiz oltin sandiqqa suyangan holda yig'lab o'tirganini ko'radi. Yigit uni ko'rib, oshiq bo'lib qoladi. Qizdan bu mamlakatning otini va nima uchun bu yerlarda yolg'iz o'tirganini so'raganda, u o'zining bir podshoh qizi bo'lganini, bu yerga sehr bilan bir dev olib qochib kelganini, bu mamlakat esa, devlar makoni ekanini so'zlab beradi.

Yigit qizni oltin sandiqqa solibdi, g'or og'ziga kelib sandiqni arqonga bog'lab, sheriklariga ishora qilibdi. Sheriklari sandiqni chohdan tortib olibdilaru, uning ketidan chiqayotgan Ayiqqolvon osilgan arqonni uzib yuboribdilar. Bu bilan ayrim insonlarning oltinga (boylikka) hirsini tasvirlangan.

O'zbek ertaklari orasida “Oltin baliq”, “Oltin kiyik”, “Oltin tarvuz”, “Oltin beshik” kabilar ham bor.

Inglizlarning “Jack the grant killer” ertagida oltin karnay (golden trumpet) obrazi uchraydi. Uning vositasida qahramon yovuz devni yengadi. Jodulangan

saroydagi lord va xonimlar qush va hayvon ko'rinishidan yana qayta inson ko'rinishiga qaytadilar.

“Princess of Colchester” (“Kolchester malikasi”) va “Three heads of the well” (Quduqning uchta boshi) ertagida sehrli quduq ichidan uchta oltin bosh chiqib, har bir bosh qizdan sochini yuvib, tarab berishini iltimos qiladi. Qiz bunga rozi bo'ladi va har bir bosh unga qilgan yaxshiligi uchun biror xususiyat ato qiladi. Birinchi bosh uning go'zalligini oshiradi, ikkinchisi uning butun tanasiga xushbo'ylik ato etadi, uchinchi esa uning eng buyuk shaxzodaga malika bo'lishini aytadi.

Endryu Lengning “Alladin va ajoyib chiroq” ertagida sehrli bog'dan keltirilgan sehrli oltin mevalar obrazi keltirilgan. O'zbek xalqining “Oltin olma” ertagida oltin olmalar farzand timsolini ifoda etgan.

“The King Of England's three Sons” (“Angliya qirolining uch o'g'li”) ertagida oltin olma kasalni tuzatishga vosita bo'ladi: “There was nothing at all could make him well but some golden apples from a far country. So the three brothers went on horseback to look for some of these apples”. Unda hikoya qilinishicha, qattiq kasalga chalingan Angliya qirolining kenja o'g'li sirli bog'dan sehrli oltin olmalarni olib kelishga muyassar bo'ladi va otasi ular yordamida sog'ayadi.

“Qirq kuyov” nomli o'zbek xalq ertagida podshohning qizi qo'lidagi gavhar uzukni yigitga berib: “Ey yigit, mana shu uzukni darvoza yonidagi ko'zaning oldidan o'tayotganingizda uning ichiga tashlang, lekin orqaga qaramay, ketavering. Siz qaytib kelguningizcha tilla qaynab chiqaveradi, – debdi. Yigit uzukni olib ketibdi. Ko'za yoniga borib uzukni tashlab, qiz aytganicha orqasiga qayrilib qaramasdan darvozadan chiqib ketibdi. Podshohning xizmatchilari ko'zadan oltin qaynab chiqqanini ko'rib, yigitning orqasidan borib, uni bardor-bardor qilib ko'tarib, podshoh oldiga olib kelishibdi.

“Kulsa gul, yig'lasa dur” ertagida daryodagi oltin baliq ichida joylashgan sehrli buloqida qizning joni saqlanashi aytiladi.

“Oltin tarvuz” ertagida sehrli tarvuz obrazi uchraydi. Uning urug'ini oyog'i singan laylak bir kambag'al bir dehqon g'amxo'rlik ko'rsatgani evaziga tortiq qiladi. Ulardan ichi oltinga to'la sehrli tarvuzlar unib chiqib, dehqon boyib ketadi.

“Guluyalar bilan Qalandarbek” ertagida oltin qasr va undagi tilla qozon, tilla kapkir, tilla obdastalar haqida fikr yuritilganini kuzatish mumkin: “Oltin qasrning ichidagi hamma narsa oltindan emish. Gulzorlarda ochilib turgan gullar ham, daraxtlardagi mevalar ham oltindan emish... Tilla qozonlarda ovqatlar pishib yotgan emish... Tilla obdastalarda suvlar to'ldirilgan emish. Bu yerdagi gullardan tortib, idish-tovoqlargacha tilla emish-da! Oltin daraxtdagi oltin olmalar... Oltin qozon chetidagi tilla kapkir...

Bunda tilla qozon, tilla kapkir, tilla obdasta garchi sehrlı deb ta'kidlanmayotgan esa-da, tilladan ekanligini aytish bilan, ularning sirli, g'aroyib ekani bo'rtirilmoqda.

“The wicked witch” (“Yovuz jodugar”) ertagida sehrlı mo'ridan o'z-o'zidan oltinlar tusha boshlashi tasvirlangan: “... and looked up the chimney. When she did this a great bag of money fell down in her lap. This happened again and again”. Qiz bu oltinlarni olib, qochib qoladi. Bunda mo'ring o'z-o'zidan oltinlar yog'dirishi uning g'aroyibligini anglatadi.

“The Golden Ball” (Tilla koptok) ertagida sehrlı oltin koptok obrazidan foydalanilgan.

Iglizlarning “Cindermaid”, o'zbeklarning “Oltin kovush” va “Podachining qizi” ertaklarida faqat o'z egasiga loyiq keladigan sehrlı oltin kovush obrazi keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, oltindan iborat narsalar ertaklarda sehr-joduga, g'aroyiblikka ega ekani ma'lum bo'ladi. Ular orqali predmetlarga g'aroyib sifat yuklatiladi. Ular vositasida mehnatkash xalqning to'kin va farovon, boy turmush haqidagi orzu-istaklari aks ettiriladi.

Adabiyotlar:

1. Safarov O., O'raeva D. O'zbek xalq qo'shiqlaridagi oltin va kumush sifatlashlarining ijtimoiy-estetik vazifalari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2009. – № 1.
2. Ilon pari. O'zbek xalq fantastikasi. Sehrlı ertaklar. 3-kitob. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985. – B.60-61.
3. Jumaeva N. Ingliz va o'zbek ertaklarida sehrlı predmetlar obrazlantirilishiga xos spetsifik xususiyatlar: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022. – 55 b.
4. Samo tulpori. O'zbek xalq fantastikasi. V-kitob. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987. –B.122.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz ertaklarida oltin va tilla so'zining turli predmedlar orqali ifodalanib, sirlik, mo'jizaviylik xususiyatini tasvirlanishi ertaklar syujetlari misolida taxlil qilingan. Ushbu oltin bilan ifodalanish usuli ertaklardagi obraz va syujetlar sehr-joduga, g'aroyiblikka ega ekanligini keng yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье на примере сказочных сюжетов анализируется выражение слова «золото» в узбекских и английских сказках через разные предметы, описание загадочности и чудности. Этот метод выражения с помощью золота широко объяснил, что персонажи и сюжеты в сказках обладают волшебством и странностью.

SUMMARY

In this article, the expression of the word «gold» in Uzbek and English fairy tales through different objects, and the description of the mysteriousness and miraculousness, is analyzed on the example of fairy tales' plots. This method of expression with gold has widely explained that characters and plots in fairy tales have magic and strangeness.



СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОБУЧЕНИЯ РКИ В АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНЫХ НАПРАВЛЕНИЯХ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Рустамова Ф.М.

базовый докторант 1 курса

Андижанского машиностроительного института

Tayanch so'zlar: nutq faolligi, malaka, mahorat, muloqot, kasbiylik, yo'nalganlik, individuallik, informativlik.

Ключевые слова: речевая деятельность, компетентность, навык, коммуникация, профессиональная окраска, ориентированность, индивидуализация, информативность.

Key words: speech activity, competence, skill, communication, professional coloring, orientation, individualization, informativeness.

В Узбекистане проявляется особое отношение к русскому языку и его изучению. Производственно-экономическое, научно-техническое и культурное сотрудничество, длительность исторической традиции культурно-языковых связей узбекского и русского народов, непосредственное близкое соседство обусловили прочное утверждение преподавания русского языка на всех уровнях в системе образования Узбекистана. «Великая русская культура всегда была и будет неотъемлемой частью духовной жизни узбекского общества». В настоящее время изучение русского языка в нефилологических вузах является одной из основных учебных дисциплин. Где определены цели и задачи, базирующихся на последних достижениях методики преподавания иностранным языкам.

Современная методика обучения русскому языку в системе непрерывного образования развитие устной речи на всех уровнях, особенно в высших учебных заведениях, уделяет этому вопросу особое внимание. Образование сегодня национальные и межкультурные связи реципиентов, международное сотрудничество, подготовка к коммуникациям поставлена в качестве важного приоритета, умения и навыка устной речи студентов на изучаемом иностранном языке требует развития. В языкознании, если разговорная речевая деятельность изучается как языковой продукт, психология рассматривает его как речевой процесс, характерный для определенного индивида.

Психологические особенности проблемы развития разговорных навыков на иностранном языке хорошо были рассмотрены известными психологами как Гальперин П.Я., Леонтьев А.Н., Выготский В.В., Жинкин Н.И., И.А. Зимняя. Лингводидактические аспекты рассматривались такими лингвистами, как Пассов Е.И., Миролубов А.А., Милруд Р.П., Гальскова Н.Д., Гез Д.И., Бим И.Л., Бухбиндер В.А., Гурвич П.Б., Шукин А.Н.

Устная речь – это понимание потока, который происходит через звуки (аудирование) и таким же образом делиться своими мыслями с помощью звуков включает в себя умение говорить. Устная речь непрерывна, возникает через речевую ситуацию. Навыки устной речи в научной литературе и есть понятия компетентности. Леонтьев А.А. эти двоеоснова системы обучения иностранной устной речи определению понятий как: «навык – речевые операции, компетентность – определяется осуществлением речевой деятельности, при которой речевая деятельность –общение, включающее в себя цель, вытекающую из конкретной ситуации означает минимальную единицу» Итак, умение означает выполнение речевых операций на определенном уровне. Навык выполняется, осознанно является автоматизированным компонентом деятельности. Без участия сознания автоматизированная деятельность определяется как навык. Навыки устного общения находится на высоком уровне качества в этом процессе возникает только тогда, когда она достигает и виды речевой деятельности на данном этапе можно развивать навыки говорения и восприятия на слух.

Самым главным из важнейших требований, предъявляемых будущему специалисту – это развитие умения участвовать непосредственно в устной и письменной коммуникации в будущей профессиональной деятельности, характер и содержание, предопределённые главными особенностями той или иной сферы деятельности. Мы выделили основную цель обучения РКИ в архитектурно-строительном вузе – это подготовка конкурентоспособного специалиста, который готов к межкультурной профессиональной коммуникации, знающего иностранные языки, и который в ходе осуществления деловых встреч, международных проектов в инокультурных условиях и в иноязычной среде с легкостью ведет договора без помощи переводчиков.

Для формирования иноязычной компетенции архитекторов и строителей будущего необходимо расширить связи современных потребностей :

1)со сферой профессиональной деятельности(т.е. переговоры с зарубежными заказчиками, участие на международных проектах с презентациями, обмен опытом с иностранными коллегами в письменных и устных форматах);

2) деятельность в информационной среде (Internet, статьи в зарубежных изданиях, работа с профессиональной литературой на иностранном языке);

3) научно-исследовательской деятельности (поиск информации из зарубежных источников, выставки и конференции за рубежом, при защите дипломных проектов бакалавриата и магистратуры);

4) знание языка нужно для поступления на работу в престижные компании;

O'qituvchi darsdan tashqari mustaqil ishlarni bajarish uchun guruh tuzishda:

- topshiriqning maqsadini aniq aytib berish;
- talabalarga topshiriqning bosqichlari haqida ma'lumot berish;
- talabalarga maqsadga erishish uchun guruh a'zolarining o'zaro munosabatlari qanday bo'lishi kerakligini tushuntirish;
- topshiriqning mazmuni haqida savollar tug'ilganda talabalarga maslahat berish yoki guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash.



Shu bilan birga, dasturni ishlab chiqishda talabalar va o‘qituvchi o‘rtasida maslahatlashuv bevosita guruhda ham, oflayn va onlayn texnologiyalardan foydalangan holda ham amalga oshirilishi mumkin. Mustaqil ishlarida interfaol usullardan foydalanish tuzilmasi shakllangan (5-rasm).

5-расм. Mustaqil ishlarida interfaol usullardan foydalanish tuzilmasi

- **Loyiha usuli**

Loyiha usulida talabalar kichik guruhlariga birlashtirilib, masalan, ularni qiziqtirgan har qanday mavzu bo‘yicha sotsiologik tadqiqot dasturini yoki laboratoriya darsida eksperiment o‘tkazish sxemasini ishlab chiqadilar. Ushbu tahliliy ish mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini takomillashtirish, o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish va ularni tadqiqot ishlariga undaydigan bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Shu tarzda tashkil etilgan bunday loyiha faoliyati ko‘plab afzalliklarga ega. Ijobiy o‘zaro bog‘liqlik o‘zaro rag‘batlantirishga asoslangan munosabatlarni yaratadi.

Mustaqil ishni tashkil etishning yorqin namunasi bu nafaqat rejalashtirilgan darslarda amalga oshiriladigan, balki mustaqil ishlash va ijrochilarning o‘zaro ta’sirini rag‘batlantiradigan guruh loyihasi asosida o‘qitish texnologiyasidir.

- **Juftlikda mashq qilish usuli (sparring hamkorlik)**

Sparring (inglizcha sparring) - musobaqalarga har tomonlama tayyorgarlik ko‘rish maqsadida boks bo‘yicha mashg‘ulot jangi. Sparring-sherigi - turli o‘quv musobaqalarida raqib hisoblanadi. Shunga ko‘ra, sinfdan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etish shakli sifatida sparring-sheriklik bu musobaqada raqib rolini o‘ynagan talabalar o‘qituvchi tomonidan oldindan belgilab qo‘yilgan algoritm bo‘yicha vazifalarni bajaradigan juftlik ishining bir turi bo‘lib topiladi.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida interfaol ta’limni tashkil etishning asosiy qoidalaridan foydalanib, har xil turdagi darslarda interfaol usullardan foydalanish; ma’ruza, amaliy, seminar, laboratoriya darslari va mustaqil ishda interfaol usullarning asosiy imkoniyatlari ishlab chiqilgan. Oliy ta’lim muassasalarida interfaol ta’limni tashkil etishning asosiy qoidalari va shu

asosida uning tuzilmasi ishlab chiqildi. Ma'ruzalarda interfaol usullardan foydalanish, amaliy darslarda (seminarlarda) interfaol usullardan foydalanish, laboratoriya ishlarida interfaol usullardan foydalanish, mustaqil ishlarida interfaol usullardan foydalanish tuzilmasi ishlab chiqildi. Bunda asosan darslarda talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish, optimallashtirish va interfaol texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kuchaytirish ishlari olib borildi.

Adabiyotlar:

1. K.K. Seytnazarov, K.I. Kalimbetov. The processes of organizing teaching students' algorithms and models/ *academica: an international multidisciplinary research journal* 11 (2), 527-533
2. K.K. Seytnazarov, K.I. Kalimbetov. Информатика фанини ўқитишда самарали методларни танлаб олишда қарорлар қабул қилиш тизими/ *academic research in educational sciences 2 (cspi conference 1)*, 755-759
3. K.K. Seytnazarov, Development of decision-making algorithms based on irreversible mathematical calculations in the assessment of students' knowledge/ *nveo-natural volatiles & essential oils journal* nveo, 13717-13723
4. K.K. Seytnazarov, Б.К. Туремуратова. Применение технологии искусственного интеллекта в системе дистанционного образования/ *новости образования: исследование в XXI веке* 1 (1), 176-185
5. K.K. Seytnazarov, K.I. Kalimbetov. Informatika fanini o'qitishda samarali metodlarni tanlab olish va qarorlar qabul qilish dasturiy taminotini qayta ishlab chiqish/ *FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA ilmiy-uslubiy jurnal* Toshkent, 88-98.
6. K.K. Seytnazarov, Н.С.Мухиятдинов, М.М. Урынбаева. Искусственный интеллект и его применение в принятии решений: методы, алгоритмы и перспективы/ *Journal of Universal Science Research* 1 (6), 72-79
7. K.K. Seytnazarov, K.I. Kalimbetov. Qat'iyimas bo'lgan ma'lumotlarning ko'pligi sharoitida otm talabalarining bilimini baholashda qarorlar qabul qilish/ *Komputer texnologiyalari* 1 (10).
8. O.U. Arlayev, S.N.Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv uslubiy qo'llanma, Toshkent 2017.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishning asosiy qoidalaridan foydalanib, har xil turdagi darslarda interfaol usullardan foydalanish; ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya darslari va mustaqil ishlarida interfaol usullarning asosiy imkoniyatliri ishlab chiqilgan. Bunda talabaning muvaffaqiyatli o'rganishi uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida talim jarayonini individuallashtirish va differentsiallash, fikrlashni kengaytirish, tasavvurni rivojlantirishga qayta yo'naltirish uchun cheksiz mavjud bo'lgan imkoniyatlar va talabalarining bilishini samarali tashkil etish ta'minlangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается использование интерактивных методов на уроках разных типов с использованием основных правил организации интерактивного образования в высших учебных заведениях; Основные возможности интерактивных методов разработаны на лекциях, практических занятиях, семинарах, лабораторных занятиях и самостоятельной работе. В качестве основных процессов, необходимых для успешного обучения учащегося, предоставляются неограниченные возможности индивидуализации и дифференциации учебного процесса, расширения мышления, переориентации на развитие воображения, эффективной организации знаний учащихся.

SUMMARY

This article discusses the use of interactive methods in different types of lessons using the basic rules for organizing interactive education in higher educational institutions; The main capabilities of interactive methods are developed through lectures, practical classes, seminars, laboratory classes and independent work. As the main processes necessary for the successful learning of a student, unlimited opportunities are provided for individualization and differentiation of the educational process, expansion of thinking, reorientation to the development of imagination, and effective organization of student knowledge.



KAMBAG'ALLIKNING MOHIYATI VA IJTIMOIIY HODISA SIFATIDAGI XUSUSIYATI

Suyarov Z.E.

Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasida tayanch doktaranti

Tayanch soz'lar: kambag'allikni kamaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allik kamaytirish konsepsiyasi.

Ключевые слова: сокращение бедности, развитие предпринимательства, концепция сокращения бедности.

Key words: poverty reduction, entrepreneurship development, poverty reduction concept.

Kambag'allikni jarayon va belgi sifatida ko'rib chiqishda o'rganilayotgan hodisaning idrokini aks ettiruvchi frazeologik birliklarga e'tibor qaratish lozim: bir tiyin olish - oz pul topish; non topmoq; non olish - zarur tirikchilik qilish; tilanchilik qilish; qo'l uzatmoq; sadaqa so'rash ma'nosi bilan yashash, sadaqa bilan yashash, tilanchilik o'zlarining haqiqiy ma'nosida ikkita lisoniy ma'noni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi "kambag'allik" tushunchasiga ma'lum mezonlar asosida berilgan ta'riflar ushbu ijtimoiy hodisaning mohiyatidan faqat bittasini ("birinchi tartib", "ikkinchi tartib" va boshqalar) aks ettiradi. Albatta, hodisaning mohiyati qarama-qarshiliklarning birligi va o'zaro kirib borishi sifatida ochilmaguncha, hodisaning talqini haqida gapirish to'g'riroqdir. Faqat shu holatdagina hodisaning chegarasini, uning boshqa shunga o'xshash hodisalardan farqini topish mumkin. Hodisa chegarasi uning mezoni bilan almashtirilmasligi kerak. Mezon - bu hodisaning rivojlanish ko'rsatkichi, uning miqdoriy-sifat va sifat-miqdoriy o'lchovidir. Qoida tariqasida, hodisa uchun bir nechta mezonlar mavjud. Ular buni boshqa hodisalar bilan «bog'lashlari» mumkin.

Shunday qilib, psixologik mezon nuqtai nazaridan, «qashshoqlik ta'riflari» ning uchinchi guruhini emas, balki ikkinchi va to'rtinchisini ham izohlash mumkin, chunki barcha holatlarda muhim nuqta sub'ektning u yoki bu shakllarini idrok etishidir. Shuning uchun "kambag'allik" tushunchasining ta'rifi, albatta, uning substantiv asosini – ijtimoiylikni o'z ichiga olishi kerak. Kambag'allik bu ijtimoiylikning asosiy holatidir. Shuning uchun bu sotsiallik holatining mohiyatini topish, sotsiallikning o'zini, shu jumladan uning darajalarini aniqlash

kerak. Faqat ijtimoiy falsafa o'zining umumiy uslubiy funksiyasi, ijtimoiy bilishning fanlararo darajasiga chiqish qobiliyati bilan qarama-qarshiliklarning birligi sifatidagi hodisaning mohiyatini ularning boshqa hodisalar bilan xilma-xil munosabatlarida namoyon bo'lishi orqali ochib berish imkonini beradi. Masalan, kambag'allik iqtisodiy hodisa sifatida yoki ma'naviy, axloqiy-siyosiy hodisa sifatida nimani anglatadi? Bundan tashqari, kambag'allik uning qarama-qarshi tomoni - boylik orqali mavjud. Shuning uchun – biz kambag'allik va boylikning turli tushunchalarini tahlil qilishga murojaat qildik.

Kambag'allik inson mavjudligining belgisi sifatida tirikchilik, pul, uy-joy, oziq-ovqat, mulkning yetishmasligi, turmush darajasining juda pastligi bilan tavsiflanadi, shuningdek, halokat va qashshoqlik darajasiga yetish xususiyatiga ega. Shuningdek kambag'allikning juda og'ir darajasi qashshoqlik tushunchasi bilan izohlanadi.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan kambag'allik umidsizlik, iqtidorsizlik, qiyin vaziyatdan chiqishning mumkin emasligini anglatishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, inson hayotidagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni o'z ichiga oladi.

Kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida qaraladi - "farovonlikdan mahrum bo'lish", "tushkunlik", "kambag'al bo'lish", "rizq topish uchun mashaqqatli mehnat" kabi ma'nolarni anglatadi.

O'rganilgan materiallarga asoslanib, shuni ta'kidlash kerakki, «kambag'allik» talqini ijtimoiylikning individual darajasida beriladi. Biroq, u to'liq emas, chunki u hodisaning mohiyatini ham, uning chuqurligini ham ochib bermaydi. Qashshoqlik individual ijtimoiylik sifatida kambag'allarning majoziy xususiyatlari bilan mustahkamlangan iqtisodiy maqom, turmush tarzi asosida belgilanadi.

Kambag'allik belgilari bilan bir qatorda uning sabablari ham qayd etilgan:

- ▶ Bu insonning munosib, ba'zan esa to'g'ri yashashini ta'minlaydigan shart-sharoitlarning yo'qligi;
- ▶ Bu oddiy hayotni ta'minlamaydigan pul, oziq-ovqat, uy-joy yoki ularning ko'pchiligining yetishmasligi yoki kamligi.

Shu nuqtayi nazardan, kambag'allikning umumiy ta'rifi quyidagicha bo'ladi:

Kambag'allik - bu shaxsning pul, uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechakning zarur miqdorda yo'qligi yoki ularning to'liq yo'qligida namoyon bo'ladigan holati; bu holatda yashash qiyin, quvonchsiz va ma'nosiz shuningdek bunday hayot - baxtsizlik, qayg'uni keltirib chiqaradi.


Aslida kambag'allik yoki muhtojlik - shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sir, jamiyat tomonidan to'plangan ne'matlardan yetarli darajada

foydalanmaslik yoki ma'naviy foydalana olmaslik, shuningdek, ijtimoiylik sifatida qashshoqlikning barcha darajadagi ruhiy holati. Mavjud lug'at talqinlarida qashshoqlik tushunchasining mohiyati moddiy qadriyatlarga qaratiladi, ma'naviy tarkibiy qismi esa shaxsning ijtimoiy-psixologik farovonligiga, uning qashshoqligini aks ettiruvchi holatda tushiniladi. Bu kambag'allik o'zining moddiy mohiyatini «birlamchi» sifatida namoyon qilishini ko'rsatadi, bu hodisaning «birinchi tartib mohiyati»ni bilishda uning yagona mazmuni sifatida qabul qilinadi.

«Kambag'allik» tushunchasiga to'liqroq ta'rif berish uchun ushbu hodisaning iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tarkibiy qismlariga murojaat qilishning o'zi yetarli emas. Kambag'allik holatidagi insonning ijtimoiy farovonligi, ijtimoiy og'ishlar, ijtimoiy chetlanish, ijtimoiy keskinlik insonning o'z mavqeyiga, uning hayotiy strategiyasiga munosabatini shakllantirish jarayonini belgilovchi omillardan biridir. Biroq, inson, ijtimoiy guruh, jamiyat, sivilizatsiya mavjudligida moddiy va ma'naviyatning birligini tushinishi muhimdir, aks holda «qashshoqlik» tushunchasi uning ijtimoiy hodisasini aks ettirmaydi. Aytish mumkinki, qashshoqlik vaqtinchalik dolzarb hodisadir, ya'ni u butun insoniyat tarixi davomida ijtimoiylikning bir qismi sifatida mavjud bo'lib, muayyan shaxslarga, hatto xalqlarga nisbatan ham vaqtinchalik, beqaror bo'lishi mumkin. Bu hodisa ham o'ziga xos ijtimoiy makonga ega, chunki

u daromadlar birligi, moddiy va ma'naviy hayot darajasi, ijtimoiy, jumladan, shaxslararo munosabatlar tizimidagi o'rni obro'-e'tibori orqali belgilanadi.

Kambag'allikning ruhiy holati muammosi ham uning tabiati muammosi, ham mohiyati muammosidir. Agar kambag'allik o'zining ma'naviy tabiati bilan tavsiflansa, u yuksak axloq, ezgulik yaratish, haqiqatni izlash, go'zallikni ta'kidlashda namoyon bo'ladigan insonning yaxlit tizimining buzg'unchi holatini bildiradi. Qashshoqlik ma'naviyatining muhim tarkibiy qismi insonparvarlik, adolat,



zulmning barcha shakllaridan ozod bo'lish, shaxsni, xalqlarni, davlatlarni bostirish tamoyillarini tasdiqlovchi konstruktiv bo'lishi mumkin.

Kambag'allikning mazmuni va sabablarini ijtimoiy hodisa sifatida aks ettiruvchi kambag'allik modeli kambag'allik va boylikning darajalararo taqsimlanishining quyidagi grafik diagrammasi ko'rinishida ifodalanishi mumkin:

Demak, kambag'allik va boylik ijtimoiylikning uch darajasidagi ijtimoiy hodisadir:

- ▶ shaxslar sifatida;
- ▶ interdividuallik sifatida (oila, etnik guruh, ijtimoiy guruh);
- ▶ yuqori individlar sifatida (jamiyat, sivilizatsiya, din, siyosat, huquq, axloq va boshqalar).

Individuallikning barcha darajalarida kambag'allikning tashuvchisi shaxs bo'lib, uning qashshoqligi kambag'al jamiyat, oila, kambag'al odamlar yoki millatning oqibatidir.

Shuning uchun, kambag'al odam - umumiylikning tashuvchisi, lekin ko'pincha uning mazmunining to'liqligida emas. Demak, kambag'al yoki boy odam qashshoqlik yoki boylikni tavsiflovchi bir yoki bir nechta belgilar bilan ajralib turadi: iqtisodiy (moddiy) kambag'al, ma'naviy kambag'al va boshqalar. Qarama-qarshiliklarning birligi odatiy emas: moddiy jihatdan kambag'al, lekin ma'naviy jihatdan boy, muayyan ijtimoiy-madaniy vaziyatlar yoki tarixiy sharoitlar uchun tavsiflanadi.

Ushbu masalalarni tushunish uchun qashshoqlikning ijtimoiy hodisa sifatida mohiyatini tushunish muhimdir. Kambag'allikning tabiati uning tarkibiy elementlarining integratsiyalashuv asoslari bilan belgilanadi. Bunday holda, «qashshoqlik» va «boylik» har qanday tizimning atributiv xususiyatlari sifatida ishlaydi - tabiiy va ijtimoiylikni aks ettiradi. Agar tabiatga murojaat qilsak, bir hujayrali organizmlarning hayotiy faoliyati «oddiy», ya'ni kambag'al tuzilish bilan tavsiflanadi. Yuqori hayvonlarning moddiy va ideal tabiatining tizimli-strukturaviy mazmuni yanada boy.

Jismoniy va aqliy rivojlanish «me'yorlari» dan og'ish bilan tug'ilgan yoki ularni hayoti davomida «qabul qilgan» va nogiron bo'lgan odam sog'lom odamning jismoniy va aqliy tabiatiga (sog'liq) nisbatan tuahkun xarakterga ega. Demak, kambag'allikning individual ijtimoiylik sifatidagi tabiati antroposotsiologik va sotsial-antropologik xususiyat kasb etadi. Birinchi holda, u insonning biosotsial mavjudligi bilan ko'rsatsa, ikkinchisida esa sotsiobiologik xususiyati bilan bog'liq.

Individlararo ijtimoiylik sifatida kambag'allikning tabiati etnosotsial va sotsial-etnikdir mohiyatga ega. Etnik guruhlarning qashshoqligi ko'pincha tabiiy resurslarning mavjudligi va ishlatilishi, iqlim xususiyatlari, yashash joyi bilan belgilanadi va an'ana va urf-odatlarga bog'liq. Biroq, insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi bilan ijtimoiy tarkibiy qism shaxslararo ijtimoiylik xarakterida kuchayib boradi, bu esa ijtimoiy komponentning o'z tabiatida hal qiluvchi omilga aylanishini ko'rsatadi. Masalan, barcha xalqaro hujjatlarda «kambag'al» deb atalgan Afrikaning ba'zi xalqlari mustamlakachilik natijasida shunday muhtojlikka yuz tutgan.

Kambag'allik (shuningdek, boylik) o'z mohiyatiga ko'ra moddiy-ma'naviy va ma'naviy-moddiy hodisadir yig'idisidir. Birinchisi, hayotiy vaziyatlar bilan belgilanadi: moddiy va ma'naviy qadriyatlarga kirish, ularni iste'mol qilish imkoniyati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi - tarixiy, umuman vaqtinchalik sharoitlar, ularda asosiysi ma'naviy amaliy ehtiyojlar ishlab chiqilganligi bilan bog'liq.

Ma'lumki, tushunchaning mohiyati hodisaning chuqur ichki holati, qonunga yaqinligidir. Ikkinchisi - barqaror, bir xil, umumiy, berilgan sharoitlarda zarur bo'lgan harakatni holatini bildiradi. Mohiyat har doim G.V.F.Gegel aytganidek, hodisaning mazmunini yashiradi, lekin shu bilan birga, u turli xil ko'rinishlarda hodisalar murakkabligiga qarab farqlanadi. Mohiyatni bilish oson emas, chunki u ko'p darajalarga ega, ya'ni unda turli tartiblar mavjudligidadir. Shuning uchun ham kambag'allik fenomenining ijtimoiy hodisa sifatida mohiyatini ochib berish uchun faqat sotsiologik, siyosatshunoslik, sotsial-psixologik, tarixiy tadqiqotlar yetarli emas.

Kambag'allikning o'ziga xos xususiyati	Boylikka xos belgilar
Past va qoniqarsiz turmush darajasi; mahsulotlarning qisman erishib bo'lmasligi sababli kam iste'mol qilish va buning natijasida ehtiyojlarni qondirishning past darajasi; oz miqdorda yoki hatto bo'sh vaqtning to'liq yetishmasligi; daromadlarni irratsional taqsimlash; ijtimoiy izolyatsiyaning yuqori darajasi; «o'z-o'zidan chekinish» reaksiyasi va sodir bo'layotgan narsaga passiv munosabat.	yuqori hayot sifati; ularning daromadlarini to'laqonli taqsimlash; yetarli miqdorda bo'sh vaqtning mavjudligi va undan bepul foydalanish, shu jumladan jamiyatda o'z mavqeyini saqlab qolish va bilim darajasini oshirish uchun sarmoya; faol hayot pozitsiyasi.

Kambag'allik va boylik tushunchalarini tahlil qilish ushbu shartlarni tavsiflovchi asosiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Сидорова В.А. Влияние адресной социальной помощи на изменение уровня, глубины и остроты бедности. 2004г.
2. Словарь гендерных терминов (Интернет-версия под ред. В.И. Калабихиной)
3. Бедность: взгляд ученых на проблему. М., 1994
4. Воронков В.М., Фомин Э.А. Типологические критерии бедности. – Социологический журнал. 1995, № 2
5. Сычова В.С. Определение и измерение бедности: история вопроса. – Социологические исследования. 1996, № 3
6. Ярошенко С. Теоретические модели бедности. – Рубеж. 1996, № 8–9

РЕЗЮМЕ

Kambag'allikning yuqori darajasi ham jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sababdir. Bu, eng avvalo, hukumatga ishonchning kamligi va kam daromadli guruhlarning mavjud muammolarini hal qilishga qodir emasligi bilan bog'liq. Mazkur maqolada kambag'allikni kamaytirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari bayon qilinadi.

РЕЗЮМЕ

Высокий уровень бедности также является причиной обострения социальных конфликтов в обществе. Это связано, прежде всего, с недостаточным доверием к правительству и неспособностью решить существующие проблемы групп с низкими доходами. В данной статье излагаются социально-философские основы сокращения бедности.

SUMMARY

High levels of poverty are also a factor in social tensions. This is primarily due to a lack of trust in the government and the inability of low-income groups to address existing problems. This article discusses the socio-philosophical foundations of poverty reduction.



TA'LIM FALSAFASI: YANGI BILIM SOHASINI SHAKLLANTIRISH YO'LIDA

Мухтарова Т.

Тошкент давлат техника университети доценти

Tayanch so'zlar: ta'lim falsafasi, ta'lim fanlari, ta'lim falsafasining kelib chiqishi va tarixi.

Ключевые слова: философия образования, науки об образовании, возникновение и история философии образования.

Key words: philosophy of education, sciences of education, origin and history of philosophy of education.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Ta'lim tizimini isloh etish jarayonida o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, jamiyatdagi maqomini ko'tarishga alohida e'tibor qaratilib, ta'lim va tarbiya masalasi mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanini amalda isbotlandi. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish, ertangi kunimizning munosib davomchilarini kamolga yetkazishning mustahkam tashkiliy-huquqiy mexanizmi, nazariy va siyosiy nuqtai nazardan ilmiy va falsafiy ta'limotga asoslangan ta'lim doktrinasini yaratildi.

Sog'lom zurriyot, ya'ni jismoniy va ma'naviy yetuk avlodning shakllanishi va uning o'z imkoniyat va salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur tizimning yaratilganligi, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib, xizmat qilishi lozim. asoslanib berildi. Bugungi kunda mamlakatimizda mustaqil va erkin fikrlaydigan, dunyo ilmi-fani yutuqlarini puxta o'zlashtirib, zamon bilan hamohang bo'lib yashashga tayyor bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada barcha kuch-qudrat va imkoniyatlarning safarbar etilishi o'zining amaliy natijalarini berdi.

O'zbekiston ta'lim-tarbiya sohasida jahonda yetakchi o'rinlarni egallab borayotganligini nufuzli xalqaro ekspert va tahlil markazlari ham e'tirof etmoqdalar. Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmogda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

Yurtimizda xalqimizning qadimdan istiqlolimizgacha yaratgan ta'lim-tarbiya tizimi o'zining har bir davrida ham goh yuksalish, goh pasayish holatlarini boshdan kechirdi. Xalq yaratgan ta'lim-tarbiya tizimi rivojiga to'siqlar ham qo'yildi. Farzand ta'limi, tarbiyasi har bir davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Qarshiliklar, ziddiyatlar va muammolarga qaramasdan bu tizim har vaqtda ham o'z davriga xizmat qildi. Hatto, IX-XII va XIV-XV asrlarda bu tizim barcha sohalar singari yuksalishni boshdan kechirdi. Yurtimiz ta'limi rivojida shunday bir davrlar bo'ldiki, ichki nizolar, boshboshdoqliklar, o'zgalar qo'liga qaramlik va astari ag'darilgan mustamlakachilik davrlarida xalqimizning ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga keraklicha ahamiyat berilmadi, mustamlakachilar esa bobolarimiz, momolarimizning o'zlariga zarur bo'lgan ta'lim-tarbiya olishlariga to'sqinlik qildilar, imkon qadar bu xalqdan bilimli kishilarni chiqishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildilar. Oqqan daryo oqaveradi. Ana shunday og'ir davrlarda ham halqimiz ichidan yetishib chiqqan milliy ziyolilarimiz (jadidchilarimiz) ikki mustamlaka davrida ham o'zlarining ilmlilik, tarbiyalilik qudrati bilan o'lkamizni ma'rifatli, ma'naviyatli bo'lishi uchun kurashdilar va bu yo'lda jonlarini fido etdilar.

Ta'lim-tarbiya kuchini, uning taraqqiyot uchun ahamiyatini chuqur anglagan bu tolmas, jasur va mard inson istiqlol bergan imkoniyatlar tufayli ta'lim va tarbiyani ustuvor sohaga aylantirdi. Buyuk davlatni barpo etishga qodir barkamol avlod -mustaqil insonni tarbiyalash uchun zarur bo'lgan barcha iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy shart-sharoitlar mustaqillik yillarida yaratildi, barcha sohalarda yoshlar huquqlarini himoya qilish maqsadida tegishli tashkiliy-huquqiy asoslar to'la shakllantirildi. Ayni chog'da ushbu huquqiy asosni yanada takomillashtirish ishlari davom etmoqda. Qabul qilinayotgan qonunlar, me'yoriy huquqiy xujjatlar zamirida yagona g'oya mujassam. U ham bo'lsa, sog'lom zurriyot, ya'ni jismoniy va ma'naviy yetuk avlodning shakllanishi va uning o'z imkoniyat va salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur tizimning yaratilishi, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishi, jamiyat hayotida o'z o'rnini egallashini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Birinchidan, biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun

yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak.

Ikkinchidan, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovasiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib, xizmat qilishi lozim.

Uchuinchidan, yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish.

To'rtinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham «Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir», deya ta'kidlagani mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu - ilm-fan, ta'lim va tarbiya ekanligini ko'rsatib berdi» O'z nutqida dunyo miqyosidagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yaratish, ta'lim maskanlarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, soha xodimlarining ish haqini bosqichma-bosqich oshirib borishga alohida e'tibor qaratilishi ta'kidlandiki, bu bundan keyin ham ulaming mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash doimiy e'tibor markazida bo'lishidan dalolat beradi.

Sog'lom avlod deganda, avvalo, sog'lom nasl, jismonan baquvvat, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlod tushuniladi. Bugun bunday avlodning munosib ta'lim va tarbiya olishi, o'zi sevgan kasb - hunarni egallashi uchun zamonaviy mebel, o'quv- laboratoriya uskunalari bilan jihozlangan, kompyuter sinflari va lingafon xonalari tashkil etilgan yangi ta'lim maskanlari barpo etish ishlari nihoyasiga yetkazildi. Doktrina - bu, mazmun jihatdan alohida ta'limotdir. Masalan, harbiy doktrinada yadro qurolidan voz kechish tinchlik uchun xizmat qilsa, ta'lim sohasidagi doktrinada esa o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar o'rtasidagi aniq strategiyani belgilab berishga yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, Ta'lim to'g'risidagi kodeksni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, mamlakatimiz xalq ta'limi tizimiga rivojlangan davlatlar tajribalarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Asosiy maqsad - maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish, davlat-xususiy sherikchilik va xususiy sektor resurslaridan keng foydalanish, «fuqarolarni butun umri

davomida o'qitish» modelini hayotga tatbiq etish, aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinishini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazishdir.

Bugungi yoshlar ulg'ayib kamolga yetgach, ularning o'rnini keyingi avlod egallaydi. Demak, jamiyatning asosiy kuchi, kelajagi bo'lgan yosh avlod tarbiyasi, ta'limi masalasi hech qachon kun tartibidan tushmaydi. Bu esa erishilgan muvaffaqiyatlar bilan qanoatlanib, xotirjam o'tirmaslik, yoshlar bilan ish olib borishni bir lahza bo'lsa-da, susaytirmaslik, bosib o'tilgan yo'lni xolisona va tanqidiy baholashni talab etadi. Chunki jadal taraqqiy etayotgan bugungi dunyoda faqat va faqat tinimsiz harakat natijasidagina istiqboldagi maqsad - mamlakatni taraqqiy etgan davlatlar safiga kiritish, xalqimiz uchun munosib farovon hayot sharoitlarni yaratishga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod-moliya. 2010.
2. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика назарияси ва амалиёти. Дарслик. -Т.: «Сано-стандарт», 2017, 417.
3. Хуторской А.В. Педагогика. Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения. - СПб: Питер. 2019. - 608 сс. ил - (Серия «Учебник для вузов»).
4. Yoldoshev J., Yo'ldosheva F., Yoldosheva G.. Interfaol ta'lim sifat kafolati. -T., 2009.
5. Saifnazarov, I., Abdullahanova, G., Alimatova, N., Quدراتova, U. (2020). The main trends of increasing the role of the teacher in the innovative development of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology. 29(5), 11711173.
6. Saifnazarov, I., Muhtarov, A., Sultonov, T., Tolibov, A. (2020) Religious tolerance, unity of knowledge and faith issues highlighting in Imam Bukhari Hadiths. International Journal of Advanced Science and Technology 29 (5), pp. 1846-1853.

РЕЗЮМЕ

Maqolada ta'lim falsafasining ilmiy bilimlar tarmog'i (predmeti, vazifalari, metodologiyasi) sifatida institutsionalizatsiya jarayoni, uning inson va jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi, erishilgan natijalar tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается процесс институционализации философии образования как отрасли научного знания (предмет, функции, методология), ее значение на современном этапе развития человека и общества, анализируются достигнутые результаты.

SUMMARY

The article discusses the process of institutionalization of the philosophy of education as a branch of scientific knowledge (subject, functions, methodology), its significance at the present stage of development of a person and society, and analyzes the results achieved.



TA'LIM TARBIYAGA OID FALSAFIY QARASHLAR

Aripova Z.

Andijon mashinasozlik instituti

Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa bo'yicha

Tayanch so'zlar: falsafa, matematik, ong, materiya, moda, atribut, shubha, fikrlash, tasavvur.

Ключевые слова: философия, математика, разум, материя, мода, атрибут, сомнение, мышление, воображение.

Key words: philosophy, math, mind, matter, fashion, attribute, doubt, thinking, imagination.

Falsafiy qarashlar (falsafiy paradigmalarni ham deyish mumkin) o'zgaruvchan savollar va muammolarga qarab dunyoni tushuntirish, shaxsiy va ijtimoiy mavzularda fikrlash va izlanish jarayonlarini aniqlashda yordam beradigan umumiy rivojlanish oqimlari hisoblanadi. Dunyoni tushuntirish, tarbiya, ta'lim, madaniyat, tabiiy fanlar, siyosiy tizimlar va boshqa ko'plab sohalar fikrni ta'lim qilishda va dunyoqarashi olishda alohida falsafiy qarashlarga ega.

Quyidagi ta'lim tarbiyaga oid bir nechta muhim falsafiy qarashlar mavjud:

1. Individualizm: Bu qarash o'quvchilarni o'zlari vaulari bilan aloqador ekanligini, ularning o'ziga xos o'ziga mahsus yondashuvlari va maqbuliyatlarini tan olishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu shaklda o'qituvchilar har bir o'quvchiga moslashtirilgan o'quv yo'laklarini taqdim etish, ularning individual talablarini tushunish va rivojlantirishga oid muhit yaratishga intiladi.

2. Progressivizm: Progressivizm ta'limning bir paytlaridan boshlab o'quvchilarning faoliyatlariga, fikrlariga va jamiyatga qiziqishiga asoslangan bo'lib, tarbiyaning natijaviy, o'quvchilarga yo'naltirilgan, foydali va samarali bo'lishini ko'rsatadi. Bu qarash o'quvchilarni jadallashishga, o'z fikrlarini ifoda qilishga, maqsadli va unchalik mustaqil o'rganishga rag'batlantiradi.

3. Demokratik tarbiya: Bu qarashda o'quvchilar o'z fikrlarini ifoda qilish, qatnashish va o'zgara olishga ruxsat beruvchi muhit yaratish asosida o'rganishga rag'batlantiriladi. O'quvchilar madaniyat va qonunlarga ishonch, jamiyatdagi huquq va maslahatlarga hurmat va jamiyatda qatnashishning asosiy qoidalarini o'rganishadi.

4. Konstruktivizm: Konstruktivizm o'quvchilarning o'z bilim va ma'rifatlarini o'zgartirish va rivojlantirishda o'z ishtirokini kuchaytiradi.

O'quvchilar bilimni o'z fikrlari va o'ylagan narsalari asosida qurish va qo'llab-quvvatlash jarayonida samarali o'rganishlarni o'rnatishda foydalaniladi.

5. Sotsial tarbiya: Bu qarashda o'quvchilar o'zaro hamkorlikni, ijtimoiy hamkorlikni, jamiyat va mehnat bilan bog'liqlikni rivojlantirishning o'ziga xos usullari qo'llaniladi. Sotsial tarbiya yordamida o'quvchilar huquq va majburiyatlarini tushunish, o'z fikrlarini qo'llab-quvvatlash va jamiyatga foydali bo'lma qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

6. Humanizm: Bu qarash o'quvchilarni insoniyatga hurmat va uning o'ziga xos huquqlari, farzandona tarzda ko'rish, o'ziga ishonish va ehtirom qilishga rag'batlantiradi. O'quvchilarni insonchilik, muxofaza va adolat asosida o'rgatish bilan bog'liqdir.

Bu ta'lim tarbiyaga oid falsafiy qarashlar jamiyat va madaniyatning yanada rivojlantirilishi bilan ham o'zgarishi mumkin. Ta'lim tizimlaridagi falsafiy qarashlar tarbiyaning o'quvchilarning yuqori unumdorlik va fuqarolikka erishishiga qaratilgan muhim yo'nalishlardan biridir.

«Ta'lim tarbiyaga oid falsafiy qarashlar» ta'rifga oid ekan. Bu, o'quv jarayonini va insonning shaxsiy qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liq falsafiy muammolarni o'rganuvchi so'z.

Tarbiya va ta'lim o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ta'minlash va insonning shaxsiy rivojlanishini o'rganuvchilardir. Bu haqda turli soha olimlari o'z fikrlarini bayon qilganlar. Bu masalani tahlil qilish uchun turli falsafiy yo'nalishlar mavjud.

1. Idealizm: Bu yo'nalishga asosan o'quvchining ruhiy va ma'naviy rivojlanishi e'tibor beriladi. Idealistlar ta'lim jarayonini o'quvchining g'ayri jismiy qismi bilan bog'lashadi va o'quvchining ma'naviy xususiyatlari va rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

2. Materializm: Materialistlar esa ta'lim jarayonida material va jismoniy omillarni muhim ko'radilar. Ular o'quvchilarni bu dunyodagi jismoniy ahamiyatga asoslangan obyektlar va omillar bilan ta'minlashni muhim deb hisoblaydilar.

3. Progressivizm: Progressivistlar ta'lim jarayonini o'quvchining ijtimoiy va madaniy muhitiga moslashtirishga erishishga qaratadilar. Ularga ko'rsatilgan ta'limning amalga oshirishidagi muhim vazifalar o'quvchining ijtimoiy va shaxsiy maslahatlarini hisobga oladi.

4. Kognitivizm: Bu yo'nalishda o'quvchilarning fikrlash va ma'lumot olish jarayonlariga e'tibor beriladi. O'quvchilar o'z o'ylarini va g'oya jihatlarini rivojlantirish va o'zlarining o'rganish jarayonini tashqi rivojlanishning eng muhim qismi sifatida ko'rishadi.

5. Humanistik ta'lim: Bu falsafiy qarash o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, mehnat va rivojlanishiga qaratilgan e'tiborni o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayoni o'quvchilarni insoniy va ruhiy tomonlari bilan ta'minlashga qaratiladi.

6. Konstruktivizm: Konstruktivistlar o'quvchilarning o'z bilimlarini va ma'lumotlarini o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonida faol ishtirokini rag'batlantirishga e'tibor beradilar. Ular o'quvchilarni o'z bilimlarini o'rgatishni o'zlashtirish va tashqi alomatlariga bog'lash orqali o'rganishiga qaratilgan e'tiborni beradilar.

Ushbu qarashlar ta'lim tarbiyaning turli yo'nalishlaridir va ulardan har biri tarbiya va ta'lim jarayonlariga belgilangan muammolar yechishda o'zining erkin o'ziga xosliklarini taqdim etadi. O'quvchilarni shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishlariga ko'maklashishda har bir qarash o'ziga xos kuchga ega. Tarbiya va ta'lim sohasida shunday turli qarashlarni keng qo'llash va muhokama qilish o'quv tizimini yanada rivojlantirishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. D.Po'latova, G.M Ro'zmatova. G'arb falsafasi tarixi.—T.: “Fan va Texnologiya”, 2018,516 83-84-betlar
3. Abdulla Sher, Husanov B, Umarov E. Estetika. T. O'ZMU, 2008. 178 b
4. Umarov E. Estetika. T. O'ZMU, 2014. 172 b
5. Pulatov, Sh., Madalimov, T., Mullajonov, I., Qodirov, M., & Valiyev, L. (2020). Some Characteristics of Modern Indian Philosophy. International Journal of Multidisciplinary Research and Publications, 2(11), 47-49

РЕЗЮМЕ

Ta'lim tarbiyaga oid falsafiy qarashlar dunyodagi har bir milliy ta'lim tizimi va madaniyatiga qarashlar asosida o'zgaradi. Bu falsafiy qarashlar ta'lim tizimlarini rivojlantirish, o'quvchilarni yetishtirish, o'rganish usullarini belgilash, madaniy va ma'rifatni o'rnatishning boshqa ko'rsatkichlarini aniqlashda ahamiyatga ega.

РЕЗЮМЕ

Философские взгляды на образование различаются в зависимости от взглядов каждой национальной системы образования и культуры в мире. Эти философские взгляды важны при разработке образовательных систем, обучении студентов, определении методов обучения и других показателей становления культурно-просветительской деятельности.

SUMMARY

Philosophical views on education vary according to the views of each national educational system and culture in the world. These philosophical views are important in developing educational systems, training students, defining learning methods, and determining other indicators of establishing cultural and enlightenment.

TA'LIM-TARBIYAGA OID SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY VA AXLOQIY QARASHLARI

Kurbonova N.

Andijon mashinasozlik instituti

Gumanitar fanlar kafedrası dotsenti

Tayanch so'zlar: axloqiy qoida, tarbiya, odob, barkamol inson, insonparvarlik, ma'naviy fazilatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyat, milliy tafakkur, islom madaniyati.

Ключевые слова: нравственное правило, воспитание, нравы, совершенный человек, гуманизм, духовные качества, общечеловеческие ценности, национальная ценность, национальное мышление, исламская культура.

Key words: morality, education, manners, harmonious human being, humanity, spiritual qualities, universal values, national values, national thinking, Islamic culture.

Tarbiya o'z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o'z farzandlarimizni baxti-saodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo'lib etishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy qo'rg'oni bo'lmish o'z oilamizning mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. «Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganishda ta'lim tizimi imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratishlozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega». Ular o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarni bayon qilganlar. Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlariga ega bo'lishga barchani chorlaydilar. Ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday

tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib: «Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz» Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: «Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq» [11] deya ta'kidlab o'tdi.

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. «Tarbiya» so'zi arabcha «robba» fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar «tarbiya»ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: «Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir» Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif qiladi: «Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat ila o'stirishdir» Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng

mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas'uliyati bardavom bo'ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne'matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mublag'a qilmagan bo'lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o'z odobi bor. Dunyodagi odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'piligini Islom halqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda zarracha mublag'a yo'q. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda.

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, «Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylik manbai hisoblanadi» [2:47]. Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafikkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini istaydi, o'zlari eta olmagan orzu-umidlariga bolalarining etishligini o'ylaydi. Bolalarning har bir yutug'idan quvonishadi, mag'lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko'rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi.

Ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalishini tubdan o'zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishning birinchi sharti - unga bir butun tizim sifatida yondoshish va shunga muvofiq, ish olib borishdan iboratdir. Yosh avlodda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'alarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o'zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi,

tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi.

Adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: «Hilol-nashr» 2013 y.
2. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.
3. San'at - yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y.
4. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. T.: 2016 y.
5. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017 yil, 5-son.

РЕЗЮМЕ

Maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, islomda bolalar tarbiyasi to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются взгляды восточных мыслителей на вопросы воспитания и нравственности, воспитания детей в исламе. Также знание воспитательных методов и средств внедрения идей, взглядов и идей восточных мыслителей в творчество молодого поколения, их правильное использование в жизни является одной из важных особенностей педагогического мастерства учителя в процессе воспитания. педагогическое образование.

SUMMARY

The article deals with the views of Eastern thinkers on education, morality, and the upbringing of children in Islam. Also, one of the important features of a teacher's pedagogical skills in the process of pedagogical education is the knowledge of the methods and means of education in the creative activity of Eastern thinkers, the methods and means of education in the minds of the younger generation. revealed that.

G'ARB VA SHARQ FALSAFASI OLIMLARINING TA'LIM - TARBIYA HAQIDA QARASHLARI

Odilov K.

Andijon chet tillar instituti dotsenti

Tayanch soʻzlar: komillik, aql-zakovat, axloqiy tarbiya, tarbiya omili, axloq.

Ключевые слова: совершенство, интеллект, нравственное воспитание, воспитательный фактор, нравственность.

Key words: perfection, intelligence, moral education, educational factor, morality.

Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy va ma'rifiy jihatdankamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o'tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o'zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyoti belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o'zini anglashiga olib keladi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o'zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so'nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me'yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'li bu – namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo'lishi kerak.

Maktabda va oliy o'quv yurtida muallimlarining ta'lim berish usullaridan tortib ularning ko'z ilg'amas xatti-harakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna sifatida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim.

Qadimgi Xitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida Konfutsiyning qarashlari ham alohida o'rin tutadi. u qadimgi Xitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarning rivojiga katta hissa qo'shgan. Mutafakkirning "Aforizmlar" asari teran falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar markaziy o'rin tutadi. Qadimgi ajdodlarning urf-odatlarini, meroslari, tariqatiga tayangan Konfutsiy o'tganlarning shuhrati ularning avlodlarini yuksaltiradi, deb jamiyatning haqiqiy negizi, poydevorini yanada mustahkamlash uchun qadimgi urf-odat, an'ana, milliy marosim va

bayramlarimizning, ajdodlarimizning tarixiy xotiralarining tiklanishi borasidagi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarimizda ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari. Ta'lim-tarbiya, Insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ochib beriladi. Shu jumladan, Islom olamining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim" da ham komillikning beshta tamoyili komillikka erishish uchun talab etiladi:

1. Mehnatim muhabbatim.
2. Ma'rifatim sarmoyam.
3. Dinim aqlim.
4. Ilmim qurolim.
5. Sabru qanoat libosim.

Sharqning qomusiy mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiy (873- 950) insonni har tomonlama takomillashtirish, ularni umumiy baxt-saodatga yetaklash yo'llari va usullarini o'zining ijtimoiy-siyosiy ta'limoti markaziga qo'yadi, bu esa uning dunyoqarashlarning umuminsoniy asosga egaligidan dalolat beradi. Aynan shunday maqsadlar Forobiyning shaxsni tarbiyalash va ta'lim berish, uni takomillashtirish hamda uning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi faol rolga nisbatan dunyoqarashlarining bosh mazmunini tashkil etadi.

Uning fikriga ko'ra, ta'lim va tarbiya oilada, o'qituvchi yordamida maktabda va yaxshilikka asoslangan jamiyatda uning rahbari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Forobiy fikriga ko'ra, ta'lim bu nafaqat aqliy rivojlanish, balki umuman ma'naviy rivojlanish, shu jumladan axloqan rivojlanish poydevoridir. Ta'lim va tarbiya o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, ular shaxsni ma'nan kamolotga yetkazuvchi turli yo'llar hisoblanadi.

Forobiy ijtimoiy tarbiyani tartibga solish, uni boshqarish masalalariga alohida e'tibor bergan. U mehnat faoliyati tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi, degan fikrga kelgan.

Ibn Sino (980 - 1037) pedagogika masalalariga ijodiy yondashgan. U bola tabiatini nafaqat tabib, balki yetuk pedagog sifatida ham chuqur bilishini namoyon qilgan. Olimning bolalarga ta'lim va tarbiya berish haqidagi ko'plab fikrlari o'zining chuqurligi, insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilganligi va tarbiyadek murakkab muammoni to'g'ri talqin qilishi bilan kishini lol qoldiradi.

Ibn Sino taklif qilgan tarbiya va ta'lim mazmuni aqliy tarbiya, jismoniy sog'lomlashtirish, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya va hunar o'rgatishni o'z ichiga oladi. Ibn Sino bola tarbiyasining butun mashaqqati va murakkabliklarini juda chuqur tushungan. «Tib qonunlari «ning «Tarbiya haqida» nomli bo'limida

qo'yilgan masalalar aniq hal etiladi, bola xarakterini tarbiyalash haqida qimmatli fikrlar bildiriladi.

Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik ijodida oilaviy tarbiyaga alohida e'tibor qaratiladi va bunda bosh rol oila boshlig'i ya'ni otaga beriladi. Ibn Sino nima uchun bolani onasi emas, balki tarbiyachi tarbiyalashi lozimligini tushuntirib beradi. Uning fikrlariga qaraganda, bolaning onasi o'z farzandi tarbiyasida ko'proq hissiyotlarga beriladi va bola tarbiyasida to'g'ri yo'lni tanlay olmaydi. Ibn Sino tarbiyachi oldiga aniq vazifalarni qo'yadi: u o'z shogirdini qachon jazolashi yoki rag'batlantirishi mumkinligini yaxshi bilmog'i lozim.

Ibn Sino bola shaxsini hurmat qilish, bolaning tabiiy yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda uning qiziqishlarini o'rganishga chaqiradi. U yoshga qarab davrlarga bo'lib chiqishga harakat qilgan. O'smirlikkacha bo'lgan davrni u beshta davrga bo'lgan: chaqaloqlik (bola tug'ilganidan boshlab yo'lga yurib ketgunicha bo'lgan davr); bolalik davri (yo'lga yurgandan so'ng); organizm chiniqqani va qoziq tishlari chiqqanidan keyingi davr; o'smirlik va jinsiy yetilish davri; o'smirlik davri (o'sish to'xtatuguncha bo'lgan davr).

Ibn Sino bola tarbiyasining barcha murakkabliklari va qiyinchiliklarini tushungan. U jismoniy jazoning me'yoridan ortib ketishiga qarshi chiqqan. Uning fikriga ko'ra, risoladagidek tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun arbolalarga insoniy munosabatda bo'lish darkor. Tarbiyachining o'zi bola shaxsini hurmat qilishi, uni sevishi va bola bilan yaxshi munosabatda bo'lishi lozim. Ibn Sino tarbiya omilining ahamiyatini chuqur anglagan va ijobiy omil mahamiyatini juda qadrlagan, uni tarbiyaning asosiy vositalaridan biri deb bilgan.

Suqrot (eramizdan oldingi 469-399-yillar) qadimgi Yunon faylasufi. Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, hurfikrli inson, bo'lgan Suqrotning fikricha, falsafaning markazida axloq masalalari turmog'i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishtaligi, faravon hayoti axloq va odobning ahvoliga bog'liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o'rin tutganligi bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Suqrot nomini hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob haqidagi pand-nasihatlariga amal qilishgan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish joizki, o'z davrida Sharq va G'arb allomalarining axloqiy tarbiya borasidagi fikrlari ma'rifatparvarlarning asarlarida o'z aksini topgan. Muhammad alXorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan

bilimlarni yoshlarga beminnat o‘rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo‘la oladi.

G‘arb allomalaridan Ushinskiy, Makarenko, Komensiy, Platon, Suqrot, Aristotel kabi g‘arb allomalari o‘zlarining pedagogik qarashlari bilan o‘z ancha ilgari ketganlar. Ularning bu qarashlari bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib kelmoq va hozirgi kunda ham ular o‘z qiymatini yo‘q. Shunga ko‘ra, Sharq va G‘arb mutaffakirlarning o‘lmas merosi oilada bolalarning ma‘naviy- axloqiy tarbyalashning muhim omili bo‘lib qoladi. Shunday ekan biz pedagoglar ta‘lim jarayonida tarbiyaning ham uzviyligini ta‘minlagan holda talaba yoshlarga ma‘naviy-axloqiy tarbiya berib borishimiz va ularga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. A.Malonova, B.Normurodova. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “FAN” 2008 y.
2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. –T.: Yozuvchi. 1996.
3. Shayx Aziziddin Nasafiy. Komil inson G‘ N.Komilov tarjimasini. – Turkiston. 2000.y. 1-avgust.
4. Pedagogika T., “O‘qituvchi” -1998 .y.
5. Ismoilova Z. Tarbiyaviy shlar metodikasi- T : Istiqlol, 2003.
6. Shodmonova Sh., Tilobova N. “Tarbiyaviy ishlar uslubi” o‘quv predmetidan ta‘lim texnologiyasi- T.TDIU, 2006.y.
7. Kukushin V.S. Teoriya I metodika vospitatelnoy rabota. –Rostov nqD.: MarT, 2004.

РЕЗЮМЕ

Ta‘lim va tarbiya muammosi juda qadimdan ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan hamda eng e‘tiborga molik muammolardan sanaladi. Bu masala haqida biz o‘rta asr mutaffakirlari asarlarida ko‘p duch kelamiz. Albatta, bu masala nafaqat bugunimiz kelajagimiz va o‘tmishimizni belgilab beruvchi masalalardan biri.

РЕЗЮМЕ

Проблема образования и воспитания уже давно является причиной многих дискуссий и считается одной из важнейших проблем. Мы часто сталкиваемся с этим вопросом в трудах средневековых мыслителей. Безусловно, это один из вопросов, определяющих наше настоящее, наше будущее и наше прошлое.

SUMMARY

The problem of education and upbringing has been the cause of many debates for a long time and is considered one of the most important problems. We often come across this issue in the works of medieval thinkers. Of course, this is one of the issue that define our present, our future and our past.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH VA O'QUVCHILAR KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Haytbayeva S.R.

*Toshkent shahar Chilonzor tumani
178-IDUM biologiya fani o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion o'qitish texnologiyalari, kompetensiya, kompetenlik, biologik kompetensiya.

Ключевые слова: современные тенденции развития, компетентностный подход, инновационные технологии обучения, компетентность, компетентность, биологическая компетентность.

Key words: modern development trends, competence approach, innovative teaching technologies, competence, competence, biological competence.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga moslashtirish, ta'lim jarayonlariga innovatsion o'qitish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy o'qitish metodologiyasini ishlab chiqish, umumta'lim fanlarini o'qitishni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish hamda o'quvchilarning kompetenlik darajasini rivojlantirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi. Bunday yondashuvda o'qitishning asosiy mohiyati ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi.

O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning echimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi

bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Ilmiy adabiyotlarda o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi: tayanch kompetensiyalar; umumiy (predmetli) kompetensiyalar; xususiy kompetensiyalar.

O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalartayanchkompetensiya, faqato'quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan biologiya ta'limining asosiy mohiyati biologiya fanidan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, amaliy faoliyatlarida hamda kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida foydalana olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish hisoblanadi.

Zamonaviy yondashuvlar o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zaro integratsiyalash orqali o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Dunyoning etakchi ilmiy markazlari va ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo'g'inlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'qituvchilarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida - uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, asosiy fanlarni chuqur o'rganishga e'tiborni qaratish, davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi

vazifalar belgilangan. Bu esa ushbu fanlar misolida o'qitish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishdagi zaruriy tayanch va fanga oid kompetensiyalar tarkibini aniqlashtirish, tayanch va umumiy kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish modeli va metodlarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga ko'pchilik olimlar o'z ta'riflarini bergan. Jumladan, A.V.Xutorskiyning ilmiy ishlarida kompetensiya va kompetentlik ta'riflari, xususan «...ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatishga imkon beradigan zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxs – kompetentli shaxs», degan fikri mos tushadi. V.V.Serikovning ishlarida kompetentlikka «o'qimishli, bilimli, ko'nikmali bo'lish usuli shaxsiy o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan tushunchalar jamlanmasidir» deb izoh beriladi.

Kompetensiya so'ziga turlicha ta'riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»da kompetensiya so'zi quyidagicha izohlanadi: kompetensiya (lot. *competo* – erishyapman, munosibman, loyiqman) – muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba. “Kompetensiya” atamasi keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi.

Keng ma'noda kompetensiya masalaning, shuningdek, muayyan bilim sohasining mohiyatini muvaffaqiyatli hal eishda amaliy tajribaga asoslanib, bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyatidir. Ta'limda kompetentlik bilan yondashuv o'quvchilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi.

Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniklab ham, baxolab ham bo'lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi.

Quyida biologiya ta'limida rivojlantiriladigan ayrim kompetensiya turlariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda o'quvchilarni tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar, jarayonlar, O'zbekiston

Respublikasi qonunlarining mavzuga doir moddalari bilan tanishtirish, intellektual, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga e'tibor berish, birona kasbni mukammal egallash orqali yurt ravnaqiga hissa qo'shish, jamiyat va oila manfaatlari uchun xizmat qilish, insonlarga mehurmuruvvat ko'rsatish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lishga undash lozim.

Shuningdek, o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o'qituvchi biologiya fanini o'qitishda o'quvchi-yoshlar ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrash, sog'lom turmush tarziga amal qilish, aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiyasiga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilarda matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasini rivojlantirishda biologiya o'qituvchisi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida hisoblashga doir biologik masalalar, nostandart o'quv topshiriqlari bilan ishlashni yo'lga qo'yishi lozim.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqorolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatidi o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqorolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan. Shu sababli har bir o'qituvchi ta'lim jarayonlarini zamon talablariga mos holda tashkil etishi va har tomonlama etuk, barkamol avlodlarni tarbiyalashga jiddiy yondoshishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. - T.: TDPU, 2007. - 315 b.
2. Qorayev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.
3. Elmurzayeva, N. K., & Qorayev, S. B. (2021). Pedagogical Requirements for the Organization of the Educational Process in Specialized State Educational Institutions. Psychology and Education Journal, 58(1), 1078-1084.

4. Tolipova J.O. Biologiyani o'itishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oily ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. Toshkent-2014 y.
5. Niyozov Q. Biologik ta'lim jarayonida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari. – Namangan: Namangan VXTXQTMOI, 2017.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar(ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Iste'dod – 2008. 87 bet.
7. Barakaevich, K. S. (2020). Improvement of Vocational Training of Pupils in Secondary Schools. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(1).

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim, umumta'lim maktab o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarning darajalari, biologiya ta'limida rivojlantiriladigan kompetensiya turlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondoshuvlar, kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularga olimlar tomonidan berilgan ta'riflar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлена информация об образовании на основе компетентного подхода, уровнях сформированных компетенций у учащихся общеобразовательной школы, а также видах компетенций, формируемых в биологическом образовании. Также выделена сущность компетентных подходов, понятий компетенция и компетентность, а также определения, данные им учеными.

SUMMARY

This article provides information on education based on the competency approach, the levels of competencies formed in general education school students, and the types of competencies developed in biology education. Also, the essence of competence approaches, the concepts of competence and competency, and the definitions given to them by scientists are highlighted.



ҲАЁТ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ ЎРГАТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ

Хусанова С.И.

п.ф.д., профессор,

Ўзбекистон Республикаси ФВВ Фуқаро муҳофазаси институти,

Саидханова Н.Ж.

доцент,

“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университети

Таянч сўзлар: ўқувчи, фавқулодда вазият, атроф-муҳит, хавф, хавфсизлик, таълим жараёни, амалий кўникма, хавфсизликни таъминлаш.

Ключевые слова: ученик, чрезвычайная ситуация, окружающая среда, риск, безопасность, учебный процесс, практические навыки, обеспечение безопасности.

Key words: student, emergency, environment, risk, safety, educational process, practical skills, security.

Замонавий таълим жараёни доирасида ўқувчиларда атрофдаги воқеликка, шунингдек, ижтимоий-эмоционал кўникмаларни ва бевосита ўзларига нисбатан қарашларни шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Дунёда турли табиий, техноген ва экологик хусусиятли фавқулодда вазиятлар сони тобора ортиб бораётган шароитда, фавқулодда вазиятларни олдини олиш борасида аҳолини тайёргарлигини ошириш, фавқулодда вазиятларда ҳаракат қилиш кўникмаларини шакллантиришга йўналтирилган машғулотларни ташкил этиш ва ўтказиш орқали хавфлар ва улардан муҳофазаланиш қоидаларига ўргатиш, хавфсизлик тушунчаларини ривожлантириш долзарб муаммо ҳисобланади.

Республикамизда умумий ўрта таълим тизимининг методик таъминотини такомиллаштириш, инновацион ёндашувлар асосида ўқувчиларни интеллектуал жиҳатдан ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 17 августдаги “Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида”ги, 2000 йил 26 майдаги “Фуқаро муҳофазаси тўғрисида”ги Қонунларида “...аҳолини мактабгача, умумий ўрта, ўрта махсус, профессионал ва олий таълим ташкилотларида, ишлаб чиқа-

ришда ҳамда яшаш жойида фавқуллода вазиятларда ҳаракат қилишга ўргатиш умумий ва мажбурийлиги, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Аҳолини фавқуллода вазиятларда ҳаракат қилишга ва фуқаро муҳофазаси соҳасида тайёрлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарорида “...умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини фавқуллода вазиятларда муҳофазаланиш, жабрланганларга биринчи ёрдам кўрсатиш, жамоавий ва шахсий ҳимоя воситаларидан фойдаланиш қоидалари ва усулларига ўргатиш” мактаб таълим тизимида ўқувчиларнинг ҳаёт хавфсизлигини таъминлаш устувор вазифа сифатида белгиланган.

Жамият тараққиётининг ҳозирги босқичида адабиётларда маданият ва шахсий хавфсизликни шакллантириш, ҳаёт хавфсизлигини ўргатиш жараёнларининг узлуксизлигини таъминлаш ва шахсий хавфсизлик маданиятини тарбиялаш муаммосининг долзарблиги тобора кучайиб бормоқда.

Статистик таҳлилларга кўра, республикамиз ҳудудида охириги икки йил давомида табиий тусдаги фавқуллода вазиятлардан кўрилган моддий зарар 1,498 млрд. сўмни ташкил этган. Бу табиий фавқуллода вазиятлар асосан, республикамизнинг тоғли вилоятларида (Тошкент, Қашқадарё, Наманган, Фарғона, Самарқанд, Сурхондарё, Жиззах) эрта баҳорда сел келиши, сув тошқинлари ва тоғ кўчкиларидан иборат бўлган.

Техноген тусдаги фавқуллода вазиятларнинг кўпайганлиги ҳам алоҳида эътибор талаб этади. Ўрганилган йил давомида техноген тусдаги фавқуллода вазиятлар оқибатида ҳалок бўлган сони 258тани ташкил этган, шулардан:

Йўл транспорт ҳодисаларида -176 та; Ёнғинларда - 43та; Сувда чўкиш инсон ўлими билан боғлиқ - 25та; Портлашларда - 5 та; Темир йўл ўтиш тунелларида ва кўприклардаги транспорт аварияларда - 5та; Биноларни конструкциялари ва иншоотларининг тўсатдан қулаши оқибатида - 4 та; Бу техноген фавқуллода вазиятларда 257 нафар инсон жабрланган ва мамлакат иқтисодиётига етказилган зарар 9,589 млрд. сўмни ташкил этган.

Охириги беш йилда содир бўлган техноген фавқуллода вазиятлардан биргина ёнғин-портлашни таҳлил этганда куйидагиларни кўришимиз мумкин: Қорақалпоғистон Республикаси, Андижон, Бухоро, Жиззах, Қашқадарё, Навоий, Наманган, Самарқанд, Сурхондарё, Сирдарё, Тошкент, Фарғона, Хоразм вилоятлари ва Тошкент шаҳрида 116 маротаба ёнғин, портлаш, чакнаш билан боғлиқ фавқуллода вазиятлар содир бўлган, натижада 130

нафар инсон ҳалок бўлган, 277 нафари жабрланган бунинг натижасида моддий зарар 17 млрд. сўмга яқинни ташкил этган .

“Хавфсизлик” атамаси шахс, жамият ва давлатнинг ҳаётий манфаатларини ички ва ташқи таҳдидлардан ҳимоя қилиш ҳолатини англатади .

Хавфсизлик инсоннинг объектив эҳтиёжи сифатида қаралади, бу унинг бутун ҳаёт жараёни давомида унинг ҳар томонлама ҳимоя қилишини белгилайди.

Шунингдек, хавфсизлик деганда инсоннинг ташқи таъсирлардан кўркмасдан ўзини тўлиқ англашига имкон берадиган ҳимояни олишга қаратилган объектив инсон эҳтиёжи тушунилади.

Замонавий жамият доирасида жамият ва умуман одамлар хавфсизлигига салбий таъсир қиладиган табиий шароитларнинг ёмонлашиши, техноген офатларнинг ривожланиши билан белгиланадиган ҳолатлар сабабли жамият олдида хавфсизликка бўлган муҳим эҳтиёж шаклланди.

Шунинг учун умумий ўрта таълим мактабларида яқинда пайдо бўлган, аммо тезда ўзини фанлар кесимида ўргатиш зарурлиги сифатида намоён этган “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курсига алоҳида эътибор қаратилди, бу эса унинг ўқув жараёнида давом этишига олиб келди.

Шуни таъкидлаш мумкинки, ушбу курс ўзига хосдир, чунки унинг ривожланиши жамият талаби билан боғлиқ, чунки ўқувчиларда нафақат хавфсизлик тўғрисида назарий тушунчаларни шакллантириш, балки ўзларини ҳимоя қилиш, унинг усуллари ва шакллари тўғрисида амалий ғояни ишлаб чиқиш ҳам жуда зарур ҳисобланади .

“Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курси – бу хавфсизлик маданияти ва хавфсиз хулқ-атворга эга бўлган шахсни шакллантириш орқали жамиятимизни барқарорлаштиришнинг бир қатор ижтимоий муаммоларини режалаштирилган ҳал қилиш учун самарали воситадир .

“Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курси орқали фуқаро онгида ҳуқуқий асос, ахлоқ ва одоб нормалари билан чамбарчас боғлиқ бўлган хавфсизлик маданияти мафқурасига асосланган Ўзбекистоннинг ривожланишининг ҳаётий ижобий ва конструктив концепцияси шакллантирилади.

Ҳозирги замон талабларидан келиб чиқиб, “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курсининг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат: ўқувчиларда юксак маънавий-руҳий фазилатларни шакллантириш ва ривожлантириш, хавф-хатар ва фавқулодда вазиятларга психологик қаршилик кўрсатиш, атроф-муҳит ва ўз соғлиғига эҳтиёткорона муносабатда бўлиш.

Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларини фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш, табиий офатлар, авариялар ва ҳалокатлар оқибатларини му-

ваффақиятли бартараф этиш, шунингдек, уларда иложи борича иштирок этиш зарурлигига ишонч ҳосил қилиш учун кўрилатган чора-тадбирлар самарадорлигига ўргатиш бирдек муҳимдир.

Бинобарин, умумтаълим мактабининг асосий вазифаларидан бири ўқувчиларга махсус билимларни бериш, уларнинг хавфсиз ҳаёт кечириши учун зарур бўлган кўникма ва малакаларни шакллантиришдир.

“Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курсини ўрганиш ўқувчиларга хавф-хатарлар, прогнозлаш, фақуллодда ва хавфли вазиятларда хатти-ҳаракатлар тўғрисида тизимли тушунчага эга бўлиш, ушбу вазиятларнинг оқибатларининг одамлар ҳаёти ва соғлиғига таъсирини баҳолаш ва уларнинг имкониятларини ҳисобга олган ҳолда хавфсиз хатти-ҳаракатлар алгоритмларини ишлаб чиқиш имконини беради .

“Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курси Ўзбекистон Республикасининг “Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фақуллодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида”, “Фуқаро муҳофазаси тўғрисида”, “Терроризмга қарши кураш тўғрисида”, “Таълим тўғрисида”, “Гидротехника иншоотларининг хавфсизлиги тўғрисида”, “Радиациявий хавфсизлик тўғрисида”, “Хавфли ишлаб чиқариш объектларининг саноат хавфсизлиги тўғрисида”, “Ёнғин хавфсизлиги тўғрисида”, “Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида”, “Ўзбекистон Республикаси аҳолиси ва ҳудудининг сейсмик хавфсизлигини таъминлаш тўғрисида”ги Қонунлари ва ҳ.к., шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг бир қатор қарорлари ва фуқароларнинг хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги бошқа меъёрий ҳужжатлар талабларини амалга оширади.

Ўзбекистон Республикасининг фуқаро муҳофазасига оид қонун ва қарорларини амалга оширилишини таъминлашда умумий ўрта таълим мактабларида “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курсини ўқитишни ташкил этиш ва таълимнинг узлуқсизлигини таъминлаш шу куннинг долзарб муаммоларидан биридир.

Айни шу мақсадда, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 19 июлдаги 208-сонли қарориди аҳолига фақуллодда вазиятлар ва улар содир бўлганда тўғри ҳаракатланишга оид билим-малакаларни изчил сингдириш ва уларга бу каби вазиятларга ҳам руҳан, ҳам жисмонан шай туришдек олий мақсад кўзланган .

Хавфсизлик ва соғлиқни сақлаш соҳасидаги билимларни ошириш билан бир қаторда, шахснинг маънавий ва ахлоқий тасаввурларини ошириш, психологик, шунингдек, ватанпарварлик руҳида тарбиялашга эътибор қа-

ратиш зарур. Буларнинг ҳаммаси таҳдид ва хавфларни камайтиришга имкон беради.

“Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курси: “таълимий”, “тарбиявий”, “ривожлантирувчи”, “психологик ва педагогик”, “бошқарув” функцияларидан иборат:

Таълимий - ушбу функция хавфсизлик тизими, шунингдек уни таъминлаш усуллари ва шакллари тўғрисида зарур билим даражасини шакллантириш билан боғлиқ.

Тарбиявий - ушбу функция доирасида ўқувчилар ўртасида кадриятлар тизимини ривожлантиришга қаратилган фаол ижтимоий позицияни шакллантиришга эътибор қаратилади.

Ривожлантирувчи - бу функция ижтимоий ва ахлоқни ривожлантириш учун ўқувчиларнинг ижодий тафаккурини ривожлантириш билан бевосита боғлиқдир.

Психологик ва педагогик - замонавий техноген ва ижтимоий муҳит шароитида, шу жумладан курулди кучларда ҳаракатга тайёргарлик. Ҳаётнинг зарарли ва хавфли омилларини олдини олиш ва уларни бартараф этишга маънавий, ахлоқий, психологик ва жисмоний тайёргарликни шакллантириш.

Шунингдек, ушбу функция ўқувчиларнинг аниқланган тайёргарлик даражасига қараб, хавфсизлик тўғрисидаги тасаввурларни ривожлантириш тизимига психологик жиҳатдан тайёрлашга имкон беради.

Бошқарув – ушбу функция тегишли қарорлар қабул қилиш, ишлаб чиқариш, маиший, оилавий соҳалардаги муаммоларни низоларсиз ҳал қилиш қобилиятини шакллантириш билан боғлиқ.

Умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларнинг шахсий ҳаёт хавфсизлиги соҳасида билим, кўникма ва малакаларга эга бўлишларига оид янги давлат таълим стандартлари жорий этилиши билан бирга, ушбу курснинг янги мақсад ва вазифалари пайдо бўлади.

Тўғри иш услубини тезда танлаш, ўзи учун оқилона тактик ҳаракатларни аниқлаш ва амалда қўллаш, шунингдек, салбий вазиятларни олдиндан кўра билиш, фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларга мақбул ечимларни топиш қобилиятига эга, кенг қамровли таълим (фалсафа, маданиятшунослик, социология, психология, тиббиёт, педагогика, ўқитиш методикаси ва бошқалар)га асосланган янги сифатдаги кадрлар тайёрлашни таъминлаш зарур.

Шундай экан, бу жараён ўта аниқ мақсад ва вазифаларни белгилаш асосида амалга оширилмоғи зарур. Мазкур вазифаларни амалга оширишда

“Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курсидаги илмий янгиликларга таянган ҳолда, мавжуд ҳолатни илмий-назарий ўрганиш, мазмунан бойитиш, такомиллаштириш ҳамда ислоҳотлар талабларига тўла жавоб берадиган даражага келтириш тамойилларига асосланиш зарур. Тизимнинг муваффақияти фанларнинг ўқитилиш сифати, фанлар ўртасидаги ўзаро интеграция, “узлуксиз тарбия объекти ва субъекти” бўлган ўқувчиларнинг камолоти, онгу тафаккурини юксалтиришга қаратилган таълим-тарбия жараёнининг самарали ташкил этилишига боғлиқ.

Шу нуқтаи назардан, бугунги кунда ўқувчиларнинг дунёқарабини бойитиш, уларда Ватанга садоқат, унинг тараққиётига дахлдорлик ҳисси, миллий ғурурни шакллантириш, уларни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида камол топтириш, юқори интеллект ҳамда юксак маънавиятли қилиб тарбиялаш ҳамда хавфсизлигини таъминлаш умумий ўрта таълим мактаб тизимида ўқитилаётган “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курсининг олдида турган муҳим вазифалардан биридир.

Таълимнинг ушбу bosқичида мактаб ўқувчиларининг қадрият йўналишларини шакллантириш жараёнида “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курси ҳам муҳим ўрин тутди .

Ўқувчиларнинг шахсий ва мотивацион соҳасини шакллантириш ва ривожлантиришда “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курсининг аҳамияти, биринчи навбатда, хавфсизлик масалаларининг долзарблиги ва уни кундалик ҳаётда таъминлаш билан белгиланади.

Бугунги кунга келиб, инсон фаолиятдан келиб чиқадиган бир қатор глобал таҳдидлар аниқланган. Ҳатто табиий муҳитни аста-секин ўзгартирадиган, лекин айни пайтда ҳамма жойда табиий экотизимларни йўқ қиладиган саноат ва қишлоқ хўжалигининг илгари хавфсиз (чекланган фойдаланишда) технологияларидан фойдаланиш, глобал фалокат билан таҳдид қила бошлади. Шунинг учун ҳам бугунги кунда ҳаёт хавфсизлиги соҳасидаги таълим замонавий мактабни ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири сифатида қаралмоқда.

“Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курсининг ўқув дастурида фавқулудда вазиятларда ҳаракат қилиш, ўқитиш тизимини такомиллаштириш учун умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларига амалий ёрдам кўрсатишга мўлжалланган бўлиб, унда хавфсизлик асосларини шакллантириш самарасига таъсир этувчи омиллар ҳамда талаблар акс эттирилиб, соатлар тақсимида фавқулудда вазиятларни юзага келишида ҳудудларни хусусиятлари, ҳаёт хавфсизлигига оид мавзуларни узвий ва узлуксизлиги, хавфсизликни таъминлашнинг асосий воситалари, фанлараро алоқа ва ўзаро имконият-

лари, ўқувчиларда хавфсизлик тушунчалари ва кўникмаларини шакллантиришга эътибор қаратилиб, машғулотлар орқали ўқувчиларга етказиб бериш назарда тутилади.

Бугунги кунда ҳаёт хавф-хатарга тўла. Уни тўғри баҳолай олмаслик жуда ёмон оқибатларга олиб келиши мумкин. Ҳозирги вақтда инсон табиий, техник, иқтисодий ва бошқа ҳар хил хавф-хатар дунёсида яшайди ва ишлайди. Шу хавф-хатарлар натижасида жуда кўп инсонлар ногирон бўлиб қоладилар, касалланади ва ҳаётдан кўз юмадилар. Ана шундай хавф-хатарлардан жамиятни, шахсни ва давлатни ҳимоя қилишни

“Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курси ўргатади.

Хавф - жаҳон ҳамжамияти, алоҳида давлат ва жамиятнинг турли ижтимоий гуруҳ ҳамда фуқароларига зарар келтирадиган, уларнинг моддий ва маънавий кадриятларига путур етказиши, ривожланиш йўлига тўғаноқ бўлиши мумкин бўлган эҳтимолдаги ёки аниқ воқеа, ҳодиса ёки жараён. Маълум бир шарт-шароитларда инсон ҳаёти ва соғлиғига тўғридан-тўғри ёки билвосита зарарли таъсир қилувчи ҳодиса, воқеа, жараёнлар, объектлар ва бошқаларга хавф деб айтилади.

Давлат таълим стандарти талабларига асосан умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларида соғлом ва хавфсиз турмуш тарзини шакллантириш, одамларнинг ҳаёти ва соғлиғига таҳдид соладиган фавқулодда вазиятларда муҳофазаланиш, транспортда ва йўлларда ўзини тутиш, жабрланганларга биринчи ёрдам кўрсатиш, жамоавий ва шахсий ҳимоя воситаларидан фойдаланиш қоидалари ва усуллари ўргатиш ва амалий фаолиятни ривожлантириш кўникмасини ҳосил қилиш ҳисобланади.

Умумий ўрта таълим мактабларида ҳаёт хавфсизлиги асослари курсини ўқитишнинг асосий мақсади содир бўлаётган хавфларни ҳисобга олган ҳолда замонавий жамиятда ўқувчиларни ҳимоя қилиш тизимига таъсир кўрсатиш, уларда хавфсизлик асосларини шакллантириш, маданиятни ривожлантиришга эътибор қаратган ҳолда жамият кадриятларига йўналтиришдир, бу эса биргаликда ижобий таъсир кўрсатадиган кўникма ва қобилиятларни ривожлантиришга ёрдам беради.

Демак, Ҳаёт хавфсизлиги асослари курсининг ўзига хос хусусияти ўқувчилар шахсини ҳар томонлама ва тўлиқ ривожлантиришдир.

Шу билан бирга, атрофдаги воқелик, хавфсизликнинг ўзига хос хусусиятлари, соғлом турмуш тарзи, ватанпарварлик, ахлоқий ривожланиш зарурати ва бошқалар ҳақида объектив ғояларни шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилади.

Инсон фаолиятининг атроф-муҳит билан алоқаси, меҳнат фаолиятидаги хавфсизлиги ва фавқулодда вазиятлардаги хавфсизлиги бўлимларини камраб олгандир. “Ҳаёт хавфсизлиги асослари”нинг принцип ва усуллар асосида: бахтсиз ҳодисалар, қурбонлар ва улар натижасида келиб чиқадиган зарарларни камайтириш масалаларини кенг миқёсда қўядиган ва ҳал қиладиган курсдир. “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” - бу ҳар қандай кўринишдаги фаолиятда қўлланиши мумкин бўлган хавфсизликнинг назарий асосидир.

Ҳозирги кунда “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курсини ўқитиш тизимини мукаммаллаштириш ва соҳалардаги барча ислоҳотларнинг асосий мақсади юртимизда яшаётган барча фуқаролар учун муносиб ҳаёт шароитларини ташкил қилиб беришга қаратилгандир. Шундан келиб чиққан ҳолда мазкур курснинг ривожланиши борасида республикада кенг қамровли илмий-амалий изланишлар ва тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 17 августдаги “Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Қонуни, 25-модда.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 26 майдаги “Фуқаро муҳофазаси тўғрисида”ги Қонуни, 16-модда.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 9 сентябрда “Аҳолини фавқулодда вазиятларда ҳаракат қилишга ва фуқаро муҳофазаси соҳасида тайёрлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида”ги 754-сонли Қарори, 6-банди. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 3727-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 19 июлда “Аҳолини зилзилалар оқибатида юзага келган фавқулодда вазиятларда (табиий ва техноген тусдаги) ҳаракат қилишга тайёрлаш комплекс дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги 208-сонли Қарори.
5. Айзман Р. И., Петров С. В., Ширишова В. М. Теоретические основы безопасности жизнедеятельности: учебное пособие. Новосибирск. М.: АРТА, 2012. 208 с.
6. Белов С.В. Безопасность жизнедеятельности. - Высшая школа, 2011. – 56 с.
7. Бочаров М. И. Информационные угрозы и защита от них // Народное образование. 2010. № 8. С.265–273.
8. Гафнер В.В. Педагогика безопасности: понятийно- терминологический словарь (основы безопасности жизнедеятельности). Екатеринбург, 2015. 254 с.
9. Гафнер В. В. Культура безопасности: аналитический обзор диссертационных исследований (педагогические науки, 2002–2012 гг.) // Урал. гос. пед. ун-т. 2013. № 4. С. 200
10. Мельникова Н. Ф. Теория и методика обучения безопасности жизнедеятельности: уч. пособие; Урал. гос. пед. ун-т. Екатеринбург, 2011. 140 с.
11. Хусанова С.И. Умумий ўрта таълим мактабларида “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” курси мавзулари орасидаги узвийликни таъминлаш механизмларини такомиллаштириш. Пед.фан.док.дисс.-Т., 2021. -186.
12. Ўзбекистон Республикаси ФВВ бюллетень – маълумотлар базаси. 2022. №3, 4.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада дунёда табиий, техноген ва экологик хусусиятли фавқулодда вазиятлар сони тобора ортиб бораётган шароитда, фавқулодда вазиятларни олдини олиш борасида ҳаёт хавфсиз-

лиги қоидаларини ўргатишнинг замонавий мактаб ўқувчиларини тайёргарлиғни оширишда тутган ўрни, уларнинг фақуллода вазиятларда ҳаракат қилиш қўникмаларини шакллантириш долзарб педагогик муаммо сифатида қаралган.

Ўқувчиларни фақуллода вазиятларда ҳаракат қилишга ва фуқаро муҳофазаси соҳасида тайёрлаш тартибини такомиллаштириш, тизимнинг муваффақияти фанларнинг ўқитилиш сифати, фанлар ўртасидаги ўзаро интеграция, “узлуксиз тарбия объекти ва субъекти” бўлган ўқувчиларнинг камолоти, онгу тафаккурини юксалтиришга қаратилган таълим-тарбия жараёнининг самарали ташкил этилишига боғлиқлиғи таҳлил этилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается роль обучения правилам безопасности жизнедеятельности при предупреждении чрезвычайных ситуаций в повышении готовности современных школьников, формировании у них умений действовать в чрезвычайных ситуациях, как актуальной педагогической проблемы в условиях возрастающей количество чрезвычайных ситуаций природного, техногенного и экологического характера в мире.

Анализируется, что успех системы зависит от качества образования предметов, взаимной интеграции между предметами, зрелости учащихся, являющихся “объектом и субъектом непрерывного образования”, эффективной организации учебного процесса направленный совершенствования на повышение осведомленности.

SUMMARY

This article discusses the role of teaching the rules of life safety in the prevention of emergencies in increasing the readiness of modern schoolchildren, the formation of their skills to act in emergency situations, as an urgent pedagogical problem in the conditions of an increasing number of natural, man-made and environmental emergencies in the world.

It is analyzed that the success of the system depends on the quality of education of subjects, mutual integration between subjects, the maturity of students who are “the object and subject of continuing education”, the effective organization of the educational process aimed at improving awareness.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ТАЛАБА ЁШЛАР АКСИОЛОГИК ОРИЕНТАЦИЯСИГА ТАЪСИРИ

Искандарова Д.М.

Андижон Давлат Университети мустақил тадқиқотчиси

Таянч сўзлар: замонавий талабалар, миллий таълим, олий таълим тизими, талаба ёшлар, ахборот, инновацион тараққиёт.

Ключевые слова: современные студенты, национальное образование, система высшего образования, студенческая молодежь, информация, инновационное развитие.

Key words: modern students, national education, higher education system, student youth, information, innovation development.

Бугунги тез ўзгариб бораётган даврда миллат учун хавф олиб келаётган турли салбий ҳодисаларга қарши тура оладиган тизим таълим тизими ҳисобланади. Мамлакатнинг тараққиёти кўп жиҳатдан таълим тизимининг миллий асослари билан бирга замонавий талабларга жавоб бера олишига боғлиқ. Бу ерда замон талаблари, инновацион тараққиёт тамойиллари билан миллий манфаатларнинг мос келиши муҳим аҳамиятга эга. Миллий таълим тизимининг замонавий талаблар асосида трансформация бўлиши ва шу билан бирга унда миллийлик тамойилларининг ҳам сақлаб қолиниши мамлакат ёшларининг салоҳиятини юксалтириш, уни юзага чиқариш ва реализация қила олиш имкониятларини яратади.

Бугунги глобал дунёда шаклланган меҳнат бозорининг талаблари тез ўзгариб, инновацион тараққиётни, олий таълим тизимида рақобатбардош замонавий мутахассисларни етиштириб беришни талаб этмоқда. Шу сабабли билим энг долзарб товарга айланмоқда. Бу нуқтаи назардан давлатимиз олдида фарзандларимизни замонавий талаблар асосида рақобатбардош мутахассис сифатида тарбиялаш, унга замонавий билим бериш ва рақобатбардош мутахассис қилиб тайёрлаш вазифаси турибди. Бундан келиб чиқадикки, Ўзбекистонда мавжуд олий таълим муассасалари ёшларни рақобатга жавоб берувчи билимларни эгаллаб, зарур мутахассислик, касб-хунарни эгаллашга йўналтириши зарур. Чунки ҳозирги кунда билимнинг самарадорлиги ва фойдалилиги муддати тобора қисқариб, билим олувчи ва билим берувчининг олдига янги талабларни қўймоқда. Бу ҳолат олий таълим тизимида таълим олаётган талаба ёшлардан бир вақтнинг ўзида бир неч-

та касбни эгаллашни талаб этмоқда. Бу жараёнга албатта, ёшлар кўп вақт сарф этиши аниқ. Натижада ҳозирги кунда ҳатто пул, моддий бойлик эмас, вақт энг зарур қадриятга айланиб улгурди. Талаба ёшларга қўйилаётган талабларнинг ортиб бораётганлиги, уларнинг барча соҳаларда фаол, креатив бўлиши, билимли бўлиш билан бирга рақобатбардош мутахассис бўлиб фаолият олиб бориши каби талабларни бажара олиши талаба ёшлардан катта вақт талаб этади.

Олий маълумотга эга бўлган замонавий мутахассиснинг жаҳонда юз бераётган ҳодисаларга муносабати қандай? Уларни таҳлил этиши, фикрлаш тарзи, муаммоларни ҳал эта олиши, билими, кўникмалари ва ўзи ўзлаштирган ахборотни бошқаларга етказиб бера олиш усули қандай? Унинг олган билими ва тарқатаётган ахборотининг самаралилик муддати қандай? Бу каби қўйилаётган саволлар ёшларнинг оламни нафақат тушунишга, балки уни шакллантиришга имкон берувчи билимга эга бўлишга ва бу билимни бошқариш тизимини ишлаб чиқиш муаммосини долзарб қилиб қўяди. Умуман дунёда шаклланган таълим тизимида қуйидаги объектив жараёнлар кузатилмоқда:

- янги технологияларнинг кириб келиши натижасида иш ўринларининг камайиб бораётганлиги;
- аҳолининг ўртача ёши ортиб бориши ва талабалик ёшининг ҳам юқорилаб бориши;
- миллий анъанавий таълимнинг ўзгариб, трансформацияга учраётганлиги;
- таълим олишнинг ўзи қадрият сифатида моҳиятини ўзгартириб бораётганлиги;
- олий таълим тизимининг трансформацияси.

Кўрсатиб ўтилган замонавий таълим тизимининг хусусиятлари олий таълим тизимининг олдига ҳам бир қатор талабларни қўймоқда. Рус тадқиқотчиси В.И.Писаренко айтганидек, “Замонавий таълим халқаро бўлиши ва университет таълими кўп хиллик маданий тараққиётнинг асосида туриши зарур, турли туман маданиятга асосланган таълим эса тараққиётнинг ахборот хавфсизлигини таъминлаши мумкин”, - деган фикр дунё ҳамжамиятини бирлаштиради. Чунки у ҳодисани бошқа инсон позицияси, турли маданиятлар, бошқа ижтимоий-иқтисодий формация нуктаи назаридан баҳолаш қобилиятини шакллантиради. Бўлажак мутахассиснинг маданий ўз-ўзини англаши ва унинг шахсини бойитишга хизмат қиладиган кўп маданиятли таълим муҳити яратилиши лозим”.

Айтиб ўтилган масалалар муҳим бўлиб, улар Ўзбекистонда олий таълим тизими олдига бир қатор стратегик вазифаларни қўяди. Булар:

- олий таълим тизимини келажак талаблари ва миллий эҳтиёжларга мос равишда ривожлантириб бориш;
- долзарб мутахассислик ва касбий йўналишларни ташкил этиш;
- миллий олий таълим тизимининг дунё бозорида рақобатбардошлик хусусиятини ва салоҳиятини юксалтириш;
- инновацион талабларга мос равишда олий таълим тизими самарадорлигини ошириб бориш;
- мунтазам дунёнинг етакчи таълим тизимини ўрганиб бориш ва унинг ижобий жиҳатларини мамлакатда жорий этиш;
- меҳнат бозорининг тадабдарига мос келувчи мутахассисларни тайёрлаш ва бошқалар.

Санаб ўтилган вазифаларни бажариш учун тегишли вазирликлар ва таълим тизимига алоқадор бўлган бошқа ташкилотлар таълимнинг сифатини ошириш борасида тинмай ҳаракат қилишлари, таълимга киритилаётган инвестицияларни унинг сифатини яхшилашга қаратиш, таълимнинг самарадорлигини ошириши, ўқитилаётган мутахассисларни инновацион фикрлаш, лидерликка тайёрлаш, уларнинг онгида креативлик хусусиятини ривожлантириш томон йўналтириш талаб этилади.

Ҳозирги кунда олий таълим тизимида ўқиётган талабаларнинг ёши аввалгидек, асосан 17-25 ёшларга яқин эмас, аксинча, 30-40 ёшли, ундан ҳам катгароқ бўлган талабаларни ҳам учратиш мумкин. Чунки меҳнат бозорида рақобатнинг кучайиб бориши талабаларнинг ёш хусусиятини ҳам ўзгартириб юбормоқда. Мамлакатда тизимли равишда амалга оширилаётган модернизация ва ислоҳотлар ижтимоий сиёсатнинг илмий ва технологик омилига айланди. Ижтимоий мобилликнинг талаблари мутахассисдан юқори сифат ва юксак билимни талаб этмоқда.

Билим ҳозирги даврнинг асосий қадриятига айланди. Замонавий билим ахборотга асосланади. Бу нуқтаи назардан ахборот ҳам жамият ва инсон ҳаётида муҳим роль ўйнавчи омилга, замонавий қадриятга айланди. Ахборотни ўзлаштира оладиган инсон юксак билим ва малакага эга бўлган “долзарб инсон”га айланди. Сўнги вақтда кенг қўлланилаётган “таълим хизматлари бозори”, “рақобатбардош таълим” тушунчалари замонавий таълим тизимининг ва айниқса, олий таълимнинг моҳиятини акс эттирувчи тушунчаларга айланди.

Бугунги кунда мамлакат тараққиётини инновацияларнинг кириб келишини қўллаб-қувватлаш, модернизация, билим, ахборот, рақобатбардош таълим, талабалар ва профессор-ўқитувчиларнинг мобиллиги кабиларсиз таъминлаб бўлмайди.

Дунё ҳамжамияти ҳозирги даврда кўп маданиятли таълим тизимини тан олиб, ўзлари ҳам таълимнинг ана шундай шаклини ташкиллашга интиломқдалар. Тобора таълим тизимига демократия ва либерализм тамойиллари кириб келмоқда. Жамият билан бир қаторда таълим тизими ҳам тобора эркинлашиб бормоқда. Бу жараён Ўзбекистонда талаба ёшларнинг аксиологик ориентациясини тўғри шакллантиришни глобаллашув талаблари, миллий таълимни ривожлантириш шартлари, миллий кадриятларни сақлаб қолиш ва уларни умуминсоний ва прогрессив замонавий кадриятларни уйғунлаштириш тамойиллари, инновацион тараққиёт суръатларини ошириш каби жараёнларнинг талабларига мослаштиришни талаб этади.

Жамият тараққиётига таъсир этувчи муҳим ижтимоий омиллар қаторида таълим тизими муҳим аҳамиятга эга. Бу борада олий таълим жамият учун мутахассис кадрларни етиштириб бериш вазифасини бажаришга қаратилганлиги учун ҳам бу соҳани илмий-фалсафий тадқиқ этиш муҳим назарий ва амалий аҳамиятга эга. Олий таълим жамият ривожланиши, унинг аъзоларининг интеллектуал, илмий-технологик, маданий-маънавий салоҳиятининг юксалиб бориши детерминантларидан бири ҳисобланади.

Айтиш мумкинки, олий таълимнинг ориентацияси, динамикаси жамиятнинг ҳам тараққиёт суръатларига таъсир этади. Чунки олий таълим тизимида тайёрланган мутахассис кадрлар жамият келажаги учун хизмат қилади ва унинг ижтимоий барқарорлигини таъминлайди. Демак, жамият келажакининг тараққиётига бошқа омиллар қатори олий таълим тизимининг прогрессивлик моҳияти ҳам таъсир кўрсатади.

Олий таълим тарихига назар солсак, жамиятимиз тарихида унинг қуйидаги шаклларда мавжуд бўлганлигини англаймиз:

- мадрасалар;
- совет даври институтлари ва университетлари;
- Ўзбекистонда мустақилликдан кейин ташкил этилган институтлар ва университетлар;
- замонавий олий таълим муассасалари (давлат, кўшма, хорижий отмларнинг филиаллари, хусусий отмлар).

Олий таълим тизимининг асосий функцияси жамият эҳтиёжларидан келиб чиқиб, унинг миллий манфаатларига хизмат қилувчи мутахассис кадрларни етиштириб беришдан иборат. Мазкур тизим жамиятда амал қилинаётган кадриятларнинг шаклланиши, хусусиятлари ва уларнинг ўзгариб боришига таъсир этади. Олий таълим тизими ёш мутахассис кадрларни тайёрлаш билан бирга уларнинг онгида ўзига хос замонавий кадриятларни шакллантириш ва тарқатишга ҳам хизмат қилади. Олий таълим тизимида таҳсил олган талаба ёшлар шунчаки билим олиб қолмасдан маълум иқти-

содий, сиёсий, маданий, маънавий, диний, ахлоқий, ҳуқуқий, эстетик ва бошқа кадриятларни ўзлаштирадилар.

Олий таълим тизими ёшларга билим бериш билангина чекланмаслиги, ҳозирги даврнинг эҳтиёжларидан келиб чиқиб, ёшларнинг касбийгина эмас, маданий-маънавий, ахлоқий-эстетик, руҳий, ҳуқуқий, ахборот ва бошқа соҳаларда ҳам тарбия қилувчи ижтимоий институт сифатида фаолият олиб бориши талаб этилмоқда. Бунинг учун олий таълим тизими шаклларининг ҳозирги кунда самарадорлиги ва мазкур талабларни бажара олиши муаммоси, унинг жаҳонда бу соҳада амалга оширилаётган янги ёндашувлар, таълимнинг ва билим олишнинг замонавий шакллари, замонавий ахборот технологияларининг қўлланилиши, халқаро рейтинг базасида эгаллаб турган ўрни, миллий тажриба ва анъаналарни сақлаган ҳолда замонавий инновацияларни қўллаш олиши каби талаблар билан боғлиқ муаммоларни ҳал этиши зарур бўлмоқда.

Юқорида айтилганлардан келиб чиқиб ҳозирги кунда тадқиқотчилар олий таълим ва унинг сифати, бу тизимда тайёрланаётган келажак мутахассисларнинг етуқлик даражаси ҳамда рақобатбардошлигига катта эътибор қаратмоқдалар ва бу жараённинг турли қирраларини назарий таҳлил этмоқдалар.

Айтиб ўтилган вазифаларни амалга ошириш, мамлакатимиз келажаги учун зарур бўлган мутахассисларни етиштириб бериш вазифасини бажариш олий таълим тизимининг замон талаблари асосида ўзгариши, юқори тараққий этган давлатларда бу соҳада амалга оширилаётган замонавий инновацияларни қўллаб, уларнинг самарадорлигини таъминлаши давлатимиз истиқболи учун ҳам муҳим аҳамиятга эга. Чунки мамлакатнинг келажакда иқтисодий рақобатбардошлигини таъминлаш, интеллектуал салоҳиятини юксалтириш бугунги кунда олий таълимда билим олаётган талаба ёшларнинг билим даражаси, рақобатбардошлик хусусияти, шунчаки касб малакаси эмас, юқори даражадаги мутахассислик малакаси билан боғлиқ.

Мамлакатимизда юксак маданиятли, маърифатли, маънавияти етуқ баркамол авлодни тарбиялашда, аждодлар маданий ва маънавий меросини ўрганиш билан бир қаторда янги ислохотлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистонда олий таълим тизими жамиятда амалга оширилаётган ислохотларнинг муваффақиятли бориши, модернизация жараёнларининг тўғри амалга ошувини таъминлаш мақсадида инновацияларнинг тарқалишига хизмат қилиши зарур.

Олий таълимнинг жамият тараққиётига хизмат қилишини таъминлаш учун аввало, олий таълим тизимининг ўзи жамиятнинг ижтимоий эҳтиёжларига жавоб бера оладиган равишда тараққий этиб бориши, олдиндан юза-

га келиши мумкин бўлган янги кадрларга бўлган эҳтиёжларни, модернизациянинг замонавий талаблари ва кириб келаётган инновацияларни ҳисобга олган ҳолда диалектик ўзгариб бориши зарур. Бунинг асосида янгича замон руҳига ва эҳтиёжларига мос келадиган қадриятларнинг юзага келишини ва уларнинг тарқалишини таъминлаши орқали жамиятнинг модернизацион ва инновацион тараққиётига хизмат қилиши муҳим аҳамият касб этади.

Сўнгги даврда Ўзбекистонда иқтисодий-сиёсий, маданий-маънавий ва бошқа соҳаларда амалга оширилаётган оламшумул ислоҳотлар олий таълим соҳасига ҳам таъсир этаётгани аниқ. Бундай ислоҳотлар албатта, жамият соҳаларининг муҳим йўналиши бўлган таълим соҳасида ҳам баъзан муваффақиятли, баъзан зиддиятли ҳолатда амалга ошмоқда. Бу соҳа ислоҳотларнинг ҳам объекти, ҳам субъекти сифатида мавжуд бўлиб, сўнгги даврда модернизацияга энг кўп учраган соҳага айлангани маълум. Таълим тизими жамиятда тарихий эволюция давомида юзага келган ва асрлар давомида турли шаклларда ўзини намоён қилган ижтимоий институт ҳисобланади.

Тарихий жараёнга эътибор берсак, жамиятда инсониятнинг моддий ва маънавий фаолияти асосида юзага келган кўплаб ижтимоий институтлар мавжуд. Улар жамиятда турли функцияларни бажаради. Бундай функциялар қаторига мавжуд соҳанинг хусусиятидан келиб чиқиб, иқтисодий, сиёсий, маданий, маънавий, ахлоқий ва бошқалар киради. Бу нуқтаи назардан таълим тизими ўзига хослиги билан ажралиб туради, чунки бу соҳа ўзи модернизацияга ва ислоҳотларга тортилади, балки бу жараёнлар амалга ошувчи бошқа соҳаларда ҳам ислоҳотларнинг амалга ошуви, модернизация ва инновацияларнинг тарқалишига катта замин яратади. Чунки модернизацияни амалга оширувчи ва инновацияни тарқатувчи субъектив омиллар – инновацион шахсларни тайёрлаш айнан таълим тизимида амалга оширилади.

Инсоният ўз тарихий тараққиётида кашф этган ҳамда асосан жамиятнинг прогрессив тараққиётига хизмат қилиб келган улкан ижтимоий ижод намунаси ва ютуғи сифатида қаралиши мумкин. Бу тизимда бошқа соҳаларга нисбатан ижтимоий тараққиётнинг хусусиятлари ва ўзгаришлар кўпроқ акс этган бўлиб, унинг ривожини ҳам кўп ҳолларда бошқа соҳалардаги ўзгаришларнинг натижаси ёки оқибатига айланган.

Таълим тизими ижтимоий-тарихий моҳиятга эга. Жамиятда ахлоқ, тарбия, маданият ва маънавиятнинг тараққиёти ҳамда уларнинг инсонлар онгида ва дунёқарошида, амалий фаолиятида акс этиши ҳам мазкур тизим билан боғлиқ. Бу жараёнлар ўз навбатида диалектик алоқадорликда намоён бўлиб, таълим тизимида акс таъсир кўрсатади.

Таълим инсонларнинг, айниқса бу тизимга умрбод ёки вақтинча тортилган субъектларнинг мақсадлари, эҳтиёжларини бошқа ижтимоий институтларга нисбатан ўзида яққолроқ акс эттиради. Таълимнинг жамиятга таъсирининг моҳияти юқорида қайд этилган субъектив мақсадлар ва эҳтиёжларни тўғри акс эттира олиши билан боғлиқ бўлиб, бунда тизимнинг прогрессивлиги ва тараққиётга хизмат қилиши намоён бўлади.

Таълим тизимининг асосий субъектларидан бири талаба ёшлардир. Уларнинг ижтимоий онги, дунёқараши ҳамда жамият тараққиётида фаол ижтимоий позицияга эга бўлиши мазкур тизимнинг моҳиятига алоқадор. Глобаллашувнинг зиддиятлари ва чақириқлари таълим ва унинг субъектларининг ижтимоий фаолиятида кўпроқ акс этади. Бу борада таълим тизимининг ўзи ҳам глобаллашувнинг кучли таъсирига учраб, унда трансформация жараёнлари юзага келаётгани аниқ. Бу нуқтаи назардан таълимнинг ўзгариши ва бу ўзгаришларнинг таълим субъектларига таъсирини жамият тараққиёти контекстида назарий таҳлил этиш муҳим аҳамиятга эга.

Ҳозирги даврда таълим соҳаси катта трансформацияга учраб, унда турли ҳодисалар ва зиддиятлар акс этмоқда. Бу тизим ҳозирги давр ислохотлари, модернизация жараёнларини, жамият аъзоларининг ижтимоий талаб ва эҳтиёжларини тўғри акс эттира олиши, бу вазифаларни талабалар ва бошқа субъектлар онгига сингдириб, уларни тўғри йўналтира олиши жамият тараққиёти динамикасини тезлаштиради. Демак, олий таълим тизимида глобаллашув натижасида тарқалаётган янгиликлар, инновацияларнинг ижобий натижаларидан тўғри фойдаланиш, инновацияларнинг жорий этилишига эътибор қаратиш муҳим аҳамиятга эга.

Жамиятнинг тобора демократлашиб ва эркинлашиб бориши таълим тизими ва талабаларнинг ҳам фаолиятига ижобий таъсир кўрсатади. Ўзбекистонда сўнгги даврда демократик жараёнларнинг тобора кенгайиб бораётганлиги миллий таълим тизимининг ҳам трансформациясига кучли таъсир кўрсатмоқда. Ҳозирги даврда бу тизимда амалга оширилаётган ислохотлар натижасида тараққий этган давлатларнинг бу соҳадаги илғор тажрибалари кенг жорий этилмоқда.

Сўнгги икки-уч йилда таълим муассасалари сонининг ортиб бораётганлиги, хорижий давлатлар билан алоқаларнинг кенгайиб бориши натижасида мамлакатимизда турли хорижий ОТМлар филиалларининг очилиши, қўшма дастур асосида фаолият олиб бораётган таълим муассасаларининг кўпайиб бориши, ўзаро талабалар алмашинуви, мамлакатимиз ёшларининг хорижда билим олиши билан боғлиқ бўлган муаммоларнинг қонуний йўл билан ҳал этилаётганлиги, хусусий ОТМларнинг сони кўпайиб бораётганлиги каби прогрессив жараёнлар албатта, жамиятда таълим институтининг

ролини ошиб бориши ҳамда ёшларнинг ва хусусан, талабаларнинг жамиятда ижтимоий ўрнининг мустаҳкамланиши ва ролининг ортиб боришига ижобий таъсир этмоқда.

Замонавий таълимнинг махсус ижтимоий институтга айланиб, бошқа соҳаларнинг ҳам динамикасига сезиларли таъсири кучайиб бормоқда. Таълим тизимида билим олиб, ўз интеллектуал салоҳиятини ошириб бораётган ёшларнинг жамиятда ижтимоий мақомининг ортиб бориши, ўз тенгдошлари орасида обрўли мавқега эга бўлиб бораётганлиги жамиятда таълим институти ва унинг субъектларининг ҳам ижтимоий мавқеига таъсир кўрсатмоқда. “Таълим институтининг бугунги шакли, муҳим билимлар ҳажми ўсиб кетиши натижасида вужудга келган. Чунки тўпланган билимларнинг маълум қисмини ҳам жамият аъзолари томонидан ўзлаштириш имкони қолмаган ва тобора ортиб бораётган билимлар миқдорини бошқариш муаммоси юзага келиш сабабли таълим иизими ижтимоий институт сифатида шаклланган” .

Жамият тараққиёти натижасида жамият аъзоларининг биргаликда ўз эҳтиёжлари ва мақсадларидан келиб чиқиб умумий таълим олишга талаб юзага келди. Инсон фаолиятининг ривожланиб бориши, янги эҳтиёжларнинг пайдо бўлиши, янги касб-ҳунарларга бўлган талабларнинг ортиб бориши таълим институти ва унинг субъектлар олдида турли замонавий талабларни қўймоқда. Айниқса, инсон салоҳиятининг ортиб бориши ҳамда уни реализация қилиш зарурати ва имкониятларнинг яратилишига бўлган талаблар, буларни бажариш учун жамият аъзоларининг билим олишига бўлган эҳтиёжларининг ортиб бораётганлиги объектив ижтимоий заруратга айланди.

Юқоридида қайд этилган жараёнлар албатта, таълим тизими ва тизим субъектлари фаолиятининг ҳам тараққиётнинг асосий омилларидан бири сифатида тобора такаомиллашиб боришига таъсир этди. “Шундай қилиб таълим умумтаълим стандартлари оддий саводхонликдан ўрта таълимга, ва яқин келажакда олий таълимга ўтиб бориши инсон ҳуқуқлари тараққиёти ҳам инсоннинг ўзига ҳурмати ва қадрининг ифодасига айланди” .

Жамият тараққиётининг эволюцияси натижасида таълим институтининг ўзгариб, тараққий этиб бориши ёшларнинг билим олишга интилиши, таълим тизимида кириб келиши, билим олиб касб –ҳунарга эга бўлиши, интеллектуал фаолиятга интилиб, ўз салоҳиятини оширишга ҳаракат қилиши, замон талаблари асосида моддий ва маънавий эҳтиёжларининг қондиришга интилиши, моддий ва маънавий таъминланиши зарурати каби объектив жараёнлар ёшларнинг таълим институти ва билимнинг ортиши асосида амалга ошириладиган фаолиятининг ҳам кенгайиб боришини таъминлади.

Натижада янги билимлар асосида фаолиятнинг янги турлари пайдо бўлди. Юксак билимга эга бўлиш асосида қурилган фаолият таълим тизими ва ёшларнинг билим олишига боғлиқ бўлган ижтимоий эҳтиёжга айланди. Таълим институти ижтимоий буюртмани бажарувчи субъект сифатида намоён бўла бошлади ва ёшларнинг моддий ва маънавий таъминланишининг манбаи ва муҳим омилига йланди.

Мамлакатда модернизация жараёнлари юқорида қайд этилган ҳодисаларнинг янада тез суръатлар билан тараққий этишига олиб келди ва таълимнинг янги бўғинлари ва шакллари юзага келтирди. Бу жараёнлар албатта, таълимнинг моҳиятини тез суръатлар билан ўзгариб боришига ҳамда унинг субъектларининг ҳам янада тараққий этишига олиб келди. “Агар индустриал жамиятга қадар таълим тизими асосан аввалги ахлоқ маданият, тажриба ва билимни сақлаш ва қайта ишлаб чиқришга қаратилган бўлса, индустриал жамият таълим тизими маданий ва ижтимоий ўзгаришларнинг муҳим омилига айланди” .

Юқорида таҳлил этилган жараёнларнинг субъектив омили ёшлар, талаба ёшлар эканлиги таъкидланди. Уларнинг фаолиятини амалга ошириш билимга асосланиши натижасида билим жамият ва унинг аъзолари учун зарур ва муҳим кадриятлардан бирига айланди. Кадриятлар тизимида инсоннинг билими ва интеллектуал салоҳияти муҳим элементга айланди. Бунга алоқадор равишда инсон салоҳияти, инсон капитали муаммолари ҳам долзарб муаммога айланди. Моддий бойликдан кўра инсоннинг билими, маънавий бойлиги юқори ўринга қўйилиб кадрлана бошланди. Энди жамият ва унинг аъзоларининг ҳаёти, фаровонлиги ва эҳтиёжларининг қондирлиши таълим институти ва унда бериладиган билимларга боғлиқ бўлиб қолди.

Маълумки, жамият тараққиётининг ҳаракатга келтирувчи моддий омиллар билан бирга уларни яратувчиси субъектлар ҳисобланади. Эндиликда субъектларнинг билими, интеллектуал салоҳияти, онги, дунёқараши муҳим бўлиб, бу “бойликларни” ташувчиси юқори билимли интеллектуал инсонга айланди. Жамиятда амалга ошаётган турли ижтимоий-иқтисодий, маданий-маънавий муносабатлар, субъектнинг бошқалар билан ўзаро муносабатга киришининг муҳим омили ва шарти энди билимга айланди.

Демак, ҳозирги кунда таълим тизими ва унда таҳсил олаётган билимли талабалар жамият тараққиётининг субъектив омилини ташкил этмоқда. Билим шунчаки кадрият эмас, жамият ва инсон ҳаётини белгилаб берувчи ҳамда уларнинг тараққиётини таъминловчи ижтимоий омилга айланди. Энди таълим тизими ва бу тизимда қўлга киритиладиган билимлар, кўникма ва интеллектуал салоҳият фақат ижтимоий моҳияти билан чекланиб қо-

лаётгани йўқ. Аксинча, улар аксеологик ва праксеологик моҳият касб этиб, жамият ва инсон ҳаётининг муҳим элементиға, кадриятиға айланди.

Тарихий эволюция натижасида таълим тизими жамиятнинг ижтимоий бойлиги ва тажрибасини сақловчи, авлоддан авлодға ўтказувчи, бошқаларға етказиб берувчи муҳим ижтимоий омиллардан бири ҳисобланади. Чунки бундай ижтимоий-иқтисодий ва маданий-маънавий имконият таълим ва унинг субъектларида мавжуд. Мазкур тизим жамиятға янги билим, инновация, янги ғоялар етказиб бериши ва улар асосида интеллектуал салоҳиятни ривожлантириш функциясини амалға оширади. Демак, янги ғоялар ва билимлар асосида олий таълим тизими жамиятнинг ўзгариши ва инсон тараққиётини таъминлайди. Ўз навбатида бу тизимнинг тараққиётига ҳам жамият томонидан қайд этилган янги ғоялар ва билимлар диалектик таъсир этади. Уларни тизим томонидан ўзлаштирилиши таълим тизими ва унинг субъектларининг ҳам ривожига ижобий таъсир этади. Яъни таълим тизими ва жамият тараққиёти ўртасида ўзаро диалектик алоқадорлик мавжуд бўлиб, бу икки объектив ҳодиса бир-бирининг тараққиётига таъсир этади.

Таҳлил этилаётган жараёнларға жамият аъзоларининг, айниқса ёшларнинг муносабатини ўрганиш зарур. Чунки ёшлар ва талаба ёшларнинг таълим тизимида юз бераётган жараёнларға муносабати ҳамда уларнинг бу жараёнларда иштироки муҳим аҳамият касб этади. Таълим тизимининг мамлакатда ва дунёда амалға ошиб бораётган ўзгаришларға муносабати, унга мослашиб бориши ва орқада қолмаслиги миллий тараққиёт учун муҳим аҳамиятға эға. Борлиқ, ижтимоий муҳит, жамият барча соҳаларининг тараққиёт суръатларининг тобора тезлашиб бораётганлиги таълим тизими ва унинг субъектларининг ҳам мазкур жараёнларға мослашувини талаб этади.

Таълим тизимининг функциялари замон талаблари асосида ўзгариб бормоқда. Ривожланган давлатларда таълим тизими йўналишларнинг ўзига хослигидан келиб чиқиб, давлат манфаатларини ҳисобға олган ҳолда тобора иқтисодий ва бошқа соҳаларнинг талаблари ва эҳтиёжлари асосида мазкур соҳаларға интеграция бўлиб бормоқда. Натижада таълимнинг амалий аҳамияти ортиб бормоқда. Жамиятда олий таълим тизими жамият эҳтиёжларини қондирувчи, талаб этилаётган мутахассисларни тайёрлаб берувчи ижтимоий институт сифатида модернизация, инновация жараёнларига ҳамда барча ислохотларға таъсир этиб уларнинг динамикасини тезлаштирмоқда.

Замонавий жамият тараққиётининг муҳим субъектив омиллари қаторида юқори интеллектуал салоҳиятли, етук, инновацион фикрлайдиган креатив мутахассис мутахассис ижтимоий заруратға ва жамиятнинг бутунги тараққиёт босқичида бундай. Олий таълим тизими мазкур ижтимоий зарурат-

ни англаш, унга олдиндан тайёрланиш, бунинг учун тегишли йўналишларни очиш, бу соҳаларнинг билим берувчи мутахассисларини излаб топиш ва уларни жой-жойига қўйиш, янги соҳаларнинг ўқув режаларини ишлаб чиқиш каби вазифаларни бажариши лозим. Чунки ҳозирги кунда ОТМлар иш берувчи билан ажралмаган холда фаолият олиб бориши, бозор иқтисодиёти шароитида жамиятнинг эҳтиёжи катта бўлган йўналишларни ташкил этиши ва уларга билимли ёшларни қабул қилиши, бу соҳадаги эҳтиёжларни мунтазам ўрганиб бориши каби ишларни бажариши зарур. Бунинг учун ОТМлар ёш, юқорида қайд этилган вазифаларни олдиндан англаб етадиган ва уларни амалга оширадиган лидер раҳбарлар билан таъминланиши зарур.

Adabiyotlar:

1. Барабанов О.Н., Лебедев М.М. Глобализация и образование в современном мире. В кн. Глобализация: человеческое измерение. - Москва: РОССПЭН, 2002.-С.69.
2. Писаренко В.И. Инновационное развитие образовательных систем как основа модернизации высшего образования. Актуальные проблемы глобалистики и геополитики. Сборник научных трудов кафедры глобалистики и геополитики СФУ.-Красноярск.СФУ, 2012.-С.216.
3. Зиновьева е.а. социокультурное статус образования как пространство равноправия. Вестник повожски академия. 2009/3(20) -131-132.
4. Зиновьева е.а. социокультурное статус образования как пространство равноправия. Вестник повожски академия. 2009/3(20) -131-132.
5. Дюркгейм Э. Социология образование. //перевод с французского т.г. астахаовой. :наус ред. В.с.сопкин, в.я. нечайеа. Москва, 1996. С.275.

РЕЗЮМЕ

Ушбу илмий мақолада глобал дунёда шаклланган меҳнат бозорининг талаблари тез ўзгариб, инновацион таракқиётни, олий таълим тизимида рақобатбардош замонавий мутахассисларни етиштириб беришни талаб этмоқда. Шу сабабли билим энг долзарб товарга айланмоқда шу каби изланишлар келтирилиб ўтилган.

РЕЗЮМЕ

В данной научной статье требования рынка труда, формирующиеся в глобальном мире, стремительно меняются, требуя инновационного развития, выращивания конкурентоспособных современных специалистов в системе высшего образования. По этой причине знания становятся наиболее актуальным товаром, на который ссылаются такие исследования.

SUMMARY

In this scientific article, the requirements of the labor market formed in the global world are rapidly changing, requiring innovation development, the cultivation of competitive modern specialists in the higher education system. For this reason, knowledge is becoming the most relevant commodity such research has been cited.



BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY SIFATINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI

Muslimov Sh.N.

*T.N. Qori niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti (PhD) dotsent*

Tayanch so‘zlar: kasbiy sifat, mahorat, ta‘lim, psixologik, shakllantirish, texnologik ta‘lim, mazmun.

Ключевые слова: профессиональное качество, мастерство, образование, психологическое, формирующее, технологическое образование, содержание.

Key words: professional quality, skill, education, psychological, formative, technological education, content.

Oliy pedagogik ta‘lim muassasi talabalarining shaxsiy rivojlanishi ularning ijtimoiy-shaxsiy qiziqishlarining kasbiy yo‘nalish kasb etishi, mustaqil fikrlashlari, ijodkorliklari, faolliklari, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg‘unlashuvi hamda o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojlarining shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo‘lajak mutaxassis uchun oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim olish jarayoni – bu insonda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda kasbiy jihatdan ahamiyatli sanalgan sifat, bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Talaba ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ularni samarali qo‘llash kabi holatlarni o‘zida mujassam ettiradi. Pedagogik-psixologik faoliyat bilan bog‘liq qarash, qadriyat hamda motivatsiyalar mohiyatan o‘zgarib takomillashib boradi.

Oliy ta‘lim muassasalarining texnologik ta‘lim yo‘nalishida maxsus fanlarni o‘qitishda texnologik ta‘lim fanlarning nazariy asoslari yuzasidan talabalarda ilmiy tushunchalarni shakllantiradi. Mutaxassislik bo‘yicha maxsus nazariy fanlar asoslarini egallash talabalarda o‘z ijodiy faoliyatini tashkil qilish va uni rivojlantirish uchun muhim sharoitlar yaratadi. Ularning zamirida kasbiy xislatlar, kasbiy kiziqish, kasb motivatsiyasi vujudga keladi va ularda

tashabbuskorlik, ijodiy izlanish va mutlaq bilishga intilish hislarining namoyon bo'lishiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi.

Bo'lajak texnologik ta'lim yo'nalishi talabalari o'z sohasi bo'yicha o'quv fanlari va integrallashgan kurslarni o'rganadilar. Bundan tashqari bo'lg'usi mehnat ta'lim o'qituvchisi bilishi shart bo'lgan turli sohalarga taalluqli jihatlar mavjuddir:

Global fikrlashga egalik. Bu bir vaqtning o'zida o'quvchilarning intellektual, hissiy, jismoniy, axloqiy va ruhiy xususiyatlarini rivojlantirish yordamida inson ichki tuyg'usi bilan bog'liq amalga oshiriladigan faoliyat jarayonida ularni tez o'zgaruvchan, juda murakkab, o'zaro aloqador hayotga birmuncha sifatliroq tayyorlashga yo'naltirilgan majmuaviy yondashuvdir.

Tashkilotchilik. Aniq kasbiy faoliyat doirasida ish bajarishga imkon beruvchi bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi jarayonni tashkil etish, kasbiy faoliyatni boshlab berish, tashkil etish, uyushtirish yoki rahbarlik qilish.

Intizomlilik. O'zi ishlab turgan mehnat jamoasining huquq va axloq me'yorlariga, shuningdek, muassasa talablariga javob beradigan muayyan hulq-atvor va tartib qoidalariga hurmat hissi bilan qarash va unga amal qilishlik.

Tashabbuskorlik. Mehnat jamoasida kasbiy faoliyat doirasida ularni rivojlantirishga va takomillashtirishga qaratilgan g'oyalar bilan chiqish.

Boshqaruvchanlik. Kasbiy faoliyat jarayonini idora qilish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, o'rnatish, natijalarni tahlil qilish va baholash.

Mehnatsevarlik. Kasbiy qiziquvchanlik, ijtimoiy faollik, tirishqoqlik, intizomlilik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, jo'shqinlik.

Qiziquvchanlik. Tanlagan kasbiga nisbatan mehr-muhabbatda bo'lish, kasbiy yetuklikka erishish, insonning tanlagan kasbi bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarining hissiy namoyon bo'lishidir, qiziqish tug'dirgan kasb tezroq egallanadi va mustahkamroq esda qoladi.

Kasbiy sifatlarni shakllantiruvchi fazilatlar ta'lim muassasalarida yoshlarning rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va

istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o‘zida mujassam ettiradi.

Oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari mavzuni yoritish jarayonida ko‘proq ilmiy, mavhum qonuniyatlarni talabalar ongiga singdarishga harakat qiladi. Fredmet dasturida nazarda tutilgan bilimlarni tushuntirish bosh maqsad bo‘lib hisoblanadi. Umumiy psixologiya, umumiy pedagogika, o‘qituvchi nutq madaniyati, texnologik ta’lim o‘qitish metodikasi kabilar nazariy, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlarida tushuntiriladi.

Adabiyotlar:

1. N.Muslimov, D.Sayfurov, M.Usmonboeva va A.To‘raevlar. Web-texnologiya asosida elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. – T., 2015
2. Muslimov N.A, Urazova M.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional malakasini shakllantirishning texnik vositasi sifatida veb-sayt vazifasi // Hayot davomida ta’lim: Barqaror rivojlanish uchun uzluksiz ta’lim: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg davlat universiteti, 2014. P 127129.
3. Muslimov Sh.N. “Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” T-2020.; pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.
4. Sh.Muslimov., M.Xalimov., Sh.Dilshodbekov., X.To‘raev. “Chizma geometriya va Muhandislik grafikasi” o‘quv qo‘llanma Adabiyot uchqunlari nashriyoti, 2020. -168 b.
5. Muslimov Sh.N. “Chizma geometriya va Muhandislik grafikasi” elektron o‘quv qo‘llanma 2020. Respublika intellektual mulk agentligi guvohnomasi. №DGU 07744
- 6.Muslimov Sh.N., Xolmurzaev A.A., Madaminov J.Z., Xomidov A.Q. “Chizma geometriya va Muhandislik grafikasi” fanidan talabalar bilimini baholash uchun EHM dasturi 2020. Respublika intellektual mulk agentligi guvohnomasi. №DGU 08206
- 7.Muslimov Sh.N, Turaxanov.Sh.U, Matlab.I.A. “Chizmachilik” elektron qo‘llanma (mobil ilova) 2020. Respublika intellektual mulk agentligi guvohnomasi. №DGU 08816

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada ta’lim tizimida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllanishirishning mazmuni, usullari, xususiyatlari va kasbiy maxorati haqida batafsil yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подробно освещены содержание, методы, особенности и профессиональное мастерство формирования профессиональных качеств будущих педагогов технологического образования в системе образования.

SUMMARY

This article details the content, methods, features and professional skills of the formation of professional qualities of future teachers of technological education in the education system.

ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI SHAROITLARIGA PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARINI KASBIY MOSLASHTIRISH

Safarov A.R.

Pedagogik innovatsiyalar instituti mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so'zlar: kasbiy tayyorgatlik, mehnat bozori.; professional ta'lim; moslashtirish, bo'lajak mutaxassis.

Ключевые слова: профессиональное обучение, рынок труда; профессиональное образование; адаптация, будущий специалист.

Key words: vocational training, labor market; professional education; adaptation, future specialist.

Kirish. Respublikamizda mehnat va ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning strategik rejalarini ishlab chiqishda bitiruvchilarning kasbiy moslashuvchanlik holati hamda faoliyat talablariga moslasha olish qobiliyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida bitiruvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni samaradorligini oshirish bilan bog'liq vazifalarni hal qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ta'kidlash joizki, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasb-hunar tarbiyasi masalalari bo'yicha Sharq pedagogikasida ming yillar davomida xalqimiz ma'naviyatining rivojlantirishda muhim manba bo'lib kelgan "Qur'oni karim", Hadisi shariflarda, shuningdek, buyuk mutafakkirlar Muhammad Ismoil al-Buxoriy, Muhammad Iso at-Termiziy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Nasr Forobiy, YUsof Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Amir Temur, Alisher Navoiylarning ilmiy merosida nodir fikrlar tarzida o'z ifodasini topgan. Shu bois bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bu raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mehnat bozorida o'z o'rinlarini topishga imkon berish davlatimiz hamda ta'lim tizimimiz oldidagi asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Muhokama. Professional ta'lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri – bu bitiruvchilarni kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdir. Kasbiy tayyorgarlik – zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi sifatida izohlanadi.

Kompetentlik – ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtirishi. Kompetentlik insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma'lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va o'zi qaror qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi zamon fanida kasbiy komponentlik, ilmiy, boshqaruv, pedagogik, didaktik, metodik, ijtimoiy-psixologik kompetentlikka oid tushunchalar keng qo'llanadi. Olimlarimizning hamda nazariy tahlillarga asosan kompetentlik- bilim ko'nikma malaka va shaxsiy sifatlar majmui deb ta'rif keltirilgan.

Kasbiy tayyorgarlik o'z-o'zidan yuzaga kelmay balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi. Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga xos tasavvur, tushunchalarni tarkib topganligi bilan belgilansa, keyinchalik mutaxassislikka oid bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi, kasbiy sifatning qaror topishi hamda kasbiy moslashish darajasi bilan izohlanadi. Kasbiy moslashtirish – obyektiv va sub'ektiv ta'lim sharoitida bo'lajak mutaxassis shaxsining kelgusidagi kasbiy faoliyat talablarining o'zlashtirishi, faoliyat jarayoniga moslashishi, kasbiy layoqatlilik darajasidir. Tadqiqot muammosini nazariy o'rganish professional ta'lim muassasalarida tashkiliy-pedagogik, o'quv-metodik va moddiy-texnik shart-sharoitlar kasbiy moslashtirish jarayonida etakchi omillardan ekanligini ko'rsatdi. Jamiyatdagi o'zgarishlar, mutaxassislarning kasbiy bilim va shaxsiy sifatlariga qo'yilayotgan zamonaviy talablar ta'lim mazmunini yangilash, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi. Shu asosda, bugungi kunda professional ta'lim muassasalarida moddiy-texnik ta'minotini takomillashtirish, o'quv-uslubiy imkoniyatlari doirasini kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq bitiruvchilarni kasbiy moslashtirishning amaldagi mazmuni pedagog mutaxassis shaxsiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar doirasida takomillashtirilmaganligi, bu sohadagi ilmiy tadqiqot natijalarining besh to'laqonli amaliyotga tatbiq etilmayotganligi, ta'lim muassasalari mutaxassislari tayyorlash jarayonidagi imkoniyatlari va mavjud holat diagnostikasidan kelib chiqib, mazkur professional ta'lim muassasalari o'qitish tizimiga innovatsion texnologiyalarning to'laqonli joriy etilmayotganligi tadqiqot muammosiga nisbatan kontseptual yondashuvni talab etadi.

Bitiruvchilarni kasbiy moslashtirishdagi muhim jihatlardan yana biri bu shaxsning mavjud mehnat tajribasi sanaladi. Aslida mehnat tajribasi kasbiy-amaliy faoliyat natijasida yuzaga keluvchi kasbiy ko'nikma va malakalarning yig'indisi sifatida keltiriladi. Biroq, bitiruvchilarda mehnat tajribasining etishmasligi o'zlaridagi mavjud kasbiy bilimlarini hali amaliy faoliyatda sinab ko'rmaganliklari, real kasbiy faoliyat talablari haqida aniq tasavvurlarining yetarli emasligidan guvohlik beradi. Bu esa ta'limning mazmun va metodik aspektlariga, kasbiy istiqbol rejalarini belgilashga, o'quv-tarbiya jarayonining shaxs imkoniyatlariga asoslangan optimal amaliy sharoitini yaratishga to'sqinlik qiladi. Shu bois, bitiruvchilarni kasbiy moslashtirish jarayonida nazariya va amaliyot integratsiyasini yo'lga qo'yishning samarali metodik aspektlarini ishlab chiqish va tatbiq etish talabalardagi mehnat tajribasining shakllanishi, shuningdek, faoliyatli yondashuv darajasining ortishiga olib keladi.

Kasbiy moslashuvchanlikni shakllantirish – xalqaro standartlar hamda DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviyaxloqiy sifatlarni shakllantirish, bo'lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlash jarayonidir. Kasbiy moslashtirish – bitiruvchilarning kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirishi, individualashuvi demakdir. Ma'lumki, har bir ta'lim muassasasining muhim vazifalaridan biri bu birinchi kurs o'quvchilarini o'qitishning yangi tizimiga, yangi ijtimoiy munosabatlarga ijobiy moslashuvini, talabalik maqomini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarini ta'minlashdir.

Bitiruvchilarni professional ta'lim muassasasi sharoitiga moslashtirishda quyidagi jihatlarni alohida ko'rsatib o'tish lozim:

- o'quvchilarda moslashuv jarayonining kechishi murakkaab dinamiklikka ega bo'lib, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega qadriyatli tasavvurlarni o'zaro uyg'unlashuvini talab etadi;
- bitiruvchilar uchun o'qishning birinchi va ayrim hollarda ikkinchi yili murakkab vaziyatlar bilan birga kechadi;
- professional ta'lim muassasasida tahsil olish jarayonida o'quvchilarda o'z o'zini anglash tuyg'usi rivojlanadi, atrof-olam va borliqqa doir qadriyatli munosabatlar tizimining rivojlanishi davom etadi;
- o'quvchilarda bazaviy o'quv ustanovkalari shakllanadi;
- o'qish yillari tashkiliy, metodik va psixologik tavsifga ega bo'lib, shaxsning kasbiy va shaxsiy moslashuvining eng muhim bosqichidir.

Ma'lumki, kasbiy moslashuv murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlovchi

imkoniyatlar, shaxsning yoʻnalganligi, kasbiy bilim, koʻnikma, malaka va kasbiy sifatlar, mehnat tajribasi ham asosiy mezonlar koʻrinishida namoyon boʻladi. Bizga maʼlumki, shaxs taʼlim jarayonining faol obyekti va subyekti boʻlib, bitiruvchilarni kasbiy moslashtirish jarayonidagi faolligi uning yoʻnalganligi bilan belgilanadi. Insonning kasbiy moslashuvchanligini rivojlashtirish muammosini tadqiq etar ekan, S.L. Rubinshteyn uni ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, eʼtiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalaydi.

Natija. Oʻzgaruvchan axborot oqimining muhim xususiyatlaridan biri bu zamonaviy taʼlim yoʻnalishlari asosida bitiruvchilarni kasbiy moslashtirish tizimi sifat darajasini oshirish va rivojlantirish bilan belgilanadi. Bunda bitiruvchi kasbiy moslashuvchanligini shakllantirish mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi..

Xulosa. Tadqiqotimiz doirasida, shaxsning betakrorligi toʻgʻrisidagi fikrlar individuallikning tashqi jihatlari ifodalaydi. Individuallik bu insonning hayvonot va ijtimoiy olamdan farqlab turishidir. Insonning individualligida uning hayot va kasbiy faoliyati manbai mujassamlashgan. Individualligi rivojlangan individ toʻlaligicha oʻz kuchiga tayanadi va bu bilan u erkin va mustaqil shaxs sifatida namoyon boʻladi. Individuallik va shaxsni oʻzaro qiyosan qarab chiqilishi inson va jamiyat munosabatlarini aniqlashtirish imkonini beradi. Xulosa sifatida taʼkidlaydigan boʻlsak, shaxsning individualligi, kasbiy sifatleri, bilim, koʻnikma va malakalar tizimi bitiruvchilarni kasbiy moslashtirishda muhim omillardan biri boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Маркова А. К., Матис Т.А., Орлов А.Б. Формирования мотивации Махкамова М.ҲУ. Воʻlajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish: Ped.fanl.nomz. ... diss. avtoref. – T.:1999. – 22 b.
2. Muslimov N.A. Kasb taʼlimi oʻqituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fanl.dokt. ... diss. – T.: 2007. – 357 b.
3. Muslimov N., Abdullaeva Q., M., Mirsolieva M., “Pedagogik texnologiyalar” fanini oʻqitish boʻyicha oʻquv metodik-majmua (pedagogika oliy taʼlim muassasalarining “Kasb taʼlimi” taʼlim yoʻnalishi uchun). – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 252 b.
4. Mustaqil Oʻzbekiston taʼlimi / Tuzuvchilar: J.Yoʻldoshev, R.Ahliddinov, R.Otaboeva. – T.: SHarq NMK, 1997. – 48 b.
5. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lugʻat / Mualliflar: M.Abdullaev, I.Abdullaeva, Gʻ.Abdurazzoqova va boshq. – T.: SHarq NMK, 2000. – 320 Qoʻshimcha adabiyotlar
6. Мындыкану В.М. Педагогическая техника и мастерство учителя.– Кишинев «Штиинца», 1991.– 196 с.
7. Gaffarov.L.X. “Tabaqalashtirilgan taʼlim dasturlari asosida oʻquvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” Ped. fan fal. dok. diss avtoref-T:2023-140b

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kasbga moslashuvchanlikning o'ziga xos xususiyatlari, bitiruvchini kasbiy qobiliyatini oshirishni o'rgatish uchun xavfsiz va boshqariladigan muhitni rivojlantirish, shuningdek, professional ta'limni baholashning ishonchli usulini yaratish haqida so'z borgan. Shu sababli muallifning fikricha professional ta'lim uchun o'z kasbiy moslashuvchanligi yuqori bo'lgan bitiruvchilarni tayyorlash ta'lim jarayonida eng yaxshi ta'lim standartlari va axloqiy tamoyillarga mos keladigan asosiy yo'ldir. Maqolada kasbiy moslashuvchanlik darajasini tarixi va buguni haqida muallifning nazariy va amaliy bilimlari bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье обсуждаются особенности карьерной гибкости, развитие безопасной и контролируемой среды для обучения профессиональному развитию выпускников, а также создание надежного метода оценки профессионального обучения. Поэтому, по мнению автора, подготовка выпускников с высокой профессиональной гибкостью к профессиональному образованию является основным способом соблюдения лучших образовательных стандартов и этических принципов в образовательном процессе. В статье изложены теоретические и практические знания автора об истории и сегодняшнем дне уровня профессиональной гибкости.

SUMMARY

This article discusses the features of career flexibility, the development of a safe and controlled environment for graduate professional development training, and the creation of a reliable method for assessing professional learning. Therefore, according to the author, preparing graduates with high professional flexibility for vocational education is the main way to comply with the best educational standards and ethical principles in the educational process. The article outlines the author's theoretical and practical knowledge about the history and present day level of professional flexibility.



МУТАХАССИС КАДРЛАРНИНГ БОШҚАРУВЧАНЛИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КОММУНИКАТИВ МУЛОҚОТ ВА УНИНГ МЕХАНИЗМЛАРИ

Мустафоева Д.

*Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари
институтини Миллий тадқиқот университети доценти, PhD*

Таянч сўзлар: бошқарув, коммуникатив кўникмалар, мутахассис кадр, мулоқот, компетенция, ижтимоий фаоллик.

Ключевые слова: менеджмент, коммуникативные навыки, структура специалиста, коммуникация, компетентность, социальная активность.

Key words: management, communication skills, specialist structure, communication, competence, social activity.

Н.В.Кузьмина ўз тадқиқотларига асосланган ҳолда педагогик фаолиятга хос бўлган бешта функционал компонентларни санаб ўтади ва ҳар бир компонент таркибига 7 тадан компетенцияни киритади. Мана шу 35 та компетенция киритилган беш гуруҳ қуйидаги кўринишда баён этилади:

гностик (gnostic) компетенциялар – педагогик фаолият мақсади ва унга эришиш воситаларини ақс эттиради, педагогик вазифаларни ҳал этишнинг турли босқичларида таълим фаолияти субъекти ва объектининг ҳолати, ўқувчилар ва педагогларнинг психологик хусусиятларига оид билимларни эгаллашни назарда тутати;

лойиҳалаштирувчи (designer) компетенциялар – стратегик, тактик, оператив вазифаларни режалаштириш ҳамда уларни ҳал этишга оид ҳаракатлар мажмуи;

конструктив (constructive) компетенциялар – таълим ва тарбия мазмунини танлаш ва таркиб топтиришга оид ҳаракатлар;

ташкilotчилик (organization) компетенциялари - педагог ва ўқувчиларнинг ўзаро муносабатини ташкил этиш орқали педагогик фаолиятни амалга оширишга қаратилган ҳаракатлар;

коммуникатив (communicative) компетенциялар – раҳбар, педагоглар ва ўқувчилар билан ўзаро муносабатларни ўрнатишга оид қаратилган хатти-ҳаракатлар тушунилади

Раҳбарнинг кенг қамровли ижтимоий фаоллиги, коммуникация доирасининг кенглиги ва кундалик ҳаётда социал алоқаларни шакллантириш зарурати унинг фаолиятида ижтимоий соҳанинг нақадар муҳим ўрин эгаллашини билдиради. Шу муносабат билан, кейинги пайтларда шахс профессионал ҳаётининг таркибий бўғини бўлган ва деярли ҳар қандай мутахассис ва айниқса раҳбар учун ўта зарур бўлган компетенциялардан бири – социал компетентликдир. Инсоннинг бирон фаолият турида профессионал тайёргарлиги бўлмасдан туриб ҳам яхши натижаларга эришини айнан социал компетентлик асосида тушунтириш мумкин.

Раҳбарнинг профессионал муҳим сифатлари масаласи охириги йилларда мутахассислар ва амалиётчиларни кўпроқ қизиқтирмакда. Бир гуруҳ олимлар америкалик ҳамда япониялик раҳбарлар фаолиятини ўрганиб, уларга хос бўлган энг муҳим сифатларнинг блокларини ажратганлар. 1500 нафар америкалик менежер ва 41 нафар япониялик йирик фирма раҳбарларининг сифатлари куйидагича табақаланди:

- концептуал қобилият ва хулқ-атвор стандартлари: дунёқарашнинг кенглиги ва глобал ёндашув; узокни кўра билиш ва эгилувчанлик; ташаббускорлик, дадиллик ва таваккалчиликка мойиллик; мунтазам ўз устида ишлаш ва узлуксиз таълим.
- шахсий сифатлар: мақсад ва йўналишларни аниқ белгилаш хусусияти; ўзгалар фикрини тинглай олиш қобилияти; холислик, самимият ва бағрикенглик; адолатли қарорлар чиқариш орқали ходимларни жой-жойига қўйиш ҳамда улар имкониятларидан тўла фойдаланиш; жамоани ташкил этиш ва унда уйғун психологик муҳитни ушлаб тура олиш қобилияти.
- саломатлик.

Барча ўтказилган тадқиқотлар натижасида шу нарса аён бўлдики, америкалик раҳбарлар кўпроқ ходимларнинг шахсий-индивидуал ташаббуслар кўрсатишларига имкон берувчи муҳитнинг бўлиши тарафдорлари бўлсалар, японияликлар – ходимларнинг ҳамкорликдаги фаолиятлари самарасини оширувчи шароитларни яратишга эътибор берадилар.

Коммуникатив компетенция – бу бошқарувчининг турли тилдаги оғзаки ва ёзма муомала технологияларини ўзлаштирганлиги ҳамда компьютерда дастурлаш ва Интернет орқали муносабатга кириша олиш қобилияти. Айрим мутахассислар томонидан ижтимоий-психологик компетенция тушунчаси кўпинча ОАВда “коммуникатив компетенция” тушунчаси билан синоним сифатида ҳам ишлатилади. Бевосита коммуникатив компетенцияни аниқлаш учун “Мулоқотга киришувчанлик даражаси”, “Фикрни

баён эта олиш” каби қатор методикалар ҳамда ўзини қанчалик назорат қила олишини билишда М.Снайдернинг махсус тести қўлланилади.



2-расм. Раҳбарларнинг коммуникатив компетентлик хусусиятлари

Раҳбарларда коммуникатив компетенцияларнинг шаклланишида мулоқотга эътибор каби сифат ҳақида маълумот бермоқчимиз, яъни раҳбарнинг ходимларнинг маълумотлар билан таъминланиш жараёнини назорат қилиб бора олиш. Ушбу компетенцияга эга раҳбар: жамоадаги ҳар бир ходимни келгуси режалари ва фаолиятига доир содир бўлиши мумкин бўлган воқеа-ҳодисалардан олдиндан хабардор бўлиб боришларини кузатиб боради; бошлиқнинг ўз режаларини ҳамкасблари ва бошқа алоқадор ходимлар билан ўртоқлашишини кузатиб боради; муҳим хабарларни етказишда барча турдаги алоқа воситалар (иш юзасидан хат, йиғилиш, электрон почта) дан унумли фойдаланади; кутилмаган кўнгилсизликлардан қочиш мақсадида ишнинг бориши ва учраши мумкин бўлган қийинчиликлар ҳақида бошқарувчини доимий хабардор қилиб боради; маълумотлар алмашиш ўзаро келишилган ҳолда ва доимий равишда амалга ошишини кузатиб боради (2-расмга қаранг)

Коммуникатив компетентликнинг асосий таркибий қисми профессионал таълим муассасаси раҳбарининг алоқа ва ахборот саводхонлиги бўйича бошқа иштирокчининг позициясини ҳисобга олган ҳолда ўзаро ҳамкорликни мувофиқлаштириш қобилиятидир. О.С.Анисимов алоқа

жараёнида тўртта асосий ролни белгилайди: “муаллифлик”, “тушуниш”, “танқидчилик” ва “ташкilotчилик”.

Рахбарнинг коммуникатив қобилиятларининг самарадорлик даражаси шахслараро муносабатлардаги хатти харакатлари билан белгиланади. Албатта бу жараёнда ижтимоий муҳит ва унинг таъсири, ходимлардаги шаклланган шахсий қадриятлар ва индивидуал-психологик хусусиятлар, очиклик, ҳиссийлик, экспрессивлик, адекват ижтимоий идрок қила олиш қобилияти, кузатиш, мнемоник қобилият ва бошқалар каби шахсий фазилатлар киради.

Шулар билан бир қаторда ходимларни бошқаришда юзага келиши мумкин бўлган тўсиқлар ҳам мавжуддир, улар:

1. Коммуникатив маконда рахбар томонидан ахборотни идрок этиш жараёнида юзага келадиган тўсиқлар.

2. Муҳим қарорларни амалга ошириш учун зарур бўлган маълумотларни бошқарув жараёнининг бошқа субъектларига ўтказишда юзага келадиган тўсиқлар.



3-расм. Коммуникатив хулқнинг ташкилий-педагогик омиллари

Жамият ва шахс тараққиётида ҳал қилувчи ўрин тутадиган, келажак бунёдкорлари бўлган ёш авлодни тарбиялаш масъулияти юкланган таълим соҳаси муттасил янгиланиш, илғор ва инновацион ғоялар билан уйғун тараққий этишни талаб қиладиган соҳа саналади. Шунингдек, миллий стандартлари талабларини халқаро таълим стандартлари таснифлагичига мувофиқлаштириш, миллий малака талабларини босқичма-босқич халқаро аналогларга мослаштириш олдимизда турган долзарб вазифалар ҳисобланади.

XXI асрда фаолият кўрсатаётган замонавий раҳбарларнинг компетенциялари трансформациялашиб бораётган жамият ва давлат иқтисодиёти талабларига жавоб бериши лозим. Айнан уларнинг шарофати билан инсонлар мураккаб бўлган ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий соҳаларда юзага келадиган эҳтиёжларни тезда қондира олувчи мослашувчан ҳамжамиятларни вужудга келади.

Адабиётлар:

1. Адизова Т. М. Бошқарув мулоқоти. - Тошкент: Низомий номли ТДПУ, 2000. – 35 б.
2. Арзиқулов Д. Психологик-педагогик тренинглар орқали касбий маҳоратни ошириш // Kasb-hunar ta'limi j. – Т.: 2002. 4-сон. -28 б.
3. Байбаева М.Х., Мустафаева Д.А, Усманов К Бошқарувда раҳбар аёлларнинг ўрни // “Янгиланаётган Ўзбекистонда хотин-қизларнинг илм - фан тараққиётидаги роли: гендер тенглик” мавзусидаги 1-Халқаро онлайн илмий амалий анжуман. Тошкент 2021. – Б. 480-483.
4. Мирсолиева М., Ишмухамедов Р., Акрамов А. Раҳбарнинг инновацион фаолияти. Ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: Фан ва технология, 2019. - 124 б.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада мутахассис кадрларнинг бошқарувчанлик компетентлигини ривожлантиришда коммуникатив мулоқот ва унинг механизмлари роли ҳақида сўз юритилади.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о роли коммуникативного диалога и его механизмов в развитии управленческой компетентности специалистов.

SUMMARY

This article talks about the role of communicative dialogue and its mechanisms in the development of managerial competence of specialists.

IJTIMOIIY YO'NALISH TALABALARINI INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Sattorova M. A.

QarshiDu pedagogika kafedrası v/b dotsenti

Tayanch so'zlar: inklyuziv,anomal, affektiv,maxsus bola,o'qitish, tarbiyalash.

Ключевые слова: инклюзивный, ненормальный, аффективный, особый ребенок, учение, воспитание.

Key words: inclusive, abnormal, affective, special child, teaching, upbringing.

Mamlakatimizda ham barcha sohalar qatori inklyuziv ta'limni ham tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish" ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv tayyorgarligini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni amalga oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 1 dekabrdaqi O'RQ-139-sonli "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", 2008 yil 11-iyuldagi O'RQ-162-sonli "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" va 2020 yil 23 sentabrdagi O'RQ-637-sonli O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017 yil 1 dekabrdaqi PF-5270-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017 yil 1 avgustdaqi F-5006-sonli "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoyishi hamda 2016 yil 26 dekabrdaqi PQ-415-sonli "Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida, 2007 yil 17 maydaqi PQ-100-sonli "Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to'g'risida" hamda 2020 yil 13 oktabrdaqi PQ-4860-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan

bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Shu bois ta'lim muasasalarida o'qituvchilarning inklyuziv tayyorgarligi muammosi dolzarb hisoblanadi. Birgalikda o'qitish nafaqat "maxsus" bolalarga ijtimoiy o'zaro munosabatlarni o'rganishda yordam berishi, balki normotipik bolalarda hamdardlik, boshqa tushunarsiz xatti-harakatlarga nisbatan bag'rikenglik, hamdardlik qobiliyatini va boshqa insonparvarlik qadriyatlarini rivojlantirishi kerak. Bu fazilatlar, albatta, o'qituvchilar va bolalar bilan ishlaydigan boshqa mutaxassislarda ham bo'lishi kerak. "Maxsus" bolalarni "maxsus bo'lmagan" bolalar bilan birga o'qitish oson ish emas, bu vaqtda qiyinchiliklar paydo bo'lishi muqarrar. Biz bu faoliyatga tayyor bo'lishimiz kerak. Nogiron bolalarni o'qitish uchun alohida uslubiy tayyorgarlik - maxsus dasturlar yoki pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, moslashtirish va amalga oshirish zarurati mavjud. Bunday pozitsiyani shakllantirish uchun gumanistik dunyoqarash, energiya va o'z-o'ziga xizmat qilish qobiliyatlari kerak. Oxirgi shartsiz, qiyin inklyuziya sharoitida ishlaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat xavfiga duchor bo'ladi. Bundan tashqari, maktablarda inklyuziv yondashuvni joriy etish ma'muriyatning faol ko'magisiz mumkin emas. Barcha xodimlar bitta pozitsiyada turishi va qiyin vaziyatlarda qanday harakat qilishning yagona algoritmini ishlab chiqishi uchun jamoa bilan uslubiy va tushuntirish ishlari olib borilishi lozim. Maktabda samarali psixologik yordam xizmati bo'lishi kerak. Uning xodimlari "maxsus" bolalarni kuzatib borish, bolalar va o'qituvchilar o'rtasida aloqa o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilar va ota-onalarni qo'llab-quvvatlash, sinf bilan tizimli ishlashga jalb qilinadi. Bunday ish "maxsus" bolalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlashga, qiyin vaziyatlarda ularga yordam berishga, ular uchun boshqa bolalar bilan o'qish nima uchun muhimligini, nega ba'zida o'zlarini g'alati tutishini, bu nimani anglatishini va ularga qanday qilib to'g'ri yordam berishni tushuntirishga qaratilgan bo'lishi nazarda tutiladi.

Inklyuziv sinfga ega bo'lgan o'qituvchining faoliyatidagi asosiy qiyinchiliklar: nogiron bolalar o'quv jarayonini buzadigan murakkab xatti-harakatlarni namoyon qilishi mumkin. Ba'zan ular boshqalarga nisbatan tajovuzkor bo'lib, bu boshqa bolalarning sog'lig'i va farovonligi uchun xavf tug'diradi. Boshqa bolalar ularning xatti-harakatlariga munosabat bildirish orqali bolalarni tahqirlashlari hamda normo-tipik bolalarning ota-onalari, noqulay o'quvchini sinfdan olib tashlashni o'z ichiga olgan holda, darhol harakat qilishni talab qilishlari mumkin. Ushbu qiyin vaziyatlarni qanday hal qilasiz? Birinchidan, har qanday holatda ham inklyuziv yondashuvni amalga oshirish uchun turli xil resurslardan sarmoyalar talab qilinishini tushunish muhimdir. Bu dasturlarni moslashtirish, individual o'quv rejasi va individual topshiriqlarni tuzish va mutaxassislarni maxsus bolalar

bilan ishlashga jalb qilish va ota-onalar jamoasi bilan qo'shimcha aloqa o'rnatish. Ushbu faoliyatga tayyor turish va uni to'g'ri rejalashtirish muhimdir. "Maxsus" bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini baholab, bolaning sinf bilan umumiy dastur asosida o'qishini yoki o'qiy olmasligini tushunish kerak. Salbiy javob berilgan taqdirda, uni realistik maqsadlar bilan o'qitishning individual rejasini tuzish, ularni amalga oshirish muddatlarini belgilash va rejalashtirilganlarni izchil amalga oshirish zarur. Buyuk rus o'qituvchisi K.D. Ushinskiyning bolalarni axloqiy tarbiyalashning dolzarb mavzusini ochib berdi. Agar murakkab xatti-harakatlar kamdan-kam hollarda ro'y bersa va o'qituvchining borligi uchun favqulodda ehtiyoj bo'lmasa, hamma uchun tushunarli bo'lgan qiyin vaziyatlarda harakatlar algoritmi kerak. Masalan, agar bola to'satdan affektiv holatga tushib qolsa, uni alohida xonaga olib borish va u tinchlanguncha u bilan birga bo'lish kerak. Bolalar bunday holatlarda har qanday kattalar maktab xodimlarini yordamga chaqirishlari kerakligini bilishlari zarur. Ota-onalar jamoasi bilan ishlash tushuntirishlar olib borish talab etiladi. Sizga o'qituvchilar tarkibi har xil bolalarning birgalikdagi ta'limi borasida qanday pozitsiyani egallashi va nima uchun bu sizning nuqtai nazarinizdan to'g'ri ekanligini aytib berish muhimdir. Agar ota-onalar farzandlarini sizning maktabingizga yuborishsa, ular bu holatni baham ko'rishadi yoki hech bo'lmaganda qabul qilishadi. Jiddiy ziddiyat, shikastlanish xavfi yoki boshqa xavfli vaziyat yuzaga kelgan taqdirda, barcha ishtirok etuvchi tomonlar ishtirokida hal qilinishi mumkin. Bundan tashqari, har bir ishtirokchining kuchli tomonlarini aniqlaydigan o'quv mashg'ulotlari yoki hatto ta'lim vazifalari ham foydalidir. Bolalarga har kimning kuchli va zaif tomonlari borligini yetkazish muhim, shunchaki ularni topish kerak. Ammo eng muhimi, kattalar har kimga yordam berishni qabul qilish va insonparvarlik tamoyiliga rioya qilishi lozim. Darhaqiqat, tabiatda hamma narsaga tayyor insonlarning o'zi yo'q! Shuning uchun, o'ziga xos shubha "maxsus" bolalar bilan ishlashda odatiy holdir, vaziyatda oldindan aytib bo'lmaydi. Ba'zida eng muhimi, maslahat va axloqiy qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan, insoniy fazilatlarini bilan o'rnatib bo'ladigan o'qituvchilarni shu jarayonga jalb qilinsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Adabiyotlar:

1. Хитрюк, В.В. Основы инклюзивного образования : электронный учебно-методический комплекс. [Электронный ресурс]. / В.В. Хитрюк, Е.И. Пономарева. — Барановичи : РИО БарГУ, 2015.
2. Хуторской, А.В. Компетентностный подход к моделированию последипломного образования / А.В. Хуторской, Л.Н. Хуторская // Теория и практика последипломного образования: сб. науч. трудов ; под ред. А.И. Жука. — Гродно: ГрГУ, 2003. — С.256 -259.
3. Чернявская, А.П. Психологическое консультирование по профессиональной ориентации / А.П. Чернявская. - М. : Изд-во ВЛАДОС-ПРЕСС, 2001. — 96 с.



РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada biz ijtimoiy yo'nalish talabalarini inklyuziv ta'limga tayyorgarligi muammosining dolzarbligi yoritilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv yondashuvni qabul qilishda o'qituvchilar duch keladigan ba'zi muammolar sanab o'tilgan va ularning yechimlari haqida fikrlar bayon etilgan.

РЕЗИОМЕ

В данной статье мы выделяем актуальность проблемы подготовки школьников обществоведов к инклюзивному образованию. Также перечислены некоторые проблемы, с которыми сталкиваются учителя при внедрении инклюзивного подхода в общеобразовательных школах, и даны идеи по их решению.

SUMMARY

In this article, we highlight the relevance of the problem of preparing social studies students for inclusive education. Also, some problems faced by teachers in adopting an inclusive approach in general secondary schools are listed and ideas about their solutions are given.

ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ИЖТИМОЙ ФЕНОМЕН СИФАТИДА

Сатторова М.

ҚарДу ўқитувчиси

Таянч сўзлар: инклюзив таълим, феномен, таълим ва тарбия жараёни, ижтимоий, таълимнинг гуманистик моҳияти, махсус таълим муассасалари, ёш авлодни ақлан теран, жисмонан соғлом, маънавий етук, ҳар томонлама ривожланган комил инсон қилиб вояга етказиш.

Ключевые слова: инклюзивное образование, явление, процесс образования и воспитания, социальный, гуманистический характер образования, специальные образовательные учреждения, воспитание подрастающего поколения психически, физически здоровым, духовно зрелым, всесторонне развитым человеком.

Key words: inclusive education, phenomenon, process of education and upbringing, social, humanistic nature of education, special educational institutions, raising the younger generation as mentally, physically healthy, spiritually mature, comprehensively developed people.

Ўзбекистон Республикасининг таълим соҳасидаги давлат сиёсати умуминсоний кадриятларнинг устуворлиги тамойиллари, инсон ҳуқуқлари, таълимнинг гуманистик моҳияти, ҳар кимнинг билим олишга бўлган конституциявий ҳуқуқларининг кафолатланиши, таълим олишдан тенг ҳуқуқлиликдан фойдаланишга таянади. Таълимни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари этиб қуйидагилар белгиланган: таълим соҳасида фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларининг кафоланиши; таълим олишда тенглик, шу жумладан, ривожланишида махсус психофизик хусусиятлари бўлган шахсларга, уларнинг соғлиғи ва билим қобилиятларига мувофиқ, асосий таълимнинг барча даражаларида ва қўшимча таълим олишда шарт-шароитлар яратиш; ривожланишида махсус психофизик хусусиятлари бўлган шахсларга махсус таълим олиш учун махсус шарт-шароитлар яратиш ва уларга коррекцияловчи педагогик кўмак бериш; шахснинг таълимга бўлган эҳтиёжларини, шунингдек шахсни шакллантиришда, малякали кадрларни тайёрлашда жамият ва давлатнинг эҳтиёжларини қондириш учун зарур шарт-шароитлар яратиш. Таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг устувор йўналишлари; сифат, қулайлик, шахсга йўналтирилганлик, мазмун, таълим дастурлари ва таълим йўналишларининг турли-туманлиги ва ҳоказо.

Давлатимизнинг устувор сиёсати ёш авлодни ақлан теран, жисмонан соғлом, маънавий етук, ҳар томонлама ривожланган комил инсон қилиб вояга етказишдан иборат. Буюк мутафаккирларимизнинг асарларни таҳлил қилар эканмиз, улар ўз асарлари билан ногирон болалар таълим тарбияси мазмунининг бой методологик асосларини яратганликларининг гувоҳимиз. Абу Наср Форобий, Ибн Сино, Алишер Навоий каби буюк мутафаккирларимизнинг барчаси жамиятни бир бутун деб қараб, барча инсонларни тенг деб ҳисоблаганлар. Демак, махсус эҳтиёжли болаларга ҳам жамиятнинг тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида таълим тарбия бериш ҳозирги замон каби ўша XI-XII асрлардаёқ буюк Шарқ мутафаккирларининг ҳам диққат марказидан четда қолмаган.

Жуда кўплаб давлатларда махсус ёрдамга муҳтож болаларни тарбиялашда компенсатор имкониятларни ривожлантириш ҳамда ижтимоий мослаштиришни тўлалигича йўлга қўйиш мақсадида умумтаълим мактабларида таълим бериш давлат сиёсати режасига киритилди. Бунинг натижасида эса 1990 йилда Таиландда Умумжаҳон Конференцияси бўлиб ўтди. Бу конференцияда “Таълим ҳамма учун” Умумжаҳон Декларацияси қабул қилинди.

“Инклюзив таълим” тушунчаси инглиз тилидан, inclusive, inclusion–уйғунлашмоқ, уйғунлаштириш, қамраб олмақ, қамраб олиш маъноларини билдиради. П.ф.н, доцент Р.Шомахмудова “Ногирон ва махсус эҳтиёжли таълим олувчилар ўртасидаги тўсиқларни бартараф этиш, махсус таълимга муҳтож болалар ва ўсмирларни ривожланишидаги нуқсонлар ёки иқтисодий қийинчиликлардан қатъий назар, оиланинг фаол иштирокида, хусусан боланинг эҳтиёжини қондиришга ва ижтимоий ҳаётга мослаштириш ва умумтаълим тизимига тўлиқ қўшишни ифодаловчи таълим тизимидир”-деб таъриф бериб ўтган.

Бизнинг тадқиқотимиз айнан жисмоний имконияти чекланган ёшларни ўқитиш, тарбиялаш, уларни касб-ҳунарга тайёрлаш муаммосига қаратилганлиги боис биз Республикамиз ва ҳамдўстлик мамлакатларида махсус педагогика соҳасида олиб борилган илмий тадқиқот ишларига кўпроқ тўхталдик.

Махсус педагогика соҳасида етук оlima Л.Р.Мўминова томонидан мактабгача ёшдаги имконияти чекланган болаларнинг нутқидаги нуқсонни бартараф этиш бўйича коррекцион–педагогик ишларнинг назарий асослари ишлаб чиқилган, шунингдек, болаларни логопедик текшириш ва ўқитиш методикаси яратилиб амалиётга жорий этилган.

Л.Ш.Нурмухаммедованинг “Оилада ногирон фарзандни тарбиялашнинг педагогик хусусиятлари” илмий тадқиқотлари доирасида оилада ногирон фарзанди бор ота-оналарнинг ўзига хос хусусиятлари, қийинчиликлари ва

ижтимоий-педагогик, психологик кўрсатмаларга муҳтожлиги таҳлил қилинган ва бир қатор илмий натижалар олинган.

Ногирон шахснинг ўз-ўзига хизмат кўрсатиш, мустақил ҳаракатланиши, мўлжал олиш, муомала қилиш, ўз хулқини назорат қилиш, меҳнат фаолиятини ўрганиш ёки машғул бўлиш қобилиятини тўлиқ ёки қисман йўқотиши, уни ижтимоий муҳофаза қилиш чораларини амалга ошириш заруриятини кўрсатади.

Инсоннинг ногирон бўлиб қолган пайтида шаклланган шахсий хусусиятларига инсоннинг ўзи учун, унинг ҳаёлида юз берадиган ҳодисалар учун жавобгарлигини англашга боғлиқ.

Ш.М.Амирсaidованинг тадқиқотларида шарқ мутафаккирларининг махсус педагогика фанига оид илмий фикрлари ўрганилиб, Абу Али Ибн Синонинг махсус педагогика фани раvнақи учун хизмат қиладиган тиббий-илмий, педагогик ва психологик ғоялари таҳлил қилиниб, ўқув жараёнига тадбиқ этиш усуллари ишлаб чиқилган.

М.П.Ҳамидова томонидан олиб борилган “Мақтабгача ёшдаги ақли заиф болалар сўз бойлигини оширишнинг коррецион-педагогик асослари” номли тадқиқот ишида умум ва махсус педагогик тадқиқотлар асосида ақли заиф болаларнинг нутқини кўриқдан ўтказиш методлари яратилган. Болаларни кўриқдан ўтказиш натижасида ақли заиф болалар нутқининг ривожланмаганлик мезонлари ишлаб чиқилган. Мақтабгача ёшдаги ақли заиф болаларнинг предметлар ҳақидаги тасаввурларини кенгайтириш, ҳиссий–иродавий соҳаларини жалб этиш билан бирга билишга қизиқиш ва нутқий мотивацияни кучайтиришга қаратилган коррекцион–педагогик иш мазмуни ва усуллари ишлаб чиқилган.

Д.А.Назарова томонидан мақтабгача ёшдаги заиф эшитувчи болалар нутқини ривожлантиришга қаратилган илмий ишида илк бор мақтабгача таълимда заиф эшитувчи болаларнинг нутқий ривожланиш даражасини тадқиқ қилиш методикасининг мослаштирилган варианты, мақтабгача ёшдаги заиф эшитувчи болалар нутқини ривожлантиришнинг мазмуни, янги интерфаол усуллари ҳамда шакллари, ўрганилаётган болаларнинг умумий ривожланишини таъминлашда уларнинг ўзига хос ривожланиш омилидан келиб чиқиб, нутқини кенг қамровли ривожлантириш тизими ишлаб чиқилган ва асослаб берилган.

М.Ф.Ҳақимованинг “Махсус ёрдамга муҳтож ўқувчиларни касб-хунарга таёрлашнинг педагогик асослари” (ақли заиф ўқувчилар мисолида) тадқиқотлари доирасида қуйидаги илмий натижалар олинган:

1. Махсус мақтаблар, мақтаб-интернатлар ва ихтисослаштирилган санонат касб-хунар коллежларидаги ақли заиф ўқувчиларни касб-хунарга тайёрлаш илмий-назарий жиҳатдан асослаб берилган.

2. Махсус ёрдамга муҳтож ақли заиф ўқувчиларнинг касб-хунарни танлашга бўлган қизиқишининг юзага келиши ва ривожланишига таъсир этувчи омиллар аниқланган.

3. Ўқувчиларни касб-хунарга тайёрлашда психологик-педагогик хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда, касб-хунарга тайёрлашнинг методик таъминоти яратилган. Ихтисослаштирилган касб-хунар коллежлари учун методик тавсияномалар, дарс ишланмалари ва ўқув қўлланмалар яратилган.

4. Махсус ёрдамга муҳтож ўқувчиларни касб-хунарга тайёрлашда халқ хунарамандчилигидан самарали фойдаланилган.

5. ”Ошпаз-қандолатчи”, “Кенг ассортиментдаги кийимлар тикувчиси” каби янги мутахассисликлари ўқув режасга киритилган.

Махсус таълим муассасаларини меҳнат таълими ўқитувчилар учун ақли заиф ўқувчиларни касб-хунарга тайёрлашга доир, таълимнинг узвийлигини таъминлаш борасида педагогик тавсиялар ишлаб чиқилган ва махсус ёрдамга муҳтож ўқувчиларни касб-хунарга тайёрлашнинг самарали тизими яратилган.

Ф.Мирзаеванинг “Жисмоний имконияти чекланган ўқувчиларнинг ижтимоий мослашувини таъминлаш ва уларни касб-хунарга ўргатиш методикасини такомиллаштириш” мавзусидаги диссертация ишида қуйидаги илмий янгиликларга эришилган.

- жисмоний имконияти чекланган ўқувчиларнинг ижтимоий, психологик ва касбий мослашув муаммоларига қаратилган инклюзив таълимнинг интерфаол мулоқот, ҳамкорлик, лойиҳалаш ва баҳолашдан иборат дидактик имкониятлари аниқланган.
- жисмоний имконияти чекланган ўқувчиларни касб-хунарга ўргатиш модели махсус фанлар интеграциясини таъминлаш орқали ижтимоий мослашувни таъминлашга қаратилган ўқув меъёрлари ва жараёнларни оптималлаштириш ҳамда ўқитиш натижаларининг таҳлили асосида такомиллаштирилган;
- жисмоний имконияти чекланган ўқувчиларни касб-хунарга ўргатиш ўқув мазмунининг умумдидактик тамойиллари асосида “Ижтимоий мослашув” ўқув модулининг ахборот-методик таъминоти ишлаб чиқилган;
- жисмоний имконияти чекланган ўқувчиларнинг мотивацион, рефлексив ва коммуникатив қобилиятларини ривожлантириш методикаси махсус фанларни интегратив-модули ёндашув ва ўқув модуллари орасидаги узвийликни таъминлаш асосида такомиллаштирилган.

У.Ю.Файзиева томонидан 0-1 синфларда заиф эшитувчи ўқувчиларни саводга тайёрлаш ва ўргатиш методикаси ишлаб чиқилган бўлиб, биринчи марта заиф эшитувчи болаларнинг она ҳомила ойдаги давридан мактабгача келгунча давридаги умумий ривожланиш жараёни, эшитиш қобилиятининг

бузилиш вақти ва сабаблари ўрганиб чиқилган. Саводга ўргатиш пайтида болаларда товушларни талаффуз қилиш кўникмаларини ҳосил қилиш, сўз бойлигини шакллантириш ва бойитиш, фонематик жараёнларни тушуниш даражасини аниқлаш устида изланишлар олиб борилган бўлиб, ўзбек тилида биринчи марта заиф эшитувчи болаларни саводга тайёрлаш ва уларга савод ўргатиш системаси ишлаб чиқилган.

Буюк Британиянинг “Болаларни қутқаринг” (“Save the children”-2002 йил) жамғармаси томонидан нашр этилган ўқув қўлланмада инклюзив ва интеграцион тушунчалари бир хил маънода ишлатилади. Шунга қарамадан, ушбу тушунчалар орасида фарқ мавжуд бўлиб, бу фарқларни қуйидагича ифодалаш мумкин:

интеграцион таълим: махсус эҳтиёжли болаларни умумтаълим мактабларига қатнаши;

инклюзив таълим: махсус эҳтиёжли болаларни сифатли таълим тарбия олиши.

Бу иккала тушунча ўртасидаги тафовут янада тушунарлироқ баён этилган бўлиб, қуйидагича таъкидланади:

Интеграциялашган таълимда болага муаммо сифатида қаралади.

Ногирон боланинг индивидуал ёки тиббий ҳолатда мактабга ёки жамиятга мослашиши керак. Масалан, эшитишида нуқсон бўлган бола умумтаълим шароитига мослашиши учун эшитув аппаратидан фойдаланиб гапиришни ўрганиши керак. Соғлом боладан эса имо-ишора тилини ва мулоқотнинг бошқа шакллари ўрганиш талаб қилинмайди. Ўқишда муаммо бўлса, бола стандарт талабларни бажариши керак. Акс ҳолда ўқитувчи қўшимча машғулотлар ўтилиши лозим. Инклюзив таълим болани эмас тизимни ўзгартиришни тақозо қилади. Назарий адабиётларни таҳлил қилиш жараёнида интеграцион ва инклюзивлик тушунчаларининг ўртасида умумийлик ҳам мавжудлиги ўганилди, бу умумийлик замирида махсус эҳтиёжли болаларни умумтаълим тизими шароитига киритиш ётади. Хорижий давлатларда инклюзив таълим тизимининг жорий қилинишини ўрганар эканмиз, бу таълим тизимини жорий этиш узоқ вақтни талаб этишини ва жуда кўп миқдордаги моддий маблағ зарурлиги аниқланди. Шунинг учун ҳам жаҳон миқёсида инклюзив таълим тизимининг олдида қуйидагича жуда кўплаб муаммолар ва тўсиқлар мавжуд:

- ота-оналар учун ўқув қўлланмаларнинг йўқлиги;
- кўплаб давлатларда инклюзив таълимни жорий этиш бўйича давлат норматив ҳужжатларида қайд қилинмаганлиги;
- ногирон болаларга нисбатан салбий муносабат;

махсус эҳтиёжли болаларнинг ҳамжамиятда кўринмаслик муаммоси;

махсус эҳтиёжли болаларнинг мактабда кўринмаслик муаммоси;

моддий маблағ муаммолари;

таълим муассасаларини жисмоний мослаштириш;
 синфда ўқувчилар сонининг кўплиги;
 камбағаллик;
 жинсий тафовутларга қараб камситиш;
 махсус эҳтиёжли болаларнинг бошқаларга қарамлиги;
 фавқулодда вазиятлар можаролар қочоқлар;
 кадрлар масаласидаги муаммолар.

Ҳақли савол туғилади, нима учун махсус эҳтиёжли болаларни инклюзив таълим тизимига жалб этиш керак? Юқорида келтирилган муаммоларни ҳал этиб, инклюзив таълим тизимига ўтишга қандай зарурият бор? Дарҳақиқат, бу таълим тизими олдидаги муаммоларни ҳал этиш осон кечмайди. Аммо бу таълим тизимининг нафли жиҳати жуда кўп бўлиб улар сирасига қуйидагилар киради:

инклюзив таълим қашшоқлик ва ажратиш исканжасидан қутулишга имкон беради;

инклюзив таълим махсус эҳтиёжли боланинг ўз оиласи ва жамият давра-сида бўлишга имкон беради;

инклюзив таълим барча учун таълим сифатини яхшилайди;
 камситишларни олдини олади;

Умумтаълим муассасалари шароитида махсус эҳтиёжли болаларга таълим тарбия беришнинг ўзигина самарали натижа бермайди. Бунинг учун мактабда педагоглар, дефектологлар, психологлар томонидан дўстона муносабат муҳитини яратиш лозим. Синфда дўстона муносабат муҳитининг шаклланиши соғлом ва махсус эҳтиёжли болаларнинг бир-бирларига нисбатан меҳр-муҳаббатли бўлишларига, бир бирларига доимо ёрдам беришларига замин яратади. Имконияти чекланган болаларнинг ўз-ўзига бўлган ишончини оширади. Бу эса коррекцион-педагогик ишни самарали ва осонроқ кечишини таъминлайди.

Адабиётлар:

1. Хуторской, А.В. Компетентностный подход к моделированию последипломного образования / А.В. Хуторской, Л.Н. Хуторская // Теория и практика последипломного образования: сб. науч. трудов ; под ред. А.И. Жука. — Гродно: ГрГУ, 2003. — С.256 -259.
2. Чернявская, А.П. Психологическое консультирование по профессиональной ориентации / А.П. Чернявская. - М. : Изд-во ВЛАДОС-ПРЕСС, 2001. — 96 с.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада таълим ва тарбия жараёнида инклюзив таълим ижтимоий феномен сифатида эканлиги тўғрисида сўз юритилади.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится об инклюзивном образовании как социальном явлении в процессе образования и воспитания.

SUMMARY

This article talks about inclusive education as a social phenomenon in the process of education and upbringing.

KOMPETENSAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA XORIJIY TIL (INGLIZ TILI) GA OID KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK IMKONIYATLARNING KAMCHILIKLARI

Muslimov N.A.

Ilmiy rahbar: p.f.d, prof.

*Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi professor-o'qituvchilarni
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi direktori*

Xolxodjaeva D.Sh.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Professional
ta'limni rivojlantirish instituti I kurs tayanch doktoranti*

Tayanch so'zlar: didaktik qiyinchiliklar, xorijiy til, umumiy didaktik qiyinchiliklar, lingvodidaktik qiyinchiliklar, texnikum.

Ключевые слова: дидактические трудности, иностранный язык, общедидактические трудности, лингводидактические трудности, техникум.

Key words: didactic difficulties, foreign language, general didactic difficulties, linguodidactic difficulties, technical school.

Dunyodagi hozirgi vaziyat, qadriyatlarining o'zgarishi, xalqaro maydonda raqobatbardosh yashash zarurati tufayli nafaqat ijodiy va intellektual rivojlangan, balki xorijiy tilni kommunikatsiya vositasi sifatida yaxshi biladigan mutaxassislarga ehtiyoj paydo bo'ldi. Xorijiy tilni kundalik va professional vaziyatlarda muloqot qilish judayam muhim hisoblanadi. Bu borada rus olimlari I.A. Matveenko, L.V. Maletina, N.Yu. Sipailova til ta'limi mamlakatdagi o'zgarishlarning muhim zaxirasi bo'lib, insoniyatning muvaffaqiyatli hayotiga hissa qo'shishini ta'kidladi. Bundan tashqari, lingvistik tayyorgarlik shaxsning madaniy va intellektual rivojlanishi va tarbiyasining muhim omilidir [5]. Xuddi shunday nuqtai nazarni I.L. Bimning ta'kidlashicha, zamonaviy jamiyat nafaqat yashabgina qolmay, balki doimiy o'zgarishlar sharoitida zamonaviy dunyoda yarata oladigan rivojlangan va bilimli shaxsni tan oladi [1]. Bugungi kunda D.V. Chernilevskiyning so'zlariga ko'ra, eng muhimi, nizoli vaziyatlarda kuzatish va tahlil qilish asosida to'g'ri qaror qabul qila oladigan, shuningdek, o'zi qabul qilgan qarorlar uchun javobgar bo'lishga tayyor bo'lgan shaxsdir [10]. Ko'rib chiqilgan nuqtai nazarga ko'ra, zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-

siyosiy hayotining asoslari taqozo etgan sharoitda «Xorijiy til» (ingliz tili) fanidan didaktik tayyorgarlik sifatini oshirish muammosi ayniqsa dolzarb masala kasb etadi, deb hisoblaymiz. Yangi standartlarga ko‘ra, texnikumda chet tili bo‘yicha didaktik tayyorgarlik turli kasbiy vaziyatlarda til ko‘nikmalarini erkin qo‘llash imkonini beruvchi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Umuman olganda, professional ta‘lim muassasalarida xorijiy tillarini o‘qitish jarayonini tashkil etish yangi avlod davlat ta‘lim standarti talablariga javob beradi. Aksariyat texnikumlarda ish dasturlari modernizatsiya qilinmoqda, yangi o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqilmoqda va bosqichma-bosqich yangi metodlar joriy etilmoqda. Shu bilan birga, professional ta‘lim sohasida ham yangi standartlarga o‘tish sust davom etmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ta‘lim tizimi tabiatan konservativ bo‘lib, muayyan o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun ko‘proq vaqt talab etiladi. Yangilangan professional standartlari tamoyillariga rioya qilishga o‘tish asosida texnikumning o‘ziga xos innovatsion ta‘lim muhiti shakllantirilmoqda, bu esa didaktik ta‘limni amalga oshirish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratmoqda.

R.A Kassinning ta‘rifiga ko‘ra., innovatsion ta‘lim muhiti - bu ta‘lim muassasasida joriy etilgan turli xil innovatsiyalar to‘plamidir [4]. Ushbu innovatsiyalarni joriy etish natijasida nafaqat tayanch fanlar, balki “Xorijiy til” (ingliz tili) fanini o‘z ichiga olgan tayanch bo‘lmagan fanlar bilan bog‘liq didaktik qiyinchiliklarning paydo bo‘lishiga yordam beradigan ta‘lim muhiti shakllantirilmoqda. Hozirgi bosqichda tadqiqotchilar tilni kasbiy tayyorlash darajasi har doim ham zamonaviy talablarga to‘liq javob bermasligini tan olishadi. Nolingvistik texnikumlarda lingvistik ta‘lim sifatini oshirish muammosining maqbul yechimini topish o‘quvchilar tomonidan egallangan kasbiy kompetensiyalar sifatiga bevosita sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan didaktik qiyinchiliklarni ko‘rib chiqish va hisobga olishni talab qiladi. Texnikumlarda xorijiy tilni o‘rganish va ko‘proq darajada o‘qitish bilan bog‘liq muammolarning mohiyatini tahlil qilib, biz «Xorijiy til» (ingliz tili) fanining didaktik qiyinchiliklarini tizimlashtirishni o‘z oldiga tadqiqot ishimizning maqsadi qilib oldik. Ushbu qiyinchiliklarni tizimga kiritish, bizningcha, xorijiy tildagi didaktik o‘qitish xususiyatlarini chuqur o‘rganish va uni takomillashtirish chora-tadbirlari strategiyasini ishlab chiqish imkonini berishi mumkin. Bizning ishimizning o‘ziga xos xususiyati shundaki, biz amaliy tajriba va ayrim tadqiqotchilarning ma‘lumotlariga tayangan holda (O.V.Gavrilova, L.V.Maletina, I.A.Matveenکو, N.Yu.Sipailova, E.V.Samoilova, O.V.Nazarova, N.S.Korniletskaya, S.E.Suprunovlar, S.E.Suprunovlar). MinyarBeloruchev) va tahlil va sintez usullaridan foydalangan holda professional ta‘lim muassasasida

«Xorijiy til « fanining didaktik qiyinchiliklarini aniqladik. Bizning fikrimizcha, nolingvistik texnikumlarda “Xorijiy til ” fanidan o‘quv jarayonini tashkil etishda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan didaktik qiyinchiliklarni ikki guruhga: umumiy didaktik qiyinchiliklar va lingvodidaktik qiyinchiliklarga bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy didaktik qiyinchiliklar til bo‘lmagan texnikumlarda tilni didaktik o‘qitishning tashkiliy xususiyatlariga tegishli bo‘lib, bu til malakasi darajasiga salbiy ta’sir qiladi.

Lingvodidaktik qiyinchiliklar bevosita professional ta’limi muassasalarida lingvistik tayyorgarlikning uslubiy xususiyatlari bilan bog‘liq. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha manbalarni tahlil qilish va amaliy ish tajribasiga asoslanib, biz quyidagi umumiy didaktik va lingvodidaktik qiyinchiliklarni aniqladik:

Umumiy didaktik qiyinchiliklar:

1) E.V. Samoylova, O.V. Nazarova, N.S. Korniletskaya o‘z maqolasida asosiy fanlar bilan birgalikda xorijiy tilni integratsiyalashgan o‘rganishga e’tibor qaratadi [7]. Yangi standartlarga muvofiq, xorijiy tillarni o‘qitishni kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirish kerakligini hisobga olib, ushbu bayonotni to‘g‘ri deb hisoblash kerak. Biroq, bu nuqtai nazardan o‘quv jarayoni xorijiy tilni kasbiy tayyorgarlik bilan integratsiyalashgan holda o‘qitishning yetarli darajada ishlab chiqilmagan usullari muammosi bilan bog‘liq. Darhaqiqat, aniq uslubiy ko‘rsatmalarning yo‘qligi, xorijiy tili o‘qituvchisining o‘quvchilarning bo‘lajak mutaxassisligining ayrim kasbiy tarkibiy qismlarini noto‘g‘ri tushunishi, kasbiy mavzularni o‘zlashtirish ustuvorligi nuqtai nazaridan xorijiy til va asosiy fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini parchalanishi yuqori malakaga to‘siq bo‘lmoqda. Xorijiy tili o‘qituvchisi nafaqat tilni o‘rgatishi, balki o‘quvchilarning kelajakdagi mutaxassisligining asosiy ehtiyojlarini ham o‘zlashtirishi kerak. Bundan ko‘rinib turibdiki, texnikumlarda ko‘pincha asosiy fanlar va maxsus fanlari o‘qituvchilari o‘rtasida o‘zaro aloqa hali o‘rnatilmaganligini hisobga olsak, darslarga tayyorgarlik ko‘rish uchun katta vaqt sarflanadi. Va bu o‘zaro ta’sir, ayniqsa, o‘rganilayotgan mavzular dasturlar o‘rtasida farq sezilarli darajada bo‘ladi, chunki asosiy fanlarning ba’zi mavzularini ingliz tilda avvalroq o‘rganish mumkin. Ushbu nomuvofiqlik asosiy va asosiy bo‘lmagan fanlarga ajratilgan vaqt oralig‘idagi farq bilan bog‘liq. Bunda xorijiy tili o‘qituvchisi o‘quvchilarga mavzuning ba’zi jihatlari va nozik tomonlarini o‘zbek tilida, shundan keyingina ingliz tilida tushuntirish uchun ushbu mavzuni sinchiklab tushunishi kerak, bu esa o‘z navbatida didaktik jarayonni murakkablashtiradi.

2) Keyingi umumiy didaktik qiyinchilik tilga oid bo'lmagan professional ta'lim muassasalarida xorijiy tilini o'rganish uchun ajratilgan soatlarning cheklangan jadvali bilan bog'liq [2]. "Xorijiy til" fanining asosiy yo'nalishi bo'lmaganligi sababli uni o'rganish uchun kamroq miqdordagi soatlar ajratilgan. Binobarin, tilni o'zlashtirish muddati cheklangan. Bunday qisqa vaqt ichida o'quvchilarga tilning barcha jabhalarini yetarli darajada o'rgatish qiyin. Bundan tashqari, professional maqsadlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ko'proq vaqt ajratish zarur. N.D Galskovaning tomonidan ta'kidlashicha, kommunikativ kompetensiya - bu shaxsning sotsial-madaniy va situatsion jihat haqidagi bilimlariga tayangan holda o'z fikrlarini chet tilida ifodalash qobiliyati. N.D. Galskova ning so'zlariga ko'ra., kommunikativ kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: sotsiolingvistik komponent (milliy va madaniy xususiyatlarga muvofiq maqsadli tilning ona tilida so'zlashuvchilar bilan og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqotni amalga oshirish imkonini beruvchi bilim, qobiliyat va ko'nikmalar); lingvistik komponent (til ko'nikmalari: leksik, fonetik, grammatik); pragmatik komponent (aniq kommunikativ vazifani hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalar) [3]. Ushbu tilni bilish darajasiga erishish o'quv dasturida belgilanganidan ko'ra ko'proq vaqtni talab qiladi. R.K. Minyar-Beloruhevning ta'kidlashicha, ta'lim muassasalarida chet tiliga ajratilgan soatlar soni bilan nutq faoliyatining barcha turlarida parallel o'qitish tamoyilini joriy etish qiyin.

3) Nolingvistik yo'nalishdagi professional ta'lim muassasalarida guruhlarini ishga olish printsipi ko'pincha ko'p darajali xususiyatga ega. Ba'zan guruhlariga ilgari ma'lum bir xorijiy tilni o'rganmagan talabalar kiradi. Ko'p hollarda guruhlarning miqdoriy tarkibi normadan oshib ketishi mumkin. Guruhlarni jalb qilishning bunday shartlari xorijiy tili fanida didaktik jarayonni qaysidir ma'noda murakkablashtiradi. Materialni puxta mashq qilish va mustahkamlash imkoniyati yo'q, shuning uchun tilning ba'zi jihatlari yuzaki o'rganiladi, bu esa o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarga va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Bunday sharoitda o'qituvchiga dasturga muvofiq qat'iy tartibga solingan darsni rejalashtirish qiyin, chunki bu nafaqat ixtisoslashtirilgan tilni o'rgatish, balki o'quvchilarning saviyasiga qarab darsni moslashtirish kerak.

4) Ma'lumki, professional ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining salmoqli qismi mustaqil ishlarga to'g'ri keladi. S.A Tixonovning ta'kidlashicha, mustaqil ish - bu o'z-o'zini tarbiyalash shakli (talabalarning maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi nazorat qilish va o'zini o'zi qadrlash qobiliyati) va ular tashqi yordamisiz bilimlarni o'zlashtiradigan va qo'llaydigan faoliyatdir [9]. Darhaqiqat, mustaqil ish asosiy o'rinni egallaydi,

garchi talabalar, ayniqsa, «Xorijiy til» fanini o'rganishda 1-2 kurs talabalari o'z-o'zini tashkil etish va mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega emaslar. Bundan tashqari, bu davrda yangi sharoitlarga, yangi ta'lim muhitiga, didaktik jarayonning yangi standartlari va tamoyillariga moslashish mavjud. Natijada, ko'pgina talabalar darsdan tashqari soatlarda ko'pincha topshiriqlarni bajarmaydilar, bu esa keyinchalik o'qituvchi tomonidan amaliy mashg'ulotlarda rejalashtirilgan talabalar faolligini kamaytiradi.

5) Ma'lumki, ta'lim sifati va darajasiga fanni o'rganishga qiziqish va motivatsiyani saqlab qolish sezilarli darajada ta'sir qiladi. «Xorijiy til» fani tilga oid bo'lmagan maktabda asosiy fan bo'lmagani uchun o'quvchilar til tayyorlashga eng kam vaqt ajratadilar. Chet tili faniga bunday munosabat ko'pchilik maktablarda o'quvchilarda fanga mehr uyg'otmaganligi, maktab o'quvchilarini chet tilini o'rganishga undamaganligi bilan bog'liq. Oqibatda o'quvchilar o'rta maxsus o'quv yurtlariga asosan bilim darajasi past yoki umuman bilimsiz keladi. Ko'proq o'qituvchi maktab o'quv materialini takrorlashga qaytishi kerak, shuning uchun va guruhlar turli darajada bo'lganligi sababli o'qituvchi har bir o'quvchiga vaqt ajratishi kerak. Shunday qilib, sinfda ishlash ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, til asoslari bilan tanishishni talab qiladigan zaif talabalar, ayniqsa tilni birinchi marta o'rganayotganlar uchun. Boshqa tomondan, ilg'or talabalar fanga qiziqishlarini yo'qotadilar, chunki ular o'zlarining til rivojlanishi va intellektual o'sishi istiqbollarini ko'rmaydilar.

6) «Xorijiy tili» fani bo'yicha o'quv jarayoni ham yetarlicha moliyalashtirilmaganligi sababli murakkablashmoqda. Mablag'larning etishmasligi yetarli miqdorda o'quv-uslubiy materiallarni, shu jumladan asl nusxalarini xarid qilish, texnik vositalar bilan to'liq ta'minlash imkonini bermayapti. Qolaversa, o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish yoki ularni xorijga stajirovkaga yuborish imkoniyati yo'q.

Lingvodidaktik qiyinchiliklar

1) Xorijiy tilini o'qitishni professional muloqot ko'nikmalarini egallashgacha qisqartirish talabalarni madaniy boyitish imkoniyatidan mahrum qiladi. O.V Gavrilovning ta'kidlashicha, o'rganilayotgan til mamlakatlari madaniyati bilan tanishishga yetarlicha e'tibor berilmasligi madaniyatlararo muloqotda qiyinchiliklar tug'dirmoqda [2]. Kommunikativ kompetentsiya to'liq rivojlanmagan, chunki kelajakdagi kasbiy faoliyatda kommunikativ muammolarni hal qilish uchun juda muhim bo'lgan ijtimoiy-madaniy komponent har doim ham sinf darslarida ko'rib chiqilmaydi.

2) S.E. Suprunovning fikricha, xorijiy tilidagi o'quv komponentining mazmuniga uslubiy komponentga qaraganda kamroq e'tibor beriladi [8].

Darhaqiqat, nolingvistik professional ta'lim muassasalarida aniq kasbiy yo'naltirilgan kurs doirasida o'rganilishi kerak bo'lgan leksik, grammatik, frazeologik, sintaktik birliklar va boshqa komponentlarni aniqlash juda muhimdir. Chunki didaktik nuqtai nazardan xorijiy tilidagi o'quv jarayonining leksik material, frazeologik birliklar, sintaktik tuzilmalar, katta hajmli va tushunarli bo'lmagan matnlar bilan haddan tashqari yuklanishi ko'p jihatdan nolingvistik texnikumlarga xosdir. Xorijiy tili materialini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi. Bu qiyinchiliklarning barchasi o'qituvchilarning asosan o'qitishning an'anaviy uslub va shakllariga, o'quvchilarni xorijiy tili darslariga mustaqil tayyorlashni tashkil etishning an'anaviy tizimiga (mashqlar bajarish, matnlarni o'qish va tarjima qilish, xabarlar tuzish va h.k.) amal qilishiga olib keladi. Professional ta'lim muassasalarida «Xorijiy tili» fanining ko'rib chiqilgan didaktik qiyinchiliklarini hisobga olgan holda, tilshunoslik ta'limi sifatini faqat ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishga kompleks yondashuv va barcha ishtirokchilarning o'zaro ta'siri orqali yaxshilash mumkinligi ayon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Бим И. Л. Личностно-ориентированный подход – основная стратегия обновления школы // Иностранные языки в школе. 2002. № 2. С. 11-15.
2. Гаврилова О.В. Современные проблемы обучения бакалавров иностранным языкам в неязыковом вузе // Вестник ОГУ. 2014. № 2. С. 40-43.
3. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория и методика обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика: учеб. пособие. М.: Академия, 2006. 336 с.
4. Кассина Р. А. Инновационная среда образовательного учреждения как интегральное средство профессионального развития учителя [Текст] : автореф. дис. ... канд. пед. наук /Р. А. Кассина. Нижний Новгород, 2006. 21

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada muammo va amaliy tajribaga oid manbalarni tahlil qilib, biz innovatsion ta'lim muhitida tildan tashqari texnikumlar dasturining bir qismi sifatida o'rganilgan «xorijiy tili» fanining didaktik qiyinchiliklarini topdik va tizimlashtirdik. Ushbu qiyinchiliklarni hisobga olgan holda, talabalarning lingvistik kompetentsiyasining sifatini oshirish ehtimoli ortadi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье, анализируя истоки проблемы и практический опыт, мы выявили и систематизировали дидактические трудности предмета «Иностранный язык», изучаемого в рамках программы неязыкового техникума в инновационной образовательной среде. Учитывая эти трудности, возможности повышения качества языковой компетенции студентов возрастают.

SUMMARY

In this article, analyzing the sources of problems and practical experience, we found and systematized the didactic difficulties of the subject «foreign language» studied as part of the non-linguistic technical school program in an innovative educational environment. Considering these difficulties, the possibility of improving the quality of students' linguistic competence increases.

ЁШЛАРНИ ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИ ВА ТАШАББУСКОРЛИГИ АСОСИДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Исмаилова З.

*Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари
институту – миллий тадқиқот университети п.ф.д., профессор*

Таянч сўзлар: таълим, тарбия, ахлоқ, одоб, таълимий-ахлоқий йўналиш, метод, шакл, тадқиқотлар, оила, олий таълим муассасаси, маданий муносабатлар, тарих зарчашмалари.

Ключевые слова: образование, воспитание, этика, этикет, учебно-этическое направление, метод, форма, исследование, семья, вуз, культурные отношения, история.

Key words: Education, upbringing, ethics, etiquette, educational-ethical direction, method, form, research, family, higher education institution, cultural relations, history.

Кириш. Жаҳон таълим тизимида ёшларнинг маънавий-ахлоқий компетентлигини ривожлантириш методикалари, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш механизмлари, талабаларнинг ахлоқий сифатларини ривожлантиришнинг амалий педагогик тизими, ўқитиш моделлари технологик тарққиёт ғоялари билан уйғунлаштирилган интерфаол дастурлар таълим жараёнига татбиқ этилган. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “XXI асрнинг Олий таълими” Бутунжаҳон декларацияси, ЮНЕСКОнинг “Олий таълимни ислоҳ қилиш ва ривожлантириш” дастурий ҳужжатларида дунё миқёсида олий таълим муассасаларида таълим сифатини оширишга, модулли таълимни ташкил этишга, ўқитишнинг замонавий усулларини жорий этиш орқали талабаларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш методикасини янада такомиллаштиришга алоҳида эътибор берилган.

Жаҳон олий таълим тизимида ёшларни касбий ижтимоийлаштириш, маънавий-ахлоқий компетентлигини ривожлантириш, ижтимоий фаоллиги ва ташаббускорлигини тарбиялаш методикасини такомиллаштириш бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. АҚШ, Россия, Германия, Франция, Хитой, Корея каби ривожланган мамлакатларда талабаларни тафаккурини ўстириш, қобилиятларини эрта намоён этиш, маънавий-ахлоқий тарбиялаш механизмлари самарадорлигини ошириш методикасини такомиллаштиришда модулли ўқитиш, blended learning (аралаш

ўқитиш), маҳорат дарслари, вебинарлар, эвристик Республикамизда кўпгина олимлар томонидан маънавий-ахлоқий тарбия жараёнининг турли жиҳатлари ўрганилган ҳамда ушбу тадқиқотлар натижаларини таълим-тарбия жараёнида қўллаш имкониятлари тавсия этилган. Бу тадқиқотларнинг баъзилари кенг қамровли бўлган маънавий-ахлоқий тарбия жараёнининг маълум бир қиррасини таҳлил этишга қаратилган бўлса, бошқалари таълим-тарбия жараёнида маънавий-ахлоқий тарбиянинг мазмунини бойитишга ва турли ўқув курсларида янги усуллари қўллашга йўналтирилган, таълим муассасаларида тарбиявий ишлар тизимини такомиллаштириш масалалари тадқиқ этилган.

Илмий таҳлил. Маънавий-ахлоқий тарбия жараёнини ривожлантириш борасида миллий кадриятлардан фойдаланиш йўллари ва миллий тарбия асослари, маънавий-ахлоқий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари, олий таълим тизимида маънавий-ахлоқий тарбияни шакллантириш ҳамда бўлажак мутахассисларнинг маънавий-касбий тайёргарлиги муаммоси, айниқса таълим муассасаларида тарбиявий ишлар тизимини самарали ташкил этиш ва “Тарбиявий ишлар методикаси” фанидан ўқитиш тизимини такомиллаштириш масалалари бўйича В.Каримова [9], Н.Дж. Маҳмудова [8], О.Мусурмонова [10], Ш.Ш.Олимов [11], М.Қуронов [12], Н.Х.Орипова [10], З.Қ.Исмоилова [9], Н.А. Муслимов [7], Н.М.Очилова [13], Ю.П.Азаров [7], З.Э.Азимова [8] ларнинг илмий ишларида олий таълим тизимида маънавий-ахлоқий тарбияни шакллантириш ҳамда бўлажак мутахассисларнинг маънавий-касбий тайёргарлиги муаммоси таҳлил қилинган.

Бинобарин, профессор О.Мусурмонова томонидан ишлаб чиқилган ҳукм-хулосалар илмий жиҳатдан асосланган бўлсада, уларни амалга ошириш методларига оид тавсияларида изчилликка эътибор қаратиш лозим. Талаба-ёшлар маънавий маданиятини шакллантиришга доир шакл ва методлар (конференция дарслари; семинар дарс; мунозара дарси; амалий дарс; ўйин дарси; саёҳат дарслари; ролли дарслар; тарбиявий тадбирлар; экскурсия; давра суҳбатлари; кичик гуруҳларда ишлаш; маънавий маданиятни шакллантириш методлари: муаммоли-мунозарали вазият; қиёсий-изоҳли таҳлил; бадий-маърифий асарлар устида ишлаш; ижодий иш; тушунчали таҳлил; мантиқий таҳлил; тимсоллар таҳлили; маънавий-ахлоқий кадриятларни шарҳлаб ўрганиш; мустақил иш ва ҳ.к.) [10] тизими маънавий-ахлоқий тарбия методикаси тараққиётида муҳим ўрин тутади.

Шуниси эътиборлики, маънавий-ахлоқий тарбия йўналишларини таълим босқичлари бўйича таснифлаш мустақиллик давридаги педагогик тадқиқотларнинг етакчи хусусиятидир. Жумладан, Ш.Ш.Олимов томонидан касб-хунар коллежлари ўқувчиларини маънавий-ахлоқий тарбиялашнинг мазмуни, шакл ва методларини назарий жиҳатдан такомиллаштириш ва амалиётга жорий этишга оид методик тавсиялар ишлаб чиқилган янги тадқиқотда [11] муаллифнинг касб-хунар коллежлари ўқувчиларини маънавий-ахлоқий тарбиялашда имконияти юқори бўлган фанларга эътибор қаратиш, ҳар бир фан мазмуни ва малака талаблари асосида тарбия усулларини танлаш, дарс машғулотларида ноанъанавий таълим технологияларидан фойдаланиш, дарсдан ташқари ишлар жараёнида тарбиявий тадбирлар ташкил этиш юзасидан билдирилган фикр-мулоҳазалари илмий-методик жиҳатдан илм-фаннинг сўнгги ютуқлари асосида ёритилганлиги билан ажралиб туради.

3.Исмаилованинг маънавий-маърифий ишларда талаба-ёшлар шахсини ахлоқий тарбиялаш масаласига доир илмий ишида [9] Ватан равнақи, юрт тинчлиги, халқ фаровонлиги, комил инсон, ижтимоий ҳамкорлик, миллатлараро тотувлик, динлараро бағрикенглик каби асосий ғоялар талаба шахсини ахлоқий шакллантириш мезони сифатида белгиланган. Миллий ва умуминсоний кадрятларнинг асосий хусусиятлари бўлган оила, маҳалла, эл-юрт тушунчалари муқаддаслиги, ота-она, маҳалла-қўй, умуман, жамиятга юксак ҳурмат-эътибор, миллатнинг ўлмас руҳи бўлган она тилига муҳаббат, сабр-бардошлилик, меҳнатсеварлик, ҳалоллик кабилар талаба-ёшлар шахсини ахлоқий шакллантиришнинг асосий омиллари эканлиги эътироф этилган. Маънавий-маърифий ишлар жараёнида талаба-ёшлар шахсини ахлоқий шакллантириш модели ишлаб чиқилганлигини мазкур диссертациянинг муҳим жиҳатларидан бири дейиш мумкин.

Ёш авлод тарбияси, аввало, педагогнинг касбий маҳоратига боғлиқ. Шу ўринда юрт келажаги ва истикболи кўп жиҳатдан ўқитувчига, унинг савиясига, тайёргарлигига, фидойилигига, ўқитиш ва тарбиялаш ишига бўлган муносабатига боғлиқлигини қайд этиш мумкин. Ўқитувчи касбий ахлоқ ва одоб нормаларини мукамал эгалласагина, ўз касбининг фидойиси бўла олади. Бугунги кунда ана шундай фидойилик ҳар қачонгидан ҳам муҳим эканлиги ушбу соҳада олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишларининг долзарблигини янада оширади.

Талабаларда педагог одоби фазилатларини шакллантириш алоҳида объект сифатида ўрганилган Н.М.Очилованинг диссертацион ишида муаммонинг назарий асослари ва хусусиятлари таҳлил қилинган ҳамда бу

борада қўлланилган самарали ёндашувлар тақдим этилган. Тадқиқотда педагог одоби фазилатларини шакллантириш модели ишлаб чиқилган. Бундан ташқари, ишда талабаларнинг ахлоқий тарбияланганлиги жорий ҳолати, педагогик фаолият учун зарур ахлоқий фазилатларнинг намоён бўлиши масалалари ўрганилган бўлиб, “Ўқитувчи одоби” номли махсус курс ташкил этиб, унда “Жамиятнинг ўқитувчи шахсига муносабати”, “Ўқитувчи шахсининг жамиятга муносабати”, “Ватанга муносабат”, “Ўз-ўзига муносабат”, “Меҳнатга муносабат”, “Инсонларга муносабат” мавзулари доирасида педагог одоби хусусиятлари, муносабатларда касб одоби фазилатларининг акс этиши ва унинг ўзига хослиги мавзусида маърузалар ташкил этиш ғояси илгари сурилган.

Бу борада З.Қ.Исмоилованинг “Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар” асосида маънавий-ахлоқий тарбиянинг назарий экспериментал методик асосларига доир илмий тадқиқот иши алоҳида ўрин тутди. Муаллиф томонидан баркамол шахсни тарбиялаш методларининг хусусий ахлоқни тарбиялаш методлари; жамоатчилик орқали хулқ-атвори шакллантириш методлари; ижтимоий онг ва ахлоқни шакллантириш методлари; ўз-ўзини бошқариш ва тарбиялаш методлари; рағбатлантириш методларига бўлиниши тарбия методикасининг туб моҳиятини ташкил этиш орқали талабаларнинг маънавий-ахлоқий компетентлигини ривожлантириш мақсадга мувофиқ эканлигини алоҳида қайд қилиш мумкин. [9; 31-б.].



1-расм. Маънавий-ахлоқий компетентлигини ривожлантириш компонентлари

Ўзаро фикр алмашиш. Илмий таҳлил. Таҳлиллар асосида талабаларини ижтимоий фаоллиги ва ташаббускорлиги асосида маънавий-ахлоқий компетентлигини ривожлантиришда маънавий-ахлоқий билимлар, маънавий-ахлоқий кадриятлар, маънавий-ахлоқий фазилатлар, маънавий фаолият каби компонентларни ўз ичига олиши аниқланди (1-расмга қаранг).

Маънавий-ахлоқий тарбиянинг таркиби сифатида маънавий-ахлоқий билимларнинг шаклланиши натижасида талабаларда бахт, виждон, бурч, адолат, ор-номус, муҳаббат, эзгулик, шон-шараф, эътиқод, садоқат каби бир қанча ахлоқий категориялар шаклланади. Маънавий-ахлоқий билимларни ўзлаштирган талабада ташаббускорлик, ижтимоий фаоллик, ватанпарварлик, ҳалоллик, меҳнатсеварлик, камтарлик, фидойилик каби фазилатлар қарор топа бошлайди. Ушбу фазилатларга эга талаба ахлоқий меъёрлар талабларини онгли бажаради, миллий ва умуминсоний кадриятлар саналмиш маънавий мерос, урф-одат ва анъаналарга нисбатан ҳурматда бўлади. Аммо маънавий-ахлоқий меъёрлар ҳақида билимга эга бўлиш, уни тушуниш, эзгу фазилатларни таркиб топтириш ҳали талабанинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбияланганини аниқламайди. Инсонийлик фазилатлари қачонки ҳаётий тажрибаларда акс этиб, шахснинг муносабатларга киришиш фаолиятида ёрқин намоён бўлса, бу унинг тарбияланганлик даражасини белгилайди.

Жамият тараққиёти учун, аввало, маънавий-ахлоқий компетентли, ижтимоий фаол шахсни тарбиялаш, шунингдек, асосий эътиборни ёшларнинг тарбияланганлик даражасини ошириш масаласига қаратиш зарур. Негаки маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбияланган шахсларсиз жамият тараққиётини тасаввур этиб бўлмайди. Ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда, энг аввало, миллатимиз тарихи ва маънавияти илдизларига эътибор қаратиш тақозо қилинади. Туронзаминда азал-азалдан инсон маънавий камолоти, ахлоқий фазилатлар тарбияси аждодларимиз диққат марказида бўлиб келганлигини ёшларнинг чуқур тасаввур қилишларига эришиш зарур.

Таълим методларидан фойдаланиш. Ўтказилган илмий тадқиқот ишлари таҳлилларига таянган ҳолда педагогика олий таълим муассасалари талабаларида маънавий-ахлоқий сифатларни ривожлантириш босқичларини қуйидаги кўринишда изоҳлаш лозим топилди (2-расмга қаранг).

Ёшларда маънавий-ахлоқий компетентлигини ривожлантириш ўзига хос босқичларда амалга оширилиши мақсадга мувофиқ. Бунда, аввало, маънавий-ахлоқий тарбиянинг мақсад ва вазифаларини тўғри қўя билиш,



2-расм. Ёшларда маънавий-ахлоқий компетентлигини ривожлантириш босқичлари иш мазмунини аниқлаш, мақсадга эришиш учун тизимли ёндашувни ташкил этиш зарур .

Маънавий-ахлоқий тарбиянинг мақсади қуйидагича белгиланди: олий таълим муассасаларида изчиллик асосида олиб бориладиган таълим-тарбия натижасида маънавий-ахлоқий сифатларга эга бўлган касбий компетентли мутахассис тайёрлаш.

Ёшларни маънавий-ахлоқий компетентлигини ривожлантиришда қуйидаги вазифалар назарда тутилади:

- 1) узлуксиз таълим-тарбиянинг ҳар бир бўғинида маънавий-ахлоқий тарбия мақсадига эришиш йўллари излаб топиш;
- 2) таълим-тарбия жараёнида турли таъсир воситалари орқали ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш;
- 3) маънавий-ахлоқий тарбияда шахсга йўналтирилган метод ва воситалар, замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш;
- 4) ёшларнинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбияланганлик даражасини аниқлаш мақсадида анкета сўровларини ўтказиб, натижаларини қайд этиб бориш;
- 5) маънавий-ахлоқий сифатларга эга бўлган, компетентли ижтимоий фаол мутахассис тайёрлашга эришиш.

Ижтимоий-педагогик фаолиятни, ёшларда ташаббускорликни, фаолликни ташкил этиш учун олий таълим муассасаларида “Тарбиявий ишлар методикаси” фанини ўқитиш жараёнида шахсга йўналтирилган таълим-тарбия технологияларини ҳамда ҳамкорлик таълимини амалга ошириш муҳим саналади. Мазкур таълим-тарбия технологиялари орқали талаба шахсини ижтимоийлаштиришга эришиш имконияти яратилади.

Хулоса. Демак, ёшларда айнан ижтимоий муносабатларга киришиш учун лозим бўлган маънавий-ахлоқий категориялар, нормалар, кадрятлар тизими ҳақида билим ҳосил қилиш ҳамда улардан амалий фаолиятда фойдаланиш кўникмалари такомиллаштирилиши муҳим ўрин тутди. Бу ўринда “Тарбиявий ишлар методикаси” фанида ижтимоий онгни шакллантириш методлари (сухбат, баҳс-мунозара, муаммоли таълим)дан унумли фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Таълим муассасаларида талаба-ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиявий сифатларнинг ривожланганлигини баҳолаш намунали, яхши, қониқарли мезонлар орқали аниқлаб борилади, паст кўрсаткич аниқланса, коррекциялаш ишлари амалга оширилади, бунинг учун талаба билан индивидуал-психологик ишлар олиб борилади ҳамда натижага эришиш учун ҳаракат қилинади.

Бу эса ўз навбатида олий таълим муассасалари талаба-ёшларни маънавий-ахлоқий компетентлигини ривожлантиришнинг мантикий-тузилмавий моделини яратишга имкон беради. Бундай замонавий таълим модели талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашда маънавий-ахлоқий компетенциявий ёндашув асосида таълим-тарбия жараёнини амалга ошириш муҳим ҳисобланади. Чунки, талаба-ёшларда зарур компетенцияларни шакллантириш учун, аввало, педагогнинг ўзида компетенциялик ривожланган бўлиши лозим.

“Таянч компетенциялар – инсон ким ва қандай касб эгаси бўлишидан қатъий назар, шахс ҳаётида, касбий фаолиятида, ижтимоий муносабатларда муваффақиятли бўлиши учун эгаллаши лозим бўлган лаёқатлар, қобилиятлар ва ҳаётий кўникма ва малакалар мажмуидан иборат. Бунда ҳар бир шахс коммуникатив бўлиши, ахборот билан ишлай олиши, шахс сифатида ўзини-ўзи ривожлантириши, ижтимоий фаол фуқаро бўлиши, умуммаданий хислатларга эга ва фан-техника янгиликларидан хабардор бўлиши назарда тутилади.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз (1-жилд). – Т.: Ўзбекистон. НМИУ, 2017. 592 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. - Тошкент.: Ўзбекистон. 2017. - 48 б.
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент.: Ўзбекистон. НМИУ. 2016. - 56 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халкимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент.: Ўзбекистон. 2017. - 488 б.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907 қарори.

6. Фарсахонова Д.Р. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларини маънавий-ахлоқий тарбиялаш методикаси // *Ta'lim, fan va innovatsiya*. 2019, №1. Б. 77-81.

7. Азаров Ю.П. Тарбиявий ишлар методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1991. – 67 б.

8. Азимова Н.Э. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини маънавий-ахлоқий тарбиялаш технологияси (Педагогик йўналишдаги фанларни ўқитиш мисолида). Пед.фан.фал. док. (PhD). ... дис. – Т.: 2012. – 178 б.

9. Исмоилова З.Қ. Маънавий-ахлоқий тарбиянинг назарий ва экспериментал-методик асослари (Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар). – Пед.фан.док. ...дис. автореф. – Т.: ЎзПФТИ, 2006. – 46 б.

10. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори. ...дисс. – Т., 1993. – 364 б.

11. Олимов Ш.Ш. Касб-хунар коллежлари ўқувчиларини маънавий-ахлоқий тарбиялаш назарияси ва амалиёти. – Пед.фан.док. дис. – Бухоро: 2012. – 286 б.

12. Куронов М. Миллий тарбия. – Т.: Маънавият, 2007. – 240 б.

13. Karabaevna, I. Z., Riskulova, K., Ubaydullaevich, A. M., Turaevna, I. Y., & Ravshanovna, P. N. (2020). The role of electronic pedagogical tools in higher education. *Journal of Critical Reviews. Innovare Academics Sciences Pvt. Ltd.* <https://doi.org/10.31838/jcr.07.05.80>

14. Ismailova, Z., & Ergashev, B. (2019). New information and communication technologies in education system. In *E3S Web of Conferences (Vol.135).EDP Sciences.* <https://doi.org/10.1051/e3sconf/201913504077>

15. Karabaevna, Z., & Raximovich, B. (2019). The use of innovation technologies in the formation of students' professional competences. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 6898–6902. <https://doi.org/10.35940/ijeat.A2996.109119>

16. Karabaevna, Z., Musurmanova, A., & Xamroevich, R. (2019). Improving the competence of future vocational education teachers based on modular-rating education. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 6903–6906. <https://doi.org/10.35940/ijeat.A2997.109119>

17. Исмаилова З. ва бошқалар. Педагогика. –Т.Чинор файзи баланд. 2021 й. -334 бет.

РЕЗЮМЕ

Мақолада ахлоқий тарбия, олий таълимда талабаларни тарбиялаш метод ва шакллари ишлаб чиқиш бўйича олиб борилган тадқиқотлар, таълим-тарбия соҳасида тарихда таълимий-ахлоқий йўналишда ёзилган кўплаб асарлар таҳлили, уларнинг мазмун моҳиятини талабаларга сингдириш, шу билан бирга талабаларнинг Ватанга муҳаббат туйғуларини тарбиялаш; меҳнатни кадрлашга ўргатиш; тенгдошларига бўлган маданий муносабатларни ривожлантириш; шахс сифатидаги нуктаи назарини қарор топтириш йўналишлари белгилаб берилган.

РЕЗЮМЕ

Статья включает исследование нравственного воспитания, методов и форм воспитания студентов в высшей школе, анализ многих работ в области воспитания в области образования и этики, их содержания, а также воспитания у студентов любви к Родине; обучение ценить труд; развитие культурных отношений со сверстниками; определены направления принятия решений с точки зрения человека.

SUMMARY

The article includes research on moral education, methods and forms of educating students in higher education, analysis of many works in the field of education in the field of education and ethics, their content, as well as cultivating students' love for the motherland; teaching to appreciate work; developing cultural relationships with peers; the directions of decision-making from the point of view of the person are defined.

TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHDA INSON RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Nizamova Sh.I.

*Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti
"Ta'lim menejmenti" kafedrasida dotsenti v.b.*

Tayanch so'zlar: boshqaruv, strategik boshqaruv, bozor munosabatlari, inson kapitali, ta'lim xizmatlari, inson resurslarini boshqarish, innovatsion boshqarish.

Ключевые слова: менеджмент, стратегическое управление, рыночные отношения, человеческий капитал, образовательные услуги, управление человеческими ресурсами, инновационный менеджмент.

Key words: management, strategic management, market relations, human capital, educational services, human resources management, innovative management.

Kirish. 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" [1]. Ushbu ustuvor yo'nalishlarga ko'ra, ta'lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha mamlakatimizda besh yillik dastur qabul qilinib, amaliy ishlar olib borilmoqda. 2023 yildagi beshinchi ustuvor yo'nalish "Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat muhitini yuzaga keltirish"dan iborat bo'lib, bu ta'lim tizimini boshqarish tubdan o'zgartirishni talab etadi. Ya'ni, jamiyatda amalga oshirilgan islohotlar natijasi ta'lim sohasidagi boshqaruv faoliyatini yangi yondashuvlarni tadbiq etishni taqazo etadi. O'zbekistonda iqtisodiyot sohasining bozor munosabatlariga o'tilishi ta'lim sohasi muassasalarini bozorga qarab mo'ljal olishga da'vat etadi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda pedagogik jarayon va boshqaruv faoliyatining mazmuni rivojlanishini ta'minlovchi boshqaruv zarur. Ta'lim tashkiloti ta'lim bozori ehtiyojlarini o'rganib borishi, talab va taklif asosida saboq ola boshlagan taqdirdagina samarali ishlashi mumkin. Uning marketing faoliyati va marketing tadqiqotlari, strategik boshqaruv, yagona guruh sifatidagi pedagogik jamoa kabi unsurlari, ta'lim xizmatlari buyurtmachilari, eng avvalo ota-onalar, ta'lim oluvchilar va ishlab chiqarishning individual ehtiyojlariga qarab mo'ljal olish hamda ta'lim tashkiloti rahbari faoliyatining mazmunini yangilashni nazarda tutadi. "Boshqaruv" so'zi odatda boshqaruvning ko'zlangan maqsadga erishish

uchun boshqariluvchi ob'ekt yoki tizimga faol ta'sir ko'rsatishni anglatadi. Bu, rahbar tomonidan aniq rejalashtirilgan boshqaruv faoliyatni ifodalaydi. Har qanday faoliyat boshqariladigan ob'ekt va boshqaruvchi sub'ekt tizimlaridan iborat bo'lib, mazkur tizimlar o'rtasidagi aloqa insonlarning o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi va mavjud o'zaro munosabatlar ularning faoliyatini ifodalaydi. Shunday ekan boshqaruvchi, ya'ni rahbar ko'zlangan natijalarga erishish maqsadida, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etib, ma'lum bir maqsadga erishish yo'nalishida insonlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili. “Boshqaruv” tushunchasi odatda tizimning bir holatdan yanada sifatliroq holatga o'tishi sifatida tavsiflanadi. Bu yerda ikki jihatga e'tiborni qaratish lozim. Birinchi – tizimni saqlash, uning barqarorligini quvvatlash maqsadida boshqarish (ma'muriy boshqaruv). Ikkinchi jihat – tizim yangi sifat holatiga o'tishini, ya'ni muttasil rivojlanishni ta'minlovchi boshqarish [2].

Boshqaruv faoliyatini tashkil etish zaruratini belgilovchi bosh mezon – inson oldiga yoki ta'lim tashkiloti oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra, bajaruvchilarni tanlash hamda bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir [3].

Anri Fayol - “Boshqarish - bu kelajakni ko'rish, o'rganish va harakat dasturini yaratish vositalarini boshqarish; tashkil etish - korxonaning ikki tomonlama organizmini qurish (moddiy va ijtimoiy); tasarruf etish - korxonada xodimlarini faollashtirish; muvofiqlashtirish-harakatlar va sa'y-harakatlarni bog'lash, birlashtirish va birlashtirish; nazorat qilish - hamma narsa belgilangan qoidalar va buyruqlar asosida sodir bo'lishini kuzatish” deb hisoblagan [4].

Boshqarushda jamoaning ham, shaxsning ham faoliyatining yuqori natijasi «statik ko'rsatkich emas, u qobiliyat, ko'nikma, yangi bilimlarning paydo bo'lishi, xodimlar muhofazasi qarab o'zgaradi» [5]. Boshqarishda asosiy fikr inson inson kapitaliga qaratiladi.

Ilmiy adabiyotlarda inson kapitali-bu insonlar rivojlanishining barcha bosqichlarida jismoniy, intellektual, ijodiy, psixologik salohiyat, chuqur bilimga egalik, tajriba, ko'nikma, niyat va maqsadlar sohibi bo'lgan odamlar guruhidir deb izohlanadi.

S. Fisher: “Inson kapitali insonda mujassamlashgan daromad keltirish qobiliyati mezonidir. Inson kapitali tug'ma qobiliyat va iste'dod, shuningdek

olingan ta'lim va malakadan iborat" [6] deb ko'rsatgan. O. Nordxog "Tahlil etish nuqtai nazaridan, bir tarafdin, xodimlarning sog'lig'i va malakasini, ikkinchi tomondan, ularning motivatsiyasi va firmaga sodiqligini farqlash foydalidir [7] deb ta'kidlaydi.

I.V. Ilinskiy inson kapitalini ta'lim kapitali, sog'liq kapitali va madaniyat kapitalidan iborat deb hisoblaydi [8]. Bundan ko'rinadiki, boshqaruvda rahbar faoliyati samarasi inmon kapiliga e'tibor mehnat unumdorligini ta'minlashi bilan izohlanadi va ilmiy tahlillarni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy adabiyotlar tahlili, ilg'or xorijiy va maxalliy pedagogik tajribalar, qiyoslash umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ta'limda boshqaruvning maqsadi – menejment umumiy nazariyasi sohasida o'quv jarayonining sifatini oshirish iborat. Qo'yilgan maqsadga erishish rahbar quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

ijtimoiy boshqaruv nazariyasining vujudga kelish va rivojlanish tarixi bilan tanish bo'lishi lozim va boshqaruv faoliyatini qo'llay olishi;

- strategik boshqaruvning eng yangi metodlari va printsiplari haqidagi axborot bilan tanish bo'lishi;

- ta'lim xizmatlari boshqaruvi, marketingi va innovatsiyalari sohasida maxsus bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

Shu bilan birga zamonaviy rahbar boshqaruv fanining umumiy asoslarini puxta bilishi, shuningdek, boshqaruv strategiyasi, innovatsiyalar, marketing, xodimlarni boshqarish sohasida maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, muassasadagi boshqaruvni rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat etish hamda shu maqsadini amalga oshirishi talab etiladi. Ta'lim muassasasidagi rahbar-xodimlar boshqaruvning funktsional jihatlarini o'zlashtirishi; mehnat unumdorligiga erishish; ishiga mas'uliyat bilan yondashish; jamoani maqsad sari yo'naltira olish; ta'lim muassasasi boshqaruvini ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirishi; innovatsion yangiliklarni joriy etishi va innovatsion texnologiyalarni boshqaruvda qo'llashni takomillashtirish uchun zaruriy bilim, ko'nikma hamda malakalarga bu ta'lim oluvchi ham, ta'lim beruvchi uchun ham qulay sharoitni yaratishdan iborat, ya'ni markazda inson kapitali turadi.

Strategik boshqaruv ta'lim muassasalarining bo'lg'usi muammolari va imkoniyatlarini prognoz qilishning asosiy usuli hisoblanadi. Ta'lim muassasalarini boshqarishda pedagogik xodimlar hamda talabalar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi, shuningdek, muassasa faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy jarayonlardan biri qaror qabul qilish va uning bajarilishini ta'minlash jarayoni hisoblanadi. Mazkur jarayonda

qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va uning bajarilishini ta'minlash ko'p jihatdan rahbarlarning boshqaruv yo'nalishidagi bilim, ko'nikma va malakasi, kasbiy tajribalariga, bajariladigan vazifalarning xususiyatlariga, shuningdek, muassasada yaratilgan sharoitga bog'liq bo'ladi. Ta'lim muassasalarini boshqarish jarayonida turli xil muammolarni hal etish, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirishda turli masalalar yuzasidan mohiyati hamda mazmuni jihatidan bir-biridan farq qiluvchi qarorlar qabul qilish jarayonida muayyan vaziyatlardan kelib chiqib bahsli masalalar, turli-tuman fikrlar va tortishuvlar vujudga keladi. Ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etish, belgilangan maqsadlarga erishishda, hamkorlikdagi boshqaruv muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda jamoaviy boshqaruv organlari hamda jamoatchilik tashkilotlarining ishtiroki va ularning faolligi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etishdan asosiy maqsad, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda, muassasaning hayotiy faoliyatini ta'minlash va takomillashtirish yo'nalishidagi masalalarni hal etish, muammolarning ijobiy yechimini topish, innovatsion jarayonlarni tashkil qilish va rivojlantirish, turli xil masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish asnosida jamoa barcha a'zolarining ishtirokini ta'minlash hamda belgilangan maqsadlarga erishishda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish hisoblanadi

G. Bekker birinchi navbatda xodimning o'zi uchun ta'limning iqtisodiy samaradorligini yuqori baholadi. Oliy ta'limdan qo'shimcha daromad quyidagicha aniqlandi: oliy o'quv yurtini tugatganlarning daromadlaridan o'rta umumiy ma'lumotli ishchilarning daromadlari ayirib tashlanadi. To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar ham, muqobil harajatlar - o'qish vaqtida qo'ldan chiqarilgan daromadlar ham ta'lim xarajatlari hisoblanadi [9].

Inson kapitalini turli xil hosilalarning kombinatsiyasi sifatida ko'rib chiqish mumkin: aql-zakovat, sog'liq, bilim, munosib mehnat va hayot sifati. Jismoniy, tabiiy, moliyaviy va intellektual kapital ham ajratib ko'rsatiladi.

A. Maslou va boshqa psixologlarning izlanishlari ushbu hodisaning sabablarini aniqladi. Odamlarning harakatlarining motivlari turli xil ehtiyojlar bo'lib, ular faqat qisman yoki bilvosita pul yordamida qondirilishi mumkin. Hozirgi bosqichda inson omili tarkibiy qismlari katoriga ko'plab tadqiqotchilar quyidagilarni kiritadi:

- xodimlarning malakaviy darajasi;
- ijtimoiy faollik;
- tashabbuskorlik;
- insonning kasbiy va umumiy tayyorgarlik darajasi;
- fuqarolik javobgarligi;

- xodimning jismoniy tayyorgarligi salomatlik holati [10].

Zamonaviy ilm-fan va boshqaruv amaliyotida oliy ta'lim tashkilotlarning asosiy va strategik manbai sifatida inson resurslarini boshqarish sohasidagi yangi yondashuvlar, tushunchalar, g'oyalarni takomillashtirish, yangilash va izlashning doimiy jarayoni amalga oshiriladi. Ta'lim tashkilotlarda inson resurslarini boshqarishning zamonaviy kontseptsiyasining asosiy tamoyili - inson resurslarini tashkilotning samaradorligi va raqobatdoshligining hal qiluvchi omili sifatida tan olinishi, uning foydali va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy iqtisodiy manbai bo'lishi mumkin. Raqobat muhitining rivojlanishi inson resurslarini boshqarish sohasidagi bilimlar va inson kapitalini boshqarish sohasidagi ustuvorliklar o'zgarishini anglatadi, chunki bu odamlarni boshqarishda innovatsion usullar va texnologiyalar bozorda tashkilotning tadbirkorlik muvaffaqiyatiga erishishning asosiy shartidir.

Inson resurslarini boshqarishga innovatsion yondashuvlar texnologik yangiliklar bilan bir qatorda mehnat unumdorligini va umuman tashkilotning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mehnat sohasida boshqaruvga oid yangiliklar kiritilishi xodimlarning tashkilotga nisbatan rag'batlantiruvchi munosabatiga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi, odamlar bilan ishlash uchun eng zamonaviy moslashuvchan usullar va texnologiyalarni tanlashga ta'sir qiladi. Zamonaviy tashkilotlarda qo'llaniladigan IRBning innovatsion usullari va texnologiyalari mehnat intizomining yuqori darajasini saqlashga, odamlarning jalb etilish darajasini oshirishga yordam beradi, tashkilot ichida va tashqi muhitda aloqa madaniyatini shakllantirishni ta'minlaydi va o'z brendini boshqarish imkoniyatini beradi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini innovatsion boshqarishni amalga oshirish jarayonida quyidagi qoidalarni tayaniladi:

1) tashkilotni rivojlantirish strategiyasining inson resurslarini boshqarish strategiyasi bilan qalin o'zaro aloqalari zarurati;

2) inson resurslarini boshqarish bilan bog'liq xarajatlarning tashkilot iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri darajasini baholash;

3) tashkilotning mehnat bozorida samarali ishlashi uchun xodimlarning professional ko'nikmalari, kompetentsiyalarni kerakli miqdorda shakllantirish [11]. Inson resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar zamonaviy kadrlarni qayta tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib, tashkilot xodimlarining samaradorligini oshirish va yaxshilashga qaratilgan. «Yondashuv» tushunchasini asosiy qarashlar tizimi, boshqarish muammolarini hal qilish (yoki hal qilishga ta'sir etuvchi), hal qilinayotgan muammoga

munosabatni tavsiflovchi fundamental texnikalar yoki ularning kombinatsiyasi sifatida tushunish kerak.

Inson resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarning tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar mavjud:

- 1) jamoani qurish texnologiyalari va tegishli ijtimoiy birlashtirish dasturlari;
- 2) o'zini-o'zi tashkil qilish va taym-menejment texnologiyalari;

3) xodimlarning sadoqati va ishtirokini ta'minlaydigan tashkiliy madaniyatni yaratish;

4) boshqaruv maqsadlari bo'yicha (Management by Objectives, MVO) – bu tashkilot ichida maqsadlarni shunday muvofiqlashtirish jarayoniki, bunda kompaniya rahbariyati va xodimlar maqsadlarni baham ko'rishadi va tashkilot uchun nimani anlatishini tushunishadi;

5) qadriyatlarni boshqarish - barcha xodimlarga o'z faoliyatida yo'naltirilgan qiymat tizimini yaratishga va hisobot berishga yo'naltirilgan tashkilotni boshqarish;

6) vakolatlarni boshqarish - tashkilot xodimlarini tanlash, baholash va rivojlantirish uchun foydalaniladigan vakolatlar modelini shakllantirish;

7) inson resurslarini boshqarish jarayonida axborot texnologiyalari va virtual makondan foydalanish;

8) tashkilot bilimlarini boshqarish va boshqalar.

Inson resurslarini boshqarish (HR-faoliyat) to'rtta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin: xodimlar bilan oqilona ta'minlash; ijro sifatini boshqarish; o'zgarishlarni boshqarish; idora kilish. Boshqa tomondan, «inson resurslarini boshqarish» atamasi tashkilot rahbariyatining xodimlar tomon aniq yo'nalganligini belgilashi ko'zda tutilgan, ya'ni ikkinchi mazmunga muvofiq bu belgilangan to'rtta asosiy faoliyat yo'nalishini amalga oshirishning ma'lum bir usulidir.

Xulosa. Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim- jarayonlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ya'ni boshqaruv samaradorligini ta'minlashning eski metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar va zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan ta'lim boshqaruvini shakllantirish zaruratini ilgari surmoqda. Ta'lim tizimini oqilona boshqarish boshqaruv faoliyatining maqbulligini belgilaydi ta'lim xizmatlari bozori va uning samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022.

2. Василькова С. Технология работы социального педагога. – М.: Академия. 2009. 39 с.

3. Хасанов Р., Суюнов Ш. Инсон ресурсларини бошқаришда таълимнинг аҳамияти. //Таълим ва иқтисодиёт журнали. 6 сон, 2010 й., 146 б.
4. Fayol, Henri Administration industrielle et générale. - Paris. - Dunod et Pinat. - 2006
5. Халиуллина В.В. Здоровье - важная составляющая трудового потенциала. В.В. Халиуллина, С.В. Шабашева в Вестник Кемеровского государственного университета. 2012. № 4(52). О 339.
6. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономическая теория. — М., Юнити, 2002. - С. 21.
7. Нордхог. О.Механизм управления человеческим капиталом. США: экономика, политика, идеология. 1993.
8. Варикина Е.А. Формирование экономической компетентности руководителя образовательного учреждения в системе повышения квалификации. Автореф. дисс. д-ра. Педагогических наук. Оренбург.-2009.стр-5.
9. Гэри С. Беккер. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории. 2003. стр-672. Пер. с англ. под науч. ред. Р.И. Капелюшников.
10. А.Маслоу . О менеджменте. 2003. ISBN: 5-318-00597-7<https://www.livelib.ru/book>.
11. Абдурахмонова Г.К. Инсон ресурсларини бошқариш. Дарслик. – Т.:– нашриёти, 2020.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilyotgan islohotlar, ta'lim tizimini samarli boshqarish, boshqarishda inson kapitali, boshqarishda rahbar ning vazifalari to'g'risida fikr yuritiladi. Boshqarishda inson kapitalidan unumli foydalanish to'g'risida menejment nazariyasi namoyondalari fikr mulohazalari keltirilgan. Inson resurslarini innovatsion boshqarishni amalga oshirish jarayonida quyidagi boshlang'ich qoidalarni, oliy ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarining samarali natijalari yoritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются реформы, реализуемые в сфере образования в нашей стране, эффективное управление системой образования, человеческий капитал в управлении, обязанности лидера в управлении. Представлены взгляды представителей теории менеджмента на эффективное использование человеческого капитала в управлении. В процессе внедрения инновационного управления человеческими ресурсами будут выделены следующие основные правила и эффективные результаты инновационных подходов к управлению человеческими ресурсами в организациях высшего образования.

SUMMARY

This article discusses the reforms implemented in the field of education in our country, the effective management of the education system, human capital in management, and the duties of the leader in management. Opinions of management theory manifestations about effective use of human capital in management are presented. In the process of implementing the innovative management of human resources, the following basic rules and the effective results of innovative approaches to the management of human resources in higher education organizations will be highlighted.



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING TARBIYAVIY ISHLARGA TAYYORLASH XUSUSIYATLARI

Mahkamov U.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
professori, pedagogika fanlari doktori*

Tayanch soʻzlar: oʻqituvchi, oʻquvchi, tarbiya, maktab, qobiliyat, sinf rahbari, muloqat, metod, tafakkur, murabbiy, maʼnaviyat, madaniyat, yangi Oʻzbekiston, barkamol avlod.

Ключевые слова: учитель, ученик, образование, школа, способности, классный руководитель, общение, метод, мышление, наставник, духовность, культура, новый Узбекистан, совершенное поколение.

Key words: teacher, student, education, school, abilities, class teacher, communication, method, thinking, mentor, spirituality, culture, new Uzbekistan, perfect generation.

Bugungi kunda sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda davlat va jamiyat tomonidan koʻrsatiladigan yordam va madadni kuchaytirish, mazkur jarayonlar uchun masʼul boʻlgan sogʻliqni saqlash, taʼlim, madaniyat, ijtimoiy muhofaza muassasalarida zamonaviy talablarga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratish kabilar davlat siyosatining ustivori hisoblanadi. Albatta ularni amalga oshirishda oʻqituvchining tashkilotchiligi va ular bilan uzviy ravishda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishi muhim oʻrin tutadi.

Oʻqituvchilarining oʻquvchi shaxsiga taʼsir etishi ularning dunyoqarashini kengaytiradi va iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va ekologik taʼlimga oid bilimlarni, madaniy saviyasini, ish tajribasi kabilarni rivojlantiradi. Unda milliy ong va maʼnaviy zaminni barpo etadi. Ushbu jarayonda maktab oʻqituvchilari va oʻquvchilarning mehnat vazifasini aniq taqsimlashi, uni aniq bajarilishida, ularning qobiliyatini yaxshi anglashi, tarbiya samaradorligini oshiradi va taʼsirchanligi natijali boʻladi. Oʻqituvchilari tarbiya ishlarini boshqarishda oʻquvchilar oʻrtasida axloqsizlik va subutsizlik, ijtimoiy hasad kabi salbiy illatlarni bartaraf etishlarida quyidagilarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir.

1. *Har bir ishda adolatli boʻlish.* Oʻquvchilarga doimo adolatli, toʻgʻri, haqiqatparvar, oʻtkir aql, sof mulohaza, toza koʻngil, olijanob va mard boʻlish xususiyatlarini shakllantirish muhim oʻrin tutadi. Chunki, dunyoda adolatparvarlikdan koʻra koʻrkamroq xulq va tabiat yoʻqligini ularga

tushuntiradi. Ularda adolatli bo‘lish – so‘zida turish, qat’iylik kabilarni kamol toptiradi. Chunki, adolatli aytilgan so‘z aytuvchiga ham, eshituvchiga ham manfaat yetkazadi. To‘g‘ri so‘zlab o‘lmoq, yolg‘on gapirib qutulmoqdan afzal. O‘quvchilarni to‘g‘rilik yaxshilik sari yetaklaydi, yaxshilik esa adolatga yetkazadi. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan har bir ishni adolatli taqsimlangani uchun hurmat qiladilar.

2. *O‘quvchilarga e‘tiborli bo‘lish.* O‘qituvchi tarbiya jarayonida o‘quvchi shaxsiga qanchalik e‘tibor bersa, kelajakda ular baxtli hayot kechiradilar. Jamiyatimiz farovon bo‘ladi. Buning uchun ularni o‘zbek xalqining urf-odatlarini bilan yaqindan tanishtirishlari lozim. Ayniqsa, xalq qo‘shiqdarida, ertaklarda, rivoyatlarda, latifalarda, maqollarda aks etgan o‘zbek xalqining bir-biriga yordam berish, g‘amxo‘rlik qilish haqidagi fikrlarini ularga tushuntirish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarga e‘tiborli bo‘lish bu ularni axloqli, odobli qilib tarbiyalashda doimo bitmas tuganmas xazina bo‘lib xizmat qiladi.

Bunda fan o‘qituvchilari va sinf rahbarlari o‘quvchilarning faoliyati haqida ko‘proq bilishi, qiziqishi, muammolari, qiyin daqiqalarda ularga yordam berish, qo‘llab-quvvatlash kabilarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

3. *O‘quvchilar bilan muloqotda bo‘lishda* har bir fan o‘qituvchisi va sinf rahbarlari o‘z o‘quvchilarini sabrli bo‘lishga o‘rgatish bilan birga uni nutqining ravonligi, yoqimli bo‘lishi, aniqligi va mantiqiylikiga ahamiyat berishi va avval eshitib keyin gapirishi, muloqotni aniq maqsadga qaratishi muhim hisoblanadi. Chunki, muloqot jarayonida ularda insoniylik, odamiylik, samimiylik, haqiqatparvarlik kabi xususiyatlar rivojlanadi.

Har bir muloqot o‘quvchini fikrlashga, tajribani oshirishga, maqsad yo‘lini ko‘rsatishiga, oqil bo‘lishga o‘rgatadi. O‘qituvchining kinoyali yoki kesatiq gaplari o‘quvchilarning dilini sindiradi, unda g‘amginlik paydo qiladi. Sinf rahbari “Muloqoting shunday bo‘lsinki, kutib olish bilan kuzatishdagi muvozanat buzilmasin!”, “Muloqotdagi yovvoyi so‘zlar odoblilarni hayiqtiradi” kabi naqlarga oid misollar keltirib, ularni muhokama qilishga o‘quvchilarni o‘rgatadilar.

4. *Sertabassum bo‘lish.* O‘qituvchi o‘zining qadam tashlashi, bosh harakati, chaqqonligi, yuz mimikasi, tez o‘zgarishi, aniqligi, tabassumi, xususiyatlari, ovozi, nutqi, rangi, rangining o‘zgarishi, sertabassum bilan munosabatda bo‘lishi, o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan suhbatlarda ochiq chehra bilan muloqotga kirishishi, ularning fikrini eshitishi muhim hisoblanadi. Hech qachon o‘quvchilarning og‘zini ochirmay, luqma tashlamay, balki samimiyat bilan hazil-mutoyiba qilib gaplashgan ma‘qul. O‘quvchilar bilan hazillashib bo‘lmaydi, deb doim o‘zini jiddiy tutaverish ham yarashmaydi.

O'quvchilar ko'nglini ochib, g'am-tashvishini sizga aytib maslahat so'rasa, yordamingizni ayamang. O'quvchilar og'ir damlarida ko'nglini ko'targan va yordam bergan kishini unutmaydi. Undan bir umr minnatdor bo'lib yuradi. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'quvchilarning ko'nglini ko'tarishi, unga ishonishi, yaxshi fazilatlarini, o'qishdagi yutuqlarini o'zni kelganda rag'batlantirib turishi muhim hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarning ojiz tomonlaridan kulmasligi, kamchiliklarini yuziga solmasligi lozim. O'qituvchining jiddiyliги o'quvchilarni xavotirga soladi.

5. *Tanqid qilishda juda hushyor bo'lish.* O'qituvchilar o'quvchilarning hatti-harakatidagi xatolarni kuzatishi, tegishli xulosalar chiqarishi muhim hisoblanadi. Tanqid qilishga shoshilmaslik kerak. O'quvchining fikrini, ichki his-tuyg'ularini va kamchiliklarini o'rganishlari kerak. Chunki, xato qilmaydigan inson bo'lmaydi. Doimo harakatda bo'lgan kishi xatoga yo'l qo'yishi tabiiy. Hamma gap, bunday xatolarni takrorlamaslikdadir. Shu jihatdan ham o'quvchining dilini og'ritmaslik, tanqid qilishdan oldin unga o'z kamchiligini aytish, muloyimlik bilan munosabatda bo'lishi zarur. Buning uchun:

- o'quvchilarni har qanday vaziyatda qarama-qarshiliklarni anglash va hal qilishga o'rgatish;
- kundalik tajribada turli qarorlar, sag'lom fikr mulohaza (muhoqama) larning mahsuldorligiga erishish va ularning biryozlamaliligini bartaraf etish;
- o'quvchilar o'rtasidagi muammoli vaziyatni hal qilish yo'llarini ko'rsatish;
- berilgan topshiriq ustida ishlash imkoniyatlarini umumlashtirish kabilarda tafakkur va sinchkovlikni rivojlantiradi.

6. *O'quvchilarni rag'batlantirish.* Bunda har bir o'qituvchi rag'batlantirish metodidan foydalanib, o'quvchining har bir ishiga e'tibor bilan munosabatda bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilar jamoasini maqtash, badiiy kitoblar, o'quv qurollari kabi esdalik sovg'asini berish, maqtov yorlig'i bilan taqdirlash, qo'llab-quvvatlash, fotosuratini hurmat taxtasiga qo'yish, jamoa nomidan minatdorchilik bildirish, safda birinchi o'rinda turishini ta'minlash, musobaqalarda bayroqdor bo'lishga imkoniyat yaratish, nomini maktab gazetasi yoki radiosi orqali qayd etish kabilarni tashkil etadi va amalga oshiradi. Tarbiya jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish ketma-ket bo'lmasligi, uning hatti-harakatlarini haddan oshirib yubormaslik, boshqa o'quvchilarga taqqoslamaslik, kamsitmaslik, talabchanlikni bo'shashtirmaslik kabilarga e'tibor qaratilishi muhim hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quvchi xususiyatlardan biri

o'zini boshqalar tomonidan biror qilgan ishi yoki hatti-harakati uchun maqto'v eshitish uni rag'batlantiradi. Bunday holatlarda o'qituvchi o'z o'quvchilarida har bir ishga sadoqatlilik, fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

7. *O'quvchilarga buyruq ohangi yoqmaydi.* Ushbu jarayonda o'qituvchilar o'quvchilarga nisbatan ma'qullovchi xolatini amalga oshirishi, unga fikrini aniqroq bayon qilishga yordam berishi, uni himoya qilishi, unga ishonishi, kuchli va kuchsiz tomonlarini, xatolarini aniqlashi, shoshib xulosa chiqarmasligi kerak. Sinf rahbari va fan o'qituvchilari o'z diqqatini ko'proq o'quvchining tashqi qiyofasi va nutqiga e'tibor berib eshitishi odat tusiga aylanishi kerak. O'quvchining gapini tez-tez bo'lib qo'ymasdan buyruq berish o'rniga savol berish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, "Siz nima deb o'ylaysiz, shunday qilsa yaxshi bo'ladimi?", "Siz bu masalaga qanday munosabatda bo'lgan bo'lar edingiz?" kabilar.

8. *O'zingizni o'quvchining o'rniga qo'yib ko'rish.* O'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatlari nihoyatda samimiy bo'lishi lozim. Ba'zi o'quvchilar qiyin vaziyatga tushgan paytida o'z ota-onasiga aytay olmagan gaplarini o'qituvchiga aytadi. Undan yordam so'raydi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchiga e'tiborli bo'lish hamda ko'proq uni tinglay olishi muhim hisoblanadi.

Albatta bunda o'qituvchi xushyor va xushmuomala suhbat qilishi, o'quvchining kayfiyati yomon bo'lgan paytlarda ham uning ruhiy holatini boshqarishi, o'z muomalasi bilan yaxshi taassurot qoldirishi uning tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Yaxshi o'qituvchi ziyraklik bilan o'quvchilarning tashqi qiyofasidagi arzimas o'zgarishlarni hisobga olgan holda muomala qiladi. O'zaro munosabatlarning samarali kechishi uchun muammo va topshiriqda o'quvchi nuqtai nazari bilan qarashga harakat qilish ularda o'qituvchiga nisbatan ishonch va hurmat yanada oshadi.

9. *Murabbiylik vazifasini bajarish.* Sinf rahbari o'z o'quvchilariga bilim, ma'lumotlarni egallashda yordam beradi. Bilish, mehnat qilish, axloqiy madaniyatni shakllantirish faoliyati bilan bog'liq ko'nikma, malakalarni hosil qiladi. O'quvchilarning yoshiga doir shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish bilan birga ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi. Tarbiya tufayli o'quvchidagi kamchiliklarni bartaraf etadi. Shaxs kamolotini rivojlantiradi. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotib, kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

10. *Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari jamoatchilik bilan hamkorligida* o'quvchilarda o'zligini anglashga uning hayotda o'z o'rnini topishi uchun sharoit yaratish bilan birga ularda dunyo

haqidagi aniq tasavvurlarni hosil qilish uchun zamonaviy bilimlarni shakllantiradi. O'quvchilarning ishlash tizimini uyushqoqligi, faolligi, bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasi va ularning ijodiy qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Tarbiya jarayonida o'qituvchining madaniyati va ma'naviyati, ularning shaxsiy xulq-atvori va obro'si, vatanparvarlik va burchni his etishi o'quvchilarda yaxlit holda ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan barcha nazariy-amaliy metodik ishlarni tashkil etadi. Boshqa ta'lim-tarbiya maskanlarining ish tajribalarini o'rganadi. Albatta bunda o'qituvchilar insonparvarlik tamoyiliga asoslanishi, shuningdek, tarbiya ishini tashkil qilish malakasiga ega bo'lishlari lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tarbiyaviy ishlarga barcha o'qituvchilar jamoasi, "Yoshlar ittifoqi", o'quvchilar jamoasi kabilar faoliyatini tashkil etadi.

O'qituvchi tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda barchaning ishtirok etishi, sog'lom avlod shaxsini shakllantirish, tadbirlarni aniq tashkil etish va boshqarish kabilarni amalga oshiradi. Konferensiyalar, davra suhbatlari, muloqotlarni uyushtiradi. Maktabda o'tkaziladigan ishlar yuzasidan pedagogik kengashlarda hisobot berib boradi. "Yoshlar ittifoqi"ning yetakchisi va a'zolari uchun metodik yordam berish rejasini ishlab chiqadi va har oyda bir marta seminar o'tkazadi. Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ish olib boradi.

Bunda o'qituvchilar o'quvchilarda sabotli, matonatli va bardoshli bo'lish, bir-biri to'g'risida o'ylash, bir-birini ehtiyot qilish va avaylab-ardoqlash kabi xususiyatlarni rivojlantiradi.

O'qituvchilarning vazifalari o'quvchilarda o'zaro o'rtoqlarcha yordam berish, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash va hurmat qilish, kuch-g'ayrat va iste'dod kabilarni rivojlantirish bilan birga ularni o'z-o'zini tanqid qilishga, manmanlik qilmaslikka, qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan xotirjam bo'lib qolmaslik, o'z shaxsiy manfaatlarini qarama-qarshi qo'yish, jamoani mensimaslik, takabbur bo'lgan kishilarga qarshi kurash, insoniy munosabatlar, axloq va odob kabilarni shakllantiradi. Shaxsning har tomonlama kamol topishiga yordam beradigan sog'lom muhit vujudga keltiradi. O'qituvchining ta'siri asosida o'quvchilar har bir ishni mas'uliyat bilan bajaradilar.

Shuning uchun o'qituvchining har bir shaxsga individual yondoshish bilan birga jamoadagi holatini o'rganishi, o'quvchi tarbiyasi haqida umumiy to'xtamga kelishda tasodifiy hollarga yo'l qo'ymasliklari uning burchi va tarbiyaviy rolini oshiradi.

O'quvchilar tarbiyasida shaxsiy g'araz, bir-biriga ishonmaslik, fisqu-fasod, javobgarlik hissini yo'qotish kabi hollarning bo'lmasligi va to'g'ri, haqqoniy

yo'l tutish o'qituvchi obro'sini ko'taradi. Yetarli asos bo'lmagan holda o'quvchilarni maqtash yoki qoralash o'qituvchi obro'sini tushiradi.

O'qituvchi shaxsga tarbiya berish bilan birga ko'p narsa talab qilishi mumkin. Sinf o'quvchilari teng huquqli bo'lsa ular doimo o'zini dadil his etadi. O'quvchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar har bir shaxsga yomon ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchining tarbiyaviy ta'siri o'quvchi hatti-harakatlarida, axloq normalari va xarakteri, harakatlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchi xulq-atvori va yaxshi hatti-harakatini e'tiborsiz qoldirmasdan, ularning ijobiy ishlari uchun rag'batlantirishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent-2022 yil O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 u., 03/20/637/1313-son)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi PF-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish shora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz>
3. Kenjayev Sh.X. Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishga tayyorlash tizimini takomillashtirish PhD avtoref Chirchiq 2022 y. 49 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarga tayyorlash mazmuni, xususiyatlari asosida yangi O'zbekiston yosh avlodini voyaga yetkazish mexanizmlari ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье на основе содержания и особенностей подготовки будущих учителей к воспитательной работе научно и педагогически обоснованы механизмы воспитания молодого поколения Узбекистана.

SUMMARY

In this article, based on the content and features of preparing future teachers for educational work, the mechanisms for educating the younger generation of Uzbekistan are scientifically and pedagogically substantiated.



“ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ЁНДАШУВЛАР” ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ПЕДАГОГИК МАЗМУНИ

Ражабов Ф.Т.

Чирчиқ давлат педагогика университети тадқиқотчиси

Таянч сўзлар: педагогика, касбий компетентлик, замонавий педагогик ёндашувлар, педагогик технологиялар, анъанавий ва замонавий ўқитиш усуллари, компетенциявий ёндашув, инклюзив педагогика.

Ключевые слова: педагогика, профессиональная компетентность, современные педагогические подходы, педагогические технологии, традиционные и современные методы обучения, компетентностный подход, инклюзивная педагогика.

Key words: pedagogy, professional competence, modern pedagogical approaches, pedagogical technologies, traditional and modern teaching methods, competence approach, inclusive pedagogy.

Педагогика ижтимоий фан сифатида таълим соҳасида ўзига хос мавқега эга. У ўқитиш ва ўқиш жараёнларининг нозик томонларини тушуниш учун асос бўлиб хизмат қилади. Тадқиқотнинг мазкур қисмида педагогиканинг кўп қиррали оламига кириб, унинг таълим ландшафтини (умумий манзарасини) шакллантиришдаги ўрни, у қамраб олган асосий тамойиллар ва педагогик жараёнларнинг динамик характерини кўриб чиқамиз.

Тадқиқотларда педагогика, одатда, “таълим фани” ёки “таълим санъати” деб аталади. Бу икки хил қараш бежиз эмас. Рус тадқиқотчиси К.Д. Ушинский бу масала атрофида ўз фикрларини қуйидагича билдиради: “Фан фақат ҳозирда бор ёки аввал мавжуд бўлган нарсаларни ўрганади, лекин санъат ҳали мавжуд бўлмаган нарсаларни яратишга интилади ва ижоднинг мақсади ва идеали келажакда унинг мавжуд бўлишига олиб келади. Албатта, санъат ўз назариясига эга бўлиши мумкин, лекин санъат назарияси фан эмас; назария мавжуд бўлган ҳодисалар ва муносабатларнинг қонунларини билдирмайди, балки амалий фаолият қоидаларини белгилайди, бу қоидаларга фанда асос солинади... Шу сабабли педагогикани тарбия фани эмас, санъат деб атаймиз” [1].

Бизнинг фикримизча, педагогика фан. Чунки, мазкур фаннинг ўз объекти, мақсад ва вазифалари мавжуд, тадқиқ этиш учун ўзининг аниқ илмий муаммоларига эга. Шу маънода, педагогика ижтимоий онг шаклларида

бири ва ўзининг муайян билимлар тизимига эга фандир. Мавжуд луғатларда фан тушунчасининг мазмуни шундай ифодаланади: Фан – дунё ҳақидаги билимлар системаси, ижтимоий онг шаклларида бири. У янги билимларни эгаллаш билан боғлиқ фаолиятни ҳам, бу фаолиятнинг маҳсули – оламнинг илмий манзараси асосини ташкил этувчи билимларни ҳам ўз ичига олади; инсон билимларининг айрим соҳаларини ифодалайди. Фаннинг бевосита мақсади ўзининг ўрганиш предмети ҳисобланган воқеликнинг қонунларини кашф этиш асосида шу воқеликнинг жараён ва ҳодисаларини таърифлаш, тушунтириш, олдиндан айтиб беришдир” [2]. Ушбу таърифга асосланган бўлсак, педагогика “фан” тушунчасига тўла мос келади. Чунки унда инсон билимларининг таълим ва тарбия билан боғлиқ соҳаси ўз ифодасини топади; унда таълим ва тарбия ўрганиш предмети сифатида шу тушунчалар билан боғлиқ жараён ва ҳодисалар таърифланади, тушунтирилади, илмий башорат қилинади.

Педагогика ижтимоий фан бўлиб, жамият шароитида ўқитиш, ўрганиш ва таълимни ривожлантириш жараёнларини тизимли равишда ўрганиш ва тушунишга интилади. Бизнингча, қуйидаги асосий тамойиллар педагогиканинг ижтимоий фан сифатидаги моҳиятини ёритиб беради:

1. Таълим олувчига йўналтирилган ёндашув тамойили. Педагогика таълим олувчи ва унинг эҳтиёжлари билан шуғулланади. У таълим олувчилар пассив қабул қилувчилар эмас, балки таълим жараёнининг фаол иштирокчилари эканлигини тан олади. Бу нуқтаи назар конструктивизм тамойилларига мос келади, бу билим таълим олувчилар томонидан атроф-муҳит ва тенгдошлари билан ўзаро таъсир қилиш орқали фаол равишда қурилишини кўрсатади [3].

2. Таълимни контекстуаллаштириш тамойили. Педагогика таълимга нисбатан ижтимоий-маданий ва атроф-муҳит омилларининг таъсирини ҳисобга олади. Педагогик жараён универсал эмас; у турли маданиятлар, жамиятлар ва контекстларда шу гуруҳнинг ижтимоий-сиёсий аҳволи, маърифий ва рухий савиясига кўра фарқланади. Таълимнинг бундай мослашувчанлиги талабаларнинг турли эҳтиёжларини қондиришда асосий ҳисобланади. Контекстуаллашмаган таълим муайян жамиятнинг эҳтиёжлари, ижтимоий-фалсафий қарашлар тизими, миллий ўзига хослиги ва руҳияти, қадрият ва анъаналари билан кесишмайди ва оқибатда унинг самарадорлик даражаси пасаяди.

3. Яхлит ёндашув тамойили. Педагогика таълимни когнитив, ҳиссий, ижтимоий ва ахлоқий ривожланишни ўз ичига олган яхлит иш деб ҳисоблайди. Таълим мақсадлари шунчаки фактларни етказишдан ташқари, танқидий фикрлаш, муаммоларни ҳал қилиш ва ахлоқий қарорлар қабул

қилиш қобилиятига эга бўлган ҳар томонлама ривожланган шахсларни тарбиялашга қаратилганлигини инобатга олади.

4. Рефлексив амалиёт тамойили. Педагогика ўқитувчиларни рефлексив амалиёт билан шуғулланишга ундайди, бунда улар ўз таълим усуллари танқидий таҳлил қиладилар ва доимий равишда такомиллаштиришга интиладилар. Ушбу рефлексив ёндашув таълим сифатини оширишда муҳим аҳамиятга эга.

Педагогика ижтимоий онг шаклларида бири сифатида доимо ўзгариш ва ривожланишда бўлади. Чунки жамият талаблари, таълим ва тарбияга бўлган муносабат ва талаблар икки давр учун ҳеч қачон бир хил бўлмайди. Кеча билан эртанинг бу борадаги талаб ва эҳтиёжлари ўртасида бугуннинг ўзгача эҳтиёж ва талаблари доимо мавжуд бўлади. Бу борада маҳаллий тадқиқотчилардан Н.Дусчанова шундай фикрларни билдиради: “Замонавий педагогик ёндашув бу таълимни замон талабига мослаштирадиган ҳамда таълимнинг ҳаётийлиги ва ижтимоийлигини оширадиган механизмдир. Таълимни ислоҳ қилувчи замонавий ёндашувлар тадқиқи ва татбиқи педагогика фанининг объекти бўлиб, педагогика ижтимоий онг шаклларида бири сифатида доимо ўсиш, ўзгариш ва такомиллашишда давом қиладиган соҳа ҳисобланади. Ҳар бир даврнинг ўз ўрганиш муаммолари, унга ёндашув усуллари, илмий тадқиқот методологияси бир-биридан фарқ қилади. Айни пайтда ҳар бир давр учун умумий қонуниятлар мавжудки, улар методологиянинг таянч тамойиллари ва концепциясини ташкил қилади [4]. Педагогик жараёнларнинг бундай динамик табиати талабаларнинг ўзгарувчан эҳтиёжларини, технологик ютуқларни ва жамиятнинг ўзгарувчан талабларини ақс эттиради. Ушбу ўзгарувчанликни кўрсатиш учун куйида айрим мисолларни кўриб чиқамиз.

1-мисол. Анъанавий ва замонавий ўқитиш усуллари.

Педагогика фани ўқитувчига йўналтирилган таълим ва эсда сақлаш билан ажралиб турадиган анъанавий ўқитиш усулларида фаол ўрганиш, ҳамкорлик ва технологиялардан фойдаланишга урғу берадиган замонавий ёндашувларга сезиларли силжишнинг гувоҳи бўлмоқда. Ушбу ўқиш конструктивизм ва тажрибавий ўрганиш тамойилларига мос келади [3].

1.1-жадвал

Анъанавий ва замонавий ўқитиш усуллари фарқи

Анъанавий ўқитиш усуллари	Замонавий ўқитиш усуллари
Маъруза асосидаги кўрсатма	Фаол таълим стратегиялари
Маълумотни пассив қабул қилиш	Талабаларнинг фаоллиги ва сўрови

Факт ва назарияларни ёдлаш	Муаммоларни ҳал қилиш ва танқидий фикрлаш
Технологиядан чекланган фойдаланиш	Технология воситаларининг интеграцияси

2-мисол. Рақамли даврга педагогик мослашув.

Рақамли аср таълим бериш усулини ўзгартирди. Педагогика ушбу технологик инқилобга онлайн таълим платформалари, виртуал синф хоналари ва шахсийлаштирилган ўқув тажрибаларини ўз ичига олган ҳолда мослашмоқда. Ушбу мослашув таълимда кўпроқ мослашувчанлик ва фойдаланиш имкониятини беради.

1.2-жадвал

Анъанвий ҳамда онлайн ва аралаш таълим синфларининг фарқи

Анъанавий синф	Онлайн ва аралаш таълим синфи
Жисмоний мавжудлик талаб қилинади	Ресурслар ва синфларга масофадан кириш
Глобал контентга кириш чекланган	Кенг рақамли билимлар базасига кириш
Рухсат этилган жадваллар ва жойлар	Ўрганиш тезлиги ва жойлашувида мослашувчанлик
Чекланган интерактивлик	Биргаликда ишлайдиган онлайн воситалар ва мультимедия

3-мисол. Инклюзив педагогика.

Инклюзив педагогика турли хил таълим эҳтиёжлари ва таълимда тенглик муҳимлигини тан олишга жавоб сифатида пайдо бўлди. У барча талабалар, уларнинг қобилиятлари, келиб чиқиши ёки ўзига хослигидан қатъи назар, муваффақият учун тенг имкониятларга эга бўлган инклюзив муҳит яратишга қаратилган.

1.3-жадвал

Анъанвий ва инклюив педагогиканинг фарқи

Анъанавий синф	Инклюзив педагогика
Турли хил талабалар учун чекланган турар жой	Дифференциал кўрсатма ва турар жой
Бир хил гуруҳлаш	Мослашувчан гуруҳлаш ва турли материаллар



Турли хил идентификацияларга чекланган эътибор	Маданий жиҳатга мослаб ўқитиш ва турли хил истиқболлар
Шахсий ёрдамга минимал эътибор	Шахсийлаштирилган ўқув режалари ва ёрдами

Умуман, педагогика ижтимоий фан сифатида таълим олувчига йўналтирилганлик, контекстуаллаштириш, яхлит ривожланиш ва акс эттириш амалиётининг асосий тамойилларини ўз ичига олади. Педагогик жараёнларнинг ўзгарувчанлиги ўқитишнинг анъанавий усулларида замонавий методларга ўтишда, технология интеграциясида, инклюзив педагогикани қамраб олишда яққол намоён бўлади. Ушбу тамойилларни тушуниш ва мослашиш доимий ривожланаётган таълим ландшафтини бошқаришга интилаётган ўқитувчилар учун жуда муҳимдир.

Адабиётлар:

1. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Монография. http://dugward.ru/library/pedagog/ushinskiy_chelovek1.html
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/fan-uz/>
3. Выгоцкий Л. С. (1978). Разум в обществе: развитие высших психологических процессов.
4. Дусчанова Н.С. Замонавий педагогик ёндашувлар: қиёсий таҳлил. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 3, March, 2022. 35-42-p.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада “Замонавий педагогик ёндашувлар” тушунчаси ва унинг педагогик мазмуни ёритилган. Шунингдек, педагогика фанининг тамойиллари, анъанавий ва замонавий ўқитиш усуллари фарқи, анъанавий ҳамда онлайн ва аралаш таълим, инклюзив педагогика ҳақида фикрлар билдирилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье раскрывается понятие «Современные педагогические подходы» и его педагогическое содержание. Также были изложены принципы педагогики, отличие традиционных и современных методов обучения, традиционного и онлайн- и смешанного образования, инклюзивной педагогики.

SUMMARY

This article describes the scientific-pedagogical foundations of the formation of professional competence of future teachers, as well as the views on modern requirements and approaches to increasing the level of professional training of future teachers.

KITOB O‘QISH-MA’NAVIYATNING ASOSIY MEZONI

Saparboyeva D.S.

Fan va texnologiyalar universiteti “Pedagogika” kafedra mudiri

Tayanch soʻzlar: kitob, inson, faoliyat, oʻqish, muhit, oila, salomlashish, hayot, gʻamxoʻrlik, milliy, farzand, bolalar, tafakkur, kelajak, fikr, mehr.

Ключевые слова: книга, человек, деятельность, учеба, окружающая среда, семья, приветствие, жизнь, забота, национальное, ребенок, дети, мышление, будущее, мысль, любовь.

Key words: book, person, activity, study, environment, family, greeting, life, care, national, child, children, thinking, future, thought, love.

Men kitob haqida fikr yuritganimda uni inson hayotidagi saodat yoʻliga boshlaydigan eng olis va qorongʻu yoʻllariga nur baxsh etgan afsonaviy chiroq deb bilaman. Chunki kitob minglab asr ilgari dunyodan oʻtgan dohiylar bilan uchrashtiradi va avlodlar uchun xizmat vazifasini bajaradi. Kitob oʻqish nafaqat har bir kishining manaviyatini balki hayot yoʻlini ijodiy faoliyatini, sihat-salamatligini, oila barqarorligini mustahkamlashda yoʻlchi-yulduz vazifasini bajaradi va insonning ulugʻ manaviyatini rivojlantiradi. 2023-yilni “Inson qadrini ulugʻlash va taʼlim sifatini oshirish” yili deb eʼlon qilinishi- yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini har bir farzand ota-ona oila uzviyiligini taʼminlashda muhim oʻrin tutadi. Chunki, kitob oʻqish samarali ish olib borish faoliyatining bosh mezoni sifatida uning hayot tajribalarini, tarbiya jarayonlarini amalga oshirishda madaniyat vazifasini bajaradi. Bunda menga Amerikaning taniqli arbobi Hillari Klintonning “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” nomli kitobi oʻzining qiziqarli va mazmunliligi bilan katta taassurot qoldirgan. Ushbu kitobni nafaqat Qoʻshma shtatlarda, balki dunyoning turli burchaklaridagi mamlakatning oʻgʻil va qizlari, murabbiylar hamma-hamma sevib oʻqimoqda deb oʻylayman. Bu kitobning Oʻzbekiston nashriyotida oʻzbek tilida nashr qilinishi katta voqeadir. Men bu kitobni mutolaa qilib Amerikaning rang barang hayoti, oilaviy turmushi, bolalari va ularning taʼlim tarbiyasiga oid muammolar haqidagi keng tushunchaga ega boʻldim. Kitob muallifi Hillari Roden Klinton 1947-yil 26-oktyabrda Illinoys shtatining Chikago shahrida tugʻilgan. Otasi Hyu Elsvort va onasi Dorti

Rodemlar ijtimoiy kelib chiqishi jihatdan o'rtta sinfga tegishli. U bolaligidayoq ilmga, siyosatga chanqoqligi bilan ajralib turgan. Shu sababli Massachusetts shtatidagi Vellesliy kollejiga o'qishga kirib, uni 1969-yili muvaffaqiyatli tamomlagan va siyosiy fanlar bakalavri diplomini olgan. Hillari bu bilim bilan cheklanmay yana o'qishni universitetda davom ettirgan. Universitetni 1973 yilda tugallab, huquqshunoslik doktori darajasiga sazovor bo'lgan. Uning hayoti va faoliyati bilan tanishar ekanman Hillari xonimga bo'lgan hurmatim oshdi. Chunki kitobda Klintonning bolalar haqidagi, ularning hayotida oila va jamiyatning tutgan o'rni to'g'risidagi mulohazalari joy olgan. Har bir bob bolalar, ularni tarbiyalashda oila, jamiyat va davlatning o'rni bilan bevosita bog'liq muammolarga bag'ishlangan. Kitob muallifning dunyoqarashini, uning Amerika jamiyatida ro'y berayotgan murakkab jarayonlarning ijtimoiy jihatiga, ularning yosh avlodni shakllantirishga ta'siriga munosabatini aks ettirilgan. Hillari Klintonning fikricha-nafaqat oilaviy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash, balki oila o'z farzandlarini voyaga yetishi uchun mas'ul. Hillari Klinton takidlashicha, " Har bir kishi bolalarning tarbiyasiga o'z hissasini qo'shishi, har bir bola tarbiyasi uchun mas'ul bo'lishi muhimdir. Ushbu kitobda oilalarning gullab yashnashi, jamiyat, bolalarning ravnaqi uchun zarur imkoniyatlarni yetarli darajada yaratib berish masalalariga alohida ahamiyat berilgan. Muallif ta'kidlaganidek: "Bolalar tashqi muhitda ham, oilada ham kun kechirishadi. Ularning taqdiri, dunyoga kelishi bilanoq, katta yoshdagi mezbonlar: bobolar va buvilar, qo'ni-qo'shnilar, murabbiylar, ish beruvchilar, siyosiy arboblal, shuningdek, ularning taqdiriga bevosita yoki bilvosita dahldor bo'lgan boshqa kishilarning muruvvatlariga, munisu mehribonliklariga bog'liq bo'lib qoladi. Chunki ular bolaning hissiy va ruhiy rivojlanishining turli jihatlarini ko'rib chiqishga harakat qiladilar. Bu o'rinda ota-onalar mehri hamda g'amxo'rligining ta'siri va samarasi muhim hisoblanadi. Bola to'g'risida g'amxo'rlik qilish va uning aqliy rivojlanishiga, shuningdek, dunyoqarashlarining shakllanishida aqliy va hissiy asos tizimi muvozanatda bo'lishga ko'mak berish qayd etilgan. Uning fikricha go'daklardagi aql bilan til u qadar rivojlanmagan. Uzoq o'tmish bilan bog'liq zarbali lavhalar bola katta bo'lganda ham unda kuchli hissiy munosabat uyg'otishda davom etishi mumkin. Bular salbiy hamda jamiyatga qarshi xatti-harakatlar sodir bo'lishiga olib keladi. Umuman kitobda bola tarbiyasi va ota-onalar hamda jamiyatning roli to'g'risidagi turli tuman masalalar qamrab olingan. Shuningdek kitobda bolalardagi atrof muhitni hamda o'zini bilishga intilish, kundalik muloqot zarurligi, bolaning jismoniy rivojlanishi hamda uning salomatligini qo'llab-quvvatlash, ma'naviy qadriyatlarni bilish, bolalarning sog'ligi va xavfsizligiga

tahdid, turli irqdagilarning bir-biriga sabr bardoshi, etnik umumiylik va hokazo masalalar qalamga olingan. Har bir ota-ona o'g'il qizini parvarishlash, ularga alla aytish, velosiped haydashni o'rgatish, istedodini rag'batlantirish ma'naviyatini kamol toptirish va salohiyatini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq kundalik qarorlar qabul qilish singari eng muhim mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerak bo'lgan. Hillari xonimning takidlashicha menga ishlab charchamaydigan ota nasib etdi. U oilasini hamma narsadan ustun qo'yar edi. Onam ham men va ikki ukam uchun jonini beradigan mehribon ayol edi. Shuningdek menga g'amxo'r qo'shnilar holimizdan xabar olib turadigan shifokorlar, dunyo sir asrorlaridan voqib etuvchi maktablar, xavfsiz ko'chalar, otamning ishini yurgizadigan iqtisodiyotdan bahramandlik nasib etdi. Hayotimda ko'pgina quvonchlarga faqat ota-onamning bizning ustimizdan qattiq nazorat tufayli erishdim deyishim qiyin. Shuningdek bizning har bir qadamimiz boshqa katta yoshlilarning nazoratidan chetta edi deb ham ayta olmayman. Ularning xatti-harakatlari qaysidir ma'noda bizning turish turmushimizga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan albatta. Ota onalarning asosiy burchi o'z farzandlariga g'amxo'rlik qilishdir. Biz qilishimiz lozim bo'lgan ish dilbandlarimiz bilan muloqatda bo'lish va oyoqqa turib olishda ularga yordam berishdir. Ular haqida g'amxo'rlik qilishdan tortib bajaradigan ishimiz va ma'qullaydigan qonunlarimizgacha barcha barchasi Amerika bolalarning kundalik hayotida o'z aksini topmay qolmaydi. Kitobda bola shaxsining milliy xarakteriga, o'ziga xos xususiyatlar haqida ham fikrlar bildirgan. Unda farzandlar va boshqa bolalar to'g'risida qayg'urish nafaqat ma'naviy, qolaversa, hayot ma'motimizni hal qiluvchi masaladir. Hech bir oila jamiyat tasridan holi bo'la olmaydi. Yaxshimi yomonmi, umrimiz oilalalar va o'zimiz kun kechiryotgan muhitda kechadi. Kelajagimiz oilada shakllanadi. Oilada orttirilgan tajribamiz fe'l- atvorimiz va tafakkurimizga ta'sir etadi. Shu bilan birga oila katta jamiyat. U shahar cheti yoki chetda bo'ladimi bundan qat'iy nazar, muhit-mavze tasirida shakllanadi. Shuning uchun ham oilamizni shakllantirgan shaxs ijtimoiy kuchlar, ularning bizning hayotimiz va yashash muhitimizni qanday yuzaga keltirgani yoki keltirayotganini tushunib olishga urinib ko'rish muhim ahamiyatga ega. Xuddi oila kabi biz meros qilib olgan madaniyat ham, asosan voqealarning qabul qilinishida bizning ham oz-moz hissamiz bo'lgan qarorlarning mahsulidir. Bizning taqdirimiz madaniyatdan ko'ra oilaga ko'proq bog'liq. Oilalar eng qiyin davrlarda ham gullab yashnayveradi. Shaxslar eng nochor oilalarda ham yashab qoladi. Ammo jamiyat biz uchun muhit vazifasini o'taydi. Hech kim bo'shliqda bir- biridan holi yashay olmaydi. Hozirgi kunda ham – ehtimol biz buni his qila olmayotgan yoki tan olmayotgandirmiz – farzandlarimiz o'z

farzandlarini o‘stiradigan shart–sharoit murakkab bo‘lib bormoqda. Zotan, ularga qanday meros qoldirish haqida qayg‘urish bizning zimmamizda.

Ushbu kitobda Amerikalik faylasuf Hillari Klintonning fikrlarini o‘rganib chiqib, bunga qo‘shimcha ravishda shuni aytmoqchimanki, pedagogika fanlari doktori, professor Ulfat Mahkamovning “Axloq-odob saboqlari” nomli asarida ham insonni ulug‘lash, uning qadriga yetish, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodni axloq-odobli qilib tarbiyalash, ularni kamolga yetkazish borasida ko‘plab tushunchalarni o‘rganishimiz va uni albatta o‘z hayotimiz ish faoliyatimiz jarayonida qo‘llashimiz mumkin. Ushbu kitobdan farzand tarbiyasida o‘z milliyligimiz qadriyatlarimizga tayangan holda o‘rganishimiz mumkin bo‘lgan boy va teran fikrlarni olishimiz mumkin.

Chunki unda inson tavallud topib dunyo yuzini ko‘rishi bilan ona mehrining qalb qo‘ridan bahra ola boshlaydi va munis alla qo‘shig‘ini eshitib kamol topadi. “Bola boshidan, uning tarbiyasi beshikdan boshlanadi”, - deydi dono xalqimiz. Shuning uchun ham xalqimiz bolalarni go‘daklikdanoq, beshikda yotgan chog‘idanoq salom berishga o‘rgatadi. Insonga ,do‘stga, keksalarga, ustoz-murabbiylarga, mehmonga beriladigan salom xalqimizning eng yaxshi hislatlari hurmat-ehtiroمنى bildiradigan, dilni dilga ulaydigan, mehr-oqibat ko‘prigi bo‘lib, odob-axloqning asosi hisoblanadi. Turli vaziyatda ham yurakdan beriladigan salom kishi yuzida tabassum uyg‘otadi. Kitobda salomlashish jarayonida qo‘llaniladigan so‘zlarning ma‘no va mazmunida naqadar muqaddas ezgu niyatlar ifodalangan. Bir e‘tibor bering-a! Salomlashish eson omon bo‘lmoq, saqlanmoq, bezarar yurmoq, tinchlik xavfsizlik, salomatlik, xotirjamlik, yaxshilik, qut-saodat kabi ma‘nolarni anglatadi. Ushbu “Axloq-odob saboqlari” kitobini o‘qir ekansiz unda siz assalomu alaykum so‘zidan boshlab, adolat, aql, axloq, baxt, burch, vatanparvarlik, vafo, do‘stlik kabi insoniy fazilatlaridan tortib, oilada farzandni tarbiyalash, ota-onani rozi qilish kabi ibratli fikrlarni ham olishimiz mumkin. Xalqimizda shunday naql borki “Ota rozi xudo rozi”. Albatta otalar ham o‘z farzandlarining bilimli, tarbiyali bo‘lishi uchun harakat qilishadi. Ayniqsa ota va o‘g‘il o‘rtasida bir-birlarini hurmat qilish, o‘zaro yordam berish, otaning og‘irini yengil qilish odat bo‘lgan. Demak, oilada farzandlar tomonidan otani hurmat qilish, uning an‘analarini avaylab asrash, muborak nomiga dog‘ tushirmaslik o‘zbek xalqining qadimiy odatlaridan hisoblanadi. Chunki har bir farzandning vujudga kelishi uchun ota sababchi bo‘lgan zotdir. Otaning mehr bilan farzandini parvarish qilishi, hol ahvolidan hamisha xabar olishi muqaddas burchidir. Shuning uchun ham ota farzandlarining yeb ichishi, kiyinishi, ta‘lim olishi va boshqa zarur narsalar uchun topgan molini ishlatadi. Shunday ekan har bir farzand ham ota hozir

bo'lganda ham uzoqda ekanligida ham unga muhabbatda bo'lishi, ehtirom qilishi, nasihatlarini, vasiyatlarini esidan chiqarmasligi kerak.

Ushbu kitoblarni o'qib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, Ota-onalar bolalarning o'quv bilish faoliyatini boshqarish, ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirish ko'nikma, malakalarini shakllantirish, bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlash va rejani samarali bajarish, ular bilan individual ish olib borish, mahalla va jamoat ishlariga jalb qilish, oilada va ijtimoiy hayotda tartib qoidalarga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqilligini ta'minlash, bolalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishda kitob har bir ota-ona, har bir o'quvchi yoshlar uchun eng yaqin do'sti hisoblanadi. Men shu ikki kitob haqida o'z fikrlarimni bayon etdim. O'ylaymanki har bir kitob-bir maktab hisoblanadi. Shuning uchun kitob o'qish hayotimiz manaviyatimizni ijodiy fikrlash madaniyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent-2022 yil
2. Mahkamov U.I. Axloq - odob saboqlari. -T.: Fan, 1994 y. -135 b.
3. Hillari Rodem Klinton Bir bolaga yetti mahalla ota-ona. -T.: O'zbekiston 2007 uil. 155-bet

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kitob o'qish asosida o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini shakllantirish mazmuni Amerika va O'zbekiston olimlarining tarbiyaga oid kitoblari asosida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan. Unda "Bir bolaga yetti mahalla" va "Axloq-odob saboqlari" kitoblari ma'naviy-axloqiy jihatdan tahlil etilgan va ularning bola tarbiyasidagi ijtimoiy ahamiyati ko'rsatilgan .

РЕЗЮМЕ

В данной статье содержание формирования духовности учащихся на основе чтения книг научно и педагогически обосновано на учебных книгах американских и узбекских ученых. В ней книги «Семь кварталов для ребенка» и «Уроки нравственности» анализируются с духовно-нравственной точки зрения и показывается их социальная значимость в воспитании детей.

SUMMARY

In this article, the content of the formation of students' spirituality based on reading books is scientifically and pedagogically substantiated on the educational books of American and Uzbek scientists. In it, the books "Seven Quarters for a Child" and "Moral Lessons" are analyzed from a spiritual and moral point of view and their social significance in raising children is shown.



O‘QUVCHILARDA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Utamuradov U.M.

Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Tayanchi so‘zlar: kompetensiya, huquq, madaniyat, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, jinoyatchilik.

Ключевые слова: компетентность, право, культура, информационно-коммуникационные технологии, преступность.

Key words: competence, law, culture, information and communication technologies, crime.

Globalashuv fenomeni ijtimoiy, siyosiy, madaniy muhitning shakllanishi, hayot sur‘atlarining beqiyos darajada tezlashuvi, davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiyaning, hamkorlikning kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko‘plab yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tarqalishi, turli qadriyatlarining umuminsoniy negizida uyg‘unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha shakli bilan bog‘liq jarayondir. Shu bilan birga u mafkuraviy ta‘sir vositasi hamdir. Globalashuv oqibatida o‘quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni qaror toptirish, huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish kelgusi avlodlarning barqaror kelajagini ta‘minlash yo‘lidagi taraqqiyot garoviga aylandi.

YUNESKO tashkilotining “XXI asr ta‘limi” bo‘yicha xalqaro qo‘mitasi dasturida insoniyat oldida turgan eng muhim va-zifalari qatorida empatiyaga moyillik belgilarining paydo bo‘lishi hamda shaxs sifatida noyob, yagona, takrorlanmas bo‘lishni o‘rganish kabilar alohida ta‘kidlab o‘tilgani bejiz emas. Bugun yer yuzida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlar ko‘zlangan ana shunday urinishlar natijasi-da katta ma‘naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani, millatlarning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va yashash tarzi izdan chiqayotgani inson ma‘naviyatiga xatar solmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda so‘nggi yillarda uzluksiz ta‘lim tizimidagi islohotlar ta‘lim jarayonining huquqiy-meyoriy asoslarini innovatsion tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga, ta‘lim subyektlarining ehtiyojlarini qondirishga, yosh avlodni aqlan va ma‘nan barkamol inson qilib tarbiyalash, ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish,

zamonaviy pedagogik nazariyalar va ilg'or tajribalar asosida o'z faoliyatini tashkil qila oladigan, yangi dunyoqarashdagi shaxsni shakllantirishga qaratildi. Jamiyat tomonidan belgilangan huquq normala-riga rioya qilish hamda uning natijasi jamiyat manfaatlarini bilan bog'liqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar, 10 million 360 ming nafarni, yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa-17 million 80 ming nafarni, yoki 64 foizini tashkil etadi. Yoshlarning huquqiy madaniyati zamirida ularning huquqiy kompetensiyalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish, huquqiy ta'limni yaratish va uni yosh avlodga o'qitish hamda o'rganish bo'yicha optimal nazariy, ilmiy va uslubiy asoslarni ishlab chiqish ehtiyoji mavjud.

Dunyoda va mamlakatimizda aynan mana shu muammolar o'z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi hamda quyidagilarda o'z ifodasini topadi Xususan:

mamlakatimizda ta'lim tizimidagi yangi sifat bosqichi yoshlarga (sanogen) sog'lom tafakkur tarzini singdirish kabi ma'naviyatimizni yanada yuksaltiradigan ustuvor yo'nalish qilib belgilanishi;

tarbiyalanayotgan yoshlarda yuksak ma'naviy madaniyat, axloq va ma'rifat fazilatlarini shakllantirish va singdirish muammolarining yechimini davr taqozo etishi;

davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri-ma'naviy jihatdan barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom, vatanparvar, fidoyi insonni tarbiyalash, ta'lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazish vazifalarini amalga oshirish zaruratining oshishi;

o'quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalalari bo'yicha chuqur ilmiy-tadqiqotlarga zarurat tug'ilishi.

Yuridik texnikum faoliyati yosh avlodni chuqur bilim va keng dunyoqarashga ega bo'lishini ta'minlashdek ezgu maqsadga qaratilgan. Shuningdek, mazkur siyosatning tub mazmunida jahon andozalariga mos raqobatbardosh milliy kadrlarni tayyorlash, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash, ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda ular o'rtasida olib boriladigan ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish, shu bilan birga faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalashdek ulug'vor maqsadlar yotadi.

Bu borada ilmiy izlanish olib borgan respublikamiz olimlari: E.Abzalov, A.Azizxo'jayev, O.Karimova, I.Kudryavsev, H.Odilqoriyev, A.Ostrovskiy, A.Saidov, O.Husanov, U.Tojixonov, A.Rafiqov, A.Hamroyev, Sh.O'razayev, O.Nasriddinova, S.Abduholiqov, A.Irisaliyev, N.T.Ismoilov,

Sh.A.Akromovalarning ilmiy ishlarida o'quvchilarda xuquqiy madaniyatni qaror toptirish masalalarning ba'zi jihatlari o'z aksini topgan.

Ushbu tadqiqotlar va adabiyotlarda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarning mazmun-mohiyati hamda umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga yangicha yo'nalishlar orqali singdirib borishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Biroq, so'nggi yillarda yuridik texnikumi o'quvchilarida xuquqiy kompetensiyalarni shakllantirish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan ishlar kamchiligini ham qayd etib o'tish lozim.

O'quvchilarda xuquqiy kompetensiyalarni shakllantirish tizimini takomillashtirishda shaxs rivojlanishida yosh xususiyatlari, fiziologik, biologik, iqtisodiy, ijtimoiy, pedagogik, psixologik, tashqi va ichki omillarni, gender tafovutlarni, ma'naviy va ma'rifiy ta'sir etishning metod, usul, vosita va shakllarini inobatga olish kerak.

Shu tariqa, o'quvchilarda xuquqiy kompetensiyalarni shakllantirish muammosining yetarli darajada ishlanmaganligi, bu borada pedagogik yondashuvlar to'liq o'rganilmaganligi tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilash imkonini berdi.

Tahlillarga ko'ra, 2017 yildan e'tiboran mamlakatimizda to'liq 9+3=12 yillik ta'lim tizimidan 11 yillik o'qishga o'tildi. Natijada, maktab va kollej o'quvchilari tomonidan sodir etilgan umumiy jinoyatlar soni 2,5 barobarga kamayishiga erishildi. Shu bilan birga, ko'pchilik ota-onalar tomonidan bu qaror to'g'ri qaror ekanligi e'tirof etildi.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida 9 942 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida 6,2 mln. nafarga yaqin, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 3mln,4 nafarga yaqin o'quvchilar tahsil olayotgan bo'lib, ularga 586 ming nafar o'qituvchi ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.

Dunyo miqyosida yuridik soha bo'yicha tahsil oluvchilarining bilim, ko'nikma, malaka egallashlarini takomillashtirish, intellektual va deontologik kamolotini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, uni pedagogizatsiyalash, o'quv predmetlariga sog'lomlashtiruvchi texnologiyalarni joriy etish, uzviyligi va uzluksizligi, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta'minlash, bo'lajak mutaxassislarning kreativligi, ijodkorligini oshirish vazifalari qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020), pedagogikaga aloqador klassik qarashlar yuridik texnikumi o'quvchilarida xuquqiy kompetensiyalarni shakllantirish muammosi va uning yechimi uchun konseptual asoslari bo'lib hisoblanadi [1,2,3]. Mazkur asoslar ta'lim-tarbiya (pedagogik jarayonlar) tizimida keng islohotlar o'tkazishga zamin yaratmoqda.

Konseptual asoslarga muvofiq ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibi, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish, ta'lim-tarbiya tizimini bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar o'quvchilariga javob bera oladigan qilib boshqarishga yo'l ochilmoqda.

Respublika yuridik ta'lim muassasalari uchun pedagogik jarayonlarni tashkil qilishda shaxsni tarbiyalash zamirida, unga o'z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, e'tiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va boshqa qator o'quvchilar qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir.

Binobarin, yuridik texnikumi o'quvchilarida xuquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim, madaniyat, ilm-fan sohalaridagi integratsiya ularning kelgusidagi kasbiy kompetentligiga ham ta'sir o'tkazmoqda.

Har qanday buyuk rejalar, buyuk g'oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Shunday ekan, Uchinchi Renessans to'rtinchi sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechayotgan bir paytda ta'lim-tarbiya jarayonini texnologik inqilob, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqli) texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Binobarin, smart ta'lim-tarbiya jarayoniga o'tish uchun yuridik texnikumi o'quvchilarida xuquqiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, kreativ g'oyalar bilan mazmunan yangilash o'quvchi etiladi. Mazkur jarayon O'zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta'minoti bo'yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Renessans g'oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog'lanishi shart. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta'minot taqozosidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси («Халқ сўзи» газетаси, 2023-йил 243 (494)-сон; / [хтпс://lex.uz/doss/20596](https://lex.uz/doss/20596).
2. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2020-й., 41-сон, 543-модда. [хтпс://www.lex.uz/act/16188](https://www.lex.uz/act/16188).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 29-апрелдаги «Ўзбекистон республикаси халқ таълими тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5712-сон Фармони.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o'quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish pedagogik muammolariga oid fikr mulohazalar yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены педагогические проблемы формирования правовых компетенций учащихся.

SUMMARY

This article examines the pedagogical problems of developing legal competencies of students.



БЎЛАЖАК ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МУТАХАССИСЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ВИРТУАЛ (ГРАФИК ВИЗУАЛИЗАЦИЯ ВА 3D-МОДЕЛ) ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА МОСАФАВИЙ ТАЪЛИМДАН ФЙДАЛАНИШ ОРҚАЛИ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Султанов Е.Қ.

*Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти
«Қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш ва сув хўжалиги»
факультети декани, техника фанлари нозоди, доцент*

Таянч сўзлар: виртуал технология, график визуализация, 3D модел, компетенция, касбий компетенция, агропедагогик компетенция, дидактика, таълим мухити.

Ключевые слова: виртуальные технологии, графическая визуализация, 3D-модель, компетентность, профессиональная компетентность, агропедагогическая компетентность, дидактика, образовательная среда.

Key words: virtual technologies, graphic visualization, 3D model, competence, professional competence, agro-pedagogical competence, didactics, educational environment.

Сўнгги йилларда бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг фаолиятининг тегишли соҳаларида, хусусан, ахборот технологиялари соҳасида (компьютер саводхонлиги, компьютерда ишлаш ва автоматлаштирилган усулларидадан фойдаланиш) ваколатларини ривожлантириш бўйича кўшимча касбий дастурларни таълимни бошқариш соҳасида амалга ошириш тенденцияси кузатишмоқда (тестлар, график муҳаррирлар ва бошқалар). Бироқ, агропедагогик компетенцияни ошириш кўпинча педагогик риторика, талабалар билан мулоқот қилиш усуллари ва бошқаларни ўзлаштириш билан чекланади.

Компетенцияга асосланган таълим шароитида касбий билим, кўникмаларни ўзлаштириш ва актуаллаштириш, маънони шакллантирувчи касбий мотивларни шакллантириш, касбий муҳим фазилатларни, касбий фикрлашни ривожлантириш, шунингдек, компетенцияни амалга оширишни хиссий ва иродавий тартибга солиш амалга оширилади.

Компетенцияга асосланган вазиятларни лойиҳалаш педагогик тамойиллар тизимида асосланади:

- таълим ва тарбиянинг бирлиги тамойили;

- фаннинг таълим фаолиятида изчил моделлаштириш принципи ва келажакдаги касбий фаолиятнинг ижтимоий контексти;
- талабанинг таълим фаолиятига шахсан жалб этилишини психологик- педагогик қўллаб-қувватлаш тамойили;
- ўқитувчи ва талабаларнинг биргаликдаги ишлаб чиқариш фаолиятининг этакчи роли принципи, мулоқотнинг диалогик тури;
- таълим мазмунининг қадрият жиҳатларини янгилаш тамойили;
- касбий жойлашув тамойили;
- талабанинг касбий ўзини-ўзи англашини шакллантириш тамойили.

Этакчи функционал имкониятларга қараб, касбий компетенцияни шакллантириш ҳолатларини шартли равишда қуйидаги турларга бўлиш мумкин:

- касбий фаолият мотивларини шакллантириш ҳолатлари;
- касбий билимларни шакллантириш ҳолатлари;
- касбий қадрият муносабатларини, касбий этикани шакллантириш ҳолатлари;
- касбий муҳим сифатларни шакллантириш ҳолатлари;
- касбий компетенция ва малакаларни шакллантириш ҳолатлари;
- ваколатларни амалга ошириш механизмларини шакллантириш ҳолатлари, компетенциянинг намоён бўлиш ҳолатлари.

Шаклланаётган агропедагогик компетенция турига қараб, касбий-пуджет ва ижтимоий-психологик компетенцияни, умумий компетенцияни ва махсус компетенцияни шакллантириш ҳолатларини ажратилди.

Виртуал (график визуализация ва 3D-модел) технологиялардан фойдаланган ҳолда талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнида мажбурий фанларни ўрганишга алоҳида эътибор берилиши керак, чунки улар бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассислари фаолиятини ташкил этиш учун зарур бўлган фундаментал билим, кўникма ва малакаларни шакллантиради.

Натижаси бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлашда агропедагогик компетенцияси шакллантирилади.

Ушбу модел барча блокларнинг муносабатларини акс эттирувчи дидактик тизимдир:

- мақсадли блок виртуал (график визуализация ва 3D-модел) технологияларидан фойдаланган ҳолда қишлоқ хўжалиги соҳаси бакалаврларини тайёрлаш мақсадларини шакллантиради;
- мазмунли блоки замонавий ахборот технологияларини ҳисобга олган ҳолда умумий касбий фанлар мазмунини янгилашни лойиҳалаштиради;

- моделнинг технологик блоки бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини электрон ўқув нашрлари, виртуал моделлаштириш шакллари, график визуализация, мультимедиа ва 3D-модел технологиялари асосида фаол ўқув, мустақил фаолиятга жалб қилишни долзарблаштиради.

Виртуал (график визуализация, 3D-модел) технологиялар ва масофавий ўқитиш усулларидан фойдаланган ҳолда бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг агропедагогик компетенциясини шакллантириш моделининг баҳолаш ва самарали блоки унинг тузилишига мувофиқ тузилган ва уларнинг шаклланиш даражаларини ўз ичига олади (3-расм).

Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлашда очик қўшимча касбий таълим тизимининг таклиф этилаётган моделида ижтимоий тартибни шакллантириш ижтимоий ривожланиш тенденцияларини ва минтақавий меҳнат бозори талабларини ўрганишни назарда тутуди, бу эса қўшимча касбий таълим тизимининг ижтимоий тартиби асосини ташкил қилади (3-расм).

Тадқиқотда бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг қишлоқ хўжалиги соҳаси олий таълим муассасаларида касбий тайёрлаш ва психологик-педагогик профилдаги малака ошириш таълим дастурларини ўзлаштириш жараёнида педагогик ва қишлоқ хўжалиги соҳаси билимларини интеграциялаш муаммоси кўриб чиқилган.

Қишлоқ хўжалиги соҳаси олий таълим муассасаларида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг касбий тайёргарлигининг ўзига хослиги улар томонидан асосий қишлоқ хўжалиги таълими жараёнида олинган мавжуд агропедагогик компетенциялар ва янги касбий психологик-педагогик компетенцияларнинг интеграциясида намоён бўлади.

Тадқиқотда интегратив ёндашув қишлоқ хўжалиги соҳаси таълим муассасалари бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг агропедагогик компетенциясини шакллантириш жараёнини ҳам, натижасини ҳам ўз ичига олади. Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини педагогик тайёрлашнинг асоси сифатида интеграл ёндашувнинг умумий мақсади қишлоқ хўжалиги соҳаси таълим муассасалари ўқитувчисининг яхлит, баркамол ривожланган шахсини ривожлантиришдир.

Интегратив ёндашувнинг моҳиятига асосланиб, унинг функциялари (методик, шакллантирувчи, интеграция, лойиҳалаш, прогностик), бошқичларини (умумийдан хусусийни абстракция қилиш, танланган таркибий қисмларни умумлаштириш ва интеграциялашуви) ажратиб кўрсатиш мумкин, уларни вазифалари синтез қилиш, тизимлаштириш (индивидуал бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг интеллектуал ва

когнитив салоҳиятини актуаллаштириш, мулоқот қобилиятларини ривожлантириш, шахслар-аро муносабатларни оқилона йўлга қўйиш қобилияти ва бошқалар).

Интеграция жараёни уч даражада амалга оширилади:

1) касбий педагогик ва асосий аграр соҳаси таълимнинг интеграцияси;
 2) «Олий таълим педагогикаси», «Аграр соҳаси педагогикаси», «Касбий ва махсус фанларни ўқитиш методикаси ва технологияси», «Илмий-педагогик ходимларнинг илмий-тадқиқот фаолияти муаммолари»; «Касбий фаолият психологияси» дастурлари мазмунини интеграциялаш;

3) агропедагогик компетенция ва педагогик амалиётнинг интеграцияси.

Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг агропедагогик компетенцияси учта омилнинг интеграцияси сифатида кўриб чиқилади:

1) мавжуд агропедагогик компетенциялари;
 2) касбий тайёргарлик жараёнида эгалланган-психологик-педагогик компетенциялар;
 3) касбий аҳамиятга эга шахсий хусусиятлар.

Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассислари олий ва қўшимча касбий таълим тизимининг субъекти сифатида қаралади: бир томондан, у ўқув ва тарбиявий фаолиятни амалга оширади, иккинчи томондан, у ўзини ҳар томонлама ривожлантиради.

Педагогик ва қишлоқ хўжалиги билимларини интеграциялашуви асосида қишлоқ хўжалиги соҳаси олий таълим муассасалари бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий тайёрлашнинг дидактик тизими яратилган.

Қишлоқ хўжалиги соҳаси педагогикасининг устувор мақсадлари бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини ўқитиш ва тарбиялаш ва бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлашдир.

Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг касбий педагогик тайёргарлигини қишлоқ хўжалиги педагогикасининг устувор йўналиши сифатида кўриб чиқиш мумкинлиги бир қатор сабаблар билан изоҳланади:

бугунги кунда олий таълим тизимида касбий психологик фанларга эга қишлоқ хўжалиги фанлари ўқитувчиларининг ва педагогик тайёргарлигининг етишмаслиги мавжуд;

касбий тайёргарлик дастурлари бўйича муваффақиятли ўқитиш бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларига касбий фаолиятнинг янги турини- педагогикани ўзлаштириш, касбий малакасини ошириш, ўзгарувчан ижтимоий-иқтисодий шароитларга мобил жавоб бериш имконини беради.

ташкилий-тайёрлов, мазмун-технологик, баҳолаш ва башоратлаш ишлаб чиқилган ва тузилма ва асосларга асосланган ва уларнинг касбий фаолияти мазмуни, уларнинг модели расмда кўрсатилган (3-расмга қаранг).

Ишлаб чиқилган моделнинг устувор мақсади бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг муҳандислик-педагогик компетенциясини шаклландиришидир.

Бунга эришиш учун қуйидаги вазифаларни ҳал қилиш керак:

бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг касбий компетенция дастурларини (психологик-педагогик, илмий-тадқиқот, ташкилий-технологик, ўқув-методик) эгаллаши;

давлат, ижтимоий жамият, ишлаб чиқариш соҳаси ва таълим тизими талабларига мувофиқ ўз касбий маҳоратини эгаллаш;

қишлоқ хўжалиги соҳаси фанларнинг бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг касбий, шахсий ва илмий эҳтиёжларини қондириш;

Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг касбий-педагогик фаолиятининг назарий модели аграр соҳаси олий таълим муассасалари ўқитувчиларини илмий ва касбий фаолиятини энг самарали амалга оширишга тайёрлашга қаратилган. Модел бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини учун қўшимча дастурий таъминот ва шахсий компьютер дастурлари таркибига кирувчи компонентлар тўпламидан иборат; улар томонидан ташкил этилган гуруҳлар, бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг ўз фаолиятида касбий компетенциясини ошириш муаммосига тўхталар эканмиз, шунини таъкидлаш керакки, бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг педагогик тайёргарлиги сифатини ошириш унинг мазмуни, хусусан, илмий ёки техник хусусиятлари билан чамбарчас боғлиқ ва маълум бир олий таълим муассасасига хосдир.

Манбаларга кўра, касбий компетенция ўз фаолияти соҳасидаги мутахассис, про-фессияларнинг махсус, предмети сифатида тавсифланади.

Агропедагогик компетенция-бу мутахассиснинг қишлоқ хўжалиги соҳаси ва педагогика бўйича махсус билим, кўникма ва малакаларини ташкил этишнинг алоҳида тури бўлиб, унга касбий фаолият жараёнида самарали қарорлар қабул қилиши ҳисобланади.

Агропедагогик компетенция талаба ўзлаштирган қишлоқ хўжалиги соҳаси мутахассисликларининг моҳиятини ақс эттиради, шунинг учун уни мутахассислар тайёрлашнинг концептуал асоси сифатида тавсифлаш мумкин. Бу касбий билим, кўникма ва кўникмаларнинг шаклланиш даражасини, унинг касбий билимини ақс эттиради, бу олий таълимнинг ҳуқуқий ҳужжатларида назарда тутилган касбий фаолият вазифаларининг учта синфи-

ни муваффақиятли ҳал қилишга имкон беради: стереотипли, диагностик ва эвристик.

Агропедагогик компетенция-бу шахс қишлоқ хўжалиги соҳаси мурожаат қилаётган лавозимнинг касбий вазифалари ва мажбуриятларини муваффақиятли бажариш қобилияти. Бу бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассиснинг малакавий характеристикаси, хусусан:

- умумий таълим, касбий ва махсус фанларни мукамал билиш (умумий билим);
- касбий технологияга эга бўлиш-аниқ касбий муаммоларни ҳал қилиш учун билим ва кўникмаларни сафарбар қилиш компетенцияси;
- ишлаб чиқариш вазифаларини бажариш учун олинган қобилиятни касбий фаолиятнинг турли даражаларига ўтказиш қобилияти билан тавсифланган юқори маълака;
- фаолиятнинг турли даражаларида муаммони ҳал қилиш усулларини баҳслаша олиш;
- ҳамкасблар билан ҳамкорлик қилиш қобилияти (ҳамдўстлик, ўзаро ёрдам ва бошқалар);

Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини қўшимча касбий таълимнинг очиқ тизимининг таркибий қисмлари сифатида қуйидагиларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

- мослашувчан таълим дастурлари;
- мослашувчан таълим технологиялари;
- мослашувчан ташкилий тузилмалар;
- бошқарув механизмлари;
- ижтимоий муҳит.

Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини қўшимча касбий таълим тизимининг тизимли функциялари қуйидагиларни ўз ичига олади:

- ҳаёт давомида индивидуал таълим чизиги бўйича ривожланиш имкониятларини таъминлаш орқали бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларнинг доимий ўзгарувчан касбий фаолият шароитларига ва ижтимоий муҳитга мослашишини таъминлаш;
- олий таълим муассасаларининг таълим ресурсларини бирлаштириш;
- фуқаролик жамиятининг таркибий қисми сифатида таълимдаги ижтимоий шерикликни шакллантириш.

Тақдим этилган моделдаги бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини қўшимча касбий таълим тизимининг очиқлиги меҳнат бозори, жамият, давлатнинг таълим эҳтиёжларининг хилма-хиллигини ҳисобга олиш, таълим хизматлари бозорининг рақобат муҳитини таҳлил қилиш ва ушбу таълим талабларини амалга ошириш орқали намоён бўлади. Ўзаро таъсир-

ларни чеклаш принципига кўра, ташқи ва ички муҳит ўртасидаги мумкин бўлган кўп сонли ўзаро таъсирлардан фақат мувофиқлик принципига мос келадиганлар пайдо бўлади.

Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассислари учун муҳим бўлган ишда аниқланган педагогик фаолиятнинг асосий турлари бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг агропедагогик компетенцияси таркибида ўзаро боғлиқ бўлган бешта компонентни аниқлашга имкон берди:

- когнитив (бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг умумий педагогик, услубий ва махсус тизимга эга бўлиши, ўқитишга қизиқиш даражаси);
- креатив (ўқув машғулотларининг аввалдан режалаштирилишидан воз кечиш, талабаларда танқидий, креатив тафаккурни шакллантириш ва ривожлантириш, уларни ижодий фикрлаш, янги ғояларни ўйлаб топишга мажбур қилиш таълим олишга бўлган муносабатни ўзгартириш, уларни ютуқларга эришишга рағбатлантиришда асосий омил);
- шахсга йўналтирилган (талабанинг фикрлаш ва ҳаракат стратегиясини инобатга олган ҳолда унинг шахси, ўзига хос хусусиятлари, қобилиятини ривожлантиришга йўналтирилган таълим);
- амалиётга йўналтирилган (фақат маълум методик ҳаракатлар ва методик фаолиятнинг асосий турларини амалга ошириш, шунингдек, ўқув жараёнининг юқори натижалари ва сифатига эришиш учун уларни ўзгартириш қобилияти);

-мотивацион (педагогик фаолиятга психологик тайёрлик даражаси, ўқув ва когнитив фаолият мотивлари, профессионал таълимда касбий фанларни ўқитишга қизиқиш даражаси).

Адабиётлар:

1. Султанов Е.К., Аграр соҳаси олий таълим муассасалари ўқитувчиларининг агропедагогик компетенцияси. Касб-хунар талими журнали. 2023. 1-сон. 203-207 бетлар.
2. Sultanov E.K., Agro-pedagogical competence is the basis for preparing future agricultural specialists for professional activities. Science and innovation. International scientific journal volume 2 issue 5 may 2023 UIF-2022:8,2/ISSN: 2181-3337/scientists.uz. 264-273p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7991225>.
3. Султанов Е.К., Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикаси. International Scientific Journal SCIENCE AND INNOVATION. Special Issue «Actual issues of agricultural development: problems and solutions». June 2023. Part 2. 479-483p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012624>.
4. Султанов Е.К., Бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий тайёрлашнинг компетенциявий тузилмаси. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал. 2023. 3 /4-сан. Нөкис. 232-241 бетлар.
5. Султанов Е.К., Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий тайёрлаш методикасини такомил-лаштириш масалари ҳақида. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал. 2023. 3 /4-сан. Нөкис. 246-256 бетлар.

6. Султанов Е.К., Касбий компетенция асосида аграр соҳаси мутахассисларини тайёрлаш//«Касб-хунар таълими», Илимий-услубий, амалий, маърифий журнал. 2021. №4. 24-28 б. (13.00.00. №19)

7. Sultanov E.K., Development of Model of Methodology of Professional Training of Future Personnel in Agrarian Complex// EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(1), 20–24. Retrieved from. ISSN: 2795-8612. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/134>

8. Sultanov E.K., Conceptual Rules For The Development of The System of Vocational Training Of Future Specialists In Agriculture// EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. 2(2), 89–92. Retrieved from <http://www.inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/423>. Online ISSN 27-9228 IMPACT FACTOR 8.4

9. Sultanov E.K., On The Problem Of Training Teachers In Professional education of Uzbekistan// Scientific Collection Interconf, №100 February, 2022, The Issue Contains: Proceedings of the 6th International Scientific and Practical Conference GLOBAL AND REGIONAL ASPECTS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT, COPENHAGEN, DENMARK 26-28.02.2022. ISBN 978-87-615-0721-1.207-212p.

10. Султанов Е.К., Компетенциялар асосида аграр соҳасида мутахассислар тайёрлаш масалалари ҳақида / «Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari» mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (27 yanvar 2022 yil) – Тошкент.: Rishton XTB. 2022. 112-116 б.

11. Султанов Е.К., Компетенцияга асосланган ёндашув олий таълим муассасаларида агроном-педагог кадрлар тайёрлаш асоси сифатида // Talqin va tadqiqotlar (scientific-methodical journal) научно-методический журнал, Тошкент, №2. 2022. ISSN 2181 – 3035. 105-109 бетлар.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада қишлоқ хўжалиги олий таълим муассасаларида компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларининг касбий компетенциясини виртуал (график визуализация ва 3D-модел) технологиялари ва мософавий таълим методикасидан фойдаланиш орқали такомиллаштириш масалари ҳақида маълумотлар келтирилган. Шунингдек, бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий компетенциясини ривожлантириш учун кенг дидактик имкониятларни яратадиган инновацион технологиялар таълим муассасаларида таълим жараёнини ривожлантириш ва такомиллаштиришга таъсири ҳақида сўз юритилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация по вопросам повышения профессиональной компетентности будущих специалистов сельского хозяйства в аграрных вузах на основе компетентностного подхода посредством использования виртуальных (графической визуализации и 3D-модели) технологий и методов дистанционного обучения. Кроме того, обсуждается влияние инновационных технологий на развитие и совершенствование образовательного процесса в образовательных учреждениях, которые создают широкие дидактические возможности для развития профессиональной компетентности будущих специалистов сельского хозяйства.

SUMMARY

This article provides information on the issues of increasing the professional competence of future agricultural specialists in agricultural universities based on a competency-based approach through the use of virtual (graphic visualization and 3D models) technologies and distance learning methods. In addition, the impact of innovative technologies on the development and improvement of the educational process in educational institutions, which create wide didactic opportunities for the development of professional competence of future agricultural specialists, is discussed.

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ ЖИХАТДАН ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ БОСҚИЧЛАРИ

Халиков А. А.

*Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори,
педагогика фанлари доктори*

Таянч сўзлар: таълим сифати ва самарадорлигини кафолатлаш, бўлажак ўқитувчиларни касбий жиҳатдан шакллантириш, педагогик маҳорат, малакали педагог кадрларни тайёрлаш, оптант, адепт, адаптант.

Ключевые слова: обеспечение качества и эффективности образования, профессиональное становление будущих учителей, педагогическое мастерство, подготовка квалифицированных педагогических кадров, оптант, адепт, адаптант.

Key words: ensuring the quality and effectiveness of education, professional development of future teachers, pedagogical skills, training of qualified teaching staff, optant, adept, adaptant.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60 сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармонида олий таълим тизимини комплекс ривожлантириш бўйича устувор вазифалардан бири “педагог кадрларнинг касбий маҳорати сифати ва савиясини узлуксиз юксалтириш” ҳам энг муҳим вазифалардан бири сифатида эътироф этилган. Ушбу қарорда мазкур тизимда таълим сифати ва самарадорлигини кафолатлашга хизмат қилувчи асосий омиллардан бири – малакали педагог кадрларни тайёрлаш учун, аввало педагогика олий ўқув юртларида бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратларини ривожлантириш масаласи ўз ечимини кутаётган энг долзарб муаммолар сирасига киритилган.

Бугунги кунда бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини ривожлантириб боришга мустаҳкам замин яратилиши керак. Олий педагогик таълим муассасаларида ушбу муаммоларнинг ечимини топишда “Педагогик маҳорат” фанини чуқур ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Бугунги кунда у ёшларни ғоявий-сиёсий жиҳатдан чиниктириб табиат, жамият, ижтимоий ҳаёт, тафаккур тараққиёти қонуниятларини ўргатади, ёшларни меҳнат фаолиятига тайёрлаб, касб–ҳунар сирларини пухта эгаллашларида кўмаклашади ва жамият учун муҳим бўлган ижтимоий–иқтисодий вазиятларни ҳал этади.

Мамлакатимиз йигит-қизларини замон талаблари даражасидаги билим-ли шахслар этиб вояга етказиш, ҳозирги кунда ривожланиб бораётган жаҳон иқтисодиёти ва эркин меҳнат бозорининг барча талабларига жавоб берадиган, рақобатбардош мутахассисларни тайёрлаш – ўқитувчилардан жуда мукамал педагогик маҳоратга эга бўлишни талаб қилмоқда. Шу боисдан ҳам мамлакатимиз ва ривожланган хорижий давлатларда фаолият юритаётган таниқли педагог олимлар бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда педагогик маҳоратни шакллантириш масаласига алоҳида муаммо сифатида жиддий эътибор бермоқдалар.

Педагогик маҳорат – ҳар бир ўқитувчи ва ёшларга касб-хунар ўргатувчи мураббий учун эришиши ва мунтазам тарзда такомиллаштириб бориши зарур бўлган таълим-тарбия бериш санъатидир. Бу ўқитувчининг педагогик тизимда таълим-тарбияни замон талаблари даражасида олиб боришни, ўқувчиларнинг билими, дунёқараши, тафаккури, қобилият ва кўникмаларини ҳар томонлама камол топтиришга қаратилган касбий кўникма ва малакаларни мунтазам эгаллаб боришни тақозо этадиган яхлит тизимдир.

Педагогик маҳорат соҳиби – “Ўз ишининг моҳир устаси ёки янгилик яратувчисидир. Маҳоратли ўқитувчи – бу юқори даражадаги маданият ходими, ўз ишининг устаси, ўз фанини мукамал эгаллаган етук тафаккур эгаси, таълим-тарбия методикасини, психологик билимларни, турли фан ва техника соҳаларидаги янгиликларни чуқур биладиган дунёвий билимлар соҳиби, болаларни самимий севувчи, ватанпарвар, фидойи инсондир.

Бўлажак ўқитувчининг педагогик маҳоратини ривожлантириш ҳамда маҳорат чўққисини эгаллаши учун босиб ўтадиган йўли машаққатли ва узлуксиз жараёндир. К.Роджерснинг образли ифодаси билан айтганда, зеро бу “саёҳат” унинг бутун умри мобайнида давом этиб шаклланиб боради. Ўқитувчининг касбий жиҳатдан шаклланиб боришининг асосий босқичларини таърифлашга кўпгина ёндашувлар мавжуд. Хусусан, тадқиқотчи олим Е.А.Климов тавсия қилган шундай ёндашувлардан бирида мукамал педагогик касб эгасининг ҳаёт йўлида учрайдиган куйидаги даврларни психологик жиҳатдан ажратиб кўрсатади:

Оптант (ёки оптанит, оптация даври) – ёш ўсмирларнинг касб танлашга нисбатан тайёргарлик босқичи.

Адепт (адепт даври) – инсон онгли равишда ўзи қизиққан касбни танлаган ҳамда уни махсус касбий таълим муассасаларида (касб-хунар коллежи, академик лицей, олий таълим муассасаси ва бошқалар) эгаллайди.

Адаптант (ёки адаптация, ёш мутахассиснинг танлаган касби бўйича ишга “кўникиш” даври). Айниқса ёш ўқитувчи фаолиятида бу давр амалий педагогик фаолиятга кириш, ностандарт, кўпинча қутилмаган зиддият-ли вазиятлар юзага келганда вазиятдан мустақил чиқиш учун адолатли йўл топиши билан боғлиқдир. Ўқитувчи учун бу давр 3-5 йилга чўзилади деб

ҳисобланади (шунинг таъкидлаш лозимки, ёш ўқитувчилар айнан шу даврда ўз касбини ташлаб кетишади).

Интернал (ёки мутахассисликка киришиб кетиш даври) – ўқитувчи асосий касбий вазифаларини мустақил тарзда ва муваффақият билан бажара оладиган, кўникма ва малакаларга эга тажрибали педагог бўлиб етишади.

Мастер (касбий маҳоратни тўлиқ эгаллаш даври) – педагог характер хусусиятлари нуқтаи назаридан ўзининг махсус фазилатлари, кўникма ва малакалари билан ажралиб туради ёки касбий фаолиятнинг турли соҳаларида осонликча йўл топиб кета оладиган универсал мутахассис бўлиб етишади, ўз табиий йўналишига, ўзига хос, такрорланмас касбий фаолият услубига эга бўлади, доимо ижобий натижаларга эришади.

Нуфуз (нуфузга, ҳурмат-эътиборга сазовор бўлиш даври) – ўқитувчи ўз касбининг мохир устаси сифатида, ўз соҳасида ёки ундан ташқари бирор соҳада улкан ютуқларга эришади, жамоада машҳур бўлади, унда касбий фаолиятига хос исталган вазифани ҳал қила оладиган улкан педагогик тажриба тўпланган бўлади.

Устоз (ёки устозлик даври) – ўқитувчи таълим муассасасида педагогик жамоадаги касбдошлари орасидан ўз маслакдошларига, издошларига, шогирдларига эга бўлади, улар билан йиллар давомида тўплаган педагогик тажрибасини ўртоқлашади, уларнинг касбий омилкорлигини ва шахсий педагогик маҳорат мактабининг шаклланишига ёрдам беради.

Ўқитувчининг касбий маҳоратини шакллантиришда ҳамда асосий босқичларни муваффақиятли босиб ўтишида учта таркибий қисм етакчилик қилади:

- ▶ олий таълимгача бўлган давр (ўрта махсус педагогик таълим);
- ▶ олий таълим (олий педагогик таълим);

олий таълимдан кейинги давр (педагог кадрларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш муассасаларида амалга ошириладиган қўшимча педагогик таълим) давр.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда аёллар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича изчил ва тизимли сиёсатнинг асосий йўналишлари қўйидагилар ҳисобланади: аёллар ҳуқуқлари ва манфаатларини ҳимоя қилиш, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш соҳасида қабул қилинган қонун ҳужжатларининг бажарилишини таъминлаш ҳамда ҳуқуқий асосни янада такомиллаштириш бўйича чоралар кўриш; аёлларнинг оилада, жамиятда ҳамда жамоат ва давлат ишларини бошқаришдаги ролини ошириш; аёлларнинг бандлигини таъминлаш бўйича самарали чоралар қабул қилиш ва амалга ошириш, уларни ишга жойлаштириш учун ҳар томонлама ёрдам кўрсатиш, аёллар орасида, айниқса, қишлоқ жойларида тадбиркорликнинг турли шакллари ривожлантириш; аёлларнинг ижтимоий-сиёсий ва ижтимоий-ҳуқуқий фаоллигини оширишга қаратилган тадбирларни меъзонларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, аёллар нодавлат нотижорат ташкилотларини мамлакатнинг ижтимоий ва сиёсий ҳаётида хотин-қизларни фаол иштирок этиши учун таълим масканлари, оила, маҳалла ҳамкорлик тизимини ривожлантириш борасида тавсиялар ишлаб чиқиш.

Хулоса қилиб айтганда, мамлакатимизда олиб борилаётган демократик ислохотлар ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий соҳаларда аёлларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш ҳамда билим олиш, касб танлаш, лавозимга кўтарилишда эркаклар билан аёлларга бирдек шарт-шароитлар имкониятлар яратиш, уларнинг ҳуқуқлари тенг равишда муҳофаза қилиниши, аёлларни тадбиркорлик субъектларига оила кичик бизнесига кенг жалб қилиш каби муаммоларни ечими топишга қаратилганлиги билан аҳамиятли.

Адабиётлар:

1. “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 2019 йил 2 сентябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. Lex/uz Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.
3. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston нашриёти, 2021. – Б. 53.

4. Нарбаева Т. Ўзбекистонда хотин-қизларини ижтимоий ҳимоя қилишнинг инновацион модели. Монография- Т., 2020.
5. Жамолдинова О., Мирсолиева М., Рискулова К. Педагогик таълимда гендер ёндашуви масалалари// Мактабгача таълимда давлат ва нодавлат секторни ривожлантириш: янги шакллари ва таълим мазмуни мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Тошкент, 2020. –Б. 99-101.
6. Курбонова Г., Абдуллаева З. Гендер ёндашув асосида талаба-қизларнинг ижтимоий фаоллигини ривожлантириш назарияси// Замонавий таълим. 2014, 6. – Б. 37-40.
7. Курбонова Г.М. Гендер тенглик ва фарқлар асосида таълим бериш имкониятлари// Замонавий таълим. 2015, 12. – Б. 59-63.
8. Маматов Н. Гендер тенглик. Болалар ва мажбурий меҳнатдан фойдаланишга қарши курашиш бўйича Халқаро меҳнат ташкилотининг конвенциялари ва миллий қонунчилик. – Тошкент, 2018. – 78 б.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада гендер тенгликка эришиш демократик кадрят эканлиги ҳартомонлама ўрганилган. Мамлакатимизда олиб борилаётган демократик ислохотлар ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий соҳаларда аёлларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш ҳамда билим олиш, касб танлаш, лавозимга қўтарилишда эркаклар билан аёлларга бирдек шарт-шароитлар имкониятлар яратиш, уларнинг ҳуқуқлари тенг равишда муҳофаза қилиниши, аёлларни тadbиркорлик субъектларига оила кичик бизнесига кенг жалб қилиш каби муаммолар ўз ечимини топган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье достижение гендерного равенства является демократической ценностью. Демократические реформы, проводимые в нашей стране, обеспечивают права и свободы женщин в социальной, экономической и политической сферах, создают возможности мужчинам и женщинам в одинаковых условиях для получения образования, выбора профессии, продвижения по службе, равной защиты своих прав, широкое вовлечение женщин в предпринимательские структуры и семейный малый бизнес, такие проблемы, как ведение бизнеса, нашли свое решение.

SUMMARY

In this article, achieving gender equality is a democratic value. The democratic reforms carried out in our country ensure the rights and freedoms of women in the social, economic and political spheres, create opportunities for men and women in the same conditions to obtain an education, choose a profession, advance in career, equal protection of their rights, the widespread involvement of women in entrepreneurial structures and family small businesses, problems such as running a business have found their solution.



FALSAFA FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI

Aripova Z.

Andijon mashinasozlik instituti

Gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti, falsafa buyicha

Tayanch soʻzlar: maʼnaviy taraqqiyot, falsaviy tafakkur, gnoseologik funksiyasi, aksiologik funksiyasi.

Ключевые слова: духовное развитие, философское мышление, гносеологическая функция, аксиологическая функция.

Key words: spiritual development, philosophical thinking, epistemological function, axiological function.

Kirish. Kishilar qadim zamonlardan boshlab, borliq dunyo, tabiat nima, ular qanday tuzilgan, borliqning asosida nima yotadi, insonning oʻzi nima, u dunyoga qanday qaraydi, kabi savollarga javob berishga harakat qilib kelganlar. Falsafiy tafakkur insonning oʻz-oʻzini anglashidan boshlanadi, uning olam haqidagi bilimlarini umumlashtirish asosida rivojlanib boradi. Inson bilishining obʼekti boʻlgan olam cheksizligi sababli, bu savollarga javob berish imkoniyati ham cheksizdir.

Inson dunyoga kelar ekan, u yashashi, ulgʻayib borishi bilan oʻz hayoti xaqida, kundalik ishlari xaqida, hayotdagi oʻz quvonch va tashvishlari, baxti va baxtsizligi haqida, oʻzining va oʻz atrofidagi kishilarning tugʻilishi, yashashi, olamdan oʻtishi haqida, narsa va hodisalarning esa oʻzgarishi, rivojlanishi, boshqa yangi narsa va hodisalarning paydo boʻlishi haqida maʼlum tasavvurlarga, tushunchalarga ega boʻlib boradi. Bu tasavvurlar va tushunchalar uning borliqni, oʻzi yashayotgan dunyoni qanday tushunishi, dunyodagi oʻz oʻrnini qanday anglashini ifodalaydi. Asosiy qism

Dunyoqarash, insonning oʻziga va uni qurshab turgan borliqqa boʻlgan munosabatlarini ifodalaydigan muayyan koʻnikmalari, bilimlari, malakalari hamda uning dunyoni amaliy va nazariy oʻzlashtirishi hamdir. Dunyoqarash tushunchasi. har bir kishining dunyoga nisbatan oʻz qarashi, oʻzi va oʻzgalari, hayot va olam toʻgʻrisidagi tasavvurlari, xulosalari boʻladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga

munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir.

Har bir davrning, har bir avlodning, har bir ijtimoiy guruhning, har bir kishining o'ziga xos dunyoqarashi mavjud. Dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda mifologiya, din, falsafa, fan, siyosat, huquq, san'at va axloq va shu kabi ijtimoiy-ma'naviy hodisalar sintezlashgan holda in'ikos etadi. Dunyoqarash insonning dunyoni va o'zini ma'lum ma'noda anglashi, tushunishi, bilishi va baholash usuli bo'lishi jihatdan uning har qanday moddiy va ma'naviy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Jamiyat taraqqiyoti bilan insonning amaliy va nazariy bilish faoliyati ham rivojlanib boradi. Dunyoqarash oddiy, kundalik ong holatidan tortib, dunyoni insonning o'ziga xos nisbatan murakkabroq va chuqurroq bilish va tushunishlariga oid mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashlarga tomon rivojlanib boradi.

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi insonning o'z-o'zini va o'zini qurshagan borliqni tushunishi, shuningdek, turli voqealar, hodisalarni va o'z burchini qanday talqin qilishida namoyon bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, inson dunyoqarashida e'tiqodlar va bilimlar, tuyg'ular va emotsiyalar, oqilonalik va irratsionallik, tajriba, intuitsiya va hokazolar chambarchas bog'lanadi.

Falsafaning gnoseologik funksiyasi tajribada sinash, tavsiflash yoki shakshubhasiz inkor etish mumkin bo'lmagan, ya'ni fan ochib berish, tadqiq etish va tahlil qilishga qodir bo'lmagan narsalar va hodisalarni oqilona yo'l bilan tushuntirishga harakat qilishdir. Falsafa u yoki bu mohiyati aniqlanmagan yoki kam o'rganilgan hodisalarni tushuntirishga nisbatan o'z yondashuvlari, nazariyalari va gipotezalarini taklif qilar ekan, ularni bilishga bo'lgan qondirilmagan qiziqish o'rnini muayyan darajada to'ldiradi, shu tariqa mifologik va diniy fantaziyalarga kamroq o'rin qoldiradi. Falsafa gnoseologiyada hal qiladigan boshqa bir muhim vazifa «Haqiqat nima?» «Uning mezonlari qanday?» degan masalalar bilan bog'liq, zero har qanday bilish jarayoni oxir-oqibatda, u yoki bu tarzda haqiqatning tagiga etishga qarab mo'ljal oladi, bu esa eng muhim masaladir.

Metodologik funksiyasi u yoki bu maqsadga erishishning muayyan usulini, shuningdek, borliqni nazariy va amaliy o'zlashtirishga qaratilgan usullar yoki amallar majmuini anglatadi (bu tushuncha yunoncha «methodos» – «yo'l», «tadqiqot», «tekshirish» so'zidan kelib chiqqan). Boshqacha qilib

aytganda, bu faylasuf yoki olim o'zi o'rganayotgan predmetning tadqiqot yo'lidir.

Falsafaning integrativ funksiyasi real borliqning yangi ob'ektlari va hodisalari insonning nazariy tadqiqotlari sohasidan o'rin olishi, shuningdek, ilgari ma'lum darajada anglab etilgan narsalar va hodisalarni yanada chuqurroq o'rganish uchun birlashishga ehtiyoj.

Falsafaning madaniy funksiyasi odamlar dunyoqarashini kengaytirish, ularda bilishga qiziqish uyg'otish, nazariy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. U dunyoni o'zlashtirish va bilishning universal shakli sifatida, insoniyatning eng yaxshi yutuqlarini o'zidamujassamlashtiradi va ularni butun insoniyat mulkiga aylantiradi. Turli mamlakatlar va xalqlarning falsafa tarixini o'rganish ularning o'tmishdagi va hozirgi madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, g'oyalar almashinuvi va madaniy an'analarning o'zaro ta'siriga ko'maklashadiki, bu madaniy meros bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolarni echishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafaning aksiologik funksiyasi (yunon. «axia» – «qadriyat») hayotning ma'nosi, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yish, u yoki bu harakat, voqea, hodisaga «yaxshi», «yomon», «muhim», «foydali», «foydasiz» kategoriyalari bilan baho berish orqali namoyon bo'ladi.

Falsafaning axloqiy funksiyasi odamlarning u yoki bu jamiyatda qaror topgan munosabatlar ta'sirida shakllanuvchi xulq-atvori. Bunda, masalan, axloqiy qadriyatlar, ularning tabiati, asoslari va jamiyatdagi amaliy rolifalsafaning tadqiqot predmeti hisoblanadiki, bu jamiyatda yuzaga keladigan va tabiiy yo'l bilan, ya'ni real hayot amaliyotida o'rnatiladigan me'yorlar va qoidalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday me'yorlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim dastak hisoblanadi va odamlarning o'zaro aloqalari, ularning munosabatlari, o'zaro til topish darajasida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa doimo axloqda, jamiyatning barcha a'zolari xulq-atvorida namoyon bo'ladi va shu tariqa yana bir muhim funksiya – axloqiy funksiyani bajaradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2014. 24 b
2. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF4947sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.

5. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston 1996-2016. 6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma'naviyat, 2016 176- b.

РЕЗЮМЕ

Jamiyat ma'naviy taraqqiyotining dastlabki davrlarida falsafa insonning olam haqidagi barcha bilimlarini o'z ichiga olgan. Keyinroq, falsafa kengroq mazmunga ega bo'lib, mustaqil fan sifatida shakllanadi va rivojlanadi. U tabiat, jamiyat va insonning mohiyati haqidagi eng umumiy bilimlarni o'zida ifodalab, insonni borliqqa bo'lgan munosabatining metodologik asoslarini belgilab beradi, tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining eng umumiy muammolarini o'rganadi va falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi.

РЕЗЮМЕ

На ранних этапах духовного развития общества философия включала в себя все знания человека о мироздании. В дальнейшем философия приобретает более широкое содержание, формируется и развивается как самостоятельная наука. Она выражает самые общие знания о сущности природы, общества и человека, определяет методологические основы отношения человека к бытию, изучает самые общие проблемы развития природы, общества и мышления, формирует философское мировоззрение.

SUMMARY

In the early stages of the spiritual development of society, philosophy included all human knowledge about the universe. Later, philosophy has a broader content, is formed and develops as an independent science. It expresses the most general knowledge about the essence of nature, society, and man, defines the methodological foundations of man's attitude to existence, studies the most general problems of the development of nature, society, and thought, and forms a philosophical worldview.



СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ САНОАТЛАШТИРИШ СИЁСАТИНИНГ ЭКОЛОГИК ҲОЛАТГА ТАЪСИРИ

Рахимова Г.С.

Қўқон давлат педагогика институти

“Тарих” кафедрa доценти Тарих фанлари доктори (DSc)

Таянч сўзлар: саноат, корхона, нефть, металлга ишлов бериш, кўмир, газ, қурилиш, атроф-муҳит, саломатлик, иқлим ўзгариши.

Ключевые слова: промышленность, предприятие, нефть, металлообработка, уголь, газ, строительство, окружающая среда, здоровье, изменение климата.

Key words: industry, enterprise, oil, metalworking, coal, gas, construction, environment, health, climate change.

Кириш. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда саноат корхоналарининг хавфсизлиги, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, экологик талофатларнинг олдини олиш борасида бир қатор ишлар қилинди. Хусусан, Ўзбекистон ҳукумати Марказий Осиё давлатлари учрашувларида оналар ва болалар саломатлигини муҳофаза қилиш, экологик ва бошқа ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал этиш, экотизимлар ҳалокати олдини олиш бўйича ҳамкорлик битимларини имзолади. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2020 йилда БМТ ассамблеясининг 75-сессиясидаги маърузасида глобал иқлим ўзгаришига тўхталиб, «Минг афсуски, бундай ўзгаришлар Марказий Осиё тараққиётига ҳам катта хавф туғдирмоқда»[1], деб алоҳида таъкидлади. Бу борада “яшил макон” умуммиллий лойиҳаси, атроф-муҳит мониторинги кабилар табиатни асраш, аҳоли саломатлигини яхшилаш борасидаги муҳим қадамлардан бўлиб қолди.

Методология. Ўзбекистонда, жумладан совет даврида саноат ривожланишининг экологик ҳолатга таъсири, аҳолини ижтимоий ҳимоялашга йўналтирилган илмий изланишлар дунёнинг етакчи илмий марказлари ва олий таълим муассасалари, жумладан, University of San Francisco (АҚШ), Hamburg University in Germany (Германия), University of Sorbonne (Франция), Cadi Ayyad University in Marrakesh (Марокаш), University of Debrecen (Венгрия), Brandenburg University of Technology in Cottbus (Германия), University of Granada (Испания), Университет Лихай,

University of Southern California (АҚШ), Griffith University(Австралия), Harvard University(АҚШ), Россия Фанлар академияси, Ўзбекистон Фанлар академияси Тарих институтларида олиб борилмоқда.

Адабиётлар тахлили. Тадқиқотларда Ўзбекистон ССРнинг турли ҳудудлари, олимлар томонидан тадқиқ этилган. Жумладан, С.Умняков, Ю. Алексеев, А. Чориев, С. Бахромовлар саноат тармоқлари бўйича тадқиқотлар олиб боришган. Хусусан, С. Умняков, Самарқанд областидаги саноат корхоналари, уларнинг моддий-техник базаси[2], Бухоро области саноат корхоналарида режаларнинг бажарилиши, Қаршида замонавий технологияларга асосланган экстракт ёғ заводи қурилгани[3] каби маълумотларни кўриш мумкин. Шу йилларда яратилган тадқиқотларда келтирилишича, Жиззах областида 40дан ортиқ саноат корхоналари тўла техник таъминотга эга бўлиб, ишлаб чиқаришнинг ялпи ички маҳсулоти Тошкент областидагидан 2,5 баравар юқори бўлган, Хоразм областида саноат корхоналарининг ишлаб чиқариш ҳажми 1940 йилга нисбатан 1979 йилда 5,5 бараварга ортган[4].

XX асрнинг 80-йилларида жамиятдаги ошкоралик сиёсати ва фикрлар хилма-хиллиги совет халқ хўжалигининг салбий оқибатларини баҳолаш имконини берди. Бу пайтга келиб даврий матбуот ва журналларда илмий мақолалар эълон қилинди, илмий тадқиқот ишлари олиб борилди. Жумладан, тадқиқотларда 1989 йилда экологик ҳолатнинг оғирлашуви, аҳоли орасида турли касалликларнинг кескин ортиб бориши[5], болалар орасидаги сувдан заҳарланиш, атроф-муҳит ифлосланиши каби ҳолатлар Ангрен шаҳри аҳолиси орасида норозилик кайфиятининг кучайишига сабаб бўлгани ҳақидаги маълумотлар ёритилди. Жумладан, охириги мақолада Ангрендаги Гулбоғ қишлоғи аҳолиси кимё, пластмасса, уй-жой қурилиш маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи корхоналар фаолиятини тўхтайтишни талаб қилиб, шаҳар раҳбариятига мурожаат йўллагани, хужжатда кўмир саноати чанги, пластмасса саноат корхонаси, металлга қайта ишлов берувчи корхона чиқинди сувлари аҳоли орасида хавфли касалликларнинг кўпайиб, аҳоли саломатлигига салбий таъсир этгани маълум қилинганлиги акс этган.

Совет ҳокимияти ўрнатилган дастлабки йилларда пролетариат доҳийси В.Ленин саноатни ривожлантиришда “оғир индустрия” деб аталадиган саноат, социализмнинг асосий базасидир, кимки буни унитар экан у коммунист эмас”[6],-дея уқтирди. В. Ленин ўз нутқларида янги иқтисодий дастурни ишлаб чиқилганини, мамлакатда ишлаб чиқариш кучларни ошириш мақсадида “қолоқ ишлаб чиқариш шаклидан юқори даражада меха-

низациялашган саноатга ўтиш” дастурини илгари сурди. Ленин ғояларини давомчиси сифатида СССРнинг жамоавий саноатлаштириш сиёсатини[7] амалга оширишда С.М.Киров, Г.М.Крижижановский, В.В.Куйбешев ва И.В.Сталинларнинг хиссалари катта бўлди.

Натижалар. Совет Иттифоқини қудратли давлатга айлантириш мамлакатни саноатлаштириш сиёсати билан бевосита боғланган ҳолда олиб борилди. Индустрлаштиришни кенг йўлга қўйиш мамлакатда юзага келётган турли инқилобларни олдини олиш билан бир қаторда, аҳолини доимий бандлигини таъминларди. Индустрлаштиришга кучайтирилиб, у иккинчи жаҳон уруши ва урушдан кейинги йилларда ишлаб чиқариш корхоналарининг ўсиб бораётган талабини қондириш мақсадида табиий бойликлар исрофгарчилик билан эксплуатация қилиниши билан қўшиб олиб борилди. Барча минтақаларда саноатнинг турли тармоқларини ривожлантириш иқтисодий ривожланишини замини ҳисобланди. Айнан мана шу даврларда кўплаб манзилгоҳлар ўзининг параметрлари билан мавжуд талабларга жавоб бермасда, шаҳар ва шаҳар посёлкалар статусини олди. Аҳолини ижтимоий турмиш тарзини, эҳтиёжларини таъминланишида саноатнинг аҳамияти жуда катта бўлди. Лекин, кўплаб саноат корхоналарининг йилдан-йилга қуриб борилиши табиатнинг мисли кўрилмаган тарзда зарарланиш ҳолатларини юзага келтира бошлади.

Совет давлатининг иккинчи жаҳон урушидан кейинги йиллардаги халқ хўжалигини саноатлаштириш ишлари жамиятда социалистик қурилишни янада мустаҳкамлашга қаратилди. Шу мақсадда СССР таркибидаги республикаларни бир-бири билан боғлаш мақсадида ташкил этилган “ягона халқ хўжалиги” комплекси ўзида мулкни, ижтимоий меҳнат тақсимоти, ишлаб чиқариш, айирбошлаш, ижтимоий маҳсулотни тақсимлаш ва ўзлаштиришнинг ҳамма бўғинлари мажбурий бирлаштирилди. “Ягона халқ хўжалиги” комплекси бўлса бир неча иқтисодий районларга бўлиб бошқарилди. Бундай усулдаги минтақавий бошқарув “СССРда иқтисодий районларнинг шаклланиши ва меҳнатнинг минтақавий бўлинишига олиб келди”[8] ҳамда халқ хўжалигини тармоқларга ажратиб, режалаштириш асосида бошқариш, халқ хўжалигидаги тармоқлигини бартараф этиш, худудий, тармоқлараро бошқарувга асосланди. Бутун мамлакат бўйлаб Халқ хўжалик кенгашлари тузила бошлади. Бу районларда ҳам саноат беш йиллик режалар асосида ривожлантирила бошланди. Саноат мажмуалари учун лойиҳаларга асосланмаган беш йиллик режаларни бажариш буйруқлари берилди, мажбуриятлар қўйилди. Ҳатто, “иккинчи беш йиллик даврдаги Ўзбекистон тараққиёти пахтачилик саноатини ривожлантиришга мўлжал-

ланган”- деб таъкидлади[9]. Жумладан, 1951-1955 йилларга мўлжалланган беш йиллик режасида энг муҳим вазифаларидан бири-Марказий Осиё минтақасида қора металлургия рудасининг базасини кенгайтириш бўлди.

1956-1960 йиллардаги беш йиллик режаларида мамлакатнинг асосан Европа қисмида электр ва иссиқлик корхоналарини қурушга асосий эътибор қаратилди. 1959-1965 йиллар беш йиллик режаларида асосий эътибор мамлакатнинг шарқий районларига қаратилди. 1966-1970 йиллардаги саккизинчи беш йилликка келиб, бу беш йилликда ишлаб чиқариш кучларини янада ривожлантириш, яъни мамлакатнинг шарқий ҳудудларида ёқилғи қазиб олишни кўпайтириш, электроэнергия ишлаб чиқариш, рангли металл ишлаб чиқариш, кимё саноатини ривожлантириш, ҳамда мамлакатнинг ғарбий ва шарқий ҳудудларга ўртасида хўжалик алоқаларини ривожлантиришга қаратилди. 1971-1975 йилларни ўз ичига олган тўққизинчи беш йилликда ҳам ишлаб чиқариш кучларини жойлаштириш, табиий имкониятлардан фойдаланиш, мамлакат шарқий районларини иқтисодий салоҳиятини янада ўстириш белгиланди. Бунинг учун капитал маблағнинг 1/3 қисми ажратилди. 1976-1980 йиллардаги беш йилликларда яна мамлакатнинг шарқий ҳудудларида нефть, газ қазиб олишни кўпайтириш, алюмин ишлаб чиқаришни 90 фоизга, мис олишни 80 фоизга, целлюлозани 45 фоизга етказиш белгиланди. “Ўзбекистон ССРда саноат корхоналарининг ривожланиши Иккинчи жаҳон уруши билан жуда боғлиқ, айниқса, саноат корхоналари Ўзбекистон СССРда тез ривожланган ва шу билан бирга ишчилар синфи ҳам тез ташкил этилди[10].

Орол денгизи муаммосининг илдизи узоқ ўтмишга бориб тақалади. Янги ерларни жадал ўзлаштириш, суғорма деҳқончиликни янада ривожлантириш, бунинг учун бугун Марказий Осиё ҳудуди бўйлаб ирригация тизимларини қуруш, сувдан маиший ва саноат кўламида фойдаланиш эҳтиёжининг давомий ўсиб бориши, сув тақчил бўлган йилларнинг мунтазам такрорланиб туруши энг янги тарихдаги глобал экологик ҳалокатлардан бири содир бўлишига бир вақтлар сайёрамиздаги энг чиройли сув ҳавзаларидан бирининг қуриб боришига таъсир этди[11]. Саноат мажмуаларининг турли заҳарли чиқиндилари сувларни таркибини ифлослантириши Орол денгизи эко тизимга ҳам салбий таъсир этди. Айниқса, Орол денгизи ҳалокати атроф давлатларнинг ижтимоий, иқтисодий муаммоларини кескинлашувига сабаб бўлди. Масалан, кислотали ёмғирлар ёғишида ҳудудлар танламади, Орол денгизининг қуриб боришидаги сув ости туз бўҳронлари ҳам чегараларни тан олмади. Бинобарин, экологик муаммоларни олдини олишда барча давлатлар биргаликда ҳаракатга кели-

ши, жаҳон ҳамжамиятининг масъул аъзолари сифатида ўз позицияларини эгаллаши муҳимдир. Экологик муаммолар тарихий ва эволюцион омиллар билан биргаликда юзага келиши, барча давлатни маълум бир ҳудудда бирлашиб, маҳаллий экологик ҳамжамиятни вужудга келишини тақозо этади[12].

Ўзбекистонда ҳам экологик мувозанатнинг бузилиши совет давлати халқ хўжалигини ривожлантириш ва Ўзбекистоннинг мамлакатнинг асосий хом ашё етиштириб берувчи республика сифатидаги ўрнини мустаҳкамлаш йўлидаги ҳаракатлар билан боғлиқ бўлди. Йиллар давомида саноат, қишлоқ хўжалиги ва бошқа турли соҳаларда атроф-муҳит масаласига жиддий эътибор қаратилмади, экологик хавфсизлик масалаларига устувор йўналиш берилмади. Натижада табиий ресурслардан оқилона фойдаланмаслик, табиий мувозанатнинг издан чиқишига, ижтимоий муаммоларнинг чуқурлашувига олиб келди.

Тахлиллар. Ўзбекистон ССР саноати СССР Халқ хўжалигининг таркибий қисми ҳисобланиб, республиканинг ишлаб чиқариш усули ва услуги ўзига хос бўлди. Ўзбекистон ҳудуди жиҳатдан СССР таркибида бўлган республикалар орасида Туркманистондан кейин иккинчи ўринда турди. Ўзбекистон ССР асосий пахта хом ашёси етиштирадиган ва пахтачиликка хизмат қиладиган саноатнинг ривожланиши билан ўз ўрнига эга бўлди. Пахтачилик комплексига кирувчи қишлоқ хўжалик ва саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш бўйича республика мамлакатда ягона ҳисобланди. Урушдан кейин ҳам пахтачиликка Ўзбекистон ССР хўжалигининг иттифоқ аҳамиятига эга бўлган асосий тармоғи сифатида қаралди. Республика халқ хўжалигининг бошқа барча соҳалари ана шу асосий тармоққа хизмат қилди ва пахтачилик эҳтиёжларига мос равишда ривожлантирилди. Тадқиқочи И.Хайдаровнинг ёзишича, Ўзбекистон саноати, қишлоқ хўжалиги ва транспортнинг ҳар томонлама бир-бири билан боғланган ҳолда ривожлантирилиши натижасида республикада умумий иттифоқ аҳамиятига эга бўлган беш ишлаб чиқариш комплекси ташкил топди. Улар қаторига пахта етиштириш комплекси, ёқилғи-энергия-кимё комплекси, қора металлургия ва машинасозлик комплекси, қурилиш материаллари ишлаб чиқариш ва қурилиш индустрияси комплекси кирди. Совет илмий адабиётларида “саноат таракқиёти ишлаб чиқариш кучларининг бир томонлама ривожланишига хотима бериши, мамлакатнинг табиий бойликларидан, хом ашё ва меҳнат ресурсларидан кенгрок ва ҳар тарафлама фойдаланиш имкониятини яратиб бериши таъкидлансада, Ўзбекистоннинг келажакдаги таракқиёти режалари Иттифоқ марказида ишлаб чиқарилиб, аксарият

ҳолларда маҳаллий шароит, ижтимоий аҳвол ҳисобга олинмасдан иқтисодини бир томонлама, яъни ўлкани хом ашё базаси сифатида сақлаб қолишга қаратилди[13].

1946-1950 йилларга мўлжалланган беш йиллик режа Ўзбекистон ССР Олий Советининг 1946 йил 30 августда VIII сессиясида кўриб чиқиб тасдиқланди. Режага асосан биринчи навбатда Ўзбекистонда оғир саноатни тиклаш ва ривожлантириш масалалари кўтарилди. Оғир саноат учун деярли маблағларнинг ярми янги техника ва янги саноат корхоналарини қурушга ажратилди. Ўзбекистон саноати барча ишчиларнинг 90,9 фоизини ўз ичига олди. Ишчилар сонининг саноат корхоналарида ортиб бориши 1949 йилда саноат корхоналарининг беш йиллик режаларини тўрт йилда бажарганлиги билан диққатга сазовор бўлди. Ўзбекистон Ўрта Осиё республикалари орасида тутган ўрни юқори бўлган, Ўзбекистон ССР саноати мамлакат саноатининг таркибий қисми эди. Ўзбекистон ССРнинг ишлаб чиқариш усули ва услуги бир мунча бошқача бўлиб пахтачилик республика қишлоқ хўжалиги учун минерал ўғит тайёрлаш, пахта тозалаш саноати, тўқимачилик саноати ва унга машина ҳамда ускуналар етказувчи корхоналар, қишлоқ хўжалиги машинасозлиги соҳаларини ривожланиш имконини берди. Шу сабабли Ўзбекистонда “халқ хўжалигининг нуқсонли, бир томонлама хомашё тузилмаси шаклланди. Айни пайтда Ўзбекистон пахтачилик саноатидан ташқари қора ва рангли металлургия, маҳаллий эҳтиёжни қондирувчи истеъмол буюмлари яратувчи тармоқлар ривожланди. Ўзбекистон ССРдаги кўптармоқли машинасозлик Ўрта Осиё республикалари орасида ўз ўрнига эга бўлди. Унинг таркибида 300 таташкilot бўлиб, улардан 70 таси 16 та бутун иттифоқ вазирликларига қарашли катта машинасозлик заводлари эди.

Ўзбекистонда пахтачилик билан боғлиқ кимёвий комбинатлар, оғир саноат корхоналари тизими ҳам кенгайтирилган бўлиб, кимё саноати билан боғланган корхоналар нафақат Ўзбекистонда балки қўшни республикаларда ҳам қурилди. Жумладан, 1944-1945 йилларда Мойли-Сой, 1947 йилда Ленинобод тоғ-кимё комбинати, 1948 йилда эса Фарғона шаҳрида ацетат ипак ишлаб чиқарувчи корхона, 6 та пахта тозалаш заводлари, 6 та кимёвий саноат корхоналарини қуриб ишга туширилди. 1950 йилда эса Фарғонада “Нефт”, “Азот” бирлашмалари, фуран кимёвий бирикмалари заводи, Андижон машинасозлик, гидролиз заводлари, Наманган ёғ-мой ишлаб чиқариш, кимё заводлари, Қўқондаги СФЗ, қурилиш материаллари заводи, ёғ-мой комбинатлари, кимёвий заводлари ва бошқа турдаги саноат корхоналари қурилиб, фаолият кўрсатиб келди. Ўзбекистонда саноат

корхоналари сони 1950 йил 400 та, 1960 йил 1600 та[14], 1970 йил 5593 та, 1971 йил 8904 та[15] га ортиб борди. Лекин табиий ресурслар билан боғлиқ бўлган айрим: газ, кўмир, нефть, қора металл, пўлат, цемент, пахта-қоғоз, пилла толаси ишлаб чиқариш соҳаларидаги инкирозлар 1980 йилларда саноат корхоналари сонининг ўсишига кескин таъсир этди. Натижада, 1980 йилда саноат корхоналари сони 2600 та[16] га қисқариб борди.

Статистик маълумотларда келтирилишича, мамлакатда саноатнинг ўсиши 1966-1970 йилларда 6,3 фоиз бўлди[17]. Айни пайтда СССР ФА Иқтисодиёт илмий-тадқиқот институти институти ва СССР Давлат режа кўмитасининг “Ўрта Осиё ва Қозоғистон” сектори томонидан бу беш йилликда “1966-1970 ва 1971-1980 йилларда СССРда саноат корхоналарини жойлаштириш ва ривожлантириш” деб номланган катта лойиҳа ишлаб чиқилиб, унда Ўрта Осиё, хусусан, Ўзбекистонда айнан енгил саноат корхоналарини жойлаштириш борасидаги “Ўзбекистонинг ишлаб чиқариш кучлари ва уларнинг ривожланиши ва истиқболлари”, “1975-1980 йилларда Ўзбекистонда ишлаб чиқариш кучларини жойлаштириш ва ривожлантириш схемаси”, “Ўрта Осиё ва Қозоғистон республикалари истиқболларида ишлаб чиқариш кучларини жойлаштириш ва ривожлантириш масалалари” мавзулари доирасидаги лойиҳалар ҳам ўрин олди. Бу табиийки, пахта хом ашёси етиштириб берувчи республикада саноатни ривожлантириш учун қўйилган қадамлардан бири бўлди.

Хулоса. Ўзбекистон саноат корхоналарининг моддий-техник базаларини етарлича таъминланмаслиги, илмий-техник тадқиқот янгиликларини ишлаб чиқаришга жорий этилмаслиги ўлкада ижтимоий ва иқтисодий муаммоларни жиддий тус олишига олиб келди. Тупроқда, сув ва атмосфера ҳавосидаги салбий ўзгаришларнинг атроф-муҳитга таъсири пахта ҳосилдорлигининг ҳам пасайишига сабаб бўлди. Ўзбекистон иқтисодиёти асосан хом ашё тайёрлашга йўналтирилгани, бир ёқлама ривожланиш ҳисобидан мўрт ва ночор ҳолга тушиб қолган бўлиб, иқтисодиётга, экология ва аҳоли генофондига ҳалокатли таъсир ўтказадиган пахта яккахокимлиги юртимиздаги вазиятни жар ёқасига олиб келиб қўйди. Саноат корхоналаридаги атроф-муҳитни муҳофаза этиш тизимларидаги айрим носозликлар Ўзбекистоннинг табиий бойликларига ер ресурсларига жиддий таъсир этиб келди.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. 2020 йил 25 сентябрь. № 37(1318)

2. Умняков И., Алескерев Ю. Самарканд. –Ташкент: Узбекистан, 1967. –С. 125.
3. Чариев А, Ачилов М. Кашкадарьинская область. –Ташкент: Узбекистан, 1974. –С. 35
4. Узбекская ССР. –Ташкент, 1981. –С. 490.
5. Бахромов С. Здоровоохранения Узбекистана: проблемы и перспективы // Коммунист Узбекистана. 1988, -№ 7, июль. –С.26.
6. Искандаров И. Ўзбекистон саноати структурасидаги прогрессив силжишлар. –Тошкент: Фан, 1974. –Б. 8.
7. Михалкин В. Ф.Э.Дзержинский- экономист. –Москва: Экономика, 1987. –С. 24.
8. Досумов Р.Я. Перестройка управления промышленным производством в новых условиях хозяйствования. ... – С. 24.
9. Искандаров И. Ўзбекистон саноат структурасидаги прогрессив силжишлар. –Тошкент: Фан. 1974. –Б. 27.
10. Frank Adolph Ecker. Transition in Asia. Uzbekistan under the Soviets. Washington. 1954. –P. 295.
11. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодийтимизни барқарор ривожлан-тириш йўлида. 16-китоб. –Тошкент: Ўзбекистон, 2008. –Б. 282.
12. Alice E. Milne Florent Deledalle. Using functional traits to model annual plant community dynamics//Ecology cosiety of America. Vol 101. No 11. 2020. 3167.
13. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистон тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. –Б. 503.
14. Искандаров И. Ўзбекистон саноати структурасидаги прогрессив силжишлар. –Тошкент. Фан, 1974. –Б. 47.
15. Совет Ўзбекистони саноатининг 50 йил мобайнидаги ривож. –Тошкент: Ўзбекистон, 1974. –Б. 21.
16. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1970 и 1971 г. –Ташкент:Фан, 1974. –С. 32.
17. Узбекская Советская Социалистическая Республика. –Ташкент:УзССР, –С. 178.
18. Искандеров И. Текстильная промышленность Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – С.9.

РЕЗЮМЕ

Мақолада Иккинчи жаҳон уриши йиллари Ўзбекистонга саноат корхоналарининг кўчириб келтирилиши, кимё, қурилиш, нефть, газ саноат турлари кенгайиши натижасида қишлоқ хўжалиги саноати мажмуаси шакллантирилиши, табиий қазилмаларининг қазиб олиниши натижасида атроф-муҳитнинг иқлим ўзгаришларига олиб келиш сабаблари тарихий манбалар асосида ёритиб берилган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассмотрены причины изменения климата в окружающей среде в результате годы Второй мировой войны, передислокация промышленных предприятий в Узбекистан, расширение химической, строительной, нефтяной, газовой промышленности, формирование агропромышленного комплекса. сложные, а добыча природных ресурсов объясняется на основе исторических источников.

SUMMARY

The article discusses the causes of climate change in the environment as a result of the years of the Second World War, the relocation of industrial enterprises to Uzbekistan, the expansion of the chemical, construction, oil, gas industries, the formation of the agro-industrial complex. complex, and the extraction of natural resources is explained on the basis of historical sources.



БОЛОНЬЯ КЕЛИШУВИНИНГ ГЕНЕЗИСИ ВА ЭВОЛЮЦИЯСИ

Абдурахимова Т.А.

Андижон иқтисодиёт ва қурилиш институти ўқитувчиси

Таянч сўзлар: Болонья жараёни, декларация, олий таълим ислоҳоти, мувофиқлик, талабалар ҳаракатчанлиги, сифат кафолати, уч босқичли даража тузилиши, Университетларнинг буюк хартияси, Европа кредит ўтказиш ва жамғариш тизими (ЭСТС), вазирлар йиғилиши, дипломга илова, рақамлаштириш, умрбод таълим.

Ключевые слова: Болонский процесс, декларация, реформа высшего образования, совместимость, студенческая мобильность, обеспечение качества, трехуровневая структура степеней, Великая хартия университетов, Европейская система перевода и накопления кредитов (ECTS), министерская встреча, приложение к диплому, оцифровка, пожизненная обучение.

Key words: Bologna process, declaration, higher education reform, interoperability, student mobility, quality assurance, three-tier degree structure, Magna Carta of Universities, European Credit Transfer and Accumulation System (ECTS), ministerial meeting, Diploma Supplement, digitization, lifelong learning.

Болонья жараёни 1980 йиллардаги Европада олий таълимни ислоҳ қилишга қаратилган бир қатор мунозаралар ва ташаббуслардан келиб чиққан. Мақсад талабалар ва академикларнинг Европа мамлакатлари бўйлаб ҳаракатланишини осонлаштириш ва олий таълим соҳасида ҳамкорликни кучайтириш эди.

1997 йилда Сорбонна декларацияси Франция, Италия, Германия ва Буюк Британия таълим вазирлари томонидан имзоланди. Ушбу декларация мувофиқлаштирилган ва таққосланадиган даражаларнинг Европа тизимини яратишга чақирди ва талабаларнинг ҳаракатчанлиги ва иш билан таъминланиши муҳимлигини таъкидлади.

Сорбонна декларацияси Болонья жараёнининг ривожланишидаги муҳим босқич бўлди. У 1997 йил 25 майда Франция, Италия, Германия ва Буюк Британия таълим вазирлари томонидан имзоланган. Декларация кейинги Болонья декларациясининг асосини яратди ва Европада олий таълимни ислоҳ қилишнинг асосий тамойиллари ва мақсадларини ёритиб берди. Қуйида Сорбон декларациясининг тафсилотлари келтирилган:

Уйғунлик ва мувофиқлик: Сорбонна декларациясида Европа бўйлаб олий таълим тизимларини уйғунлаштириш ва мослаштириш зарурлиги таъкидланган. Имзоловчи давлатлар бир давлатда олинган малака бошқа мамлакатларда тан олинishi ва қадрланишини таъминлаш муҳимлигини тан олди.

Уч босқичли таълим тузилмаси: Декларация олий таълимда бакалаврият, магистратура ва докторантурадан иборат уч босқичли даражали тузилмани ташкил этишни назарда тутди. Ушбу тузилма турли Европа мамлакатлари бўйлаб малакаларнинг таққосланиши ва ўтказилишини осонлаштиришга қаратилган.

Мобиллик ва алмашинув: Имзоловчи давлатлар талабаларнинг ҳаракатчанлиги ва алмашинув дастурларини рағбатлантириш муҳимлигини таъкидладилар. Улар халқаро тажриба ва тажриба талабаларнинг шахсий ривожланиши ва келажақда ишга жойлашиши учун қимматли эканини тан олдилар.

Сифат кафолати: Декларация олий таълим сифатини таъминлаш муҳимлигини таъкидлади. Вазирлар таълим дастурлари ва муассасаларининг юқори стандартларини таъминлаш учун мустаҳкам сифат кафолати механизмлари зарурлигини таъкидладилар.

Ишга жойлашиш: Сорбон декларациясида олий таълимни меҳнат бозори талабларига мослаштириш зарурлиги таъкидланган. Имзоловчи давлатлар битирувчиларни иш берувчилар томонидан қадрланадиган зарур кўникма ва малакалар билан таъминлаш орқали уларнинг ишга жойлашишини оширишга қаратилган.

Ҳаёт давомида таълим: Вазирлар умрбод таълимнинг муҳимлигини ва одамларга бутун ҳаёти давомида таълим олиш имкониятларини тақдим этиш зарурлигини тан олдилар. Улар узлуксиз таълимни рағбатлантириш ва мослашувчан таълим йўлларини ривожлантиришга чақирдилар.

Европа ҳамкорлиги: Декларацияда олий таълим соҳасида Европа ҳамкорлиги муҳимлиги таъкидланган. Вазирлар Европа давлатлари ва институтлари ўртасида билим, ресурслар ва илғор тажриба алмашишнинг афзалликларини тан олдилар.

Маданий ва тил хилма-хиллиги: Шартномани имзолаган давлатлар Европа маданий ва тил хилма-хиллигининг бойлигини тан олдилар. Улар тил хилма-хиллигини тарғиб қилиш ва тил тўсиқлари талабаларнинг ҳаракатчанлиги ва алмашинувига тўсқинлик қилмаслигини таъминлашни мақсад қилган.

Сорбонна декларацияси 1999 йилда имзоланган кейинги Болония декларацияси учун асос бўлиб хизмат қилди. Бу декларация имзолаган давлатлар ўртасида уйғунлашган ва мос келадиган Европа олий таълим ҳудудини яратиш йўлида биргаликда ишлаш мажбуриятини кўрсатди. Сорбонна декларациясида баён этилган тамойиллар ва мақсадлар Болония жараёни доирасидаги кейинги ислохот ва ривожланишларни шакллантиришда ҳал қилувчи рол ўйнади.

Бунга қадар 1988 йилда, Университетларнинг буюк хартияси имзоланган эди. Университет ректорлари томонидан академик эркинлик ва ҳамкорликка содиқлигини билдирди.

Университетларнинг буюк хартияси 1988 йил 18 сентябрда Италиянинг Болония шаҳрида Болония университетининг 900 йиллигини нишонлаш доирасида имзоланган. Ушбу ҳужжат Болония жараёнидан олдин бўлса-да, Болония ислохотлари асосидаги тамойиллар ва кадриятларни шакллантиришда таъсирчан рол ўйнади. Университетларнинг буюк хартиясининг мақсади: университетларни ўзини ўзи бошқарадиган институтлар сифатида белгилайдиган ва уларнинг жамиятдаги ролини рағбатлантирадиган асосий тамойиллар ва кадриятларни белгилаб олинган. Унга мувофиқ университетларнинг муҳим хусусиятлари олий таълим соҳасида халқаро ҳамкорликни ривожлантиришга қаратилган.

Ўзини ўзи бошқариш ва академик эркинлик университетлар сиёсий ёки иқтисодий тазйиқлардан холи, мустақил муассасалар бўлиши, билим олиш, тадқиқот ва ўқитиш эркинлигига эга бўлиши кераклиги эътироф этилди.

Ҳақиқат ва билимга интилиш университетларнинг асосий ролини кўрсатиб берадиган муҳим омилдир. У орқали интеллектуал қизиқувчанлик, танқидий фикрлаш, билимларни оммалаштириш жамият тараққиёти учун муҳим аҳамиятга эга эканлиги намоён бўлади.

Таълим ва тадқиқот университетларнинг юқори сифатли таълим бериш ва тадқиқот олиб бориш икки томонлама миссиясига эга эканлиги эътироф этилган. Унда таълим ва тадқиқотнинг ўзаро боғлиқлиги таъкидланган, тадқиқот ўқитишни хабардор қилади ва билимларни ривожлантиришга ҳисса қўшади.

Кириш ва тенглик олий таълимда тенг имкониятлар ва камситилмаслик тамойилларига урғу берди. Университетлар келиб чиқиши ва шахсий хусусиятларидан қатъи назар, барча малакали шахслар учун очиқ бўлишини талаб қилди.

Халқаро ҳамкорлик университетлар миллий чегаралар бўйлаб ўзаро тушуниш, маданий алмашинув ва ҳамкорликни ривожлантиришга масъул эканлиги эътироф этилди.

Ахлоқий ва ижтимоий масъулият орқали университетлар жамият тараққиётига ҳисса қўшишга, демократик кадриятларни тарғиб қилишга ва илмий-тадқиқот, ўқитиш ва иштирок этиш орқали ижтимоий муаммоларни ҳал қилишга чақирди.

Университетларнинг буюк хартияси Болония жараёнидан олдин бўлса-да, унинг тамойиллари ва кадриятлари Болония ислохотларининг мақсадлари, жумладан, университет автономияси, академик эркинлик, халқаро ҳамкорлик ва университетларнинг жамиятдаги ролини рағбатлантириш билан чамбарчас мос келади. Ҳужжат олий таълим соҳасидаги муҳим ҳужжат сифатида эътироф этилишида давом этмоқда ва университетлар қўллаб-қувватлайдиган асосий тамойиллар ва кадриятларни таъкидлайди.

1999-йил 19-июнь куни Европанинг 29 давлати таълим вазирлари Италиянинг Болония шаҳрида учрашдилар ва Болония декларациясини имзоладилар, бу эса Болония жараёнининг расмий бошланиши ҳисобланади. Декларация имзоланган шаҳар номи билан аталган.

Болония декларацияси:

Болония декларацияси Болония жараёнининг асосий мақсад ва тамойилларини белгилаб берди. Унда Европада янада уйғун ва уйғун олий таълим тизимини яратиш учун ислохотлар зарурлиги таъкидланди. Асосий мақсадлар мобилликни рағбатлантириш, сифат кафолатини ошириш ва битирувчиларнинг иш билан таъминланишини яхшилашдан иборат эди.

Болония декларацияси малакаларнинг қиёсланиши ва ўтказилишини осонлаштириш учун уч босқичли даража тузилмасини (бакалавр, магистратура ва докторантура) қабул қилишни талаб қилди.

Шунингдек, у кредитларнинг тан олинishi ва ўтказилишини таъминлаш учун Европа кредит ўтказиш ва жамғариш тизимини жорий этишни қўллаб-қувватлади.

Декларацияда узлуксиз таълим ва олий таълимни халқаролаштиришга қўмаклашиш муҳимлиги таъкидланган.

Болония декларацияси имзолангандан сўнг келишилган ислохотларни амалга ошириш бўйича аниқ чора-тадбирлар режалари ва йўриқномаларини ишлаб чиқиш бўйича ишчи гуруҳлар ва қўмиталар ташкил этилди.

Болония декларациясидан кейин биринчи вазирлар конференцияси 2001 йилда Прагада (Чехия) бўлиб ўтди. Бу конференция иштирокчи мам-



лакатларга тараққиётни баҳолаш, тажриба алмашиш ва кейинги қадамларни муҳокама қилиш имконини берди.

Прага вазирлар конференцияси Болонья жараёнига содиқликни яна бир бор тасдиқлаган ва кейинги ҳаракатлар нуқталарини белгилаб берган Прага коммюникесининг қабул қилинишига олиб келди.

Ҳар икки-уч йилда бир марта Вазирлар конференцияси тараққиётни кўриб чиқиш ва янги мақсадларни белгилаш учун ўтказилди.

1-босқич 1998 й.	Сорбонна декларацияси	Франция, Германия, Буюк Британия
2-босқич 1999 й.	Болонья декларацияси	29 та давлат
3-босқич 2001 й.	Париж коммуникеси	33 та давлат
4-босқич 2003 й.	Берлин коммуникеси	40 та давлат
5-босқич 2005 й.	Берген коммуникеси	45 та давлат
6-босқич 2010 й.	Таълим вазирларининг Лондон йиғилиши	Европа олий таълим худуди

Аъзолар рўйхати

Йиллар давомида Болонья жараёни кенгайиб, кўпроқ мамлакатларни қамраб олди. Дастлаб у асосан Европа Иттифоқи аъзолари бўлган бўлса, кейинчалик у Европа Иттифоқига аъзо бўлмаган мамлакатларни ҳам қамраб олди.



1.2-расм. Болонья жараёнига қўшилган мамлакатларнинг харитада акс этиши.

Болонья келишуви доираси қўлга киритилган асосий тамойилларни қуйидаги графикда акс эттирганмиз.



1.3-расм. Болонья келишувининг асосий тамойиллари.

Жараён жадаллашиб, кўплаб мамлакатлар Болония декларациясида қайд этилган ислохотларни, жумладан, уч босқичли диплом тузилмасини ўрнатишни бошладилар.

Европа олий таълим ҳудудини ташкил этиш Болония жараёнининг асосий мақсадига айланди. Европа бўйлаб узлуксиз ва мос келадиган олий таълим тизимини яратиш, малакаларнинг тан олиншини таъминлаш ва талабалар ва ходимларнинг ҳаракатчанлигини рағбатлантиришни мақсад қилган. Бир-бирини тан олиш асосларини, сифатни таъминлаш механизмларини ишлаб чиқиш ва қўшма диплом дастурларини илгари суриш Болония жараёнини янада мустаҳкамлашга ёрдам берди. Болония жараёни ривожланишда давом этмоқда ва Европа олий таълимининг ўзгарувчан эҳтиёжлари ва муаммоларига мослашмоқда. Вазирлар конференциялари тараққиётни баҳолаш ва келажак учун янги мақсадларни белгилаш учун вақти-вақти билан ўтказилади.

Жараён дастлабки ислохотлардан ташқари ўз эътиборини кенгайтирди ва энди ижтимоий ўлчов, тенглик, инклюзивлик, рақамлаштириш ва олий даражадаги инновациялар каби мавзулар бўйича мунозараларни ўз ичига олади. Европа кредит-модул тизимини турли институтлар ва мамлакатлар ўртасида кредитларни тан олиш ва ўтказиш имконини беради. У ўқувчиларнинг иш юкини, ўқув натижалари ва ютуқларини ўлчаш ва таққослаш учун умумий асосни тақдим этади. Сифатни таъминлаш тизимини амалга ошириш орқали Болония жараёни субъектлари олий таълимда сифатни таъминлаш муҳимлигини таъкидлаган ва иштирокчи давлатлар ўзларининг таълим дастурлари ва муассасалари сифатини баҳолаш ва таъминлаш учун мустаҳкам тизимларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш мажбуриятини олдилар.

Талабаларнинг ҳаракатчанлиги ва халқаролашувини рағбатлантириш натижасида Болония жараёни кредитларни тан олиш ва ўтказишдаги тўсиқларни бартараф этиш орқали Европада талабалар ҳаракатчанлигини оширишга қаратилган. Бу қўшма диплом дастурларини ишлаб чиқишни, икки томонлама дипломларни ва чет элда ўқиш муддатларини тан олишни рағбатлантирди.

Ишга лаёқатлиликни ошириш ва умрбод таълимининг жорий этилиши Болония декларациясида олий таълимни меҳнат бозори эҳтиёжларига мослаштириш зарурлиги таъкидланган. У битирувчиларнинг иш билан таъминланишини ошириш учун танқидий фикрлаш, муаммоларни ҳал қилиш ва мулоқот қилиш каби умумий ва ўтказиладиган кўникмаларни рағбатлантиришга чақирди.

Болония жараёни ташкил этилганидан бери 50 га яқин Европа давлатларини, шу жумладан Европа Иттифоқига аъзо бўлмаганларни ҳам камраб олди [1;3-5]. Бу бутун қитъадаги олий таълим тизимларида сезиларли ўзгаришларга олиб келди, кўплаб мамлакатлар уч босқичли диплом тузилмасини қабул қилдилар, кредит-модел тизимини жорий қилдилар ва уларнинг сифат кафолати механизмларини такомиллаштиришди. Болония жараёни ривожланишда давом этмоқда ва Европа олий таълимнинг ўзгарувчан эҳтиёжлари ва муаммоларига мослашмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, Болония таълим тизими кўплаб сабаблар ва омиллар таъсирида сезиларли ривожланиш ва ўзгаришларни бошдан кечирди. Тегишли тадқиқотлар ва илмий фикрларни таҳлил қилиш натижа-сида Болония жараёнининг келиб чиқишини тушунишда бир нечта асосий мавзулар пайдо бўлиши аён бўлади.

Тарихий таҳлил шуни кўрсатадики, Болония таълим тизими бутун Европадаги олий таълим тизимларини уйғунлаштириш ва интеграциялашувига жавоб сифатида пайдо бўлган. Жараён турли сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий мотивлар билан таъминланган. Болония ислохотларини бошлашда ҳаракатчанлик, ҳамкорлик ва рақобатбардошликни ошириш истаги каби сиёсий омиллар ҳал қилувчи рол ўйнади. Иқтисодий мулоҳазалар, жумладан, билимга асосланган иқтисодиётнинг аҳамияти ва Европанинг глобал рақобатбардошлигини ошириш заруриятини тан олиш жараёни янада кучайтирди. Болония таълим тизимининг ривожланишига янада инклюзив ва қулайроқ олий таълим тизимига интилиш каби ижтимоий омиллар ҳам таъсир кўрсатди.

Тадқиқотчилар ва олимлар Болония жараёнини шакллантиришда халқаро ташкилотлар, сиёсатчилар ва манфаатдор томонларнинг ролини таъкидладилар. Бу жараёни олға силжитишда олий таълим муассасалари, талабалар ташкилотлари ва давлат органларининг иштироки муҳим аҳамият касб этди [2;55]. Қўшма Штатлар ва Австралия каби бошқа минтақалардан сиёсат ўтказиш ва сабоқ олиш ҳам Болония ислохотларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишга таъсир кўрсатди.

Бундан ташқари, мавжуд тадқиқотлар таҳлили Болония таълим тизими билан боғлиқ мураккаблик ва муаммоларни таъкидлайди. Олимлар жараёнининг самарадорлиги, турли фанлар ва институтларга таъсири, стандартлаштириш ва хилма-хиллик ўртасидаги потенциал зиддиятга оид муҳим саволларни кўтардилар. Болония жараёнининг узлуксиз эволюцияси доимий танқидий мулоҳазаларни ва келажакдаги сиёсатни мулоҳаза қилишни талаб қилади.

Болония таълим тизимининг келиб чиқиш сабаблари ва омиллари кўп қиррали ва ўзаро боғлиқдир. Турли манфаатдор томонларнинг фаол иштироки билан бирга сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий мотивларнинг уйғунлиги жараёни шакллантирди. Болония таълим тизими Европада олий таълим учун муҳим асосга айланди ва мобиллик, ҳамкорлик ва сифатни таъминлаш учун имкониятлар яратди [3;146]. Бироқ, давом этаётган мунозаралар ва жараён билан боғлиқ муаммоларни тан олиш, доимий баҳолаш ва такомиллаштириш зарурлигини таъкидлаш жуда муҳимдир.

Болония таълим тизими олға силжиб борар экан, олимлар, сиёсатчилар ва манфаатдор томонларнинг турли нуқтаи назарлари ва фикрларини ҳисобга олиш зарур бўлади. Доимий изланишлар, танқидий таҳлиллар ва конструктив мулоқотлар орқали Болония жараёни Европа ва ундан ташқарида олий таълимнинг ўзгарувчан эҳтиёжлари ва муаммоларини қондириш учун ривожланишда давом этиши ва мослашиши мумкин.

Адабиётлар:

1. Макаров А. В. Болонский процесс: европейское пространство высшего образования : учеб. пособие. — Минск: РИВШ, 2015. — С. 3—5.
2. Студенты в Болонском процессе и Болонский процесс для студентов : материалы для Всерос. молодёж. форума «Я участвую в реформе образования» (г. Москва, 31 марта 2006 г.) / под науч. ред. В. И. Байденко. — Москва : Исслед. центр проблем качества подгот. специалистов, 2006. — 55 с.
3. Болонский процесс: глоссарий : на основе опыта мониторингового исследования : научное издание / Федеральное агентство по образованию, Упр. международного образования и сотрудничества, Исслед. центр проблем качества подготовки специалистов Нац. исслед. технологического университета «Московский гос. институт стали и сплавов»; [авт.-сост. В. И. Байденко и др.]; под науч. ред. В. И. Байденко, Н. А. Селезнёвой. — Москва : Исслед. центр проблем качества подготовки специалистов, 2009. - 146 с.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада Европада пайдо бўлган олий таълим ислохотидаги муҳим ташаббус бўлган Болония жараёнининг келиб чиқиши ва эволюцияси ҳақида фикр юритилади. 1980 йиллардаги Европада олий таълимни ислох қилишга қаратилган бир қатор мунозаралар ва ташаббуслардан келиб чиққанлиги, 1997 йилда Франция, Италия, Германия ва Буюк Британия таълим вазирлари томонидан имзоланган Сорбонна декларацияси Болония жараёнининг ривожланишидаги муҳим босқич бўлганлиги ҳақида ёритиб берилади.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассматриваются истоки и эволюция Болонского процесса, важной инициативы реформы высшего образования, возникшей в Европе. Порожденная серией дискуссий и инициатив, направленных на реформирование высшего образования в Европе в 1980-х годах, Сорбоннская декларация, подписанная министрами образования Франции, Италии, Германии и Великобритании в 1997 году, выделяется как важный этап в развитии Болонский процесс.

SUMMARY

This article examines the origins and evolution of the Bologna process, an important higher education reform initiative that emerged in Europe. Spawned by a series of discussions and initiatives aimed at reforming higher education in Europe in the 1980s, the Sorbonne Declaration, signed by the Ministers of Education of France, Italy, Germany and the United Kingdom in 1997, stands out as an important milestone in the development of the Bologna Process.

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLARNING OQIBATLARI

Qosimov D.A.

Andijon viloyati Shahrixon tumani

14-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: sanoat, aholi, ijtimoiy, iqtisodiy, muammolar, islohotlar, besh yillik reja, oqibat.

Ключевые слова: промышленность, население, социальные, экономические, проблемы, реформы, пятилетка, последствия.

Key words: industry, population, social, economic, problems, reforms, five-year plan, consequence.

Kirish. O‘zbekistonda ijtimoiy-ekologik muammolarning asosiy sababchilardan biriga aylandi. XX asrning 50-yillaridan keyingi davrda katta maydonlarning o‘zlashtirilishi, belgilangan besh yillik rajalarda faqat paxtachilikka e’tibor qaratish, xalq xo‘jaligi tarmoqlarining keng miqyosda rivojlanishi bilan bog‘liq atrof-muhitga salbiy ta’sirini hech narsa bilan taqqoslab bo‘lmasdi[1]. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni rivojlanishi ijtimoiy muammolarga sabob bo‘la boshladi. Ijtimoiy muammolardan biri Orol dengizi mahalliy muammolar doirasidan chiqib, butun dunyo muammosiga aylandi. Mustaqillikkacha bo‘lgan yillarda Orol dengizini qutqarish borasida bir nechta loyihalar ishlab chiqildi. Lekin birorta loyihani amalga oshirish uchun yetarli mablag‘ ajratilmadi. Orol dengizining suvsiz qolgan quruq yerlarida tuzlarning ochilib qolishi, dengizga yaqin hududlarda ekologik fojeani yuzaga keltirdi. Orol dengizining ekologik fojealari natijasida O‘zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida uzilishlarni keltirib chiqardi[2].

Metodologiya. O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanish sanoat korxonalarining qurulishi, paxta maydonlarini kengayishi ekologik muammolarni Orol dengizining fojeasiga olib keldi. Orol dengizi muammosiga sabab suv omborlarining noqulay joylarga qurilgani bo‘ldi. O‘rta Osiyo hududida 50 dan ziyod suv omborlari joylashgan bo‘lib, bu omborlarning turli miqdorda suvlarni yer maydonlariga tarqatilishi Orol dengiziga Sirdaryo va Amudaryo suvlarini

etib borishiga to'siq bo'ldi. Orol dengizining ko'p yillik sathining o'zgarishi va sho'rlanish darajasi.

1960-1990-yillar davomida Orol dengizi suvlariga doir ko'rsatkichlarning o'zgarib borishi[3] suvlarni keskin kamayishi, suvlarda chegaraviy hududlardagi sanoat korxonalarining ta'siri ham katta bo'ldi. Agar qo'shni mamlakatlarning ham suv omborlari, sanoat korxonalari Orol dengizi suvlariga ta'siri qo'shilsa Orol dengizi suvlarining keskin ifloslanish darajasi ortiqligi xayratlanarli bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan Just Van Dyer, Filipp Miklin, Kristin Bichsel, Dayrendra Vakbeyi, Tomos Konrad[4] va boshqalar Orolbo'yi tabiatidagi fojeali vaziyat, aholisining ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolari, ushbu muammolarni tarnshegaraviy xududlarga salbiy ta'siri borasida ilmiy izlanishlarni olib borilgan. Jumladan, Filipp Miklan, "Markaziy Osiyodagi Orol dengizining yuragi va ruxi Amudaryo va Sirdaryo hisoblanadi. Mahalliy mamlakatlarning iqtisodiy rivoji ana Shu ikki daryoga bog'liqdir. Orol dengizi har bir mamlakatning aholisini 40 foizini ish bilan ta'minlaydi. Mintaqaviy yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ko'prog'ini yyetkazib beradi. Mintaqadagi iqtisodiyot va ko'plab mahalliy aholining tirikchiligi Orol dengizidagi va mintaqadagi suvlarga bog'liqdir"[5] -deb ta'kidlagan. Fillip Miklan Orol dengizining ekologik fojeasini faqat iqtisodiy sohalarga ta'sir etganligini tadqiq etdi. Ammo uning tadqiqotida Orol dengizining sanoat korxonasi chiqindilarining ta'siri natijasida xududning ijtimoiy-ekologik muammolari vujudga kelganligiga e'tibor qaratmagan.

Natijalar. Orol dengizining qurib borishi, tuzli changning atrofga tarqalishiga, tuz har qanday o'simlik, daraxtlarning nobud bo'lishiga olib keldi. Orol dengizining tubidagi chang bo'ronlarning paydo bo'lgani 1975-yilda kosmik tadqiqotlarda aniqlandi. Tuzli chang bo'ronlar Qoraqalpog'iston hududlaridan tashqari qo'shni viloyatlaridan biri bo'lgan Xorazm viloyatining ham atrof-muhiti va aholisi hayotiga ta'sir etdi.

O'zbekiston sovet Ittifoqiga paxta yetkazib beruvchi agrar davlatga aylantirilganligi natijasida 1988-yilga kelib O'zbekistonning sug'oriladigan paxta maydonlari va ekin yerlari 4 million 100 ming gektarga yetdi[6]. Oqibatda, paxta yerlari uchun ko'plab maydonlarning ochilishi, Orol dengizidagi suvning ekin maydonlariga singib borishi, O'zbekistondagi ekologik muammolarning keskinlashuviga olib keldi. bunday ekologik muammolar transhegaraviy hududlardagi aholi salomatligida achinarli holat, ijtimoiy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.[7] Orol dengiziga suv yetib bormasligiga ikkinchi sabab 1959-1967-yillarda qurilgan Turkmanistondagi Qoraqum kanali

ham katta rol o'ynadi. Qoraqum kanali o'zaniga uchta katta suv omborlari qurilgan bo'lib, Amudaryodan sekundiga 300 metr³ suv olindi. Natijada, Orol dengizi suvlarini keskin pasayib borishiga sabab bo'ldi. Orol dengizi qurib borishida nafaqat O'zbekistonning paxta maydonlari balki, Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'iston Respublikalaridagi yer maydonlarining suvdan ko'p miqdorda foydalanishi ham ta'sir etdi[8].

1985-1990-yillarda Orol dengizining qurib qolgan tubi 26 ming km²ga cho'zildi. Ushbu maydon uchdan ikki qismi sho'r, tuzli, qum va sho'r yerlarga aylandi. Orol dengizi hududlarida atmosfera havosining ifloslanishi me'yoridan 5 marta oshdi. Aholining ayollar va bolalar orasida ayniqsa, o'pka, kamqonlik va kalsiy yetishmasligi kasalliklari keskin ortib bordi. Eng achinarlisi, bolalar orasida nogiron tug'ilishlar va o'limlar soni keskin oshdi. Orol dengiziga xos ekologik muammolarning kelib chiqishida suv ko'p talab etiladigan ishlab chiqarish korxonalarining noto'g'ri rivojlanishi va joylashtirilishi, qishloq xo'jaligida suv ko'p talab etuvchi ekinlardan biri paxta ekilishi, uni sug'orishdagi texnik nosozliklar va foydalanish tizimidagi ishlarning sifatsiz bajarilishi ham sabab bo'ldi. Bu muammolar o'z vaqtida hal etilmaganligi sababli suv, tuproq va atmosferada ifloslanishning ortib borishini ko'rish mumkin. Ma'lumki, Orol dengizi suvlar oqimi bo'ylab transchegaraviy hududlardan oqib keladi. Suv havzalaridan boshqa davlatlarning ham me'yorida foydalanishi va sifatining buzilishida sanoat korxonalarining suvlarning muhofaza tizimiga e'tibor qaratishi juda muhim edi. Bu borada O'zbekiston bo'yicha suvlarni muhofaza qilish holatlari quyidagicha bo'ldi.

Taxlillar. Sanoat korxonalarining chiqindi tashlamalari daryo suvi tarkibini o'zgartirdi. Ifloslangan daryo suvlari Orol dengizining xududiy ekologiyasini biologik jihatdan nobud bo'lishiga olib keldi. Orol dengizi hududlari atmosfera havosida oltingugurt vodorodi va ammiak konsentrasiyasi meyorlaridan ortiq bo'ldi. Natijada, hayvonot va o'simlik turlarining yo'qolib borishiga, Orol bo'yida sanitar va ekologik vaziyat yomonlashuvi, cho'llashish jarayonlari jadallashib, aholi orasidaturli yuqumli va boshqa kasalliklar ko'payishiga olib keldi. Orol va Orol bo'yi mintaqasida ekologik vaziyatning yomonlashuvi shu yerlarda istiqomat qiluvchi aholining sog'ligiga, binobarin, kelajagi bo'lgan bolalarning genofondiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1989-yil KPSS MQning Qishloq xo'jalik bo'limi boshlig'i I.I.Skiba, SSSR Fanlar akademiyasi prezidenti N.P.Lavrov boshchiligida Orol dengizi atrofidagi ekologik vaziyatni o'rganish uchun O'zbekistonga keldi[9] Ular Orol dengizi bo'ylarida aholining yashash sharoiti juda achinarli ekanligini, toza ichimlik suvlari tanqisligi va ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz holatlarini o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tdilar.

1979-yilga kelib, Orol dengizida aholini doimiy tirikchilik manbai bo‘lib kelgan kemachilik faoliyati to‘xtab qoldi. Chunki, daryo suvlarida ekologik holatning keskin ortib borishi suvdagi hayot va biologik muhitini nobud qilgan. 1981-1982-yillarda ifloslangan Amudaryo, Sirdaryo suvlari Orolbo‘yidagi ekologik muhitni izdan chiqishiga va baliq, o‘simlikning bir nechta turlarini yo‘qolib borishiga olib keldi.[10] Natijada, 1984-yilga kelib, esa dengizda suvning ifloslanishi, suv tanqisligi sabab, xududda baliqchilik va ovchilik sohalari o‘z ahamiyatini to‘liq yo‘qotgan. Dengiz suvining me‘yoridan ortiq ifloslanishida sanoat korxonalarining chiqindilari va paxta yetishtirish davomidagi kimyolashtirish jarayonlarining ta’siri juda katta bo‘lgan.

1987-yilda O‘z SSR Fanlar akademiyasi va SSSR Fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda Orol dengizi va Orolbo‘yi ekologik muammolarini o‘rganish bo‘yicha Orol dengiziga tashrif buyuradilar. Tadqiqotlar natijasida Orol dengizi suvlarining me‘yoridan ortiq ifloslanishida Amudaryo va Sirdaryo suvlaridagi sanoat korxonalarining chiqindi suvlari katta ahamiyat kasb etishini isbotladilar. Chunki Orol dengizi suvlari tarkibida kimyoviy va neft chiqindilarining topilishi, ikki daryo oqimlariga yaqin joylashgan sanoat korxonalarining chiqindi tashlamalari tarkibi bilan bir turdali aniqlanadi. Suvlarni qayta tozalash texnik uskunalari uchun davlat byudjetidan mablag‘ ajratilishi muhim ekanligini ta’kidlaydi[11]. Bundan tashqari Orolbo‘yi aholisi ichimlik suvlarini ham yaroqsizligi, yangi vodoprovod texnikalari bilan ta’minlanishini so‘rovnomaga kiritib o‘tishadi.

1989-yilda Markaziy Komitetning O‘zbekistondagi ikkinchi kotibi V.P.Anisev “Orol dengizini qutqarishda texnik uskunalarining yetishmasligi, hali xanuzgacha byuroktatik tizim ta’sirida belgilangan rejalar bajarilmay kelayotgani kabi bir qancha to‘siqlar borligini aytib tanqid qilgan”.[12] Bunday tanqidiy masalalar juda ko‘plab se‘ezdlarda va Oliy majlis yig‘ilishlarida ta’kidlandi. Lekin, shunday bo‘lsada, ekologik ahvolni muhofaza qilish va uni oldini olish borasidagi ishlar samara berolmadi. Orolbo‘yidagi ba’zi o‘z yurtiga sodiq tub aholi o‘z vatanlarini tashlab ketmadi. Ammo ularning kelajagi ayanchli bo‘lgani aholini tashvishga solardi.

Xulosa. 1989-yilda Orol dengizi hududlarida bolalarning nogiron tug‘ulishi yuqori darajada bo‘ldi. Oziq-ovqat va meva-sabzavotlarga dengiz tubidagi tuz ta’sir etgan. Orolbo‘yi hududlarda suv umuman iste’molga yaroqsiz bo‘lishi, aholini yashashga sharoitlari qolmaganligini ko‘rsatdi. Aholi uy sharoitidagi bog‘dorchiligi va poliz ekinlaridan ham mahrum bo‘la boshladi. Uy hayvonlarni boqishda em-hashaklarning yetishmaslik holatlari chorvachilik sohasini ham

halokat yoqasiga olib keldi. Orolbo‘yidagi aholining turmush sharoitida barcha iqtisodiy muammolarini ko‘payib ketishi dengiz bilan bog‘lanib qoldi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Бирлашган Миллиятлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича. Илмий-оммабоп рисола. –Тошкент: Маънавият, 2017. –Б. 92.
2. Johannes Linn. Central Asia Human Development Report. Slovakia. Bratislava. 2005. –P. 100.
3. Султонов С.П, Ахмедов Б.П. Экология ва атроф –муҳитни муҳофаза қилиш асослари. –Тошкент:ЎАЖБНТ, 2004. –Б. 117.
4. Joost Van Der Meer, et al., “Perceived Health and Psychosocial Well-being in the Aral Sea Area: Results from a Survey in an Area of Slow Environmental Degradation,” Toxic Turmoil: Psychological and Societal Consequences of Ecological Disasters, ed. Johan Havenaar, Julie Cwinkel, Evelyn Bromet, (Kluwer Academic, New York, 2002), 167.; Philip Micklin, “Water in the Aral Sea Basin of Central Asia: Cause of Conflict or Cooperation?,” Eurasian Geography and Economics, 43:7, (2002), 507; Christine Bichsel, KholnazarMukhabbatov and LenziSherfedinov, “Land, Water, and Ecology,” Ferghana Valley: The Heart of Central Asia, ed. S. Frederick Starr, (M.E. Sharpe, New York, 2011), 263; Philip Micklin, “Water in the Aral Sea Basin of Central Asia: Cause of Conflict or Cooperation?” Eurasian Geography and Economics, 43:7, 2002. –P. 107.
5. Султонов С.П, Ахмедов Б.П. Экология ва атроф–муҳитни муҳофаза қилиш асослари. –Тошкент:ЎАЖБНТ, 2004. –Б. 117.
6. Бахромов С. Здоровоохранения Узбекистана: проблемы и перспективы // Коммунист Узбекистана. 1988 год № 7 июл. –С. 28.
7. “Addressing Environmental Risks in Central Asia: Risks, Policies, Capacities”, Environmental Governance Series, OSCE, UNDP, UNEP, 2003. –P. 30
8. Арал: не отложные задачи // Правда Востока. 1989 год 14 май.
9. Хакбердиев Б.Экология рыб водоемов среднего и нежного течения реки Амудары в условиях антропогенного воздействия. Дисс ... докт. биол. наук. –Ургенч: 1994. –С. 39.
10. Эпштейн Л. Арал: эмоции и реальность. Правда Востока. 1990, №2. Январ. –С. 4.
11. Баранов А. Арал: Время возвращат долги // Правда Востока 1989 год 9 июл.

РЕЗЮМЕ

Maqolada sovet davrida iqtisodiy islohotlarning jadal sur’atlarda rivojlantirilishi, besh yillik rejalarda faqat iqtisodiy jihatdan o‘shisdagi belgilangan vazifalarga qaratilgan tarixiy ma’lumotlar biayon etilgan. Aholining ijtimoiy hayotidagi salbiy o‘zgarishlar va atrof-muhitidagi keskinlashuvlar tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье описывается бурное развитие экономических реформ в советское время, пятилетки ориентировались только на задачи экономического роста. На основе исторических источников выделены негативные изменения в социальной жизни населения и напряженность в окружающей среде.

SUMMARY

The article describes the rapid development of economic reforms in the Soviet era, the five-year plans focused only on the tasks of economic growth. Negative changes in the social life of the population and tensions in the environment are highlighted on the basis of historical sources.

**ELEKTRON TA'LIMDA BULUTLI TIZIMNING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY HOLATI****Shukurov A.U.***Qarshi muhandislik- iqtisodiyot instituti**“Axborot texnologiyalari” kafedrası. Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)***Tayanch soʻzlar:** metod, axborot, ta'lim, muhit, bulutli, texnologiya, komponent.**Ключевые слова:** метод, информация, образование, среда, облачные, технология, КОМПОНЕНТ.**Key words:** method, information, education, environment, cloud, technology, component.

Kirish - Ta'lim tizimining rivojlanishiga elektron ta'lim juda katta turtki bo'ldi, uni yanada tushunarli qildi. Elektron ta'lim dunyo bo'ylab rivojlanib bormoqda. Shu maqsadda ochiq kodli platformalarga talab oshib bormoqda.

“Elektron ta'lim” tushunchasi hozirgi kunda “masofaviy ta'lim” terminining kengaytmasi hisoblanadi. Elektron ta'lim axborot va kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim olishning turli shakllari va usullarini bildiradigan keng tushuncha hisoblanadi. Bundan elektron ta'lim ta'rifi keltirib chiqariladi.

Elektron ta'lim asosini masofadan turib o'qitishni ta'minlaydigan texnologiyalar egallaydi. Bu texnologiyalarning turli-tumanligini bir tartibga solishga texnologik standartlar sifatida sinflanadigan texnologiyalar yordam beradi. Bunday standartlar elektron ta'lim tizimining turli komponentalarining o'zaro munosabatlarini tartibga solishga yordam beradi, dasturchilarga standartda berilgan darajaga moslashishga majbur qiladi va sifatli xizmatni taqdim etishni ta'minlaydi.

Elektron ta'lim yangi ta'lim shakli hisoblanganligi bilan u hozirda juda rivojlanib bormoqda. Elektron ta'lim tarixi elektron ta'limni tasvirlash shakllari vaqt shkalasi bo'yicha beriladi.

Shunday qilib, bir nechta katta bosqichlarni ajratish mumkin, ularning har biri o'z ichiga elektron ta'limni tasvirlash shaklini, texnologik standartini va ta'limning rivojlanish xarakterini oladi. Ularning har birini ko'rib chiqamiz.

Elektron darsliklar – ma'lum ketma-ketlikda tizimlashtirilgan va noqog'oz axborot tashuvchi (CD, DVD va h.k.) yoki internet texnologiyalarga asoslangan o'quv kurslari.

Masofali ta'lim tizimi (MTT) - masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim kompleksi.

Bulutli tizimlar – bulutli texnologiyalar asosida ishlaydigan ta'lim tizimi.

MOOCs (ingliz tilidan Massive Open Online Courses, MOOC)

– masofali ta'lim shakllaridan biri bo'lib, ta'limda elektron ta'lim texnologiyalarini qo'llashga va Internet orqali erkin kirishga ruxsat berilgan ommaviy onlayn ochiq kurslar. Ommaviy onlayn ochiq kurslar 2008 yilda paydo bo'la boshladi, 2012 yildan boshlab ommalasha boshladi.

Elektron ta'lim asosini masofali ta'lim tashkil etib, u pochta yaratilgan vaqtda paydo bo'lgan bo'lib, u vaqtda o'qituvchi o'quvchiga mustaqil ta'lim olishi uchun pochta orqali o'quv materiallari yuborgan. 90-yillarning boshida shaxsiy kompyuterlar va birinchi elektron darsliklar paydo bo'lgan. Xuddi shu davrni elektron ta'lim rivojlanishini birinchi bosqichi deb olishimiz mumkin[1].

Elektron ta'limni birinchi bo'lib o'zining xodimlarini o'qitadigan tashkilotlar qo'llay boshlashdi, chunki bu ta'lim tizimi budjetni iqtisod qiladi. Bundan navigatsiya, matnli forumlar, rolli dasturlar va b. aniq bazaviy utilitalardan iborat tijorat mahsulotlari paydo bo'ldi. Bular VLE ning boshlanishi edi. Shuning uchun elektron ta'lim rivojlanishining ikkinchi bosqichini korporativ ta'lim deb xarakterlashimiz mumkin. Bu bosqichda yanada sifatli va murakkab elektron o'quv materiallari (kompyuter trenajyorlari, jimlik qoidasiga ko'ra yuklashlar va b.), ta'limning elektron vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish yaratiladi, elektron ta'limni boshqarishning turli modellari ishlab chiqiladi, elektron ta'limning sifati va samaradorligini baholash yo'llari ishlab chiqiladi.

Elektron ta'limning uchinchi bosqichi sifatida “bulut” tizimlari xarakterlanadi. Biroq elektron ta'lim ijtimoiy servislarni butkul egallab, “bulut” tizimlariga to'liq o'tishi haqida gapirish hali erta, buni Nial Sklater (Ochiq Universitet, Buyuk Britaniya) tomonidan o'rganilgan Microsoft va Google ning mos keluvchi bulutli tizimlarining imkoniyatlarini o'z ichiga olgan VLE tizimlar hisoblanuvchi Blackboard va Moodle kabi ikkita keng ishlatiladigan tizimlarni o'zaro tahlili buni ko'rsatadi. Ushbu tahlil bulutli tizimlar unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmagan baholash vositalaridan tashqari virtuala o'quv sohasi funksionalining kattagina qismini amalga oshiradi.

Ijtimoiy servislarning rivojlanishi bilan parallel ravishda elektron ta'lim tizimida yangi tendensiya – ommaviy ochiq onlayn-kurslar yoki MOOCs paydo bo'ldi.

MOOCs – bu oliy ta’lim sohasida ishlab chiqiladigan turli formalarni qabul qilishi mumkin bo’lgan bepul onlayn-kurslardir. MOOCs ommaviy ishlatish uchun qo’llaniladigan maxsus kurs sifatida ishlab chiqilgan edi.

Shunday qilib, elektron ta’limning rivojlanish bosqichlarini beshta katta bosqichga bo’lish mumkin. Har bir bosqich yangi texnologiya, elektron ta’lim shakli va standartiga ko’ra xarakterlanadi:

Elektron ta’limning rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Yil	Elektron ta’lim shakli	Rivojlanish xarakteri	Standartlar
1	1990	Elektron darsliklar	Markazlashgan	CM1001, v2.0, v3.0
2	2000-2004	Masofali ta’lim tizimi	Markazlashgan	SCORM IMS QTI, v 1,2 IMS MD IMS CP IEEE LOM
3	2004-2008/2009	Bulutli tizimlar	Markazlashmagan	TIN CAN API
4	2008/2009-2011	Ochiq kurslar	Markazlashmagan	-
5	2011- h.v. gacha	MOOCs – ochiq kurslar sohasida inqilob, ommaviy ochiq kurslarning rivojlanishi	Markazlashmagan	

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi yangi elektron ta’lim shakllarining paydo bo’lishiga turtki bo’ladi, bu esa o’z navbatida yangi standartlarning paydo bo’lishiga olib keladi. Yangi standartlar unga zaruriyat tug’ilganda yaratiladi.

Ta’lim muassasalari uchun mikrosop bulutli texnologiyasi. Microsoft Cloud: Office 365, Azure Education. Microsoft Office 365 ta’lim muassasalari uchun bulutli xizmatlardan to’liq foydalanish imkonini beradi, bu vaqt va pulni tejashga yordam beradi, shuningdek, talabalar va xodimlarning ish unumdorligini oshiradi. Exchange Online, SharePoint Online va Office Web Apps va Lync Online -ning bulutli versiyalari, videokonferentsaloqa bilan ta’minlangan asosiy funksiyalar bepul bo’ladi. Yangi narxlar va tariflar haqida batafsil ma’lumotni havolada topishingiz mumkin: Live@edu.Office 365 Education tanish Office ish stoli dasturlarining kuchini keyingi avlod Microsoft aloqalari va hamkorlik xizmatlarining onlayn versiyalari bilan birlashtiradi. Etakchi global xizmat

ko'rsatuvchi provayderning mustahkam xavfsizligi va ishonchliligi bilan Office 365 -dan foydalanish va boshqarish oson.

Qo'shimcha ma'lumotni havolada topishingiz mumkin: <http://www.microsoft.com/en-us/office365/education/school-services.aspx#fbid=RAc3tEIrX3K>. Ta'limda Windows Azure taklifi bilan o'qituvchilar o'z tarkibiga qo'sha oladilar jarayonni o'rganish nazariy va amaliy jihatdan eng innovatsion va tez rivojlanayotgan texnologiyalardan biri. Hech kimga sir emaski, bir necha yil ichida mehnat bozorida bulutli hisoblash sohasidagi mutaxassislarga talab sezilarli darajada oshadi. Windows yordamida Azure ta'lim universitetlarida bunday mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati mavjud.

Bulutli hisoblash ilovalarni ishga tushirishni yoki Internet orqali kirish mumkin bo'lgan tarqatilgan ma'lumotlar markazlarida joylashgan serverlarda ma'lumotlarni saqlashni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqish va bajarish uchun shunga o'xshash ilovalar maxsus bulutli platforma kerak. Bunday platforma Windows Azure, «bulutli» analogidir operatsion tizim Windows Server... Ammo, agar Windows Server - bu sizning mahalliy ma'lumotlar markazingiz serverlarida sotib olingan va joylashtirilgan dasturiy ta'minot bo'lsa, u holda Windows Azure platformasi Microsoft ma'lumotlar markazlarida joylashgan va sizdan masofadan turib ilovalarni ishlab chiqish va bajarish uchun muhit sifatida foydalanish mumkin. Siz dasturiy ta'minotni sotib olishingiz va o'rnatishingiz shart emas, siz faqat Microsoft ma'lumotlar markazi platformasining hisoblash resurslari va imkoniyatlarini ijaraga olganingiz uchun to'laysiz.

Windows Azure qanday ishlaydi? Yuragida Windows ishlaydi Azure yolg'on ishga tushirildi virtual mashina ilovaning har bir nusxasi uchun. Ishlab chiquvchi kerakli ma'lumotlarni saqlash hajmini va kerakli hisoblash quvvatini (virtual mashinalar soni) aniqlaydi, shundan so'ng platforma tegishli resurslarni beradi. Resurslarning dastlabki talablari o'zgartirganda, mijozlarning yangi so'roviga binoan, platforma ilova uchun qo'shimcha ma'lumot markazini ajratadi yoki kamaytiradi.

PaaS (xizmat sifatida platforma) modelining o'ziga xos xususiyati-bu dastur va infratuzilmani ajratish: ishlab chiquvchi faqat dastur uchun zarur bo'lgan resurslar miqdorini va so'ralgan resurslarni taqdim etish, ularni boshqarish bo'yicha barcha harakatlarni aniqlashi kerak. dinamik taqsimlash, monitoring, o'lchov va boshqalar bajariladi.

O'qishni xohlagan talabalar bulutli texnologiyalar mustaqil ravishda yoki bulutli hisoblash sohasidagi loyihalarda ishlash Microsoft tomonidan ham ta'minlanadi bepul kirish Windows Azure -ga hech qanday cheklolarsiz o'quv jarayoniga kirishga imkon beradi.

O'qituvchilar:

5 oylik kirish

2 ta kichik hisoblash tugunlari

3 GB xotira

Xizmat ko'rsatish avtobusiga 2 ta ulanish

2 SQL Asure veb -nashri (1 Gb)

Talabalar:

«Bulutlar» jamoaviy tushuncha bo'lgani uchun, ularni qandaydir atribut bo'yicha tasniflash mantiqan to'g'ri keladi. Quyida «bulutlar» tasnifi keltirilgan, ulardan biri InfoWorld tomonidan, ikkinchisi esa virtualizatsiya bozorining etakchilaridan biri bo'lgan Parallels tijorat direktori tomonidan taklif qilingan.

InfoWorld barcha «bulutlarni» oltita turga bo'lishni taklif qiladi:

SAAS - xizmat sifatida to'g'ridan -to'g'ri dastur (masalan, Zoho Office yoki Google Apps).

Xizmat kompyuterlari - masalan, virtual serverlar.

Web xizmatlari bulutda - virtual muhitda ishlash uchun optimallashtirilgan Internet xizmatlari (masalan, Internet -banking tizimlari).

PAAS - bu «xizmat sifatida platforma», ya'ni foydalanuvchining iltimosiga binoan imkoniyatlar to'plamini yaratishga imkon beradigan veb -ilovalarning yangi avlodi (masalan, Microsoft -dan Live Mesh).

MSP-bu xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga xizmat ko'rsatuvchi boshqariladigan xizmat ko'rsatuvchi provayder (masalan, pochta portallari uchun o'rnatilgan antivirus skanerlari).

Tijorat xizmatlari platformasi - PaaS va MSP konvergensiyasi (masalan, Cisco WebEx Connect).

Bulutlar xususiy, ommaviy, gibrid va klanlarga bo'linadi.

Shaxsiy bulut. Xususiy bulut (inglizcha shaxsiy bulut) - bu bitta tashkilot, shu jumladan bir nechta iste'molchilar (masalan, bitta tashkilotning bo'linmalari), shuningdek, ushbu tashkilotning mijozlari va pudratchilari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan infratuzilma. Xususiy bulut tashkilotning o'zi yoki uchinchi tomon (yoki ularning kombinatsiyasi) tomonidan boshqarilishi va boshqarilishi mumkin va u jismoniy jihatdan egasining yurisdiksiyasida ham, tashqarisida ham mavjud bo'lishi mumkin.

Ochiq bulut. Umumiy bulut - bu keng omma tomonidan bepul foydalanish uchun mo'ljallangan infratuzilma. Umumiy bulutga tijorat, ilmiy va davlat tashkilotlari (yoki ularning kombinatsiyasi) egalik qilishi, boshqarishi va boshqarishi mumkin.

Gibrid bulut. Gibrid bulut-bu ikki yoki undan ortiq turli xil bulutli infratuzilmalarning (xususiy, ommaviy yoki ommaviy) kombinatsiyasi bo'lib, ular yagona ob'ekt bo'lib qoladi, lekin ma'lumotlar va ilovalarni uzatish

uchun standartlashtirilgan yoki xususiy texnologiyalar bilan o'zaro bog'langan (masalan, ommaviy resurslar bulutlaridan qisqa muddatli foydalanish). bulutlar orasidagi yuk muvozanati uchun).

Klan buluti yoki jamoaviy bulut. Hamjamiyat buluti - bu umumiy maqsadlarga ega bo'lgan tashkilotlardan (masalan, missiya, xavfsizlik talablari, siyosat va turli talablarga rioya qilish) ega bo'lgan iste'molchilarning ma'lum bir jamoasi (klani) foydalanishi uchun mo'ljallangan infratuzilma turi. Umumiy bulut bir yoki bir nechta jamoat tashkilotlari yoki uchinchi shaxslar (yoki ularning har qanday kombinatsiyasi) bilan birgalikda egalik qilishi, boshqarishi va boshqarishi mumkin va u jismonan egasining yurisdiksiyasida ham, tashqarisida ham mavjud bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, quyidagicha xulosa qilish mumkin. Bulutli texnologiyalarga asoslangan axborot-ta'lim muhitining asosiy o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: ta'lim, baholash, kommunikatsiyalar. Ta'lim berishning an'anaviy vositalari va metodlarini uyg'unlashtirishga imkon beradigan axborot-ta'lim muhitini amaliy tatbiq etish imkoniyatlaridan biri – Google kompaniyasi tomonidan taqdim etiladigan vositalar to'plamidir.

Adabiyotlar:

1. Андреев А.А., Солдаткин В.И. Дистанционное обучение: сущность, технология, организация. –М.: Издательство МЭСИ, 1999. – 196 с.
2. Nishanov A.X., Anarbayeva F.U., Babamuxamedova M.A. “Ochiq kodli Moodle platformasida ishlash” (qo'llanma), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, “Adabiyot uchqunlari”, Toshkent, 2015, 248 bet
3. A.A.Abdugodirov, A.X.Pardayev “Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti”. Monografiya. – T.: “Fan”, 2009, 145 b.
4. Shodiyev.R.D. Virtual ta'lim muhiti va uning tavsifiy mazmun-mohiyati. Malaka oshirish tizimida o'qituvchilarni ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirish: strategiyalar, innovatsiyalar va ilg'or tajribalar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Qarshi. 2020.42-46-b.

РЕЗЮМЕ

Ta'lim jarayonidagi talabalarning roli hozirgi vaqtda keskin o'zgardi, ular o'quv jarayonining to'laqonli sheriklariga aylandilar, mashg'ulotning maqsadlari va ularga erishish yo'llarini mustaqil ravishda o'zlari belgilaydilar. Shu sababli, talabalarning shaxsiy elektron axborot-ta'lim muhitini e'tibordan chetda qoldirmasdan, ularni imkoniyatlarini ham hisobga olish lozim.

РЕЗЮМЕ

Роль студентов в учебном процессе кардинально изменилась, они стали полноправными партнерами в учебном процессе, самостоятельно устанавливая собственные учебные цели и способы их достижения. Поэтому необходимо не только игнорировать личную электронную информационно-образовательную среду студентов, но и учитывать их возможности.

SUMMARY

The role of students in the educational process has changed dramatically, they have become full partners in the educational process, independently setting their own educational goals and ways to achieve them. Therefore, it is necessary not only to ignore the personal electronic information and educational environment of students, but also to take into account their capabilities.



GEOGRAFIYA TA'LIMIGA MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ILMIIY-METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Baymuradova S.E.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: geografiya fanini masofaviy o'qitish, axborot kommunikatsiya vositalari (AKT), elektron geografik xaritalar, geografik ko'rgazmalilik, axborotning imkoniyatlari.

Ключевые слова: дистанционное обучение географии, информационно-коммуникационные средства (ИКТ), электронные географические карты, географическая наглядность, информационные возможности.

Key words: remote teaching of geography, information communication tools (ICT), electronic geographic maps, geographic visibility, information capabilities.

Geografiya ta'limini masofaviy o'qitishda talabalarning intellektual, kasbiy va shaxsiy rivojlanishida motivatsion-qadriyatli, irodaviy-hissiy sifatlar, amaliy ko'nikma va malakalar, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish kabi individual, ijobiy sifatlarini rivojlantirishga intilmasligi, shaxs sifatida rivojlanishni, o'z ustida ishlashni yoki fanni o'qib-o'rganishga bo'lgan qiziqishning yo'qligi ularni pedagogik tayyorlashda qiyinchilik tug'diradi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish borasida respublikamizda bir qancha islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.10.2022 yildagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 559-sonli Qarorida ta'limni masofaviy o'qitish va ta'lim sifatini oshirish borasida bir qancha vazifalar belgilab berilgan.

Mazkur Qarorda keltirilgan vazifalarga ko'ra [1]:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabning turar joyidan qat'i nazar, unga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish;

- masofaviy ta'limni maxsus platforma yordamida yoki mavjud platformalardan foydalangan holda tashkil etish;

- masofaviy ta'limda bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativlarini 1:50 nisbatda belgilash;

- masofaviy ta'lim bo'yicha o'quv jarayonini davlat ta'lim standarti, kasbiy standartlar va malaka talablari asosida ishlab chiqilgan o'quv rejalari hamda o'quv dasturlari asosida amalga oshirish;

- masofaviy ta'limga talabalarni qabul qilish va o'quv jarayonini tashkil qilish tartibini belgilash, shuningdek, masofaviy ta'lim sifati monitoringini tashkil etish;

- masofaviy ta'lim shaklini joriy etgan oliy ta'lim tashkilotlari, zarur hollarda, talabalarga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida ular istiqomat qiluvchi hududlarda faoliyat yurituvchi oliy ta'lim tashkilotlari, axborot-resurs markazlari, o'quv markazlari bilan o'zaro kelishgan holda ularning axborot-kommunikatsiya infratuzilmasidan talabalar foydalanishi uchun sharoit yaratish choralarini ko'rishi nazarda tutiladi [1].

Tadqiqotimiz davomida geografiya ta'limini masofaviy o'qitishda va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-metodik vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

1. Oliy ta'lim muassasalari geografiya ta'limini masofaviy o'qitishdaga nisbatan texnologik yondashuvga erishish.

2. Geografiya fanini masofaviy o'qitishning ilmiy metodik ta'minotini takomillashtirishda pedagogik loyihalashtirilgan dasturlar, elektron darsliklar, elektron ta'lim vositalarini yaratish va amaliyotga joriy etish.

3. Masofaviy o'qitish ta'lim olishning zamonaviy va qulay shakli bo'lganligi uchun talabalarining ko'nikma va malakalarini mustaqil ravishda egallash, kasbiy jihatdan o'z-o'zini takomillashtirib borishlariga erishish.

4. Oliy ta'lim tizimida geografiya fanini masofaviy o'qitish jarayonida foydalanish imkonini beruvchi moddiy-texnik bazani mustahkamlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

5. Masofaviy o'qitishni amalga oshirayotgan pedagoglarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va intellektual ta'lim tizimlaridan foydalanish, elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanish malakalarini oshirish lozim.

Geografiya yo'nalishida masofaviy ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar avvalo, axborot kommunikatsiya texnologiyalariga doir nazariy va amaliy bilimlarni egallashi, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi, ta'lim olishning samarali usullari, geografiya fanining tarixini bilishi, elektron geografik xaritalar bilan ishlash malakasiga ega bo'lishi, tabiiy-geografik fanlardan o'zlashtirilayotgan materillar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni mukammal o'rganishi zarur.

Masofaviy o'qitish jarayonida talabalarining axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan foydalanish malakasi muhim ahamiyat kasb

etadi. Zero, axborotdan foydalanish imkoniyati va samaradorligi uning representativligi, mazmundorligi, yetarliligi, aktualligi, o'z vaqtidaligi, aniqligi, ishonarliligi, barqarorligi kabi asosiy iste'mol sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir [2; 368-b.].

1. Axborotning representativligi - ob'ekt xususiyatini adekvat ifoda etish maqsadlarida uni to'g'ri tanlash va shakllantirish bilan bog'liqdir.

2. Axborotning mazmundorligi - mazmuniy hajmini ifoda etadi.

3. Axborotning yetarliligi (to'laligi) - qaror qabul qilish uchun minimal, lekin yetarli tarkibga (ko'rsatkichlar jamlamasiga) ega ekanligini bildiradi. To'g'ri qaror qabul qilish uchun to'liq bo'lmagan, shuningdek, ortiqcha bo'lgan axborot ham foydalanuvchining qabul qilgan qarorlari samaradorligini kamaytiradi [3; 592-b.].

4. Axborotning aktualligi - axborotdan foydalanish vaqtida uni boshqarish uchun qimmatligi saqlanib qolishi bilan belgilanadi va uning xususiyatlari o'zgarishi dinamikasi hamda ushbu axborot paydo bo'lgan vaqtdan buyon o'tgan vaqt oralig'iga bog'liq bo'ladi.

5. Axborotning o'z vaqtidaligi - uning avvaldan belgilab qo'yilgan vazifani hal etish vaqti bilan kelishilgan vaqtdan kechikmasdan olinganligini bildiradi.

6. Axborotning aniqligi - olinayotgan axborotning ob'ekt, jarayon, hodisa va hokazolarning real holatiga yaqinligi darajasi bilan belgilanadi.

7. Axborotning ishonarliligi - axborotning real mavjud ob'ektlarni zarur aniqlik bilan ifoda etish xususiyati bilan belgilanadi.

8. Axborotning barqarorligi - axborotning asos qilib olingan 38 ma'lumotlar aniqligini buzmasdan o'zgarishlarga ta'sir qilishga qodirligini aks ettiradi [3; 160-b.].

Bizga ma'lumki, axborot deganda, atrof - muhit ob'ektlari va hodisalari, ularning o'lchamlari, xususiyatlari va holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar tushuniladi. Keng ma'noda axborot-insonlar o'rtasida ma'lumotlar ayirboshlash, odamlar va sun'iy qurilmalar o'rtasida signallar ayirboshlashni ifoda etadigan tushunchadir [4; 160-b.].

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarini tabiiy fanlarga jumladan, geografiyaning ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash, boshqa fanlarga nisbatan samarali hisoblanadi [5; 43-b.]. Chunki, geografiya fani o'simliklarning geografik o'rni, Yer yuzining tuzilishi, iqlimlari, uning tabiiy boyliklari, dengiz, daryo, orol va ko'llarga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni hamda ekologik muammolarni o'rgatuvchi fan hisoblanadi [6; 176-b.]. Ushbu jarayon va hodisalarni axborot kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan elektron ta'lim resurslar (video roliklar, animatsiya effektlr, taqdimotlar

slayd-shou) yordamida taqdim etilsa, ta'lim oluvchilarning fanga oid ma'lum muammolarini bartaraf etishda, unga nisbatan qiziqtirishda, rejalashtirilgan bilimlarni o'zlashtirishda, tasavvurlarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi [5; 12-b.]. Shu bois axborot texnologiyalari vositalarini geografiya darslarida qo'llashning yaxlit bir mexanizmini ishlab chiqish zaruriyati mavjud [7; 166- b.].

Geografiya fanini masofaviy o'qitishda ko'rsatmali qo'llanmalarning ham ahamiyati katta. Ko'rsatmali qo'llanmalar talabalarni o'rganilayotgan geografik ob'ektlar, voqea va hodisalar, tabiiy-geografik jarayonlar haqida yaqqol (asosan elektron ko'rish) tasavvurlar hosil qilish maqsadida ishlatiladigan vositalar hisoblanadi. Talabalarning o'zlashtiradigan bilimlar xarakteriga, talabalarda mavjud bo'lgan tasavvur, tushunchalariga ko'ra ko'rsatmali qo'llanmalar ta'lim berishda turli xil vazifalarni bajaradi. Ular bilimlar manbai sifatida, shuningdek, o'qituvchi so'zlab berish, tushuntirish, suhbat vaqtida foydalanadigan elektron rasm, elektron xaritalar, tabiiy jarayonlar bilan bog'liq videoroliklar, animatsiyalar, slaydlar, o'quv filmlar sifatida xizmat qilishi mumkin. Ko'pincha, bu vazifalar kompleks tarzda ishlatilishi ham mumkin.

Barcha fanlar qatori geografiya fanini o'qitishda ham geografik ob'ekt, hodisa va tabiiy-geografik jarayonlarni aslidan kuzatib o'rganish pedagogika nuqtai nazardan eng ideal usul hisoblanadi. An'anaviy ta'limda tabiiy-geografik fanlarda o'rganilishi kerak bo'lgan materiallarning ba'zilarinigina borib ko'rish mumkin va ma'qul. Shu sababli, o'quv jarayonlarida tasviriy ko'rsatma – qo'llanmalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'quv jarayonida tasviriy ko'rsatma – qo'llanmalardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- o'rganiladigan geografik ob'ektning asli juda katta yoki juda kichik bo'lganda (materiklar, qit'alar, osmon jismlari va shu kabilar);

- geografik ob'ekt yoki tabiiy-geografik hodisa va jarayonlarning aslini ko'rish mumkin bo'lmaganda (er osti silkinishlari, osmon jismlarining to'qnashuvlari, yerning ichki tuzilishi va shu kabilar);

- o'rganiladigan geografik ob'ekt yoki hodisalarning aslini bevosita kuzatish mumkin bo'lmaganda (quyosh tarkibidagi kimyoviy jarayonlar, chaqmoq jarayonlari, endogen jarayonlar va shu kabilar).

Geografiyani masofaviy o'qitishda interfaol xaritadan foydalanish mavzuni bilish jarayonining jozibadorligini ochib beradi. Interfaol rejimda ishlash mavzuga hissiy munosabatni rag'batlantiradi, motivatsiyani oshiradi, o'rganishga qiziqish uyg'otadi, muvaffaqiyatga erishish uchun sharoit yaratadi.

Interfaol xaritaning harakatchanligi keng tarqalgan boshqaruv turlaridan birini - darhol tekshiriladigan geografik diktatsiyani ta'minlaydi, chunki o'zini-o'z sinab ko'rish o'quvchilarning munosib o'zini-o'zi anglashini shakllantirish vositasidir [7; 59-b.]. Tabiiy-geografik fanlarni o'qitishda ushbu xaritalardan foydalanish materiklar yoki kichik maydonlar bo'lishidan qat'iy nazar, bitta hudud uchun har xil tarkibdagi tematik xaritalarni taqqoslashda samarali bo'ladi

Yu.V.Arbuzov, V.N.Voronov, Yu.M.Kuznesov, S.I.Maslovlarning fikriga ko'ra, interfaol xaritalar - bu interfaol geografik o'quv vositasining yangi turidir. Interfaol xaritalar bilan ishlashda o'qituvchi har qanday bosqichi uchun zarur bo'lgan nostandart vizual tasvirlarni yaratish imkoniyatiga ega. Interfaol xaritalar maxsus tilda odatiy belgilar yordamida Yer yuzasi tasvirlarini kichraytirilgan, boshqa tomondan, ular geografik axborot tizimlariga yaqinlashtiriladigan yangi xususiyatga ega (xarita tarkibini o'zgartirish imkoniyati) [8; 46-b.]. Ushbu turdagi xaritalar bilimlarni interfaol rejimda, yangi materialni o'rganish jarayonida sinab ko'rish, tasdiqlovchi xulosalarni tuzish, taqqoslash va ma'lumotni taqdim etishni bir vaqtning o'zida foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, modellashtirish va dizayn bo'yicha ijodiy ish uchun keng imkoniyatlarga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Oliy ta'lim muassasalarida geografiya fanini masofaviy o'qitish samaradorligini oshirish uchun ta'limning o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish, geografiya faniga doir zamonaviy elektron axborot ta'lim resurslarini (elektron darsliklar, videodarslar, o'quv filmlari, elektron nazorat testlari) ishlab chiqish ehtiyoji mavjud. Masofaviy ta'lim jamiyatning modernizatsiyalashgan ta'limga bo'lgan ehtiyoji asosida takomillashib borayotgan ta'lim shaklidir. Shuning uchun ham bugungi kunda masofaviy ta'limni samarali tashkil etish muammosini hal etish zarurati mavjud. Uning ta'lim jarayonidagi ko'pgina muammolarni hal qilishda qo'llanilishi hamda uning kombinatsiyalarini boshqa metod va usullar bilan optimallashtirish imkoniyatlarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.10.2022 yildagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 559-sonli qarori.
2. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Noshir. 2009, 368 b.
3. G'ulomov S.S., Alimov R.X., va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik // -T.: "Sharq", 2000.- 592b.
4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. - Toshkent: Fan, 2007.- 160 b.

5. Xamroyeva F.A. Oliy ta'lim muassasalarida tabiiy geografik fanlarni o'qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 43 b.

6. G'ulomov P., Vahobov H., Baratov P., Mamatqulov M. Geografiya (O'rta osiyo tabiiy geografiyasi, O'zbekiston tabiiy geografiyasi) // Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun darslik 5-nashr. – Toshkent, 2017. – 176 b.

7. Janzakov A.B. Geografiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish // Informatika va Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'limini modernizatsiyalash istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Navoiy, 2018. – B.165-166.

8. Arbuzov Yu.V., Voronov V.N., Kuznesov Yu.M., Maslov S.I. Prinsipy sozdaniya i osobennosti primeneniya laboratornogo oborudovaniya v sisteme otkrytogo texnicheskogo obrazovaniya // Industriya obrazovaniya Pod red. A.A.Polyakova i dr. – Moskva: MGIU, 2001. – Вып. 1

РЕЗЮМЕ

Geografiya ta'lim yo'nalishida masofaviy ta'limning o'rni, talabalarning axborot kommunikatsiya texnologiyalariga doir nazariy va amaliy bilimlarni egallaganlik darajasi, ta'lim olishning samarali usullari, elektron geografik xaritalar bilan ishlash, tabiiy-geografik fanlardan o'zlashtirilayotgan materillar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni mukammallik holati.

РЕЗЮМЕ

Роль дистанционного обучения в обучении географии, уровень усвоения учащимися теоретических и практических знаний информативно-коммуникативных технологий, эффективных методов обучения, работы с электронными географическими картами, осваиваемых материалов по естественным и географическим наукам, состояние передового опыта в практические навыки и умения.

SUMMARY

The role of distance education in geography education, the level of students' acquisition of theoretical and practical knowledge of information and communication technologies, effective methods of education, working with electronic geographic maps, materials being mastered from natural and geographical sciences. state of excellence in practical skills and competencies.



GEOGRAFIYA TA'LIMIDA ELEKTRON AXBOROT TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH – TA'LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA

Mirzayeva L.E.

Toshkent shahar Yangiheyot tumani

332-maktab geografiya fani o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: ta'lim jarayoni, axborot tizimi, geografiya ta'limi, elektron axborot ta'lim resurslari, o'quvchilarning bilim salohiyati, ta'lim samaradorligi, axborot manbalari, elektron darsliklar, elektron xaritalar, ta'lim tamoyillari.

Ключевые слова: учебный процесс, информационная система, географическое образование, электронные информационные образовательные ресурсы, интеллектуальный потенциал обучающихся, эффективность обучения, источники информации, электронные учебники, электронные карты, принципы обучения.

Keywords: educational process, information system, geography education, electronic information educational resources, students' knowledge potential, educational efficiency, information sources, electronic textbooks, electronic maps, educational principles.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti elektron axborot ta'lim resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, ta'lim sifati va samaradorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Insoniyat sivilizasiyasining axborotlashgan jamiyatga qadam qo'yishi odamlarning zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot muhitida kasbiy faoliyat olib borish va bu muhitda himoyalashga o'rgatmoqda. Ta'kidlash joizki, axborotlashtirishga, shuningdek axborot kommunikatsiya texnologiyalariga bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu holat, texnika va texnologiyalarning gurkirab rivojlanishi bilan chegaralanmay, axborotlashgan jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq tub o'zgarishlar tufayli asosiy qimmatlikka aylanayotgan axborotlar va ular bilan ishlash salohiyatining jiddiy o'sishiga erishish lozimligi bilan xarakterlanadi.

Respublikamizda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, unda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari bo'yicha bir qancha islohatlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4623-Sonli Qarorida [1] tarbiya va o’qitish usullari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o’zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash ko’nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg’unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovation faoliyatni samarali tashkil etish pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlaridan biri etib belgilangan.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan to’rtinchi ustuvor yo’nalishida maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish vazifasi qo’yilgan [2].

Shu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan umumta’lim maktablarida tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonlariga eng ilg’or elektron ta’lim vositalarini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Xususan, geografiya fanini o’qitish samaradorligini oshirishda, o’quvchilarning tabiiy-geografik bilim salohiyatini oshirishda hamda ularning atrof-muhitga to’g’ri munosabatda bo’lishlarini ta’minlashda elektron ta’lim resurslarining ahamiyati katta.

Tahlil natijalariga ko’ra, respublikamiz maktablari geografiya ta’limida electron resurslardan foydalanish bo’yicha ba’zi bir muammolar mavjudligi aniqlandi. Ushbu muammolarning asosiy sabablaridan biri, fan o’qituvchilarining elektron axborot ta’lim resurslaridan foydalanishga oid ilmiy-uslubiy bilim darajasi hamda malakasi yetarli darajada emasligidir.

Geografiya darslarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish o’quvchilarning geografik bilimlari sifatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi hamda o’quv jarayoni samaradorligini oshiradi. Elektron o’quv mahsulotlarining zamonaviy bozorida o’quvchilarga geografiya fanini o’rgatishga mo’ljallangan pedagogik dasturiy vositalar yetarli darajada emasligi tufayli, ushbu fanni axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish bo’yicha turkum muammolar mavjud [4].

Demak, geografiya ta’limida elektron axborot ta’lim resurslaridan samarali foydalanish orqali o’quvchilarning bilim saviyasini oshiribgina qolmasdan, ularning kompetentlik darajasini ham rivojlantiradi. Bunda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- o'rganilayotgan o'quv-ma'lumotlarni animatsiya, audio va video shaklda taqdim etish;

- o'quvchilarning idrok va bilish jarayonining to'liq ishtirokchisiga aylanadigan o'quv jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchilarning interfaol hamkorligi uchun ijoyuyi muhit yaratish;

- har xil tashqi axborot manbalari bilan mustaqil ishlash imkoniyati;

-o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni onlayn test sinovlari tizimlari orqali doimiy monitoring qilish va baholab borish.

Elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanishga qo'yiladigan didaktik talablar bilan uslubiy talablar chambarchas bog'liq. O'quv elektron nashrlari va manbalariga qo'yiladigan uslubiy talablar kompyuter texnologiyalari uchun axborot texnologiyalari vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishga yo'naltirilgan muayyan fanning o'ziga xos xususiyatlarini, tegishli fan, uning konseptual apparati tarkibini, qonunlarini o'rganish usullarining xususiyatlarini, zamonaviy axborotni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlarini hisobga olishni talab etadi [5].

Shuning sababli geografiya faniga oid elektron axborot ta'lim resurslari quyidagi uslubiy talablarga javob berishi kerak:

1. Haqiqiy texnik tizimlar va qurilmalarning xilma-xilligi, ular bilan ishlashning murakkabligi bilan bog'liq holda, o'quvchilar fikrlash qobiliyatining konseptual, majoziy va samarali tarkibiy qismlarini o'zaro bog'liqligi hamda ta'siriga asoslangan bo'lishi.

2. Geografiya ta'limga oid elektron axborot ta'lim resurslar har biri ma'lum bir intizom ichidagi mavhumlik darajasiga mos keladigan ko'p darajali ierarxik shaklida ta'lim sohasidagi ilmiy tushunchalar tizimining aks ettirishini ta'minlashi, shuningdek, ushbu tushunchalarning ham bir darajali mantiqiy munosabatlari hisobga olinishini ta'minlashi lozim [6].

3. Elektron ta'lim resurslar o'quvchilarga algoritmik, evristik faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan assimilyatsiya darajasida o'quvchilar bilimlarini abstraktlashtirishning fanlararo darajasini bosqichma-bosqich oshirish maqsadida o'quvchilarga turli xil nazorat qilinadigan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish imkoniyatini yaratishi [7].

Geografiya darslarida elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanish, o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun zamonaviy o'qitish vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarga yanada aniqroq shaklda yangi tushunchalar bilan tanishish, turli xil video va fotosuratlar yordamida geografik ob'ektlar haqida ma'lumot olish hamda taqdim etiladigan materialni qiziqarli shakllarda birlashtirish imkoniyatini yaratadi. Bularning barchasi

o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, sinfda o'qituvchi har bir o'quvchining faolligini nazorat qilish, diqqatini jalb qilishga erishadi hamda sinfda osoyishta, do'stona va o'zaro yordam muhiti vazifalarni muvoffaqiyatli bajarishga imkon beradi. Buning uchun esa quyidagi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) elektron darsliklar va qo'llanmalar;
- 2) interfaol doskalar;
- 3) elektron ensiklopediyalar va ma'lumotnomalar;
- 4) simulyatorlar va sinov dasturlari;
- 5) Internetning ta'lim resurslari;
- 6) video va audio uskunalar;
- 7) interfaol xaritalar va atlaslar.

Ushbu vositalardan foydalanishning asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi:

- 1) dars jarayonida bevosita foydalanish;
- 2) darsdan tashqari o'quv faoliyatini tashkil etishda foydalanish.

Yuqorida qayd etilgan axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishda darsning maqsad va vazifalariga qarab, quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

- 1) yangi materialni o'rganish;
- 2) bilimlarni tizimlashtirish;
- 3) amaliy topshiriqlarni bajarish;
- 4) bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish.

Tadqiqotchilarning fikricha, geografiya ta'limida o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishga oid amaliy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda yangi bilimlarni mustaqil egallay olish, kelajakda mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishga o'rgatish muhim vazifalardan biri hisoblanadi [8].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarorida "ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish; o'quvchilarning yuksak darajada ta'lim-tarbiya olishlari, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratib berish" kabi ustivor vazifalar belgilab qo'yilgan [3]. Bu borada, umumta'lim maktablarining geografiya ta'limida elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanishning didaktik tamoyillarini yanada takomillastirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron axborot ta'lim resurslarini geografiya ta'lim jarayoniga tatbiq etishda o'quv-ma'lumotlar uchun aniq didaktik talablar qo'yiladi. Ushbu talablardan

biri moslashuvchan talabidir. Bu o'quvchining individual imkoniyatlariga moslashtirilishini anglatadi. Moslashuvchan talab - bu elektron ta'lim resurslar yordamida geografiya ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalariga hamda psixologik xususiyatlariga moslashtirishdir.

Elektron axborot ta'lim resurslardan foydalanishda moslashuvning uchta darajasini ajratish tavsiya etiladi. Moslashuvning birinchi darajasi o'quvchilarning o'quv-ma'lumotlariga mos keladigan individual sur'atni tanlash qobiliyati. Moslashuvning ikkinchi darajasi o'quvchining holatini aniqlashni o'z ichiga oladi, natijada, uning mazmuni va o'qitish metodikasi taklif etiladi. Moslashuvning uchinchi darajasi potensial foydalanuvchilarni tasniflashni anglatmaydigan ochiq yondashuvga asoslanadi, ya'ni, o'quvchilarning eng katta kontingentida, uni ishlatish uchun imkon qadar ko'proq variantlarni ishlab chiqishni intilishiga asoslanadi.

Ko'pchilik pedagog olimlarning fikriga ko'ra, elektron ta'lim resurslardan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempi bo'yicha bilim olishni, o'qituvchi esa o'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarni nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi [9].

Interfaol ta'limning talabi, o'quv jarayonida o'quvchining elektron ta'lim resurslar bilan o'zaro aloqasi bo'lishi lozimligini anglatadi. Elektron ta'lim resurslari dialog va fikr almashishni ta'minlashi kerak. Muloqotni tashkil etishning muhim tarkibiy qismi elektron ta'lim resurslarini o'qituvchi va o'quvchilar harakatlariga majburiy ravishda javob berishidir. "Qayta aloqa vositalari o'quvchining xatti-harakatlarini kuzatib boradi va to'g'rilaydi, keyingi ish uchun tavsiyalar beradi, ma'lumotlarga aniqlik kiritish va doimiy ma'lumot olishni ta'minlaydi. O'qish natijalari bo'yicha xato va kamchiliklarni tashxislash uchun monitoring o'tkazishda, aloqa vositalarining bilim darajasini oshirish bo'yicha tavsiyalar bilan ishlarni tahlil qilish natijalarini beradi" [10].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, geografiya ta'limining jozibadorligini oshirishda hamda o'quvchilarning geografik bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanish – ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlash omili hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-Sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. (44-maqсад).

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187-sonli qarori.
4. Naderi M.G. Psixologo-pedagogicheskie osnovy ispolzovaniya informatsionno-kommunikativnykh texnologiy kak sredstva povysheniya effektivnosti protsessa obucheniya na urokax geografii v shkolax Islamskoy Respubliki Iran // Avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. – Dushanbe, 2012. – 18 s.
5. Musataeva I. S. Metodika razrabotki i ispolzovaniya sredstv informatsionno-kommunikatsionnykh texnologiy dlya formirovaniya geometricheskoy kompetentnosti uchashixsya osnovnoy shkoly // Dissertatsiya. – Alma-Aty, 2008. –227 s.
6. Janzaqov A.B. Geografiya fanini axborot texnologiyalari vositasida o‘qitishning amaliy samaradorligi // “Uzluksiz ta’lim” jurnal. Maxsus son. –Toshkent, 2020. – B. 75–77.
7. Kalinovskaya M. A. Ispolzovanie elektronnykh obrazovatelnykh resursov na urokax geografii – odno iz usloviy dostizheniya kachestva obrazovaniya // Shkolnaya pedagogika. – 2015. – №2. – S. 25-27.
8. Nikadambaeva H.B. «O‘zbekiston tabiiy geografiyasi» fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (oliy ta’lim misolida) // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2012. – 223 b.
9. Tolipova J.O. G‘ofurov A.T. Biologiya o‘qitish metodikasi // Darslik. –Toshkent, 2012. – 239 b.
10. Karbozova J.J. Podgotovka budushix uchiteley k proektirovaniyu elektronnykh obrazovatelnykh resursov // Diss... na soisk. uchen. step, kand. ped. nauk. – Dushanbe, 2017. – 175 s.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada dunyoning rivojlangan mamlakatlarida axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti, respublikamizda bu borada olib borilayotgan islohatlar, ta’lim jarayonlarida, xususan, geografiya ta’limida elektron axborot ta’lim resurslaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, elektron axborot ta’lim resurslarinig ta’lim jarayonlaridagi o‘rni, ulardan foydalanishning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описывается бурное развитие информационных систем и телекоммуникационных технологий в развитых странах мира, реформы, проводимые в связи с этим в нашей республике, использование электронных информационно-образовательных ресурсов в образовательных процессах, в частности, в географическом образовании. Также даны комментарии о роли электронных информационных образовательных ресурсов в образовательных процессах, важности их использования в повышении эффективности обучения

SUMMARY

This article describes the rapid development of information systems and telecommunication technologies in the developed countries of the world, the reforms carried out in this regard in our republic, the use of electronic information and educational resources in educational processes, in particular, in geography education. There are also comments on the role of electronic information educational resources in educational processes, the importance of their use in increasing educational efficiency.



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA TALABALARGA TEXNIK TIZIMLARNI IYERARXIK O'QITISHNING ILMIY- METODIK TIZIMINI TASHKIL QILISH MODEL

Ergashev N.G'.

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, "Axborot texnologiyalari" kafedrası
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Tayanch so'zlar: raqamli texnologiyalar, texnik tizimlar, iyerarxik o'qitish, ilmiy-metodik tizim, model.

Ключевые слова: цифровые технологии, технические системы, иерархическое обучение, научно-методическая система, модель.

Keywords: digital technology, technical systems, hierarchical teaching, scientific and methodological system, model.

Kirish. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat oliy ta'lim, balki butun ta'lim tizimini to'liq takomillashtirishni talab qiladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat ta'lim jarayonini raqamlashtirishga, balki asosiy ta'lim dasturlariga innovatsiyalarni joriy etishga, shuningdek, ilmiy va ilmiy tadqiqot faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatishi kerakligini tushunish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish, birinchi navbatda, ta'lim jarayonini tashkil etishda (nafaqat oliy ta'limda) raqamli texnologiyalarni joriy etish jamoatchilik va davlat miqyosida qo'llab quvvatlanayotgani tufayli ancha faol rivojlanadi. Ta'limda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi talabalarning axborotni tez o'zlashtirishga xizmat qiladi, o'quv rejalari, tayanch ta'lim dasturlari, o'quv mashg'ulotlari jadvallari va ta'lim jarayonini ta'minlash uchun boshqa materiallarni ishlab chiqishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar sharoitida ta'limni raqamlashtirish o'qitishning muhim omili bo'lib, talabalarning o'qitish va axborot olish usullariga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Ta'limni raqamlashtirish tizimlarini joriy etish oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim muhitini joriy etishning asosiy bosqichi hisoblanadi[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Metodik tizimning klassik tushunchasi A.M.Pishkalo tomonidan kiritilgan quyidagi: maqsadlar, tarkib, metodlar, tashkiliy shakllar va o'qitish vositalarini o'z ichiga olgan besh komponentli tuzilma sifatida tushunishga asoslaniladi.

Shuning bilan birga, barcha komponentlar ta'lim maqsadlarining yetakchi mavqei bilan o'zaro bog'liqligi zaruriy sharti hisoblanadi. Ushbu funksional yondashuvlar N.V.Kuzmina, A.I.Arxangelskiy, Y.S.Branovskiy, M.V.Shvetskiy, N.I.Rijova, I.M.Dudina va boshqa shu kabi yetuk olimlarning tadqiqot ishlarida ma'lum darajada o'rganib chiqilgan. Shuning bilan birga, metodik ta'lim tizimini tashkil etish konsepsiyasini ishlab chiqishda masalan, N.L.Stefanova uning besh komponentli tuzilishini kengaytiradi hamda xuddi shuningdek qo'shimcha komponentni rejalashtirilgan ta'lim natijalarini taklif qiladi.

I.M.Dudina o'z tadqiqot ishlarida metodik tizimni maqsadli, mazmunli, tezkor faol, nazorat tartibga soluvchi va baholovchi samarali to'plami sifatida taklif qiladi. Operatsion va tezkor komponent quyidagilarni: nazorat va tartibga solishda – ta'lim maqsadi va vazifalarining bajarilishini nazorat qilish va talabalarning o'zi o'zini boshqarish, baholash va samarali ta'lim natijalarini baholash va o'zi o'zini baholash, o'quv vazifalarini aks ettirish va tuzatish kabi metodlar, shakllar va vositalarni o'z ichiga oladi .

Mazkur tadqiqot ishimizda bir qator tadqiqotchilar metodik tizim tarkibidagi ta'lim natijalarini e'tiborga olgan holda, ta'lim maqsadlarini uning doirasidan tashqariga olib chiqadigan turli nuqtai nazarlar mavjud ekanligi qayd qilinadi. Masalan, T.A.Boronenko metodik tizimni belgilab, uni ta'lim faoliyatining ajralmas modeli sifatida taqdim etadigan V.V.Krayevskiyning talqiniga amal qiladi, uning tarkibiga o'qitish mazmunini, metodlari, shakllari va o'quv qo'llanmalarini tanlash uchun texnologiyalarni o'z ichiga olgan texnologik blokni kiritish zarur deb ya'ni, o'zaro ta'sirni aniqlash texnologiyalari tizimning barcha elementlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdagi aloqalar hisoblaydi.

Xuddi shuningdek Gotskaya I.B. o'z ilmiy tadqiqot ishlarida metodik tizimni shaxsni o'quv faniga asoslangan o'qitish natijalari uchun ijtimoiy o'ziga xos, korporativ alohida yoki yakka tartibdagi ehtiyojlarga yo'naltirishga asosiy e'tiborni qaratadi. Masalan, I.B.Gotskaya metodik tizim konsepsiyasini ishlab chiqish, uning yo'nalishini aniqlashtirish nuqtai nazaridan, bilim paradigmasi va axborotlashgan jamiyatning zamonaviy sifat mutaxassislariga bo'lgan ta'limning metodik tizimi evolyutsion rivojlanishining hozirgi bosqichida ochiq dinamik ta'lim tizimi sifatida, o'zgarish nuqtai nazaridan uning elementlarining tarkibi, va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ehtiyojlarini qondiradi deb hisoblaydi.

Kelgusida ushbu g'oya metodik tizimning o'zaro bog'liq komponentlarini aniqlaydigan va tarkibiy, protsessual, metodik, texnologik va mezon komponentlarini kiritadigan L.V.Shelexovaning tadqiqot ishlarida ishlab chiqilgan. Ta'limning talaba shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligi

kontekstida G.I.Saransev talabalar yosh o'ziga xos xususiyatlari va shaxsiy maqsadlari bilan bir qatorda mashg'ulot mazmunini har tomonlama ko'rib chiqish muhimligini ta'kidlab o'tadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Elektron ta'lim va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish sharoitida metodik ta'lim tizimlarini, shu jumladan, turli yo'nalishdagi ixtisosliklarda texnik tizimlar kursini iyerarik o'qitishni tashkil etishda davr talablariga muvofiq ravishdagi zamonaviy yondashuvlar rivojlantiriladi. Masalan, raqamli texnologiyalar - bu ma'lumotlarni tezroq va qulayroq uzatish, qayta ishlash va saqlash uchun elektron hisoblash vositalari va dasturiy ta'minotdan foydalanish hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar XXI asrning boshlaridan boshlab kundalik turmushda amaliyotda keng qo'llanila boshlandi. Bu juda ko'p sonli elektron qurilmalar (gadjetlar) paydo bo'lishi, Internet va dasturiy ta'minot bozorining rivojlanishi bilan bog'liq. Ta'limni raqamlashtirish bir necha yo'nalishda amalga oshiriladi:

Hujjat oqimini qog'ozdan elektronga o'tkaziladi. Ta'lim muassasalarini raqamli uskunalar bilan jihozlash - kompyuter auditoriyalari sonini ko'paytirish va ularni takomillashtirish, interfaol doskalarni joylashtirish, yuqori tezlikdagi Internetga ulanadi.

Auditoriyadavao'quv faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, darslar davomida taqdimotlar, elektron testlar, virtual sayohatlar va o'yinlardan foydalanish mumkin.

Ta'lim portallari va aloqa tarmoqlarini yaratiladi. Masofaviy ta'limga qisman yoki to'liq o'tiladi.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarni pedagogik psixologik tadqiqotlarida o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalar va an'anaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga yetarlicha e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, N. P. Goncharuk va YE. I. Xromova «bo'lajak muhandislarni tayyorlash jarayonida raqamli va pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash modellari» maqolasida pedagogik texnologiyalarni axborotlashgan jamiyat sharoitidagi zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashning mumkin bo'lgan metodlarini aniqlab, aralash o'qitishning afzalliklarini ko'rib chiqishda an'anaviy texnologiyalar va onlayn ta'lim metodlarini birlashtirishning metodik jihatlarini ishlab chiqdilar[4].

Tahlil va natijalar.

Ta'limni raqamlashtirishning zamonaviy sharoitida, o'qitish tizimi har bir talabaning har tomonlama shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydigan turli yo'nalishdagi ixtisosliklarda texnik tizimla kursini iyerarxik o'qitishning

samarali tizimga o'tish nuqtai nazaridan yangilanayotganda, metodik o'quv tizimini tashkil etishning nazariy asoslari bilan bir qatorda quyidagilar:

- talabaning shaxsiy maqsadlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish orqali uning shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish;
- ta'lim jarayoni tashkil etishning mantiqiy izchil ketma-ketligini didaktik jihatdan maqsadga muvofiq aniqlash va ta'lim mazmunining o'zgaruvchan tarkibini ilmiy asoslangan holda shakllantirish;
- fanlararo aloqalar va kelgusidagi kasbiy faoliyat kontekstida fanning ta'lim mazmuni va tarkibiy tuzilishining dolzarbligi;
- talabalarning shaxsiy imkoniyatlarini faollashtirish, ta'lim jarayoniga faol jalb qilish va ularning kognitiv motivatsiyasini oshirish orqali uning subyektiv pozitsiyasini ro'yobga chiqarish;
- fan va kasbiy vazifalarni hal qilish jarayonida mustaqil ravishda ta'lim olish o'zi o'zini tarbiyalash, o'zi o'zini tashkil etish va o'zini aks ettirish imkoniyatlarini rivojlantirish;
- shaxsiy ta'lim trayektoriyasini tashkil etish;
- shaxsiy va jamoaviy loyiha faoliyatini ta'minlash;
- zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish qoidalar kiritilishi kerak.

Ta'limni raqamlashtirishning zamonaviy sharoitida, ta'lim tizimi har bir talabaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan samarali tizimga o'tish nuqtai nazaridan davr talablariga muvofiq ravishdagi zamonaviy metodik ta'lim tizimini tashkil etishning nazariy asoslari, shuning bilan birga. yuqorida keltirilgan tahlillar natijasi va asoslar bilan quyidagi:

- turli ixtisosdiktardagi talabalarning shaxsiy maqsadlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini amalga oshirish orqali uning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish;
- ta'lim jarayonini tashkil etishning mantiqiy bog'langan ketma-ketligini didaktik jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash va ta'lim mazmunining muqobil mazmunini ilmiy asoslangan holda shakllantirish;
- fan o'quv mazmuni mazmunining fanlararo o'zaro aloqadorlik va kelgusidagi kasbiy faoliyat kontekstidagi dolzarbligi;
- talabalarning shaxsiy imkoniyatlarini faollashtirish, ta'lim jarayoniga faol jalb etish va talabalarning kognitiv motivatsiyasini oshirish orqali uning subyektiv pozitsiyasini ro'yobga chiqarish;
- fan va kasbiy muammolarni hal qilish jarayonida mustaqil ravishda ta'lim olishni, o'zi o'zini tashkil etish va o'zi o'zini tartibga olish imkoniyatlarini rivojlantirish;

- yakka tartibda ta'lim muhitini tashkil etish;
- alohida va jamoaviy loyiha faoliyatini kiritish;
- zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi holatlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu masalani ko'rib chiqish natijasida mazkur tadqiqot ishimizda shuni qayd qilish mumkinki, metodik tizim konsepsiyasining talqini turli xildir, ammo tadqiqotchilar o'rtasida uni yaxlit, ochiq, dinamik rivojlanayotgan, foydalanish mumkin bo'lgan tizim sifatida loyihalashning muhimligi haqida oliy o'quv yurtlarida davr talablariga muvofiq ravishdagi o'zgarishlar va zamonaviy ta'limning raqamli transformatsiyasi kontekstida operativ modifikatsiya haqida umumiy fikr mavjud.

Raqamli texnologiyalar muhitida turli ixtisoslikdagi talabalarga texnik tizimlarni iyerarxik o'qitishni tashkil etishda mazkur tadqiqot ishimizda A.M.Pishkalo tadqiqot ishlari asosida va T.A.Boronenko, G.I.Saransev va S.I.Osipova tadqiqot ishlarida ishlab chiqilgan holda, mazkur tadqiqot ishimizda raqamli texnologiyalar muhitida turli ixtisoslikdagi talabalarga texnik tizimlarni iyerarxik o'qitishni metodik tizimining muhandislik ta'limi yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan ta'limni raqamlashtirish shartlari modelini taqdim etamiz. Model mazkur tadqiqot ishi maqsadi bilan belgilanadi va uning komponentlari o'rtasidagi funksional bog'lanishlar orqali onlayn va oflayn ta'limni integratsiyalash kontekstida yaxlit ta'lim tizimini yaratish jarayonini aks ettiradi (1-rasm.).

Xulosa va takliflar.

Axbortlashgan jamiyatning barcha jabhalarini raqamli o'zgartirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, tashkilot va korxonalarni rivojlantirish va faoliyat ko'rsatish samaradorligini oshirish, axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash, axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash mamlakatning iqtisodiy barqarorligida muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalari sohasida zarur bo'lgan mutaxassislar soni ko'pligi taxmin qilinmoqda yaqin yillar mobaynida oliy malakali bitiruvchilar soni bir necha barobar ortadi. Raqamli texnologiyalar sohasida innovatsion ishlanmalarni joriy etish, raqamli xizmatlar ko'rsatish va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bo'yicha sektorlarni kengaytirish zarurati axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakali, loyihalashtirish muammolarini hal eta oladigan bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligini aks ettiradi.

Bunday sharoitda ish beruvchilarning oliy o'quv yurti bitiruvchilari uchun talablari doimiy ravishda oshib boradi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari yuqori malakaga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash

sanoat tarmoqlari talablarini tezkorlik bilan aniqlashlari va e'tiborga olishlari zarur.

Shuning bilan birga, standartlarda kasbiy faoliyat umumlashtirilgan mehnat funksiyalari, mehnat funksiyalari, mehnat harakatlari, zarur ko'nikmalar, zarur bilimlar orqali aniqlanadi.

Adabiyotlar:

1. Кларин, М.В. Инновационные модели в зарубежных педагогических поисках / М.В. Кларин. – М.: Арена, 1994. – 365 с.
2. Бендова, Л.В. Педагогическая деятельность тьютора в сети открытого дистанционного профессионального образования : автореф. дис. ... канд. пед. наук / Л.В. Бендова. – М., 2006. – 23 с.
3. Ergashev Nuriddin G'ayratovich. Uzluksiz ta'lim sharoitida muxandislar malakasini oshirishni rivojlantirishning metodik shartlari. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558, Volume 1, Issue 2, July 2022, 54-59 b. www.rnasav.com.
4. Аракелов, А.В. Комплексная инновационная технология профильного обучения в структуре послевузовского педагогического образования : дис. ... канд. пед. наук / А.В. Аракелов. – Краснодар, 2008. – 452 с. : 34 ил.
5. Аршинов, В.И. Философия образования и синергетика: как философия образования может содействовать становлению новой модели образования / В.И. Аршинов // Синергетика и психология. – М.: Когито-Центр, 2004. – 205 с.
6. Аксуюхин, А. А. Информационные технологии в образовании и науке / Аксуюхин А. А., Вицен А. А., Мекшенева Ж. В. Текст: непосредственный // Современные наукоемкие технологии. 2009. № 11. С.50–52.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarga texnik tizimlarni iyerarxik o'qitishning ilmiy-metodik tizimini tashkil qilish modeli keltirilgan. Shuningdek, axborotlashgan jamiyatda avtomatlashtirish va raqamlashtirish tizimlarini joriy etish iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samarali va sifatli ishlarni amalga oshirish zaruriyati hamda bunday ehtiyoj oliy ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning zaruriy sharti ekanligi nazariy asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена модель организации научно-методической системы иерархического обучения студентов техническим системам в условиях цифровых технологий. Также теоретически обосновано, что внедрение систем автоматизации и цифровизации в информационном обществе является необходимостью эффективной и качественной работы в различных отраслях экономики и что такая необходимость является необходимым условием внедрения цифровых технологий в систему высшего образования.

SUMMARY

This article presents a model for organizing a scientific and methodological system of hierarchical teaching of technical systems to students in the context of digital technologies. It is also theorized that the introduction of automation and digitization systems in an informed society is a prerequisite for the implementation of effective and high-quality work in various sectors of the economy, as well as the introduction of digital technologies into the higher education system.

FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA ISHINI PHET DASTURI YORDAMIDA A4 FORMAT METODI ORQALI TUSHUNTIRISH (MAGNIT YORDAMIDA INDUKSION TOK HOSIL QILISH) MAVZU MISOLIDA

Mamatoxunov Yo.A.

Andijon davlat universiteti

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Tayanch so'zlar: metodika pedagogika, metod, innovatsiya, didaktika, informatika, A4 format, virtual, laboratoriya.

Ключевые слова: методология, педагогика, метод, инновации, дидактика, информатика, формата А4, виртуальный, лаборатория.

Keywords: methodology, pedagogy, method, innovation, didactics, informatics, A4 format, virtual, laboratory.

Uzluksiz ta'lim tizimida fizika o'qitishning masadi o'quvchilarga ta'lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirishdan iboratdir. Shu bilan birga fizikaning metodik masalalaridan bo'lib, o'quv kursining mazmunini, tarkibini, dasturini, uni o'qitishga taaluqli darslik, o'quv qo'llanmalar va vositalarni aniqlash va ulardan o'qitish jarayonida samarali foydalanish usullarini topish hisoblanadi.

Fizika o'qitish metodikasining yana bir muhim vazifasi, o'quvchilarni, o'qitiladigan o'quv materialining metodologik asoslari bilan qurollantirishdan iboratdir.

Hozirgacha fizika o'qitishda yetakchi o'rinda turishi kerak bo'lgan fizika o'qitish metodikasi to'g'risida ma'lumot beruvchi asarlar deyarli yo'q. Shuni aytish mumkinki, so'nggi yillarda rivojlanayotgan oliy maktab metodikasi, pedagogikaning mustaqil bo'limi sifatida oxirigacha shakllangani yo'q. ammo oliy maktablarda fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish va rivojlantirishga bag'ishlangan turli darajada o'tayotgan ilmiy metodik konferensiyalar, ilmiy uslubiy jurnallarda nashr qilinayotgan maqolalar, himoya qilinayotgan dissertatsiyalaruning kelajakdagi o'rnini, ahamiyatini va rivojlanishini ko'rsatib berishga xizmat qiladi deb ishonch bilan aytish mumkin.


O'rta maxsus ta'limda ya'ni maktablarda ham har bir o'qituvchi ta'lim berayotgan o'quvchilarining sifatli yaroqli bilim olishini ta'minlash maqsadida, o'zining ustida ko'proq ishlashi, zarurat bo'lsa agar har bir darsi uchun,

yangicha metod qo'llashi, kerak bo'lsa yangicha metod, uslublarni o'zi o'ylab topishi kerak. Ayniqsa hozirgi internetli, virtual zamonda ko'proq kompyuter, telefon, electron doskalardan foydalanib, mavzularni ham, laboratoriyalarni ham internet dasturlaridan foydalanib, o'quvchilarga dars jarayonida ko'rsatib berish kerak.


Induksion tok laboratoriyamizni ham internet tarmoqlari dasturidan foydalanib bemalol o'quvchiga kengroq yoritib, ularning tasavvur, tushunchalarini sezilarli darajada boyitishimiz mumkin.

Induksion tok

Tabiatda shunday tabiiy metal birikmalari mavjudki, ular ba'zi bir jismlarni o'ziga tortish xususiyatiga ega. Jismlarning bunday xossasi ular atrofida maydon mavjudligini bildiradi. Bunday maydonni magnit maydon deb atash qabul qilingan. O'z atrofida magnit maydonni uzoq vaqt davomida yo'qotmaydigan jismlarni doimiy magnit yoki oddiygina magnit deb ataymiz. (1-rasm)




1820-yilda daniyalik olim G.Ersted tokning magnit ta'sirini kashf qilgach ingliz olimi Maykl Faradey magnit maydon orqali elektr tokini hosil qilishni o'ziga maqsad qildi. U bu masala ustida 10 yildan ortiqshlab, 1831-yili uni



ijobiy hal qildi. U g'altak va galvanometrni ketma-ket ulab berk zanjir hosil qildi. G'altak ichiga doimiy magnit kiritilayotganda, galvanometer strelkasining og'ishi kuzatiladi.(2-rasm)

Bunda g'altakda tok hosil bo'ladi. Agar magnitni harakatlantirmay g'altak ichida tinch tutib turilsa galvanometer strelkasi nolni ko'rsatadi, ya'ni g'altakda tokning yo'qolgani kuzatiladi. Magnit g'altak ichidan su'g'urib olinayotganda esa, yana g'altakda tokning hosil bo'lganligini kuzatiladi. Bunda galvanometrstrelkasi teskari tomonga og'adi.(3-rasm)




Agar magnit tinch holatda bo'lib, g'altak harakatga keltirilsa ham shu hodisani kuzatamiz. Demak, g'altakni kesib o'tayotgan magnit oqimi har qanday yo'l bilan o'zgartirilganda g'altakda elektr yurituvchi kuch hosil bo'lar ekan. Simli ramkaning uchlari bir biriga to'g'ridan to'g'ri yoki ularning uchlari bir asbob orqali ulangan bo'lsa, uni berk kontur deb atash mumkin. U holda galvanometruga ulangan g'altak o'zaro ketmaket ulangan berk konturni tashkil qiladi. Magnit maydonning oqimi o'zgarishi tufayli berk konturda elektr tokining hosil bo'lish hodisasini elektromagnit induksiya hodisasi, konturda yuzaga kelgan tok esa induksion tok deb ataladi.





Faraday o'zi amalga oshirgan tajriba natijalarini tahlil qilib, quyidagi xulosaga keldi; induksin tok berk konturda faqat o'tkazgich konturi orqali o'tayotgan magnit induksiya oqimi o'zgarganda yuzaga keladi, ya'ni magnit maydon o'zgarib turgan vaqt davomidagina mavjud bo'ladi.

Bu xulosa ELEKTROMAGNIT INDUKSIYA QONUNINI deb ham yuritiladi.



Adabiyotlar:

1. Fizika va astronomiya o'qitish nazariyasi va metodikasi M.Djorayev, B. Sattarova Toshkent -2017
2. Fizika 8 sinf 2014 P. Xabibullayev A. Boydedayev
3. Fizikadan praktikum (Elektr va magnetizm) J.A. Toshxonova, J. Kamolov Toshkent-2015

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada elektr bo'limining induksion magnit yordamida induksion tok hosil qilish laboratoriyasini PHET kompyuter dasturi orqali A4 format o'quvchilarga hamda talabalarga tushunish uchun, o'qituvchiga esa tushuntirish uchun qulay bo'lgan metod orqali tushuntiriladi.

РЕЗЮМЕ

В этой статье лаборатория генерации индукционного тока с использованием индукционного магнита электрического факультета объясняется с помощью компьютерной программы PHET, предпочтительно в формате A4, чтобы студенты понимали, а учитель объяснял.

SUMMARY

In this article, the induction current generation laboratory using an induction magnet of the electrical department is explained through the PHET computer program prefer in A4 format for students to understand and, for the teacher to explain

TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK MUHANDIS-PEDAGOGLARNI MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Umarov A.V.

Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktranti

Tayanch soʻzlar: model, muhandis-pedagog, axborot, media, texnologiya, multimedia, kompyuter, telekommunikatsiya, texnika, integratsiya.

Ключевые слова: модель, инженер-педагог, информация, медиа, технологии, мультимедиа, компьютер, телекоммуникации, техника, интеграция.

Key words: model, engineer-pedagogue, information, media, technology, multimedia, computer, telecommunication, technique, integration.

Ma'lumki, global miqyosida medianing roli shiddatli ravishda yildan-yilga ortib bormoqda. Media kirib bormagan soha, iqtisodiyot tarmog'i qolmadi. Kundalik hayotni ham mediasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Media haqiqiy ma'noda insonlar orasidagi "vositachi"ga aylanib ulgurdi. Shuningdek, media barcha kasbiy faoliyat turlariga to'laqonli integratsiya bo'lib bormoqda. Modelda ham medianing aynan shu jihatlarni hisobga olgan holda bo'lajak muhandis-pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirishda ikki jihatlari inobatga olindi: medianing kasbiy rivojlanishdagi hamda shaxsiy rivojlanishdagi o'rni.

Media kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi uzviylikka, bir-birini to'ldiruvchi umumiy mazmunga ega. Bu uzviylikni oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan o'quv jarayoni, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda uzviylikni ta'minlash orqali samarali natijaga erishiladi.

"Media" atamasi – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo'llangan. Ilmiy tadqiqotlarda "media" tushunchasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'nodagi "media" tushunchasiga Maklyanning "Mediani tushunish" kitobida ta'riflab o'tgan. Kitobda "media vositalariga birgina axborot texnologiyalari emas, balki elektr nuri, nutq, yozuv, yo'llar, raqamlar, kiyim-kechak, uy-joy, shahar, pul, soatlar, matbaa, komikslar, kitoblar, reklama, g'ildiraklar, transport vositalari (velosiped, mashina, samolyot), avtomatik uskunalar, fotosuratlar, o'yinlar, matbuot, telegraf, yozuv mashinasi, telefon, fonograf, kino, radio, televizor, qurol-yarog va boshqa ko'p narsalar"ni keltirib o'tgan.



1-rasm. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak muhandis-pedagoglarni mediamadaniyatini rivojlantirish modeli.

Tadqiqot ishi doirasida “Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo’ljak muhandis-pedagoglarni mediamadaniyatini rivojlantirish” modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang). Modelning maqsadi hozirgi jamiyatda raqamlashtirish,

ta'limni zamonaviy innovatsion mediatexnologiyalar vositasida rivojlanib borishi natijasida talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat. Modelning maqsadi sifatida bo'lajak muhandis-pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirish, mediamadaniyat mazmunini kasbiy-pedagogik faoliyat mazmuniga singdirilishi hamda o'quv jarayoni, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat hamda mustaqil ta'lim sharoitida talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish amaliy texnologiyalarini rivojlantirish belgilangan.

Bo'lajak muhandis-pedagoglarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash media, mediatexnologiyalar, mediata'lim bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Bu jihatlar davlat ta'lim standartlari mazmunida ham o'z ifodasi topgan. Bo'lajak muhandis-pedagoglar kasbiy-pedagogik faoliyati doirasida media, mediamanbalar, media vositalardan ta'lim natijalariga erishish uchun didaktik vosita sifatida qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Har bir media vositasining didaktik imkoniyatlari hamda ulardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini bilishi hamda faoliyati doirasida maqsadl foydalana olishi lozim bo'ladi.

Mediata'limning imkoniyatlari va uni pedagogik amaliyotga tadbiiq etish zarurati ortib bormoqda. Fanning mazmuni, mashg'ulot turi, shaklidan kelib chiqqan holda media ta'limning funktsional imkoniyatlaridan foydalana olish bo'lajak muhandis-pedagoglarning kasbiy kompetentligining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bo'lajak muhandis-pedagoglar kasbiy-pedagogik faoliyati doirasida ta'lim oluvchilarning mediamadaniyatini rivojlantirishda uning mazmuni, mohiyati hamda amaliy texnologiyalarini bilishi kerak.

Mediadan, media manbalardan, media vositalardan o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy mas'uliyatni his etgan holda foydalanish talabalardan bilim, ijtimoiy tajriba, tahliliy fikarlashni taqozo etadi. Ta'lim-tarbiya, dam olish, hordiq chiqarish, ijtimoiy muloqotda mediadan foydalanishda **ijtimoiy me'yorlarni** bilishi, amal qilishi shaxsda mediamadaniyatning rivojlanganligi ko'rsatkichlaridan biridir. Medianing shaxsiy rivojlanishidagi o'rni sifatida o'z shaxsiy qobiliyati va istedodini rivojlantirishdagi vosita ekanligini keltirish mumkin.

Modelda belgilab olingan maqsad mediamadaniyatni ilmiy-pedagogik tadqiqi asosida shakllantirilgan tarkibiy qismlarini belgilab berdi. Mediamadaniyat quyidagi muhim tarkibiy qismlarga ajratiladi: mediasavodxonlik, mediakompetentlik, mediaetika va media muhit.

Ilmiy-pedagogik tahlillar natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish mexanizmi yo'lga qo'yilishi

uning samaradorligi, ta'sirchanligi va natijadorligini ta'minlaydi. Albatta, bunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirishning texnik-tashkiliy jihatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tuzulmaviy jihatdan oliy ta'lim muassasalarining quyidagi bo'limlari bevosita va bilvosita mediamadaniyatni rivojlantirishga doir funksional vazifalari mavjud:

- ma'naviyat va ma'rifat bo'limi;
- axborot-resurs markazi;
- mediamarkaz;
- matbuot xizmati;
- talabalar uyushmalari.

Shuningdek, har bir oliy ta'lim muassasalarida media-didaktik materiallar tayyorlash uchun yetarli moddiy-texnik baza shakllantiriladi. Ma'lumotlar xavfsizligi, kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun ham vazifalar ma'lum bo'limlarga taqsimlanadi. Oliy ta'lim muassasalarida mediatexnologiyalarning o'quv jarayoniga yetarli darajada integratsiyalashganligi, mediatexnologiyalar talabalarining faol ta'lim olishiga texnik va tashkiliy jihatdan yetarlik tadbir etilganligi, mediamanbalar va texnologiyalardan foydalanishda differentsial ta'lim olish imkoniyati, mediamanbalar va texnologiyalardan foydalanish va takomillashtirishga doir muntazam fikr almashinuvining yo'lga qo'yilganligi, mediatexnologiyalar vositasida hamkorlikda ta'lim olish hamda ta'limning yakunigicha "ekspert" darajasiga erishish imkoniyatlari OTMning texnik-tashkiliy jihatlari indikatorlari sifatida tavsif etiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda yuksak insoniy fazilatlarini rivojlantirish ham asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Talabalarda mediamadaniyatni rivojlanganligi nuqtai nazaridan ham ular jamiyatda boshqalarga o'rnak bo'la oladigan darajada bo'lishi uchun OTM da tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat mazmuniga singdirilishi lozim. Jumladan, hozirda medianing salbiy jihatlari bilishi, ulardan himoyalashning amaliy chora-tadbirlari xususida ijtimoiy tajribaga ega bo'lishi lozim.

Bo'lajak muhandis-pedagog sifatida media, mediatexnologiya, mediata'lim xususidagi ilmiy maqolalarni tahlil qila olishi va pedagogik faoliyatiga tadbir etish darajasida bilim va malakaga ega bo'lish kerak. Shuningdek, talabalarining mediakompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan turli kurslar, jumladan onlayn kurslar mavjud. Bu kurslar mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan muammolar va ularning yechimlariga bag'ishlangan. OTMda ham bunday kurslarni tashkillashtirish ta'sirchan ahamiyatga ega.

OTMda mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarning tashkil etilishi ham talabalarining media bilan bog'liq ijtimoiy, tibbiy, axloqiy

masalalarga e'tiborini qaratishda samarali vosita hisoblanadi. Tyutorlar tomonidan talabalarning media bilan bogliq bilim, ko'nikma va malakalarini refleksiv baholashiga qaratilgan mashg'ulotlar, tadbirlar, darslar ham ularda mediamadaniyatning muhim tarkibiy qismi, "feedback madaniyati"ni o'zlashtirishiga yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida shuningdek quyidagilar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar. Bu loyihalar talabalarning ilmiy hamda media savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar yakka tartibda yoki guruh shaklida biror ilmiy mavzuda maqsadli, guruhga mos ravishda media vositalar yordamida mediamahsulot shakllantiradilar. Bu mahsulot videomaterial, televideniya da biror ko'rsatuv yoki gazetada maqola bo'lishi mumkin. Mavzu o'z mutaxassisligidan kelib chiqqan holda, shuningdek aynan shu mavzuning ijtimoiy ahamiyati yortilishi keng jamoatchilikni e'tiborini tortishi mumkin bo'ladi. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalarning tayyorgarlik bosqichi media loyihaning g'oyasini shakllantirish, loyihaning samaradorligini oldindan baholash maxsus bilim va ko'nikma talab etadi. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar ma'naviy-ma'rifiy faoliyat doirasida amalga oshiriladi.

2. Media-Workshop. Bu talabalarning media madaniyati, media savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan workshop bo'lib, bu talabalarning talablaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir mavzuda muntazam ravishda tashkil etib boriladi. Media-workshopda talabalarning talablarini o'rganish muhim hisoblanadi. Bunday workshoplar axborot-resurs markazi tomonidan tashkil etiladi.

3. Media haftalik. Bunday haftaliklar oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun hafta davomida foyelarda, ma'naviyat xonalari hamda axborot-resurs markazida tashkil etiladi. Bundan maqsad zamonaviy media manbalar, mediatexnologiyalarni tanishtirish, talabalarni hafta davomida media savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirishdan iborat. Oliy ta'lim muassasalarida media haftaliklarda axborot texnologiyalari, virtual texnologiyalar bilan birgalikda mediatexnologiyalar imkoniyatlarini namoyish etish va bu orqali talabalarning qiziqishlarini oshirishni maqsad qiladi. Bu haftalik davomida kichik filmlar va videoroliklar orqali talabalarga nazariy materiallarni ilustratsiyalash, muammolarni yechish va ilmiy tadqiqot hamda loyihalar haqida xabar berish, talabalarni sifatli media mahsulotlari ishlab chiqish, maqolalar yozish, fotosuratlar va videolarni tayyorlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ko'plab ijtimoiy media platformalardan maqsadli foydalanish,

qo'llanma va elektron kutubxonalar haqida ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

4. Media burchak. Oliy ta'lim muassasasining talabalar gavjum joylarida media burchaklarni tashkil etish talabalarning muntazam ravishda media sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lishiga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasasida media burchakning maqsadi – talabalarda shaxsiy rivojlanish, mustaqil ravishda o'z ustida ishlashi uchun media vositasida qiziqishlarni rivojlantirishdan iborat. Bu burchak talabalarning media asoslarini o'rganish, media tajribasini oshirish, ta'lim jarayonlarini media-didaktik imkoniyatini ko'rsatish, tahlil qilish va o'z fikrini boshqalarga taqdim qilish imkonini beradi.

Media burchagining orqali talabalar uchun afzalliklari quyidagilardan iborat:

- medianing asosiy qonuniyatlari va texnikalarini o'rganish;
- maqolalar va yangiliklarni yozish, ishlov berish hamda taqdim etishni o'rganish;
- jamiyat, iqtisodiyot, texnika, texnologiya sohasidagi eng so'nggi yangiliklar bilan tanishish.

Media burchaklar talabalarga turli tadbir va konferensiyalar, forumlar, simpoziumlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etadi.

5. Mediatanlovlar. Oliy ta'lim muassasasi talabalarida bo'lajak kasbiy faoliyatiga qo'shimcha ravishda mediabloglar, mediajurnalistika, mediadidaktika, mediaxavfsizlik, mediaetikaga doir tanlovlar o'tkazish orqali ularda media sohasidagi yangi bilimlarni oshirish uchun imkoniyat hamda mustaqil ta'lim sharoitida o'z qiziqishlarini rivojlantirayotganini qo'llab-quvvatlash uchun media tanlovlar katta ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasalarida media tanlovlari o'tkazishning maqsadlari quyidagilar:

- talabalarning ijtimoiy media tajribasini oshirish; talabalarning kreativ va taqdimot qobiliyatini rivojlantirish;
- talabalarning mediamahsulotarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Mediatanlovlarning maqsadi – obyektiv va keng qamrovli axborotni tarqatish va jamoat bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish maqsadida tashkil etiladi. Shuningdek, talabalarning qiziqishlarini aniqlashtirish uchun samarali imkoniyat yaratib beradi. Bunday tanlovlarda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarga oid mavzularni ajratish, ijtimoiy muhitda g'oyani o'rgatish va qo'shimcha mavzulardan suhbatlashish imkonini berish mumkin.

6. Ijtimoiy media loyihalar. Ijtimoiy media loyihalar talabalarda jamiyat hayotida ijtimoiy faollik hamda mas'uliyatlilikni rivojlantirishga yo'nalgan

bo'ladi. Bu loyihalar media vositasida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihani amalga oshirishni maqsad qiladi. Loyiha g'oyasi asosan ijtimoiy mavzuni media vositasida rivojlantirish, shakllantirish va tarqatish, natijada ijtimoiy mavzuga keng jamiatchilik e'tiborini qaratishni maqsad qiladi.

Ijtimoiy media loyihalari talabalarning televideniye dasturlari, radiolar, internet portallari, ijtimoiy tarmoq saytlari, ijtimoiy tarmoqdan foydalanadigan mobil ilovalar, YouTube kanallari, bloglar va boshqa media vositalardan unumli va maqsadli foydalanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar media madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatni uch guruhga ajratish mumkin

- mediamadaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan integrativ faoliyat;
- talabalarning media-didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat;
- mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan kreativ faoliyat.

Modelning yana bir tarkibiy qismi "Mediamadaniyatni rivojlanish ko'rsatkichlari" deb nomlanadi. Bu ko'rsatkichlar bo'lajak muhandis-pedagoglarda mediamadaniyatni rivojlanganlik ko'rsatkichlari va ularning mazmunini belgilab beradi. Shartli ravishda mazkur ko'rsatkichlarni 5 ta darajaga bo'lindi:

1. Mediabilimdonlik – media sohasidagi bilimlarni dastlabki shakllantirish bosqichi bo'lib, bunda talabalar media haqidagi klassik axborot va innovatsion yangiliklarni bilishini qamrab oladi. Bu ko'rsatkich taqqoslash, manbalar tahlili, axborotni obyektiv va subyektiv baholash, axborotni ilmiy baholash kabilarni qamrab oladi. Bu ko'rsatkich talabalarni analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlashni, kommunikativlikni rivojlantirilganligini belgilab beradi.

2. Mediaiste'molchilik – axborotlashgan jamiyatda axborotni "iste'mol qilish" va bunda axborotning aniqligi, xolisligi, ishonchliligi va manbalarga asoslanganligi nazarda tutiladi. Mediadan repsektiv foydalanishda media sohasida qobiliyat va ko'nikmalarni shakllantiradi.

3. Mediatanqid – media, mediamanbalar, media resurslarni asosli tanqid qilish va qiyosiy tahlil qilish ko'nikmasini tavsiflaydi. Bu talabalarning kognitiv faolligini, tanqidiy va ijodiy fikrlashni, kommunikativligini hamda refleksiyaning rivojlantiradi.

4. Mediaraqobat – media sohasidagi takliflar o'rtasidagi sof raqobat muhitini anglash va asosli mediamanbalarga tayongan holda ustuborlik belgilash ko'nikmasi. Raqobat media vositalari, resurslari o'rtasida emas, balki "iste'molchilar" o'rtasida ham bujudga keladi. Har bir shaxsning ma'lum bir

mediadan foydalanish yoki foydalanmaslik qarori uning to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasi bilan asoslanadi.

5. Mediakreativlik – medialar vositasida kreativ g'oyalarni, loyihalarni amalga oshirish. Media ta'lim vositalaridan yuqori natijaga erishish uchun kreativ usullardan foydalana olishi mediakreativlikni tavsiflaydi. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida ta'limning barcha innovatsion media texnologiyalaridan unumli va maqsadli foydalan oladi hamda o'z kreativ qobiliyati asosida yangi adaptiv metodlarni shakllantiradi. Mazkur darajalarning umumlashmasi mediamadaniyatni rivojlanganligini ko'rsatib beradi.

Quyida tadqiqot ishi doirasida taklif etilgan oliy ta'lim muassasalari tyutorlari tomonidan talabalar guruhlarida mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlari keltirib o'tiladi:

1-jadval

Mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlari

FAOLIYAT TURLARI	MAZMUNI
Mediamadaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan kurslar	Mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan kurslar real viziya bilan bog'liq mavzularga doir kurslarni tashkil etish. Oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan bunday kurslar talabalarning dolzarb mavzularni baholash, o'z munosabatlarini shakllantirish, tanqidiy baholash hamda mas'uliyatli yondashuvni professional darajada yetkazishga xizmat qiladi. Bunday kurslarning afzalligi talabalarda norasmiy shakllangan mediamadaniyat mazmunini mutaxassis ishtirokida yana bir bir mustahkam fikr sifatida shakllantirish yoki o'z fikrini o'zgartirishga yordam beradi.
Media etika	Talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirish mediaga doir qadriyatlar, me'yorlar va etikasiga doir tamoyillarni bilish talab etiladi. Talabaning mediamadaniyati ongli ravishda shaxsiy hamda jamiyat uchun ta'sirini anglashi media etikasini egallagani bilan bog'liq.
Medialarni tahlil qilish va mediatanqid	Talabalarda media mazmunni tanqidiy tahlil qilish, tahlil qilish va savollar shakllantirish, shuningdek mazmunini takomillashtirishda manipulyatsiya texnikalari qo'llanilganligini aniqlash olish qobiliyatini shakllantirishda mazkur metod qo'l keladi.

Refleksiya va muzokara	Talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirishda refleksiya va muzokara uchun imkoniyat yaratish eng samarali usullardan hisoblanadi. Bu orqali talabalar ma’lum bir mavzuga doir mediamateriallarni turli qarashlarda tahlil qiladilar va o’z munosabatlarini bildirishni mashq qiladilar. Bu orqali talabalar mediamaterial mazmunini interpretatsiya qilishni va ularni tanqidiy baholashni o’rganadilar.
Medialoyiha va kreativ media faoliyat	Talabalarning medialoyihalar shakllantirishi va kreativ media faoliyatini qo’llab-quvvatlash. Bu orqali talabalar medianing mazmuni shakllantirish hamda o’zlarining kreativ fikrlashini rivojlantirishga erishadi. Bu ularning mediakompetentligini rivojlantiradi.
Ishtirok etish va ommaviy axborot vositalarida faollikni oshirish	Talabalarning media bilan bog’liq faoliyat yoki loyihalarga jalb etish har doim samarali bo’lib, bu orqali ular o’z fikrlarini erkin bildira olish, fikr-mulohaza bildira olishi hamda o’zining medialar vositasida ta’sir kuchini baholash bo’yicha ijtimoiy tajribalarga ega bo’ladilar.
Ommaviy axborot vositalarini tartibga solish va ma’lumotlarni himoya qilish	Talabalarga media iste’molchilikning huquqiy aspektlariga (ma’lumotlar xavfsizligi, mualliflik huquqi, onlayn xavfsizlik, raqamli texnologiyalardan foydalanishda mas’uliyatli munosabat) doir amaliy seminarlar tashkil etish.

Olim B.Boylesning mulohazalarini tahlil qilgan holda virtual olamning asosiy konstruksiyasini axborot tashkil etishiga ishonch hosil qilinadi. Aynan axborotga ega bo’lishlilik virtual borliqqa bo’lgan qiziqish, ehtiyojni shakllantiradi. Axborot deganda atrof-muhitdan (tabiatdan yoki jamiyatdan), sezgi a’zolari orqali qabul qilib, anglab oladigan har qanday ma’lumot tushuniladi. Axborotlar tabiatni kuzata turib, insonlar bilan muloqotda bo’lib, kitob va gazetalar o’qib, televizion ko’rsatuvlar ko’rib shakllanadi.

Axborotlar beshta muhim hossaga ega:

- axborotni yaratish;
- qabul qilish;
- saqlash;
- ishlov berish;
- uzatish xossalaridir.

Talabalarda mediamadaniyat rivojlanganligi ularning “axborot iste’molchisi” sifatida shakllantiradi. Talabalarning axborotdan foydalanish samaradorligi va imkoniyati quyidagi sifat ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- axborotning representativligi;
- mazmundorligi;
- yetarliligi;
- dolzarbligi;
- o‘z vaqtidaligi;
- aniqligi;
- ishonarliligi;
- barqarorligi.

Axborotning sifat ko‘rsatkichlari talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirishda tayanch tushunchalarni shakllanishiga asos bo‘ladi.

Muhandis-pedagoglar ikki mustaqil faoliyatning integratsiyalshuvi asosida shakllantirilgan bo‘lib, texnika va texnologiya sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi muhandis hamda kasb-hunar kollejlarda faoliyat ko‘rsatuvchi pedagoglar faoliyati aynan muhandis-pedagog faoliyatida mujassamlashadi.

Muhandis-pedagoglar asosiy faoliyatining mazmuni ham fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot hamda jamiyat ijtimoiy hayotidagi jarayonlarni kichik va o‘rta mutaxassislarni tayyorlash mazmuniga pedagogik yondoshib, ularga mutaxassislik bilimlarini yetkazishni maqsad qiladi.

Yosh jihatidan 15-25 yoshdagi yoshlar bilan ishlashi va bu yoshdagi ta’lim oluvchilarning axborot texnologiyalari, medialar bo‘yicha yetarli bilim, tushuncha hamda malakalarga ega ekanligini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etishda mediadan foydalanish ko‘p jihatlarni hisobga olishni taqozo etadi. Jumladan, ta’lim oluvchilarning yosh va fiziologik rivojlanishini hisobga olgan holda media vositalar tanlash, qo‘llash lozim bo‘ladi.

Tadqiqot ishi doirasida bir qator mualliflik variativ amaliy texnologiyalar shakllantirildi:

1. “Mediadidaktik soddalashtirish” texnologiyasi. Ma’lumki, media-ma’lumotlar jamiyatda keng jamoatchilikka, ko‘plab maqsadli guruhlar uchun shakllantiriladi. Bo‘lajak muhandis-pedagoglar keng jamoatchilik uchun shakllantirilgan media ma’lumotlarni o‘quv guruhlari, ta’lim yo‘nalishlari hamda o‘quv-me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan talablarni hisobga olgan holda didaktik material ishlab chiqadi. Talabalar rasmiy media manbalardan o‘quv mavzusiga mos keluvchi media ma’lumotlarni tadqiq qiladi va o‘quv maqsadiga muvofiq mediadidaktik soddalashtirish orqali didaktik material ishlab chiqadi. 2-ildovada “Yangi O‘zbekiston” elektron gazetasida keltirilgan

“Korxonalar tomonidan 780,27 tonna sanoat chiqindilari sotildi” maqolasi keltirilgan. Talabalar maqolani to‘liq o‘rganib chiqib, quyidagi bosqichlarni amalga oshirgan holda mediadidaktik soddalashtirish vositasida didaktik material shakllantiradilar:

Texnologiya nomi: Mediadidaktik soddalashtirish

Topshiriq uchun mediamanba: <https://yuz.uz/uz/news/korxonalar-tomonidan-78027-tonna-sanoat-chiqindilari-sotildi?view=ozbekiston-biznes-doiralari-innovatsion-rivojlanish-yolida>

Maqola rasmiy manbada keltirilganmi? Ma'lumotlar yangi va dolzarbmi?
Muallif kim?

Medima'lumot o'quv mavzusiga to'liq yoki ma'lum bir qismi uchun foydalimi?
Ta'lim oluvchilarning yosh va rivojlanishiga mos keluvchi ma'lumotlarni ajrating.

Berilgan ilmiy, texnikaviy ma'lumotlarni ta'lim oluvchilarga moslab soddalashtiring. Ma'lumotlarni tanlab olishda ta'lim oluvchilarning mazkur ma'lumotni tushunishi uchun zaruriy dastlabki ma'lumotlar shakllanganmi?
Ta'lim oluvchilar tomonidan mazkur mediamalumotni o'qish natijasida hosil bo'ladigan savollarni taxmin qiling.

Tanlab olingan ma'lumotlarga mos ravishda grafika, jadval, slaydlardan foydalaning.

Tadqiqot ishi doirasida mazkur texnologiya tajriba-sinov obyektlarida qo'llanildi. Texnologiyaning samaradorligi quyidagi baholash mezonlari asosida baholandi:

№	BAHOLASH MEZONLARI	Samaradorligi, % da
1	Texnologiya kasbiy-pedagogik faoliyatimda qo'llash uchun mazmunan qo'l keladi	82
2	Texnologiyadan foydalanish mediamadaniyatni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoit yaratadi	86
3	Texnologiya fan mazmunini didaktik jihatdan maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladi	80
4	Texnologiya mediamanbalardan foydalanish, taqqoslash hamda ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda foydalanishni ta'minlaydi	84

2. “Mediatanqid” texnologiyasi. Talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirishda ularning mediamalumotlarni tanqidiy baholay olishi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kundagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish

bo'lajak muhandis-pedagoglardan bilim, ko'nikma va tajribalar kerakligini taqozo etadi.

Quyida topshiriq misolida mazkur texnologiya mazmuni keltirib o'tamiz.

Topshiriq. Ijtimoiy tarmoqlarda bildirilgan izohlarni tanqidiy baholang hamda o'quvchilar uchun kamida 250-300 ta so'zdan iborat xulosa shakllantiring. Xulosa shakllantirishda uning ta'sirchanligi, tushunarligi hamda bayon qilish uslubiga e'tibor qarating.

Tadqiqot ishi doirasida mazkur texnologiyadan foydalanildi. Talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlar natijasida shakllantirilgan xulosalardan namuna quyida keltirilgan:

Internet xuddi virtual durbinga o'xshaydi. U orqali dunyoning boshqa burchagini bemalol ko'ramiz. Deylik, hozirning o'zidayoq qaysidir nuqtadagi qandaydir kichik millatning hayot tarzi va madaniyati bilan tanishish mumkin. Xuddi shunday biz ham boshqa xalqlarning "tasvir obyekti" bo'la olamiz. O'ylab ko'ring, xalqimizning ma'naviyati va saviyasi borasida o'zgalarda qanday taassurot qoldira olamiz?!

Umuman, ma'naviyatimiz va saviyamiz haqida uzoq gapirish mumkin. Masalaga qaysi tomondan kelish haqida uzoq o'yladik va tahlil obyekti sifatida ijtimoiy tarmoqlarni ya'ni, YouTube platformasi va Instagram tarmog'ini tanladik. Ayni damda bu platformalardagi noodatiy va saviyasiz izohlarni tasniflashga harakat qilamiz.

Men birinchiman... Men esa ikkinchi...

Sahifaga video yoki post yuklanishi bilan birinchilardan izoh yozishga qiziqadiganlar bor. Yetmaganiga ular qoyilmaqom ishni bajargandek men birinchiman, men ikkinchiman deb maqtanishni ham o'zlariga ep ko'rishadi. Tabiiyki, bu izohlar muallifga hech qanday manfaat keltirmaydi, faqatgina ayrim yurtdoshlarimiz oldida kulgiga qoladi.

Hammasi layk uchun...

Ijtimoiy tarmoqlardagi yirik tendensiyalardan biri "layk"lar ortidan quvishdir.

Aynan "layk"ni maqsad qilgan internet foydalanuvchilari turli mazmundagi izohlardan foydalanishadi:

Iltimos, meng layk bosing;

Ota-onasini hajga olib boraman deganlar layk bossin;

Ota-onamni yaxshi ko'raman deganlar layk bosing, qani, necha kishi ekanmiz;

Layk bosgan odamning puli ko'payib ketsin...

Izoh uchun bosilgan "layk" sahifa egasiga deyarli manfaat keltirmaydi. Bu odat shunchaki bemaqsadlik va yuzaki fikrlash orqali paydo bo'lgan.

Mazkur texnologiya ma'naviy-ma'rifiy faoliyat doirasida qo'llash maqsadga muvofiq. Texnologiyaning samaradorligi quyidagi baholash mezonlari asosida quyidagicha baholandi:

№	BAHOLASH MEZONLARI	Samaradorligi, % da
1	Texnologiya kasbiy-pedagogik faoliyatimda qo'llash uchun mazmunan qo'l keladi	84
2	Texnologiyadan foydalanish mediamadaniyatni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoit yaratadi	88
3	Texnologiya fan mazmunini didaktik jihatdan maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladi	86
4	Texnologiya mediamanbalardan foydalanish, taqqoslash hamda ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda foydalanishni ta'minlaydi	90

3. “Mediamahsulot” ishlab chiqish. Bo'lajak muhandis-pedagoglarning kasbiy-pedagogik faoliyati mazmunidan kelib chiqqan holda media texnologiyalardan foydalangan holda mediamahsulot ishlab chiqish hozirgi kunda pedagogik amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Media texnologiyalar hamda dasturiy ta'minotdan samarali foydalangan holda mediamahsulot ishlab chiqish pedagogik dastur asosida shakllanadi. Quyida mediamahsulot uchun pedagogik dasturga doir topshiriq keltirilgan:

Kasb-hunar kollejining “Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish” mutaxassisligi o'quvchilari uchun “Avtomobillar tuzulishi” fanidan “Sovutish tizimi” mavzusiga doir mediamahsulot pedagogik dasturini ishlab chiqing. Pedagogik dasturda quyidagilarga e'tibor bering.

1. Mediamahsulot ishlab chiqishda kamida 1ta mediamanbadan foydalaning
2. Mediamahsulotni dars mavzusi hamda dars bosqichlari nuqtai nazaridan loyihalang
3. Mavjud bo'lgan mediakontentlardan foydalaning hamda foydalanilgan manbalarni ko'rsating.

Quyidagi manbada mediamahsulot namunasi keltirilgan. <https://www.youtube.com/watch?v=A1GTvV3HG7w>

Tadqiqot ishi doirasida mazkur texnologiya tajriba-sinov obyektlarida qo'llanildi. Texnologiyaning samaradorligi quyidagi baholash mezonlari asosida quyidagicha baholandi:

№	BAHOLASH MEZONLARI	Samaradorligi, % da
1	Texnologiya kasbiy-pedagogik faoliyatimda qo'llash uchun mazmunan qo'l keladi	86

2	Texnologiyadan foydalanish mediamadaniyatni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoit yaratadi	88
3	Texnologiya fan mazmunini didaktik jihatdan maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladi	90
4	Texnologiya mediamanbalardan foydalanish, taqqoslash hamda ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda foydalanishni ta'minlaydi	78

Yuqorida keltirilgan jadvallar tadqiqot ishi doirasida tanlangan mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan amaliy texnologiyalar samarador ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, medianing shaxsiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati bevosita kasbiy rivojlanish uchun asos vazifasini bajaradi hamda bir-biri bilan mazmunan uzviy aloqadorlikka ega. Globallashuv jarayonlarini har bir jamiyat a'zosining shaxsiy rivojlanishiga axborot nuqtai nazaridan ta'siri katta va kuchli bo'lib bormoqda. Talabalarning axborot manbalarini baholash, ulardan foydalanish, axborotni tarqatishda xolislik, aniqlik, mas'uliyatlilik, xalollik kabi tamoyillarga asoslanganligini tahlil qila olishi – ulardagi media bilimdonlik rivojlanganligini belgilab beradi.

Adabiyotlar:

1. Уматалиев З. Медиахавфсизлик ёшларимиз келажакнинг пойдевори сифатида. “Илмий-педагогик ва ўқув-методик нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция тўплами. – Т.: 2017. – 223 б.
2. Понимание медиа. М.: Жуковский, 2003.
3. UNESCO, 1984. Media education. Paris: UNESCO. – R. 8.
4. Worsnop, С.М. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy. – 60-г.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo'lajak muhandis-pedagoglarni kabi-pedagogik faoliyatga tayyorlashda media, mediatexnologiyalar, mediata'lim bilan bog'liq ravishda ta'limni axborotlashtirishning roli, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy pedagogik maqsadlari, shuningdek bo'lajak muhandis-pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirish modeli xususida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены роль медиа, медиатехнологий, медиаобразования в подготовке будущих инженеров-педагогов к профессиональной и педагогической деятельности, основные педагогические цели использования современных информационных технологий, а также модель развития медиакультуры будущего. инженеров-педагогов.

SUMMARY

In this article, the role of media, media technologies, media education in the preparation of future engineers-pedagogues for professional and pedagogical activities, the main pedagogical goals of using modern information technologies, as well as the model of development of media culture of future engineers-pedagogues is considered.

BIR O‘ZGARUVCHILI KO‘PHADLAR

Maxmudov F.

O‘zMU Matematika fakulteti talabasi, xalqaro olimpiadalar g‘olibi

Tayanch so‘zlar: birhad, ko‘phad, daraja, ildiz, koeffitsiyent.

Ключевые слова: одночлен, многочлен, степень, корень, коэффициент.

Key words: monomial, polynomial, degree, root, coefficient.

Hozirgi kunda fan olimpiadalariga bo‘lgan qiziqish va e‘tibor kundan kunga orib bormoqda. Ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.05.2019 yildagi PQ-4306-sonli iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4306-sonli qaroridan so‘ng olimpiada tizimiga bo‘lgan e‘tibor keskin oshdi. Ushbu maqolada olimpiadalarda ko‘p uchraydigan mavzulardan biri hisoblangan ko‘phadlar mavzusi yoritilgan. Shu orqali bu maqola maktab va akademik litsey o‘quvchilariga matematika fanidan respublika va jahon miqyosidagi olimpiadalarga tayyorgarlikning muhim bir qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Daslab mavzuga doir sodda tushunchalarni kiritib olamiz.

aX^n ko‘rinishdagi hadga **birhad** deyiladi. Bunda, a o‘zgarmas koeffitsiyent, n esa nomanfiy butun son.

Chekli ta bir xil o‘zgaruvchili birhadlar yig‘indisi **ko‘phad** deb ataladi:

$$P(x) = a_n x^n + a_{n-1} x^{n-1} + \dots + a_1 x + a_0 \quad (1)$$

Bunda a_0, a_1, \dots, a_n lar koeffitsiyentlar, koeffitsiyentlar qaysi to‘plamdan olinganiga ko‘ra belgilash kiritilgan, masalan barcha koeffitsiyentlar A to‘plamdan olingan bo‘lsa, $A[x]$ kabi belgilanadi.

Umumiylikka zarar yetkazmagan holda, (1) dagi eng yuqori daraja oldigagi koeffitsiyentni noldan farqli deb olamiz, agar nol bo‘lsa bu hadni o‘chirib yuborishimiz mumkin. Ko‘phadda qatnashgan eng yuqori daraja, bu ko‘phadning darajasi deyiladi va quyidagicha belgilanadi:

$$\deg(P) = n$$

O‘zgarmas sondan iborat ko‘phadning darajasi 0. Aynan 0 ga teng bo‘lgan ko‘phadning darajasi cheksiz deb qaraladi.

Teorema 1. Agar A va B ko‘phadlar aynan 0 ga teng bo‘lmagan ko‘phadlar bo‘lsa, quyidagilar o‘rinli:

- (a) $\deg(A \pm B) \leq \max(\deg A, \deg B)$
- (b) $\deg(A \cdot B) = \deg(A) + \deg(B)$

Ushbu ko‘phadning darajasiga oid xossalar ravshan.

Teorema 2. Agar A va R ko‘phadlar berilgan bo‘lsa, shunday yagona Q (bo‘linma) va R (qoldiq) ko‘phadlar mavjudki, ular uchun quyidagi tenglik o‘rinli:

$$A = BQ + R \text{ va } \deg(R) < \deg(B)$$



Isbot. $A(x) = a_n x^n + \dots + a_0$ va $B(x) = b_m x^m + \dots + b_0$ kabi bo'lsin, bunda $a_n b_m \neq 0$.

k ni o'zgarmas deylik, n bo'yicha induksiyadan foydalanamiz. $n < k$ bo'lgan holda tushunarli. $n = N \geq k$ bo'lsin va ushbu teorema $n < N$ da o'rinli bo'lsin deb faraz qilamiz.

U holda $A_1(x) = A(x) - \frac{a_n}{b_m} B(x)$ ko'phadni qarasaq, uning koeffitsiyenti n dan kichik,

ya'ni x^n ning oldidagi koeffitsiyent n'ga teng. Induksiya faraziga ko'ra shunday yagona Q_1 va R ko'phadlar mavjudki,

$$A_1 = BQ_1 + R \text{ va } \deg(R) < \deg(B)$$

Bu tenglikdan kelib chiqadiki, $Q(x) = \frac{a_n}{b_m} x^{n-m} + Q_1(x)$ ko'rinishda aniqlanadigan

yagona Q va R uchun, $A = BQ + R$. ■

Bu holatda R (qoldiq) ko'phad aynan nolga teng bo'lsa, A ko'phad B ko'phadga bo'linadi deyiladi.

Teorema 3. (Bezu) Agar $P(x)$ ko'phad $x - a$ ga faqat va faqat $P(a) = 0$ bo'lganda bo'linadi.

Isbot. Yuqoridagi teoremaga ko'ra, shunday Q ko'phad va c o'zgarmas topiladiki, $P(x) = (x - a)Q(x) + c$ tenglik o'rinli. Bu holatda $P(a) = c$ ligidan isbot kelib chiqadi. ■

$P(a) = 0$ tenglik bajariladigan a soniga, shu ko'phadning ildizi yoki noli deyiladi. Ko'phad ildizlariga doir yana quyidagi xossani keltiramiz.

Teorema 4. Agar P ko'phad Q ko'phadga bo'linsa, Q ko'phadning barcha nollari P ko'phadning ham nollari bo'ladi.

Bu yuqoridagilardan sodda kelib chiqadi.

Har doim ham ko'phadlarning ildizlarini aniqlab bo'lmaydi. Chiziqli va kvadratik ko'phadlarning ildizlarini topish barchamizga ma'lum. Uchinchi darajali ko'phadning barcha ildizlarini Kardano formulasi [1] formulasi orqali aniqlash mumkin. To'rtinchi darajali ko'phadning ildizlarini esa Ferrari usuli [2] orqali aniqlash mumkin. Ammo Galua nazariyasi [3] orqali isbotlanganki, beshinchi va undan yuqori tartibli ko'phadlarning yechimlarini topishning umumiy usuli mavjud emas. Ammo taxminiy topishning ba'zi usullari mavjud. Masalan, $f(a) < 0 < f(b)$ tengsizlik bajarilganda, f ko'phad a va b ning orasida ildizga ega.

Teorema 5. Agar ξ - kompleks son, haqiqiy koeffitsiyentli $P(x)$ ko'phadning ildizi bo'lsa, $\bar{\xi}$ (qo'shmasi) ham shu ko'phadning ildizi bo'adi.

Isbot. Haqiqiy koeffitsiyentli $P(x) = a_n x^n + a_{n-1} x^{n-1} + \dots + a_1 x + a_0$ ko'phad uchun, $P(\xi) = 0$. U holda $P(\bar{\xi}) = a_n \bar{\xi}^n + \dots + a_1 \bar{\xi} + a_0 = \overline{P(\xi)} = 0$. ■

Ko'phadlarning ildizlari va koeffitsiyentlari orasidagi bog'lanishni Viyet teoremasi orqali ko'rishimiz mumkin.

Teorema 6. (Viyet) [4] Agar x_1, x_2, \dots, x_n sonlar $P(x) = x^n + a_1 x^{n-1} + \dots + a_{n-1} x + a_n$ ko'phadning ildizlari bo'lsa,

$a_k = (-1)^k \sigma_k(x_1, \dots, x_n)$ tenglik o'rini.

Bunda $\sigma_k(x_1, \dots, x_n)$ berilgan n ta sonning bo'lishi mumkin bo'lgan barcha turli k taliklari ko'paytmasi yig'indilarini ifodalaydi.

Endi ushbu nazariy ma'lumotlarni misollarda qo'llanilishini ko'ramiz.

1-Masala. Ushbu $x^n + 2nx^{n-1} + 2n^2x^{n-2} + \dots$ ko'phadning barcha ildizlari haqiqiy bo'la olmasligini isbotlang.

Yechim. Faraz qilaylik barcha x_1, x_2, \dots, x_n ildizlari haqiqiy bo'lsin. Viyet teoremasiga ko'ra quyidagi tengliklar o'rini.

$$\sum_i x_i = -n, \quad \sum_{i < j} x_i x_j = 2n^2$$

Va barcha ildizlar haqiqiy bo'lganidan quyidagicha tengsizlikni qo'llashimiz mumkin:

$$\sum_{i < j} x_i x_j = \frac{1}{2} \left(\sum_i x_i \right)^2 - \frac{1}{2} \sum_i x_i^2 \leq \frac{n-1}{2n} \left(\sum_i x_i \right)^2 = 2n(n-1)$$

Bu esa ziddiyat. Demak farazimiz xato ekan. ■

2-Masala. Koeffitsiyentlari faqat -1 yoki 1 dan iborat bo'lgan va barcha ildizlari haqiqiy barcha ko'phadlarni toping.

Yechim: $P(x) = a_n x^n + a_{n-1} x^{n-1} + \dots + a_1 x + a_0$ ko'phadning ildizlari x_1, x_2, \dots, x_n bo'lsin. U holda

$$x_1^2 + x_2^2 + \dots + x_n^2 = \left(\sum_i x_i \right)^2 - 2 \left(\sum_{i < j} x_i x_j \right) = a_{n-1}^2 - 2a_{n-2} \leq 3$$

$$x_1^2 \cdot x_2^2 \cdot \dots \cdot x_n^2 = 1$$

Ikkinchi tenglikdan kelib chiqadiki, $x_1^2 + x_2^2 + \dots + x_n^2 \geq n\sqrt[n]{1} = n$.

Bundan esa ko'rishimiz mumkinki, $n \leq 3$. Endi osongina barcha bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni topib mumkin: $x \pm 1, x^2 \pm x - 1, x^3 - x \pm (x^2 - 1)$. ■

3-Masala.

$f(x) = x(x-2)(x-4)(x-6) + (x-1)(x-3)(x-5)(x-7)$ ko'phadning barcha ildizlari haqiqiy ekanligini isbotlang.

Yechim. Bu to'rtinchi darajali ko'phadni yechib o'tirish shart emas, yuqorida eslatib o'tilgan xossaga ko'ra, ildizlari qaysi oraliqda bo'lishini ko'rsata olamiz.

$f(-\infty) = f(\infty) = +\infty, f(1) < 0, f(3) > 0$ va $f(5) < 0$ ligini ko'rishimiz mumkin. Bundan esa $(-\infty, 1), (1, 3), (3, 5), (5, \infty)$ oraliqlarning barchasida yechimga ega, ya'ni 4 ta haqiqiy yechimga ega. ■

4-Masala. $P(x) = x^4 + a_1 x^3 + a_2 x^2 + a_3 x + a_4$ ko'phad berilgan. Agar $P(1) = 10, P(2) = 20$ va $P(3) = 30$ bo'lsa $P(12) + P(-8)$ ning qiymatini toping.

Yechim. Agar $P(x) - 10x$ ko'phadni qarasaq, $x = 1, 2, 3$ nuqtalar bu ko'phadning ildizi bo'ladi. Va o'z navbatida $P(x) - 10x = (x-1)(x-2)(x-3)(x-a)$ ko'rinishida yozishimiz mumkin.

$$P(12) + P(-8) = 11 \cdot 10 \cdot 9 \cdot (12-a) + 120 + (-9)(-10)(-11)(-8-a) - 80 = 19840$$



Mustaqil yechish uchun masalalar

5-Masala. n ning qanday qiymatlarida $x^n + x - 1$ ko'phad quyidagilarga bo'linadi

i) $x^2 - x + 1$

ii) $x^3 - x + 1$

6-Masala. Butun koeffitsiyentli $P(x)$ kvadrat uchhad uchun quyidagilar o'rinli:

- i) Uning ikkala ildiz ham musbat son
- ii) Koeffitsiyentlari yig'indisi tub son
- iii) Qaysidir butun sonda -55 qiymat qabul qildi.

Bu kvadrat uchhadning ildizlaridan biri 2 ekanligini ko'rsating va boshqa ildizini toping.

7-Masala. Quyidagi to'rtinchi darajali ko'phadning to'rtta ildizidan ikkitasining ko'paytmasi 32 ga teng:

$$x^4 - 18x^3 + bx^2 + 200x - 1984 = 0$$

U holda noma'lum koeffitsiyentni toping.

8-Masala. To'rtinchi darajali, ratsional koeffitsiyentli ko'phadning ikki ildizi $2 + \sqrt{17}$

va $\frac{1}{4} + i\frac{\sqrt{5}}{4}$ ga teng. Bu ko'phadning barcha ildizlari yig'indisini toping.

9-Masala. $9P(x^2) = P(2x)^2$ shartni qanoatlantiruvchi ko'phadlarni toping.

10-Masala. $P(x)^2 - 2 = 2P(2x^2 - 1)$ shartni qanoatlantiruvchi ko'phadlarni toping.

Adabiyotlar:

1. Гусак А. А., Гусак Г. М., Бричкова Е. А. Справочник по высшей математике в двух томах. — Т.: Минск: Тетрасистемс, 1999. — 640 б
2. D. Herbison-Evans, Solving quartics and cubics for graphics. — Т.: research report, 2005. - 4 б.
3. D. S. Malik, John M. Mordeson, M. K. Sen Fundamentals Of Abstract Algebra. — Т.: McGraw-Hill, 1997. - 528 б.
4. Funkhouser, H. Gray, A short account of the history of symmetric functions of roots of equations. — Т.: American Mathematical Monthly (Mathematical Association of America) 37 (7): 357—365 б

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bir o'zgaruvchili ko'phadlar va ularning xossalari keltirilgan. Xususan, ko'phadlar haqida muhim teoremlar va ularning tatbiqi, turli qiyinlikdagi olimpiada masalalari va ularning yechimlari batafsil tushuntirilgan. Mustaqil yechish uchun yetarlicha masalalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье представлены полиномы с одной переменной и их свойства. В частности, подробно объясняются важные теоремы о полиномах и их применении, олимпиадные задачи различной сложности и их решения. Приведено достаточное количество задач для самостоятельного решения.

SUMMARY

This article presents one-variable polynomials and their properties. In particular, important theorems about polynomials and their application, Olympiad problems of different difficulty and their solutions are explained in detail. Sufficient problems are given for independent solution.

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

HARAKATLI O‘YINLAR BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI TARBIYASINING ASOSIY VA SAMARALI USULI SIFATIDA

Zufarov T. U.

Chirchiq davlat pedagogika Universitet

“Jismoniy madaniyat Nazariyasi” kafedrası katta o‘qituvchi

Tayanch so‘zlar: harakatli o‘yinlar, kichik maktab yosh, o‘yin, samarali usul, ta’lim.

Ключевые слова: подвижные игры, младший школьный возраст, игра, эффективный метод, воспитание.

Key words: action games, primary school age, game, effective method, education.

O‘yin bolalikning hamrohidir, u yerda inson yangilanadigan dunyoni kashf etadi. O‘yin tabiatini tushunish-bolalik tabiatini bilish. Boshlang‘ich maktab yoshi, o‘yinni, ta’lim jarayoniga kiritish uchun eng qulay vaqt hisoblanadi.

Inson bolalikdan turli yo‘nalishdagi harakat malakalarini ongsiz va ongli tarzda bajaradi. Natijada shu harakatlar ma’lum jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik) tusida rivojlana boradi. Sekin-asta hayotiy zarur harakat malakalari (yurish, yugurish, sakrash, to‘xtash, osilish va hk.) sayqal topadi. Mutaxassislarining fikriga asosan shu jismoniy sifatlar va hayotiy zarur harakat malakalari harakatli o‘yinlar yordamida yanada samaraliroq rivojlanishi isbotlab berilgan [1,2].

O‘qituvchining vazifasi bolaning qiziqarliligi uchun jiddiy mashg‘ulotlar o‘tkazishdir, bu esa o‘quvchining charchashi va zo‘riqishini minimallashtiradi va dars davomida diqqatini saqlab turadi, deb hisoblayman. Asarda birinchi bor bolaning dunyoga ta’sir ko‘rsatish ehtiyoji shakllanadi va namoyon bo‘ladi [1].

Muvaffaqiyatli bo‘lishning asosiy shartlaridan biri jismoniy tarbiya muammolarini hal etish bolalarning faol harakat faoliyati bo‘lib, u barcha ish shakllaridan integratsiyalashgan holda foydalanish orqali ta’minlanadi.

O‘yin jarayoni bilan bog‘liq bolalar uchun yoqimli jismoniy va faol harakatlar, noma’lum o‘yin har doim yangi bir elementni o‘z ichiga oladi. Axir shu o‘yin, vaqti-vaqti bilan takrorlansa ham, avvalgi versiyalarga o‘xshamaydi, uning ishtirokchilarining harakatlari bir xil emas. Faqat bo‘lajak o‘yinni kutish bolalarda ijobiy hissiyotlarga sabab bo‘ladi. Shu sababli maktabda o‘yinlardan

foydalanish haqida gapirganda, bir tomondan, bolalarning o‘yinga bo‘lgan ishtiyoqini, ikkinchi tomondan esa pedagogik rahbarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni, maktab jamoasida o‘yinni rejalashtirish va undan tizimli foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kutilgan pedagogik samarani belgilaydi.

Harakatli o‘yinlar eng to‘liq bolalik tabiatiga mos. Bunday o‘yinlar ishtirokchilarga keng ko‘lamli xatti-harakatlarni beradi, ularning harakatlarini oldindan bashorat qilib bo‘lmaydi. Harakatli o‘yinlar epchillik, tezkor reaksiya va ixtirochilikni rivojlantiradi.

Jismoniy sifatlarni tarbiyalashda harakatli o‘yinlarning o‘rni. Maktab davridan boshlab o‘quvchilarning ma‘naviy, jismoniy va funksional shakllanishida harakatli o‘yinlarining o‘rni beqiyosdir. Standart mazmundagi vazifa, ko‘rsatma yoki mehnat va sport mashqlarini bajarish kishini tez toliqtiradi. Lekin, shunday harakatlarni milliy o‘yinlar asosida, ijro etish odamning ruhiyatiga ijobiy ta‘sir etib, charchash muddatini orqaga suradi. Shuning uchun sport mashg‘ulotlarida, ayniqsa yosh sportchilarni dastlabki tayyorlashda turli mazmunga hos harakatli o‘yinlardan foydalanish alohida amaliy ahamiyatga egadir.

O‘yinlar o‘zining hammabopligi (universalligi), ko‘p funkcionalligi va keng ta‘sirchanligi bilan xilma-xil toifalarga bo‘linadi. Jumladan, jismoniy sifatlarni, nutqni, talaffuzni, merganlikni, tadbirkorlikni, hisobni va hokazo xislatlarni rivojlantiruvchi o‘yinlari shular jumlasiga kiradi. Lekin, qanday o‘yin bo‘lmasin, unda harakat elementi yoki harakatlar majmuasi mavjud bo‘ladi. Harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni va mohiyati jihatidan sport o‘yinlaridan tubdan farq qiladi. Harakatli o‘yinlar sport o‘yinlari kabi maxsus tayyorgarlik, muayyan musobaqa qoidasi, sport kiyimi, muddati, maydoni, ishtirokchilar tarkibi kabi aniq chegaralangan me‘yoriy omillarni talab qilmaydi. Faqat bittagina harakatli o‘yinni turli joyda, va vaqt davomida, kiyimda, tarkibda (soni jihatdan) o‘ynash mumkin. Eng muhimi harakatli o‘yin davomida kuzatiladigan erkin va ixtiyoriy harakatlanishlar (nostandart harakat yo‘nalishi, qichqiriq, xushchaqchaqlik va hokazo) ijobiy emotsional holatni (reaksiyasini) yuzaga keltiradi. Ushbu holat esa o‘z navbatida sport mashg‘ulotida (yoki standart mashqlar seriyasini ijro etganda) tezroq vujudga keladigan charchash asoratlarini “chetlab” o‘tishiga yoki kechroq paydo bo‘lishiga yordam beradi.

Harakatli o‘yinlar bo‘yicha O‘zbekistonda yetakchi mutaxassis-olimlar T.Usmanxo‘djaev va F.Xo‘jaevlar (1992) turli yo‘nalishdagi harakatli o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazish masalalariga oid qator tavsiyalar berib o‘tishgan. Jumladan, ularning fikricha harakatli o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazishda bir qator masalalarga e‘tibor berish maqsadga muvofiq.

1. О'quvchilarning jismoniy barkamolligi, salomatligini yaxshilanishiga, chiniqishiga, tana a'zolari va umumiy ish qobiliyatining o'sishiga yordam berish;

2. Erkin harakat qila olish imkonini bera oladigan bilimlar va hayotiy zarur harakat malakalarini shakllantirish;

3. Ruhiy, aqliy, kasbiy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish;

4. Umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalash;

5. Jasurlik, topqirlik, zukkolik, tadbirkorlik xislatlarini rivojlantirish shular jumlasidandir. Mualliflar turli sinf o'quvchilariga mos o'yinlar, yilning turli fasllarida, kunduzgi va kechqurun o'ynaydigan o'yinlarni saralab berishgan va ularning mohiyatini yoritishga muvaffaq bo'lishgan. Eng asosiysi, mutaxassislar maktab sport seksiyalarida, jumladan sport o'yinlari bilan shug'ullanuvchi bolalarga «Mushuk va sichqon», «Bo'sh joy», «Qoziq», «Bo'ri zovur ichida», kabi o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb ta'kidlaydilar.

Boshlang'ich sinflarda harakatli o'yinlardan foydalanish tajribasini o'rganish. Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan sport mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish bolalar jismoniy sifatlarini rivojlantirish va harakat malakalariga o'rgatish samaradorligini oshiradi. Ushbu fikrning qanchalik to'g'riligi 1-bobda qayd etilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlilida aniq isbot qilib beradi. Ma'lumki, bolalar go'dakligidan boshlab erkin harakat qilishni yoqtiradilar. Bunday erkin harakatlar bemaqsad bo'lmaydi. Agar turli-tuman o'yinchoqlar (qo'g'irchoqlar, ayiqcha, qushcha, samolyot, avtomobil, traktor va hk.) har xil joylarga sochib tashlangan bo'lsa, emaklab yuradigan yoshdagi bolalar ham o'zi yoqtirgan (rangi, turi, katta-kichikligi) o'yinchoqlarni olish niyatida harakat qiladilar. Demak, jismoniy yoki sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda ham bolalarning yoshi, jinsi, qiziqishi va boshqa xislatlari e'tiborga olinishi lozim. Sport tayyorgarligi ko'p bosqichli murakkab pedagogik jarayon bo'lib, mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil qilishni taqazo etadi. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan jismoniy va texnik-taktik mashqlar shug'ullanuvchi bolalarning yoshi, jismoniy va funksional imkoniyatlariga moslab rejalashtirilishi va qo'llanilishi lozim. Ushbu mashqlar soni, shiddati, qaytarilishi va davom etishi vaqti biologik qonuniyatlarga asoslanishi darkor. Agar mashqlar yuklamasi bolaning imkoniyatidan o'ta yuqori bo'lsa, bunday yuklama shu bolaning organizmiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Aksincha, yuklama imkoniyatdan kam bo'lsa shakllanish jarayoni sustlashishi muqarrar[4,5].

2-sinf o'quvchilarida jismoniy tayyorgarliklarining rivojlanganlik darajasi 20 nafar 9 yoshli 2 sinf o'quvchilari ustida olib borilgan tadqiqotlar

shuni ko'rsatdiki, ularning bo'yi o'rtacha 124,15 sm, vazni – 32,0 kg ni tashkil etdi (2- jadval) jismoniy tayyorgarligi esa ancha zaif rivojlanganligidan darak beradi. Shu yoshdagi o'g'il bolalarning jismoniy tayyorgarligi «Alpomishva Barchinoy» test ko'rsatgichlari bo'yicha tadqiqotimizda ishtirok etgan bolalarnikidan ancha yuqori ekanligi kuzatildi. Masalan, «Alpomish va Barchinoy» test ko'rsatgichlari bo'yicha 30 m ga yugurish natijasi 6.2-5.5 s, joydan uzunlika sakrash 125 smga teng bo'lsa, bizni tekshiriluvchilarimizda muvofiq ravishda 7.6 s, 120.9 sm, ni tashkil etdi.

Umum ta'lim maktablarida harakatli o'yinlarni uyushtirish, milliy ongni shakllantirish omili sifatida.

Shunday qilib biz umumtalim maktablarida o'quvchilar bilan o'zbek milliy harakatli o'yinlarini tashkil qilishda avvalo quyidagi vazifalarni hal etishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik:

- o'quvchilarni jismoniy kunikma va malakalarini oshirish;
- milliy maktab o'quvchilarini har tomonlama jismoniy rivojlantirish.

Jismoniy tarbiya o'quv dasturi ishlab chiqilayotganda o'lkamiz iqlimi va joylashuvi milliy an'analarga xos xususiyatlar maktablarning moddiy o'quv sport bazasi e'tiboriga kam olinadi. O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashda majburiy mashg'ulotlar o'rniga milliy xalq o'yinlarini jismoniy mashqlar va milliy sport turlarini saralab olish, ularning hajmi yo'nalish va tasirchanligini belgilashda Ibn Sinoning "Al Qonun", Kaykovusning "Qobusnoma" Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asarlari ajoyib manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbek sportning milliy turlari kurash (Buxorocho, Farg'onacha va hk), "Chavlon", "Uloq", "Zuvvulotar" va boshqalarni dars va darsdan tashqari ishlarida joriy etish ko'zlangan maqsadni beradi. Binobarin, o'quvchilarning qiziqishlari yosh va jins xususiyatlari, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarlik darajasini kuzatish, shu asosda mashqlarni qaytadan ishlab chiqish, yoshlarni har tomonlama yetuk, inson qilib tarbiyalashda zamonaviy mukammal tajriba sinovlaridan o'tgan mashq va sport turlarining ahamiyatini hisobga olish nihoyatda zarur. Buning uchun tegishli vazirliklar mablag' ajratishi, pedagogika sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari bir maqsad sari birlashtirilishi, olimlar, o'qituvchilardan iborat maxsus ishchi guruhlarini tuzish lozim. Hozirgi kunda bajariladigan har bir ish, yumush uchun mablag' ajratilishi va uning natijasi oldida javobgarlik hissi turadi, shuning uchun bo'lsa kerak, uni bozor iqtisodiyoti deb ataydilar, undan tashqari uni bir-ikki kishi yoki biror muassasa o'zi ishlab chiqib poyoniga yetkaza olmaydi, u bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jiddiy ilmiy tadqiqot va uslubiy ishlar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi.

Milliylashtirilgan maktablarda jismoniy tarbiya fanidan yigit va qiz bolalarni alohida o'qitish milliy an'analarimizdan kelib chiqadi. O'gil bolalar kelajakda ota, oila boshlig'i bo'ladilar. Shuning uchun jismoniy mashqlarni, milliy o'yinlar va xalqning turmush tarzi, hayotiy zarur bo'ladigan malaka va ko'nikmalarni bevosita shakllantiradigan va taraqqiy ettiradigan harakatlar tanlab olinishi kerak. Jismoniy tarbiya qizlarimizni iffatli, iboli, hayoli va nazokatli, ko'rkam, yigitlarni kuchli, chidamli, or-nomusli, qilib tarbiyalamog'i zarur.

Ming yildan oshiq merosga ega bo'lgan xalqimizning jismoniy tarbiyasi va milliy mafkurasi tajribagacha bo'lgan tadqiqot natijalaridan shu narsa ma'lum boldiki, hozirgi jismoniy tarbiya o'qituvchilari milliy ruhda talim-tarbiya saboqlarini olmaganliklari uchun maktab bolalariga G'arb uslubidagi sport turlariga ruju qo'yib milliylikdan uzoqlashib bormoqda. Sobiq sho'rolar davrida o'rinsiz ravishda xalq bayramlari, sayllarini o'tkazish cheklandi, natijada yoshlarning xalq o'yinlari va milliy sport turlariga bo'lgan loyoqadsizlikni yuzaga keltirdi. Bunga misol tariqasida bolalar bog'chasi, maktab va boshqa o'quv muassasalari o'quv dasturiga ularning kiritilmaganligini ko'rsatsa bo'ladi.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini jismoniy tarbiyalash majmua dasturida ham xalq o'yinlarini kiritish haqida tavsiyalar berilgan. Masalan, X.N. Tojiboyev, T.S.Usmonxodjeyev „Harakatli o'yinlar“, N.Rahimjonova „Bolalar bog'chalarida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar“ va boshqalar. Lekin yuqorida qayd etilgan barcha qo'llanmalarda xalqning iftixori, ichki ma'naviy dunyosi, g'ururi, uning xarakter xususiyatlarini belgilaydigan ijodkorlik, vatanparvarlik kabi o'ziga xos xususiyatlar aks ettirilmagan. Ahvol shunday ekan, hozirgi yashab turgan avlod – biz xalqning madaniy boyliklarini, qadriyatlarimizni tiklashimiz, faxr va g'urur ila kelajak avlodga bekamu-ko'st yetkazib berishimiz har birimiz uchun ham qarz ham farzdir. [3,4].

To'g'ri, keyingi yillarda xalq o'yinlari bir qator kitoblarda aynan o'zining aksini topa boshladi, masalan, T.Jahongirovning „O'zbek bolalari folklyori“, kitobi lekin undagi o'yinlar etnografik va folklyor nuqtai-nazardan talqin etilgan, chunonchi, ular hech qanday pedagog, ayniqsa, jismoniy tarbiya mutaxassisi bilan tanlab olinmagan, sog'lomlashtirish va talim-tarbiyaviy yo'nalish maqsadida saralanmagan.

Olib borilgan tadqiqotlarimizda yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, bolalar o'ynar ekan, xalq tomonidan sovg'a qilingan va yuzaga keltirilgan o'yinga kirishib ketadilar. Yo'l-yo'lakay o'yinda xalq yaratgan madaniyat elementlari bilan yaqindan va chuqurroq tanishadilar, o'yinda qo'llaniladigan qadimiy atamalar va iboralardan foydalaniladi. Bu faqat o'yin qatnashchilarining

dunyoqarashlarini kengaytirib qolmasdan, o‘yinning o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘z xalqining ma’naviy madaniyat durdonalarini tushunishga yordam beradi, chunonchi, boshqa o‘yinlar bilan taqqoslash imkoniyatini paydo qiladi.

Adabiyotlar:

1. Usmonxo‘djayev T.S., Qosimova M.U. 500 mashq va harakatli o‘yinlar. T.: O‘zDJTI nashriyot bo‘limi. 2006. - 60b.
2. Т.С. Усмонходжаев, Т. Ходжаев Ф. 1001 ўйин (1001 игра). Т., Ибн Сино, 2011, 352 с.
3. Былсева Л.В., Коротков И.М. Подвижные игры-М.: ФИС. 2002.
4. Ачилов, Т.С., Нурматов, Ф.А., & Зуфаров, Т.У. (2019). Формирование Технической подготовленности школьников как средство повышения эффективности процесса их физического воспитания. *Maktab va hayot*, 4 (144), 40-43.
5. Rasulev A.T., Pulatov A.A., Qosimova M.U. O‘zbek xalq o‘yinlari ularning tasnifi va tavsifi. // O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 1996. - 98b.
6. U.Zufarov, D.Anarbayev “Shaxsning sog‘lom o‘sishi rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati” // *Uzluksiz ta’lim // Ilmiy - uslubiy jurnal* 6 – son 86-89 bet. Ilmiy maqola T.: 2018-yil.
7. Т.С. Усмонходжаев П.А. Усмонов 500 ҳаракатли ўйинлар 2011
8. Rasulev A.T., Pulatov A.A., Qosimova M.U. O‘zbek xalq o‘yinlari ularning tasnifi va tavsifi. // O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 1996. - 98b .

РЕЗЮМЕ

Muallif kichik maktab yoshini o‘yin va o‘quv jarayoniga kiritish uchun optimal vaqt deb hisoblaydi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari eng samarali deb hisoblaydigan harakatli o‘yinlarga misollar keltiradi. Bolalarning ongli intizomini shakllantirishda harakatli o‘yinlar katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. O‘yinni tashkil etish va boshqarish haqida tavsiyalar beradi.

РЕЗЮМЕ

Автор рассматривает младший школьный возраст как наиболее благоприятное время для включения игры в процесс воспитания. Приводит примеры игр, которые учителя физической культуры считают наиболее эффективными. Подчеркивает, что подвижные игры играют большую роль в воспитании сознательной дисциплины у детей. Даёт рекомендации по организации и руководству игрой.

SUMMARY

The author considers junior school age as optimum time for inclusion of a game in teaching and learning process. Gives examples of the games which Physical Education teachers assume to be the most effective. Emphasizes that active playing is of large importance in children’s conscious discipline forming. Makes recommendations about organization and management of a game.

ONA TILI O‘QISH TA‘LIMIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING LINGVOPEdagogIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLAHTIRISH

Kuranbayeva H.A.

TAFU “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: traektoriya, lingvopedagogik kompetensiya, didaktik, sun‘iy intellekt, tushuntirish-illyustrativ (axborot-retseptiv); reproduktiv, muammoli taqdimot, qisman-qidiruv (xuaristik).

Ключевые слова: траекторная, лингвопедагогическая компетентность, дидактическая, искусственный интеллект, объяснительно-иллюстративная (информационно-рецептивная); репродуктивный, проблемный, частичный поиск (чуаристический).

Key words: trajectory, linguo-pedagogical competence, didactic, artificial intelligence, explanatory-illustrative (information-receptive); reproductive, problematic, partial search (chuaristic).

Har bir jamiyatning taraqqiyoti va istiqboli oliy ta‘lim tizimining jadal rivojlanishi, ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish bilan o‘zaro muvofiq kelishi jahon ta‘limining eng yuqori natijalariga tenglasha olishi, davr talablariga javob berishi va mavjud sub‘ektiv ehtiyojlarni qay darajada qondira olishiga bevosita bog‘liq.

Oliy ta‘lim tizimida an‘anaviy dars talabalar, xususan, bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillahtirish asosida ma‘lumotlarni yodlash, turli manbalardan olingan jummalarni lingvistik tahlil qilishga mo‘ljallangan degan tilshunos olim A.G‘ulomov ning g‘oyalari bugungi zamon talablariga mos kelmay qolmoqda.

Oliy ta‘lim tizimida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, o‘qitish mazmunining tobora yangi g‘oya va qarashlar bilan boyitib borayotganligi, yosh avlodning yuksak salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalarning yaratilayotganligi, ta‘lim oluvchilarda yuksak ma‘naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish, ularni ommaviy madaniyat ta‘siridan himoyalash zaruriyatining yuzaga kelayotganligi pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijalariga ham bog‘liq.

Hayot insoniyat oldiga turli muammolarni qo‘yadi, har bir kishi uni mustaqil hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Shu ma‘noda bo‘ljak boshlang‘ich

sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish, uzluksizlikni ta'minlash, metodikada, pedagogika sohasida muammoli ta'lim texnologiyasi joriy qilindi. Muammoga asoslangan ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish, uzluksizlikni ta'minlashda asosan, savol va topshiriqlarning muhim o'rni bor. Muammoli o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi bilimlarni tayyor shaklda yetkazmaydi, balki o'qituvchi tomonidan savol yoki topshiriq shaklida muammoli vazifalar qo'yiladi, mashg'ulotni tashkil etuvchi ularni hal qilish yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Bu ham, albatta, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillashtirishda uzluksizlikni ta'minlashda savol va topshiriqlar asosida amalga oshiriladi. Mashqlar esa uni o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida aqliy yoki amaliy harakatni takror-takror bajarish demakdir.

Bu jarayonda o'z o'rni bilan mashqlar ham ishtirok etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish, oliy ta'lim darslik va qo'llanmalarida o'quv jarayonida boshlang'ich ta'limda lingvopedagogik kompetensiyalarni qo'llanilishini muntazam deb bo'lmaydi, keyingi yillarda yaratilgan darslik va qo'llanmalar o'quv topshiriqlari asosida yaratila boshlandi. Masalan, H.Jamolxonov tomonidan nashr qilingan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida mavzular so'ngida savol va mustaqil topshiriqlar keltirilgan. 2000 yilga qadar yaratilgan oliy ta'limda ta'lim uchun yaratilgan o'quv adabiyotlarda lingvopedagogik kompetensiyalar, o'quv jarayonida deyarli uchramaydi. Masalan, U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullaevlarning 1992 yil chop etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida umuman mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari berilmagan.

Bunda lingvopedagogik kompetensiyalar bajarishda talabalarning mustaqillik darajasiga e'tibor beriladi:

- bilimni, ma'lumotni ko'paytirish uchun maxsus topshiriqlar ham beriladi;
- bilimlarni turli nutq vaziyatlarida qo'llashga o'rgatuvchi mashq va topshiriqlar ham baravar qo'llaniladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalar takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib, unda quyidagi lingvodidaktik talablar bajarilsa, o'quv jarayoni zamon talabiga mos va samarali bo'ladi:

- bir o'quv topshirig'ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko'nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo'lishi;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining topshiriqlarini amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalar topshiriqlarni zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun'iy intellekt bilan to'g'ri muloqot qila olishi;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalar o'quv lug'atlaridan mavzu doirasida unumli foydalana olishi. Takomillashtirilgan boshlang'ich ta'lim o'quv topshiriqlari muammoli o'qitishning quyidagi asosiy psixologik-pedagogik maqsadlariga muvofiq kelishi kerak:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fikrlash va qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishga;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faol izlanish va mustaqil matnni tahlil etish jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishlari, natijada bu bilim va ko'nikmalar an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda mustahkam bo'lishiga;

- nostandart muammolarni ko'ra oladigan, o'rnatilgan va hal qila oladigan talabaning faol ijodiy shaxsini tarbiyalashga mos bo'lishi lozim.

Ona tili o'qish savodxonligi ta'limi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini takomillahtirish ta'limda faol qo'llanila boshlagan matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Har qanday matn tahlilini o'quv topshiriqlari asosida muammoli jarayonga aylantirish mumkin. Bunda mustaqil savol yoki topshiriqni to'g'ri qo'yish kifoya qiladi. Bu o'rinda muammoni yechish, olingan natijalarni tekshirish, ularni asl faraz bilan taqqoslash, olingan bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari muhim hisoblanadi.

Muammoni muvaffaqiyatli o'rganish shartlarida Ona tili o'qish savodxonligi ta'limida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini takomillahtirish topshiriqlarining ishtiroki o'ziga xos bo'ladi:

- lingvopedagogik kompetensiyalar mazmuniga qiziqish uyg'otish uchun yetarli savol yoki tayyorlovchi topshiriqlar asosida motivatsiyani ta'minlash;

- har bir bosqichda yuzaga keladigan muammolar bilan ishlashning maqsadga muvofiqligini ta'minlash;

- lingvopedagogik kompetensiyalarini hal qilishda qo'yilgan vazifa va savolning ahamiyati;

Ona tili o'qish savodxonligi ta'limi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bildirilgan barcha fikr va farazlarga e'tibor va rag'bat bilan

qaralganda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi diologik do'stona muloqotning o'rnatilishi.

Bularning barchasi lingvopedagogik kompetensiyalar mazmuniga bog'liq, boshlang'ich ta'lim topshiriqlarining asosini esa bilish faoliyat turi tashkil qiladi. Bu borada I.Ya. Lerner, N. M. Skatkin larning yondashuvi hammaga ma'lum va mashhurdir.

Bilish faoliyatining turi-o'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv jadvali bo'yicha ishlash asosida talabalar erishadigan bilish faoliyatining mustaqil darajasidir.

Bu quyidagi tasnif usullarida farqlanadi:

- tushuntirish-illyustrativ (axborot-retseptiv);
- reproduktiv;
- muammoli taqdimot;
- qisman-qidiruv (xuaristik);
- tadqiqot.

Axborot-retseptiv usulning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi:

- bilim bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga "tayyor" shaklda taklif etiladi;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu bilimlarni turli yo'llar bilan idrok etishni tashkil etadi; o'quvchilar bilimlarni idrok etish (qabul qilish) va tushunishni amalga oshiradilar, ularni xotirasida tuzatadilar.

Barcha axborot manbalari (so'z, ko'rgazma va boshqalar.) qabul qilishda ishlatiladi va taqdimot mantig'ini induktiv va deduktiv ravishda ishlab chiqish mumkin.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshqaruv faoliyati bilimlarni idrok qilishni tashkil etish bilan chegaralanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z o'quvchilarini bilim olishga, fikrlashga undash quroli, ularning lingvopedagogik kompetensiyalarini o'zlashtirilishini monitoring qilishda o'lchov bu –topshiriqlarni muntzam o'zlashtirib borishdir. N.M. Skatkin .

Ona tili o'qish savodxonligi ta'limi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitishning reproduktiv metodidan foydalaniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- bilim o'quvchilarga "tayyor" shaklda taklif etiladi;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilimlarni muloqot qilibgina qolmay, balki uni bayon etadi; o'quvchilar bilimlarni ongli o'zlashtiradilar, uni tushunadilar va eslab qoladilar.

Ne'matov H. ning quyidagi fikrlari hozir ham ona tili o'qish savodxonligi ta'limi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ona tili ta'limi va unda topshiriqlar berish uchun birdek ahamiyatli: "Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tili savodxonlik ta'limidan foydali bilimlar deb savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz"

To'xliiev B, Shamsieva M, Ziyodova T. tomonidan "O'zbek tili o'qitish metodikasi" darsligida "o'zlashtirishning zarur kuchi bilimlarni takrorlash asosida ta'minlanishini" ta'kidlaydi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan (Boshlang'ich ta'lim sport tarbiyaviy ish (5141600), filologiya (5220100), pedagogika institutlarining ona tili va adabiyoti (5141300) bakalavriyat ta'lim O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamraev lar tomonidan nashr etilgan "Ona tili didaktikasi" darsligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Darslikdagi mashqlarga e'tibor qilamiz. "Mashq qilish usullari tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti natijasida o'zbekona fikrlash, o'zbekona ta'lim, odat, an'analar tarkibida shakllangan. Shu tufayli ularni nutq madaniyatini o'zlashtirish bilan aloqador hodisa deb qaraymiz. Lingvistik mashq qilish usullarini qo'llab, aqliy-amaliy yumushlarni bajarishda tahlil, birlashtirish, taqqoslash, abstraksiyalash, konkretlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari ham ishtirok etadi".

Adabiyotlar:

1. Гулямов А. Методика развития учебно - познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: Дис. док. пед. наук. –Т.: ТГПИ, 1991. – 37 б.
2. Axmedova M.E. (hammualliflar) Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik–Т., 2019. 5-б.(302)
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslik. –Т., 2014. 96-б. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashr. –Т., 1992. 400 б.
4. Лернер. И.Я.Дидактические основы методов обучения.Текст. –М.: 1981.- 186 с.
5. Скаткин М.Н.Проблемы современной дидактики.-М.: Педагогика. 1984.- 96с.
6. Скаткин М.Н.Совешенствование процесса обучения.–М.: Педагогика. 1971.- 205с
7. Фуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.
8. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Т., 2010. – 184 б.
9. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamrayev A. "Ona tili didaktikasi" – Т., Darslik. – Т.: Yangi asr avlodi.
10. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Allavutdinova N, Karimjonova V., Ona tili o'qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun) Darslik. Т.: ТГПИ, 1991. Т. Fan va texnologiya 2012. – 380 б.

11. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b. Дарслик. –T.: 2004. 45-б.

12. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b. Дарслик. –T.: 2004. 45-б.

РЕЗЮМЕ

Ta'lim traektoriyasini metodik shakllantirish imkoniyatini yaratilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish, talabalarning fanga qiziqishi, hamda bir o'quv topshirig'ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko'nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo'lishi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining topshiriqlarini amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi, topshiriqlarni zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun'iy intellekt bilan to'g'ri muloqot qila olishi, joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

РЕЗЮМЕ

Создать возможность методического формирования образовательной траектории, совершенствования лингвopedagogических компетенций будущих учителей начальных классов, интереса учащихся к науке, умения развивать несколько речевых навыков при выполнении одного учебного задания, исходя из того, что будущим учителям начальных классов желательно осознанно подходить к выполнению своих задач, соблюдать дидактическую последовательность в их выполнении, уметь корректно общаться с искусственным интеллектом для нахождения задач из современной информации источников, а также представить данные.

SUMMARY

To create the possibility of methodical formation of the educational trajectory, to improve the linguo-pedagogical competences of the future primary school teachers, the interest of students in science, and the ability to develop several speech skills during the completion of one educational task, based on the fact that it is desirable for future elementary school teachers to have a conscious approach to the implementation of their tasks, to follow the didactic sequence in their implementation, to be able to communicate correctly with artificial intelligence in order to find tasks from modern information sources, and to introduce given.

AQLIY ZAIF BOLALARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA FAOL O'QITISH USULLARIDAN FOYDALANISH

Nosirova U.A.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Maxsus pedagogikaning klinik asoslari kafedrasida o'qituvchisi*

Таянч сўзлар: qo'zg'aluvchanlik, xissiy ta'sir, motivatsiya, intellekt, intellekt koeffitsiyenti, intellektual kamchilik, intellektual rivojlanmaslik, jarohat, kognitiv bilish jarayonlari, aqli zaiflik, nutqiy qobiliyat, korreksion ta'lim.

Ключевые слова: возбудимость, эмоциональное воздействие, мотивация, интеллект / коэффициент интеллекта / интеллектуальный дефицит / интеллектуальное недоразвитие / травма / когнитивные процессы / умственная отсталость / речевые способности / коррекционное обучение.

Key words: excitability, emotional impact, motivation, intelligence / intelligence quotient / intellectual deficit / intellectual underdevelopment / trauma / cognitive processes / mental retardation / speech abilities / remedial education.

O'rganishda qiyinchiliklarga duchor bo'lgan bolalar kontingentining aksariyati «aqliy zaif bolalar» deb ta'riflangan guruhdir. Bu katta guruh bo'lib, kam o'qiyotgan kichik maktab o'quvchilarining qariyb 50 foizini tashkil qiladi.

«Aqliy zaiflik» tushunchasi markaziy asab tizimining minimal organik shikastlanishi yoki funktsional etishmovchiligi bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davomida ijtimoiy mahrumlik sharoitida bo'lgan bolalarga nisbatan qo'llaniladi.

Ular quyidagilar bilan ajralib turadi:

- vaqtinchalik, terapevtik va pedagogik omillar ta'sirida qoplanadigan o'ziga xos sifat xususiyatlariga ega bo'lgan hissiy-irodaviy sohaning etuk emasligi va kognitiv faoliyatning rivojlanmaganligi;
- me'yorga nisbatan sekin, hissiy ma'lumotni qabul qilish va qayta ishlash tezligi, aqliy operatsiyalar va harakatlarning etarli darajada shakllanmaganligi, kognitiv faollikning pastligi va kognitiv qiziqishlarning zaifligi, atrof-muhit haqidagi bilim va g'oyalarning cheklanganligi;
- nutq rivojlanishida kechikish (talaffuzning yo'qligi, agrammatizm, cheklangan so'z boyligi);

- hissiy beqarorlik va qo'zg'aluvchanlik, xulq-atvorni o'zboshimchalik bilan tartibga solishning shakllanmaganligi, ta'lim motivatsiyasining zaifligi va o'yinning ustunligida namoyon bo'ladigan hissiy-irodaviy sohaning rivojlanishidagi kamchiliklar;
- vosita ko'nikmalaridagi kamchiliklar, harakatlarni muvofiqlashtirishdagi qiyinchiliklar, giperaktivlikning namoyon bo'lishi;
- rivojlanmaganlikning notekis, mozaik ko'rinishlari.

Aqli zaif bolalar rivojlanishining bu xususiyatlari olimlarga ushbu toifadagi bolalar maxsus tuzatish va rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishni talab qiladi degan xulosaga kelishga imkon berdi.

Aqli zaif bolalar va aqli zaif bolalar o'rtasidagi muhim farq shundaki, bu bolalarning faolligini rag'batlantirish, ularga o'z vaqtida pedagogik yordam ko'rsatish ularning proksimal rivojlanish zonasini ajratib ko'rsatishga imkon beradi, bu esa bir necha baravar yuqori.

Mamlakatimizda aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga alohida yordam ko'rsatish maqsadida korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim hamda kompensatsion ta'lim tizimi yaratildi. Bu muayyan bolaning qiziqishlari va ta'lim ehtiyojlarini qondirish, uning individual qobiliyatlarini hisobga olish, to'liq ta'lim olish va sog'lig'ini saqlash imkonini beradigan ta'lim jarayonini tashkil etishning sifat jihatidan yangi darajasidir. Aksariyat bolalarda kognitiv faollik darajasi etarli emas, o'quv faoliyati uchun motivatsiyaning etuk emasligi, samaradorlik va mustaqillik darajasi pasaygan. Shuning uchun o'qitishning faol shakllari, usullari va usullarini izlash va ulardan foydalanish o'qituvchi faoliyatida korreksiya va rivojlanish jarayoni samaradorligini oshirishning zarur vositalaridan biridir. So'nggi paytlarda mamlakatimizdagi beqaror iqtisodiy va ekologik sharoitlar nogiron bolalar va turli patologiyalar, jumladan, nutq buzilishlari bilan tug'ilishning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Bolada nutq, yuqori aqliy funktsiyalarning rivojlanishi, umumiy va nozik motorli ko'nikmalarining holati va hissiy-irodaviy soha bir vaqtning o'zida buzilganida, nutq patologiyalari birlashtirilgan shaklga ega bo'lib bormoqda. [1,209-6]

Aqli zaif bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, korreksion ishida faol ta'limning yangi usullarini topishga, tegishli fanlar bo'yicha bilimlarni darslarga integratsiyalashga harakat qilnadi, bu esa korreksiya sohasida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishni rag'batlantiradi.

Faol o'qitish usullari (FO'U) - o'quv jarayonini tashkil etishga va talabalarni kognitiv faoliyat jarayonida o'quv materialini mustaqil, faol va ijodiy rivojlantirishga undaydigan maxsus vositalar yordamida shart-sharoit yaratishga

qaratilgan turli xil usullar majmui. Faol o'qitish usullari - o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning aqliy va amaliy faoliyatining faolligi va rang-barangligini ta'minlaydigan usullar tizimi. Faol o'qitish usullaridan foydalanganda o'quvchining roli o'zgaradi - itoatkor xotira qurilmasidan u o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ushbu yangi rol va uning o'ziga xos xususiyatlari zamonaviy muvaffaqiyatli shaxsning barcha zarur ko'nikmalari va fazilatlariga ega faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi. FO'U dan foydalanish darsni zamonaviy, o'quvchilar, ota-onalar, jamiyat, vaqt talablarini qondirish imkonini beradi. Darsda FO'U dan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirish imkonini beradi, o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladi, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Faol ta'lim usullari ishida paydo bo'lishi o'qituvchilarning talabalarning bilim faolligini faollashtirish yoki uni oshirishga hissa qo'shish istagi bilan bog'liq. Ushbu yondashuv eksperimental ma'lumotlarga mos keladi, bu ma'lumotlarning 20-30% dan ko'p bo'lmagani ma'ruza materialini taqdim etishda va 50% gacha gapirganda - 70% gacha va o'rganilayotgan faoliyatda (masalan, o'yinda) shaxsiy ishtirokida - 90% gacha. Usullar mustaqil pedagogik ishlanmalar sifatida yoki an'anaviy usullar bilan birgalikda ishlatilishi mumkin. Ta'limning an'anaviy shakllarini faollashtirish va noan'anaviy usullardan foydalanish tamoyillari ham mavjud. Noan'anaviy ta'sir usullari uzoq vaqtdan beri nutqi buzilgan bolalar bilan tuzatish va rivojlanish ishlarining istiqbolli vositasiga aylandi. Ushbu terapiya usullari maxsus pedagogikada tobora ko'proq qo'llaniladigan va bolalarda nutq qiyinchiliklarini engishda eng katta muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan samarali tuzatish vositalaridan biridir. Kompleks yordam fonida an'anaviy bo'lmagan terapiya usullari, alohida harakatlarni talab qilmasdan, aqliy zaif bolalar nutqini tuzatish jarayonini optimallashtiradi va bolaning butun tanasini yaxshilashga hissa qo'shadi. Ularni qo'llash samarasi o'qituvchining kasbiy mahoratiga, yangi imkoniyatlardan foydalanish qobiliyatiga, tuzatish va rivojlanish jarayoni tizimiga samarali usullarni kiritishga, darslar davomida bolalar uchun psixofiziologik qulaylikni yaratishga, «ishonch holatini» ta'minlashga bog'liq. Bundan tashqari, muqobil usullar va usullar darslarni yanada qiziqarli va xilma-xil tashkil etishga yordam beradi.

Faol usullar turli jihatlardagi tuzatish va tarbiyaviy muammolarni hal qilishni ta'minlaydi:

- √ kognitiv jarayonlarni rivojlantirish - nutq, xotira, fikrlash;
- √ ijodiy ta'lim motivatsiyasini shakllantirish;
- √ talabalarning kognitiv faolligini oshirish;

- √ o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish;
- √ mustaqil faoliyatni rag'batlantirish;
- √ katta hajmdagi ta'lim ma'lumotlarini samarali o'zlashtirish;
- √ ijodiy qobiliyatlarni va nostandart fikrlashni rivojlantirish;
- √ talaba shaxsining kommunikativ-emotsional sohasini rivojlantirish;

Darsni qurishda faol o'qitish usullarining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish kerak:

- Muammolar. Bu holatda asosiy vazifa talabani muammoli vaziyatga kiritish, undan chiqish (qaror qabul qilish yoki javob topish uchun) mavjud bilimlari yetarli emas va u o'zi faol ravishda yangi bilimlarni shakllantirishga majbur bo'ladi.
- O'zaro ta'lim. Faol ta'lim usullaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni o'tkazishning ko'plab shakllarining asosiy nuqtasi jamoaviy faoliyat va bahs-munozara shaklidir.
- Individuallashtirish. Talabaning individual qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quv va kognitiv faoliyatni tashkil etish talabi. Belgi, shuningdek, o'quvchilar o'rtasida o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z-o'zini o'rganish mexanizmlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.
- o'quvchilarning ta'lim axborotlari bilan o'zaro ta'sirining tezkorligi, mustaqilligi. O'qitish faollashganda o'qituvchi talabalar darajasiga o'tadi va yordamchi sifatida ularning o'quv materialini bilan o'zaro munosabati jarayonida ishtirok etadi, ideal holda o'qituvchi hamkorlik pedagogikasi tamoyillarini amalga oshirgan holda ularning mustaqil ishining etakchisiga aylanadi.
- Motivatsiya. Shaxsiy va jamoaviy faoliyat, talabalarning mustaqil va tartibga solinadigan o'quv va kognitiv faoliyati motivatsiya tizimi tomonidan rivojlantiriladi va qo'llab-quvvatlanadi. Shu bilan birga, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan o'quvchilarning motivlari quyidagilardan iborat: o'quv va kognitiv faoliyatning ijodiy tabiati, raqobatbardoshlik, sinflarning o'yin tabiati.
 - Hissiy ta'sir. Faoliyatning muammoli mazmuni, ijodiy tabiati va raqobatbardoshligi sharoitida organizm zahiralari tez, keskin ishga tushirish amalga oshiriladi. Bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan his-tuyg'ular odamni faollashtiradi, undaydi, uning diqqatini faoliyatni amalga oshirishga qaratadi.
 - Motivatsiya. Shaxsiy va jamoaviy faoliyat, talabalarning mustaqil va tartibga solinadigan o'quv va kognitiv faoliyati motivatsiya tizimi tomonidan rivojlantiriladi va qo'llab-quvvatlanadi. Shu bilan birga,

o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan o'quvchilarning motivlari quyidagilardan iborat: o'quv va kognitiv faoliyatning ijodiy tabiati, raqobatbardoshlik, sinflarning o'yin tabiati.

- Hissiy ta'sir. Faoliyatning muammoli mazmuni, ijodiy tabiati va raqobatbardoshligi sharoitida organizm zahiralarini tez, keskin ishga tushirish amalga oshiriladi. Bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan his-tuyg'ular odamni faollashtiradi, undaydi, uning diqqatini faoliyatni amalga oshirishga qaratadi.

Tuzilishi bo'yicha, texnologiyaga muvofiq, butun o'quv tadbiri mantiqiy bog'liq bo'lgan bosqich va bosqichlarga bo'linadi:

1-bosqich. Ma'rifiy tadbirning boshlanishi

Bosqichlar: boshlash (darsning boshlanishi, tanishish)

mavzuga kirish yoki kirish (dars maqsadlari xabari)

talabalarning umidlarini shakllantirish (dars effektlarini rejalashtirish)

2-bosqich. Mavzu ustida ishlash

Bosqichlar: interaktiv ma'ruza (ma'lumotni uzatish va tushuntirish)

mavzu mazmunini o'rganish (talabalarning guruh ishi)

3-bosqich. Ma'rifiy tadbirni yakunlash

Bosqichlar: brifing (mulohaza, darsni baholash)

hissiy bo'shatish (isitish)

Har bir bosqich ma'rifiy tadbirning to'liq bo'limidir. Bo'limning hajmi va mazmuni dars mavzusi va maqsadlariga qarab belgilanadi. Har bir bosqich o'z funktsional yukiga ega, o'z maqsad va vazifalariga ega, bundan tashqari, darsning umumiy maqsadlariga erishishga hissa qo'shadi.

Darsning bosqichlari va bosqichlari mantiqiy bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi bo'lib, o'quv jarayonining yaxlitligi va izchilligini ta'minlaydi, darsga yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarga tugallangan ko'rinish beradi. SHuning uchun ham dars jarayonida foydalaniladigan barcha AMOlar tarbiyaviy hodisaning umumiy mantig'iga mos kelishi, darsning maqsad va vazifalariga va uning tarkibiy qismlariga javob berishi, o'quv jarayonining to'liq va to'liq tasavvurini yaratishi kerak.

FO'U-dan uslubiy jihatdan malakali foydalanish bilan bunday rasm albatta yaratiladi. O'zaro bog'langan, bir-birini mustahkamlovchi, darsning umumiy mantig'iga bog'langan, qo'yilgan maqsadlar sari etaklovchi faol usullarning didaktik zanjiri FO'U ning zamonaviy ta'lim texnologiyasini tashkil etadi. Faol usullar tizimidan foydalanish ta'lim effektlari majmuasiga erishishga yordam beradi - o'qitish, tarbiyalash, o'quvchi shaxsini rivojlantirish va ijtimoiylashtirish. FO'U texnologiyasidan foydalangan holda jarayon va ta'lim

natijalarining samaradorligi metodlarni ishlab chiqish jiddiy psixologik va uslubiy asosga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. Korobchenko T.V., Rozovoy Yu.Ye. Zdorovesbergayushiyе metodы v rabote s detmi s rechevymi narusheniyami. Pod. Red. N.N. Yakovlevoy, Ye.A. Petrovoy – SPb APPO, 2010g. – 255 s.
2. Povalyayeva, M. A. Netraditsionnye metodiki v korreksionnoy pedagogike / sostavitel M. A. Povalyayeva. – Rostov n/D : Feniks, 2006. – 350 s.
3. Problem obucheniya i vospitaniya detey s zaderjkami psixicheskogo razvitiya: sbornik metodicheskix materialov / pod red. I. Yu. Maysuradze. – Ulyanovsk: UIPKPRO, 2006. 92 s.
4. Health Supervision for Children With Down Syndrome / American Academy of Pediatrics // Pediatrics. – 2001. – № 107. – S. 445–448.
5. Growth charts for children with Down syndrome: 1 month to 18 years of age / C. Cronk, A. C. Crocker, S. M. Puschel [et al.] // Pediatrics. – 1998. – Vol. 81. – P. 102–110.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda o'qitishning faol usullaridan fodalanish yo'llari yoritilgan. Mamlakatimizda aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga alohida yordam ko'rsatish maqsadida korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim hamda kompensatsion ta'lim tizimi yaratildi. Bu muayyan bolaning qiziqishlari va ta'lim ehtiyojlarini qondirish, uning individual qobiliyatlarini hisobga olish, to'liq ta'lim olish va sog'lig'ini saqlash imkonini beradigan ta'lim jarayonini tashkil etishning sifat jihatidan yangi darajasidir. Aksariyat bolalarda kognitiv faollik darajasi etarli emas, o'quv faoliyati uchun motivatsiyaning etuk emasligi, samaradorlik va mustaqillik darajasi pasaygan. Shuning uchun o'qitishning faol shakllari, usullari va usullarini izlash va ulardan foydalanish o'qituvchi faoliyatida korreksiya va rivojlanish jarayoni samaradorligini oshirishning zarur vositalaridan biridir.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются способы использования активных методов обучения с учетом индивидуальных особенностей детей с нарушениями психического развития. В целях оказания индивидуальной помощи детям с нарушениями психического развития в нашей стране создана система коррекционно-развивающего образования и компенсационного образования. Это качественно новый уровень организации образовательного процесса, позволяющий удовлетворить интересы и образовательные потребности конкретного ребенка, учесть его индивидуальные способности, получить полноценное образование и сохранить здоровье. У большинства детей наблюдается недостаточный уровень познавательной активности, незрелость мотивации к учебной деятельности, снижение работоспособности и самостоятельности. Поэтому поиск и использование активных форм, методов и приемов обучения является одним из необходимых средств повышения эффективности коррекционно-развивающего процесса в деятельности педагога.

SUMMARY

This article discusses ways to use active teaching methods, taking into account the individual characteristics of children with mental development disorders. In order to provide individual assistance to children with mental developmental disorders, a system of correctional and developmental education and compensatory education has been created in our country. This is a qualitatively new level of organization of the educational process, which allows you to meet the interests and educational needs of a particular child, take into account his individual abilities, get a full education and maintain health. Most children have an insufficient level of cognitive activity, immaturity of motivation for learning activities, a decrease in working capacity and independence. Therefore, the search and use of active forms, methods and techniques of teaching is one of the necessary means of increasing the effectiveness of the correctional and developmental process in the activities of a teacher.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ҰҚУВЧИЛАРИНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ ФАОЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Байметов Б.Б.

Чирчиқ давлат педагогика университети профессори

Атажанова Р.Р.

*Чирчиқ давлат педагогика университети, “Тасвирий санъат ва дизайн”
кафедраси ўқитувчиси*

Таянч сўзлар: тасвирий санъат, бадий ижод, бадий образ, гўзаллик ҳисси.

Ключевые слова: изобразительное искусство, художественное творчество, художественный образ, чувство прекрасного.

Key words: fine arts, artistic creativity, artistic image, sense of beauty.

Сўнгги йилларда республикамиз ва жаҳон тасвирий фаолиятга боғлиқ бўлган тадқиқот муаммосига оид адабиётлар, илмий изланиш натижаларидан кўринадики, болалар тасвирий фаолиятини ривожлантириш муаммосини ҳал қилиш билан шуғулланувчи тадқиқотчилар бошланғич синфдаги болаларнинг тасвирий саводхонлик асосларини ўзлаштиришлари муҳим ҳисобланади.. Жумладан, АҚШнинг кўплаб тадқиқотчилари болаларга тасвирий фаолият асосларини ўргатиш уларнинг ижодий ривожланишига янада фаол таъсир кўрсатишини ўз изланишларида тадқиқ қилмоқдалар.

Б.Джефферсоннинг “Teaching children art” болаларга тасвирий фаолият методикасини ўргатишда касбий таълим усуллари муваффақиятни таъминловчи ёндашув эканлигини кўрсатган. Буларга муаллиф, мотивация, баҳолаш, ёндашув, воситалар фаолият сирасига киритган. Яна бир америкалик тадқиқотчи В.Лоунфельд тасвирий ижодни интеллектуал фаолият сирасига киритиб, боланинг ҳиссий ривожланишида муҳим аҳамиятини кўрсатди.

Тасвирий санъат эстетик тарбия билан бевосита боғлиқ фаолият тури бўлиб, ёш авлоднинг маънавий-ахлоқий дунёқараши, бадий тафаккурини шакллантиришда беназир кўмакдошдир. XX асрнинг йирик педагогларидан бири, профессор Е.А. Флёринга фикрича, “болалар тасвирий

ижоди - бу боланинг борлиқни тасавури, шахсий кузатувлари, шунингдек, бадиий сўз, рассомлик ва санъатнинг бошқа турларидан олган таассуротларидан илҳомланиб чизган расмлари, ясаган буюмлари, барпо қилган конструкциялари орқали онгли равишда акс эттиришидир. Бола атроф-муҳитдан кўр-кўрона нусха кўчирмайди, балки тўплаган тажрибаси, тасвирланаётган объектга нисбатан муносабатидан келиб чиқиб, воқелиқни қайтадан шакллантиради”.

Н.П. Сақулина болалар тасвирий ижоди деганда, бир томондан, тасвирлаш қобилиятини тушунса, бошқа тарафдан, уни боланинг бадиий ифодалаш маҳорати, тасвирланаётган мавзуга нисбатан шахсий муносабатини акс эттириш салоҳияти сифатида тавсифлайди. Т.С. Комарова эса болаларнинг бадиий, жумладан, тасвирий ижоди тушунчасини янада батафсил ёритишга ҳаракат қилади. Унинг таъкидлашича, “болалар бадиий ижоди - бу субъектив жиҳатдан боланинг, биринчи навбатда, шахсан ўзи учун аҳамиятли янги маҳсулот яратишидир (расм чизиш, буюмлар ясаш); ўзи дунёга келтираётган образни илгаридан маълум, лекин фойдаланилмаган янги қирралар билан бойитиш; воқеалар, ҳаракатлар тизими-сюжети, қаҳрамонларга хос хусусиятлар ва ҳоказоларни ўйлаб топишдир; ўзлаштирган тасвирлаш усуллари ёки ифодалаш воситаларини янгича шарт-шароитда қўллаш (рамзий маъно касб этадиган предметларни тасвирлашда мимика, жестлар, овозни ўзгартириш ва ҳоказоларни ўрганиш орқали образ моҳиятини етказиш учун); бадиий тасвирлаш, вазият, ҳатти-ҳаракат шакллари яратиш ва фойдаланиш, ҳар жабҳада ташаббускорлик кўрсатишдир”.

Болалар тасвирий ижоди - бу, аввало, ўзлигини намоён этиш йўлидир. Уларнинг самимийлик, беғуборлик, ҳиссиётларга берилувчанлик, соддадиллик, ранг-баранглик, ёрқинликка йўғрилган бадиий олами рассомларнинг ижодига ҳамоҳангдир.

Тасвирий ижод болада гўзаллиқни нозик тушуниш туйғусини ривожлантиради, уни маънавий-бадиий камолотга етаклайди, санъатга муҳаббат уйғотади, кадрлашни ўргатади. Болалар ижодий тафаккурини борлиқ ва санъатдаги нафосатни кўришга ўргатиш, бадиий фикр доирасини янада кенгайтириш орқали ривожлантириш, уларнинг яширин қобилиятларини кашф қилиш учун тасвирий санъатнинг асосий йўналишларини белгилаб олиш мақсадга мувофиқдир:

1. Рангтасвир-графика йўналиши - муайян юзада рангли ашёлардан фойдаланиб, бадиий ва ифодавий образлар яратиш жараёни, воқелиқни тасвирлаш ва талқин этиш усули.

2. Конструктив ижодкорлик - турли материаллардан субъектив ва объект аҳамиятга эга буюмлар яратишга қаратилган ижодий жараён бўлиб, болалар шахсий тажрибасини янги конструктив образлар яратишга йўналтиради. Бу машғулотлар болаларга кўшимча билим, амалий кўникама беради ва дунёқаришини кенгайтиради.

3. Пластик ижодкорлик - болаларнинг ўз руҳияти, воқелик ва ўзлигига бўлган муносабати, шахсий таассуротларини акс эттириш мақсадида турли пластик материаллардан фойдаланиб, субъектив ва объект қийматга эга ранг-баранг пластик образлар яратиш жараёни.

4. Декоратив ижодкорлик - бола шахси, тасаввурини шакллантириш, мантиқий фикрлаш ва бадий тафаккурини ривожлантиришга қаратилган йўналишлардан бири. У амалий-декоратив санъатнинг бирон бир тури анъаналарини ўзлаштириб, турли декоратив образлар яратиш жараёнини ўз ичига олади. “Берилган вазифа амалий мақсадларга хизмат қилса, болаларнинг декоратив расм чизишга бўлган қизиқиши ортади”.

5. Расм чизиш - болаларнинг энг севимли машғулот турларидан бири бўлиб, у фикрлаш, кўриш қобилиятини ривожлантиради, хотирани мустақамлайди, ҳам мантиқий, ҳам ижодий тафаккурни ўстиради. Шунинг учун ҳам мактабларда, айниқса, тасвирий санъат дарсларида расм чизишга катта аҳамият берилади.

Биз болалар ижодий фаолиятидаги энг биринчи машғулотлардан саналган расм чизиш ва унинг турларини батафсилроқ кўриб чиқамиз. Чунки у болалар тасвирий ижодини баҳолашнинг муҳим мезонлари сирасига кирилади:

1. Реалистик расмлар чизиш - воқеликни айнан ўзига ўхшатиб ҳаққоний акс эттириш йўли бўлиб, мавжуд борлиқдаги объектлар ва ҳодисалар уларга хос сифатлар ва белгилар орқали ифодаланади. Реалистик расмларда натурализм белгилари ҳам кузатилади.

2. Стиллаштирилган расмлар чизиш - боланинг муайян умумлашма образ яратиш йўлидаги уринишларидан бири. Образга ранг, шакл беришда ва композиция тузишда аниқликка эришишга ҳаракат қилинади. Бола стиллаштирилган расм орқали ўз кечинмалари, ҳиссиётлари ва тасаввурларини ифодалашни мақсад қилгани сабабли, уларда декоратив элементлар албатта учрайди. Яхлитликка эришиш, образга ифодавийлик бериш учун ранглар, шаклларнинг бузилгани кузатилади.

3. Абстракт расмлар чизиш - турли ранглар, тон композицияларидан фойдаланиб, предметсиз санъат асосида яратилади. Улар, биринчи на-

вбатда, боланинг ички дунёси, руҳий ҳолати, борлиққа бўлган муносабати, қизиқишлари, ҳиссиётларини акс эттиради.

Кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларини эстетик тарбиялаш учун биз тасвирий санъат дарсларида расм чизишни танладик. Чунки тасвирий ижодкорликнинг айнан шу тури болаларда катта қизиқиш уйғотади. Расм чизиш уларнинг сеvimли ва тушунарли машғулоти эканини инобатга олсак, у биз танлаган мезонларни ривожлантиришда алоҳида аҳамият касб этади.

Болалар айнан шу дарсларда тасвирий санъатнинг ёрқин намуналари билан танишиш ва таҳлил қилиш, шунингдек, ўзлари ҳам бевосита ижод билан шуғулланиш имкониятига эга бўлишади. Ўқитувчи эса болалар чизган расмларни ўрганиш орқали уларнинг ички дунёси, кечинмалари, кайфияти билан яқиндан танишиб боради. Расмларни таҳлил қилиш салоҳиятига эга бўлиш учун эса ўқитувчи уларни хусусиятларига кўра фарқлай олиши керак.

Шуни инобатга олиб, биз болалар чизган расмларни турларга тақсимладик. Муайян турга киритилган расмлар бошқасига хос жиҳатларни ҳам ўзида акс эттириши мумкинлигини назарда тутиб, тақсимотни шартли деб билиш мақсадга мувофиқдир:

- Натурага қараб, предметлардан расм чизиш - алоҳида тузилган предметларни уларнинг хусусиятлари, шакллари, ички табиатини акс эттириш орқали тасвирлаш.
- Воқеабанд (сюжетли) расм чизиш - муайян мавзудаги воқеалар тизимини (сюжетини) ўйлаб топиш ва белгиланган юзада акс эттириш.
- Декоратив расм чизиш - амалий санъатнинг турли йўналишларига хос мавзулар асосида муайян юзада орнамент, безак ёки декоратив композиция яратиш.

Бошланғич мактаб учун тасвирий санъат бўйича ишлаб чиқилган ўқув дастурларида ўқитувчи ва болалар, болалар ва санъатнинг ўзаро муносабатлари, шунингдек, тасвирий санъат дарсларида болаларни эстетик тарбиялаш учун танлаб олган мезонларимизнинг қанчалар тўлақонли акс эттирилгани ниҳоятда муҳим масаладир. Шуни инобатга олиб, бошланғич мактаблар учун тасвирий санъат бўйича яратилган бир қатор ўқув дастурларини таҳлил қилдик.

Олим, рассом ва педогог Б.М. Неменский “Тасвирий санъат ва бадиий меҳнат” дастурини ишлаб чиққан. Унда муайян предметларни чизишга асосланган анъанавий таълим ўрнига, ўқувчиларни атроф-муҳитни тасвирий санъат воситаларидан фойдаланиб бадиий ифодалашга илҳомлантириш кўзда тутилган. Бу эса ўқувчиларнинг эстетик тафаккурини риво-

жлантиради, ҳаёт ва санъат ўртасидаги узвий ришталарни тушунишини осонлаштиради. Б.М. Неменский санъатни маънавий маданият, ахлоқий кадрият сифатида таърифлайди. Унинг фикрича, санъат “ҳаётга муносабатнинг асрлар замирида шаклланган тажрибасидир. Умумтаълим мактабларида санъат шунчаки маҳорат дарсига айланиб қолмаслиги, аксинча, одамнинг Инсонлашуви воситаси бўлиши керак”.

Дастурда воқеликни ўрганишга ёрдам берадиган бадиий фаолиятнинг уч тури ажратиб кўрсатилади: конструктив, тасвирий ва декоратив. Тасвирий фаолиятни у қуйидаги турларга бўлади: рангтасвир, графика, ҳайкалтарошлик. Муаллиф дастурнинг мазмун-моҳиятини “санъатнинг инсон ҳаёти билан боғлиқлиги, санъатнинг кундалик ҳаётдаги роли, санъатнинг ижтимоий ҳаётдаги ўрни, санъатнинг ҳар бир бола ривожланишидаги аҳамияти” нуқтаи назаридан ифодалайди. Яъни, Б.М. Неменский дастурни ҳаёт ва ижод уйғунлиги асосига қуради. Мактаб ўқувчиларининг дарслардаги бадиий фаолияти турфа шаклларда намоён бўлади: юзада яратилган ва ҳажмли тасвирлар; декоратив ва конструктив ишлар; воқеликдаги ҳодисалар ва санъат асарларини идрок этиш; дўстларининг ижодий ишларини муҳокама қилиш, машғулотлардаги жамоавий меҳнат ва индивидуал ижодий фаолият натижалари. Бадиий материаллар ва ижодий техникаларнинг ранг-баранглиги, фаолият турлари кўламнинг кенглиги ўқувчиларни ижодий изланишга мунтазам рағбатлантириб туради.

Дастур ўқувчиларни умуминсоний маданиятнинг мураккаб оламига етаклайди, уларга тарихий тараққиётнинг моддий ва маънавий меросини ўрганишда кўмаклашади. Ўқув курсининг ўзига хослиги ва аҳамияти маънавий-ахлоқий тарбия ва болаларнинг қобилияти, ижодий салоҳияти, ассоциатив-образли фикрлаш истеъдоди, фазовий тафаккури ҳамда тасаввурларини кашф этишга қаратилгани билан баҳоланади. Кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларида мураккаб объектлар ва ҳодисаларни идрок қилиш, уларни ҳиссий баҳолаш кўникмасини шакллантиради. Шундан келиб чиқиб, Б.М. Неменский томонидан яратилган ўқув дастурида биз эътибор қаратган мезонларнинг аксарияти мавжудлигига амин бўлдик. Уларнинг иккитаси — бошқаларнинг кечинмаларини ҳис қилиш, дунёга атрофдагилар кўзи билан қарай билиш қобилияти ҳамда эстетик ва предметли ижодий фаолият юритиш салоҳияти тўлақонли ифодаланган.

О.А. Куревина ва Е.Д. Ковалевская тўрт йиллик бошланғич мактаб учун “Тасвирий санъат” дастурини [3] ишлаб чиқишди. Уларнинг таъкидлашича, ҳозирги болалар жуда катта кўламдаги ахборотни ўзлаштириб боришади, мантиқий фикрлаш борасида эса ўзларидан аввалги авлодга

нисбатан устиворлар. Шу билан бирга, уларнинг аксарияти ҳиссий-образли фикрлаш, борлиқ гўзалликларини тушунишда муаммоларга дуч келади. Муаллифлар масаланинг ушбу жиҳатларини инобатга олиб, ўқув дастурида эстетик тарбияга алоҳида эътибор қаратишган. Фикримизни асослаш учун, О.А. Куревина ва Е.Д. Ковалевская ўқув дастурида илгари сурилган мақсадлардан айримларини кўриб чиқамиз:

1. Шахс маданиятини тарбиялаш, умуминсоний маданиятнинг таркибий қисми, дунё ва Ўзлигини англаш воситаси сифатида санъатга қизиқиш уйғотиш.

2. Болаларда эстетик ҳиссиётни тарбиялаш.

3. Турли йўналиш ва жанрда яратилган санъат асарлари тушуниш ва таҳлил қилиш қобилиятини ривожлантириш.

4. Тасаввур ва кўз хотирасини ривожлантириш.

5. Бошланғич бадиий саводхонлик асослари ва тасвирий фаолиятнинг муҳим усулларини ўзлаштириш.

О.А. Куревина фикрича, санъат умуминсоний маданиятнинг интегратив таркибий қисми сифатида хизмат қилиши керак. Олима болаларда дунёнинг ҳам моддий, ҳам маънавий (руҳий) томонларини умумлаштирган яхлит тасвирини шакллантириш учун санъат турларини бадиий меҳнат атрофида уйғунлаштириш зарурлигини таъкидлайди. Моддий ва маънавий маданиятни идрок этиш, дахлдорлик туйғуси, ўзининг яширин қобилиятларини кашф қилиш, дунёни нафақат кузатиш, балки ўзгартириш орқали ўрганиш бадиий-ижодий фаолиятнинг якуний натижаси сифатида эътироф этилади.

Ўқув курсининг ўзига хослиги ва аҳамияти маънавий-ахлоқий тарбия ва болаларнинг қобилияти, иждодий салоҳияти, ассоциатив-мажозий фикрлаш истеъдоди, фазовий тафаккури ҳамда тасаввурларини кашф этишга қаратилгани билан баҳоланади. Кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларида мураккаб объектлар ва ҳодисаларни қабул қилиш, уларни ҳиссий баҳолаш кўникмаси шаклланади. Ушбу дастурда биз аниқлаган ҳар уч мезон тўлақонли акс эттирилгани ва уларни амалга ошириш тадбирлари ишлаб чиқилганига гувоҳ бўлдик.

Т.Я. Шпикалова бошланғич синфлар учун “Тасвирий санъат ва бадиий меҳнат” дастурини яратган. Мактаб ўқувчисини юксак бадиий дид эгаси ва билимли шахс этиб тарбиялаш, боланинг тарихий хотираси, қобилиятлари, салоҳиятини ривожлантириш орқали эстетик маданиятнинг яхлит асосларини шакллантириш, халқ амалий санъати ва хунармандчилигининг асрий анъаналари, қадриятларини ўрганишга бўлган қизиқишини

фаоллаштириш – дастур олдиға қўйилған олий мақсадлардир. Бу режаларни тасвирий санъат ва бадий мехнат, сўз санъати ва кўшиқ ижрочилигини (музикани) ўзида уйғунлаштирган интегратив ёндашув ёрдамида амалга ошириш мумкин.

Дастурда белгиланған ўқув мақсадларини кўриб чиқамиз:

1. Санъат асарлари ва борлиқни ҳиссий-образли идрок этишни такомиллаштириш.
2. Бадий маданиятнинг кундалиқ ҳаётдаги ифодасини кўра билиш қобилиятини ривожлантириш (музейлар, меъморчилик, дизайн, ҳайкалтарошлиқ ва б.);
3. Хилма-хил бадий материаллар билан ишлаш кўникмасини шакллантириш.

Дастур тўрт қисмдан иборат бўлиб, улар санъатнинг типологик, линвистик томонлари, шунингдек, фаолият ва қадриятларга йўналтирилған қирраларини очиб беради. Улар биргалиқда бошланғич бадий таълим ва тарбия юзасидан белгилаган вазифаларни ҳал қилишга қаратилған. Т.Я. Шпикалова ишлаб чиққан ўқув дастурининг ўзига хослиги ва аҳамияти “болаларнинг ижодий иқтидори ва салоҳиятини кашф қилиш, уларда ассоциатив-образли ва фазовий фикрлашни ривожлантириш, мактаб ўқувчиларини маънавий-руҳий тарбиялашга қаратилганида ифодаланади. Кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларида мураккаб объектлар ва ҳодисаларни идрок қилиш, уларни ҳиссий баҳолаш кўникмаси шаклланади” [4]. Дастур санъат асосларини ўқитишда ўқувчиларнинг машғулотларда фаол қатнашиши, уларнинг ўқитувчи томонидан атайлаб яратилған муаммоли вазиятларга ечим топишга ҳаракат қилишларига асосланған. Бундай ёндашув эса болалардан турли бадий материаллар билан изчил ишлаш, тажрибалар ўтказиш, уларнинг хусусиятлари ва бадий образ яратиш учун берадиган имкониятларини тушунишни талаб этади. Машғулотларда ўқувчиларнинг қизиқиши ранг-баранг бадий материаллар ва техник усуллар ёрдамида ушлаб турилади. Т.Я. Шпикалова ижодий фаолиятнинг қуйидаги турларидан фойдаланишни тавсия қилади: расм, рангтасвир, ҳайкалтарошлиқ, бадий конструктирлаш ва дизайн, амалий-декоратив санъат. Ушбу дастурда ҳам эстетик тарбиянинг барча уч мезони қайд этиб ўтилған, лекин улар батафсил кўриб чиқилмаған [4].

Кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларини эстетик тарбиялашда тасвирий ижоднинг аҳамияти катта ва имкониятлари кенг. Уни тасвирий санъат дарсларида расм чизиш доирасида кўриб чиқамиз. Чунки тадқиқотимизда алоҳида эътироф қилинған мезонларни фаолиятнинг айнан ушбу

тури ёрдамида янада ривожлантириш мумкин. Ушбу машғулотлар болага тасвирий санъат оламининг дурдона асарларини ўрганиш ва таҳлил қилиш ҳамда ўзининг ҳам ижодий фаолият билан шуғулланишига имконият яратади. Расм чизиш ижодий фаоллик, фикрлаш қобилияти барқарорлигини, тасаввур ва ташаббускорликни талаб қилади. Бу машғулотлар ҳам шаклан, ҳам мазмунан эстетик англашнинг ҳамма жиҳатлари - эстетик ҳиссиёт, эстетик завқ, эстетик дид, эстетик муҳокамани қамраб олади. Биз тасвирий санъат бўйича ишлаб чиқилган бир неча дастурларни ўрганиб, таҳлил қилиб чиқдик ва қуйидаги хулосаларга келдик:

1. Тасвирий ижод (расм чизиш доирасида) эстетик билимларни шакллантиради. Ҳар бир муаллиф бу жараёнга шахсий қарашлари, малакаси, тажрибаси ва дунёқарашидан келиб чиқиб ҳиссасини қўшган. Масалан, Б.М. Неменский ва Л.Г. Савенкова тасвирий ижоднинг атроф-муҳит (болани ўраб турган воқелик, она юрти маданияти ва қадриятлари) билан уйғунликда бўлиши муҳим эканига эътибор қаратишган. Б.М. Неменский дастурида рангтасвир, графика, ҳайкалтарошлик бўйича билимлар тақдим қилинган. Т.Я. Шпикалова эса бадиий фаолиятнинг қуйидаги турларига урғу берган: расм, рангтасвир, ҳайкалтарошлик, бадиий конструктирлаш ва дизайн, амалий-декоратив санъат. Л.Г. Савенкова дастурида рангтасвир, графика, амалий-декоратив санъат, меъморчилик, дизайн, ҳайкалтарошлик йўналишлари кўриб чиқилган. Эътиборли жиҳати шундаки, дастурларда махсус атамаларга ҳам ўрин берилган. Мисол учун, Л.Г. Савенкова санъатнинг тасвирий-ифодавий воситалари - ритм ва кайфият, ҳаракат, композиция, фазовий тушунчаларга ойдинлик киритган.

2. Муаллифлар тасвирий ижод билан шуғулланган боланинг ўзига бўлган ишончи ошиши, унда воқеликни баҳолаш қобилияти ривожланиши борасида ҳамфикрлар. О.А. Куревина болани маънавий-ахлоқий тарбиялаш, унинг қобилиятларини ривожлантириш кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларида мураккаб объектлар ва ҳодисаларни идрок этиш, ҳиссий баҳолашни шакллантиришини таъкидлаган. Эстетик билимлар оларкан, болада гўзаллик ва хунуклик тушунчалари ҳақида фикр юритиш, санъатнинг ифодавий тилини англаш, асарларга шахсий баҳосини бериш сингари қобилиятлар ривожланади. Бу ҳамма муаллифлар услубий қўлланмаларида эътироф қилинган.

3. Ўқув дастурлари муаллифларининг таъкидлашича, бадиий материаллар, ва техник усуллар, фаолият турларининг ранг-баранглиги ижодий фаолиятга нисбатан қизиқишни оширади. Шунингдек, улар болаларга топқирлиги, мустақиллиги, ўзига хошлигини намён қилиш имконияти

бериш учун турли усулларни қўллашади. Масалан, Т.Я. Шпикалова да-стурида болаларни дарс жараёнида фаол қатнашиш ҳамда ўқитувчи то-монидан атайлаб яратилган муаммоли вазиятларга ечим топишга рағбат-лантириш йўлларида кенг фойдаланилади. Бу эса ўқувчилардан турли бадий материаллар билан тажрибалар ўтказиш, уларнинг хусусиятлари ва бадий образ яратиш учун берадиган имкониятларини ўрганишни та-лаб этади.

Адабиётлар:

1. «Изобразительное искусство. 1-4 кл. Рабочие программы по учебнику О.А.Курвиной, Е.Д.Ковалевской.ФГОС»Подробнее: <https://www.labyrinth.ru/books/448317/>
2. Изобразительное искусство. Учебник для 6 класса и учебно-методическое пособие для учи-теля, 2008 г.
3. Савенкова Л.Г. Воспитание человека в пространстве мира и культуры Интеграция в педаго-гике искусства, Монография. М.: 2010.
4. Шпикалова, Ершова, Поровская: Изобразительное искусство. 5-8 классы. Рабочие програм-мы. ФГОС М.: «Просвещение» 2010

РЕЗЮМЕ

Мақола тасвирий санъат воситасида бадий ижоднинг болада гўзалликка бўлган нозик туй-ғусини ривожлантириши, уни маънавий-бадий камолотга етаклаши, санъат орқали ёш қалбнинг атроф муҳит ва бўлган муҳаббат уйғотиши, кадрлаши ҳамда болалар ижодий тафаккурини, бадий фикр доирасини янада кенгайтириши ва уларнинг яширин қобилиятларини кашф қилиш масала-ларига қаратилган.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящена вопросам развития чувства прекрасного у ребенка посредством изобрази-тельного искусства, ведущего его к духовно-художественному совершенству, пробуждению, оцен-ке окружающей среды и любви через искусство, а также дальнейшему расширению творческого мышления детей, развитию кругозора и художественных способностей.

SUMMARY

The article is devoted to the development of a child's sense of beauty through fine arts, leading him to spiritual and artistic perfection, awakening, assessment of the environment and love through art, as well as further expansion of children's creative thinking, development of horizons and artistic abilities.



THE ROLE OF THE SCHOOL SUBJECT «TECHNOLOGY» IN THE PRIMARY SCHOOL OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Saidnazarova T.M.

teachers of the Department of OTD and labor training

Tayanch so'zlar: texnologik ta'lim, shaxs ijodi, texnologik dunyoqarash.

Ключевые слова: технологическое образование, творчество личности, технологическое мировоззрение.

Key words: technological education, personality creativity, technological outlook.

The value of the subject goes far beyond providing students with information about the «technical and technological picture of the world.» With appropriate content and methodological content, this subject can become a base for the formation of a system of universal educational activities in the primary level of a general education school. In this training course, all elements of learning activities (planning, task orientation, transformation, product evaluation, the ability to recognize and set tasks that arise in the context of a practical situation, offer practical solutions, achieve results, etc.) appear in a visual plan and thus become more understandable to children. Subject-practical creative activity, as the meaning of any activity, gives the child the opportunity not only for a detached perception of spiritual and material culture, but also a sense of belonging, a sense of self-realization, the need to master the world not only through content, but also through its transformation. The process and result of artistic and creative activity becomes not the goal itself, but, on the one hand, a means of cognition of the world, on the other hand, a means for a deeper emotional expression of the inner feelings of both the creative child himself and the ideas of the objects of the material world he studies. At the same time, the artistic and creative activity of the child involves all the stages of cognition of the world that are also inherent in adults: observation, reflection and practical implementation of the idea.

The course «Technology» is an integral part of the Educational system «School 2100». Its main provisions are consistent with the concept of this model and solve a set of tasks related to the formation of experience as the basis of learning and cognition, the implementation of search and analytical activities for the practical solution of educational problems of an applied nature, the formation

of the initial experience of practical transformational activity. The course is developing and teaching in nature with the priority of the developing function, integrated in its essence. It is based on a holistic image of the surrounding world, which is refracted through the result of students' creative activity. Technology as a subject is complex and integrative in nature. In terms of content, it assumes real relationships with almost all subjects in elementary school.

Mathematics - modeling (converting objects from a sensual form into models, recreating objects according to a model in a material form, mental transformation of objects, etc.), performing calculations, calculations, building forms, taking into account the basics of geometry, working with geometric shapes, bodies, named numbers.

The world around - consideration and analysis of natural forms and structures as a universal source of engineering and artistic ideas for the master; nature as a source of raw materials, taking into account environmental problems, human activity as the creator of the material and cultural environment, the study of ethno-cultural traditions

Native language - the development of oral speech based on the use of the most important types of speech activity and the main types of educational texts in the process of analyzing tasks and discussing the results of practical activities (description of the design of the product, materials and methods for their processing; narrative about the course of action and building an activity plan; building logically coherent statements in reasoning, justification, formulation of conclusions).

Literary reading - work with texts to create an image that is realized in a product, theatrical performances.

Fine arts - the use of means of artistic expression in order to harmonize forms and structures, the manufacture of products based on the laws and rules of arts and crafts and design.

The purpose of the course is self-development and development of the personality of each child in the process of mastering the world through his own creative objective activity. 353

Course objectives:

- obtaining initial ideas about the creative and moral significance of labor in the life of a person and society; about the world of professions and the importance of choosing the right profession

- assimilation of the initial ideas about material culture as a product of subject-transforming human activity;

- acquisition of self-service skills; mastering the technological methods of manual processing of materials; learning safety rules;

- the use of acquired knowledge and skills for the creative solution of simple design, art and design (design), technological and organizational problems;
- acquisition of initial skills of joint productive activity, cooperation, mutual assistance, planning and organization;
- acquisition of initial knowledge about the rules for creating a subject and information environment and the ability to apply them to perform educational, cognitive and design art and design tasks.

The methodological basis of the course is an activity approach, i.e. organization of the most creative objective activity of children, starting from the first grade. Reproductive is only the development of new technological methods, design features through special exercises.

Sample lesson plan. Each lesson begins with observation, perception of objects of the material and cultural heritage of peoples, samples of future practical work. Their analysis is carried out, first of all, from the point of view of their design features (the number of parts, their shape, type of connection), then - the means of artistic expression (color combinations, selection of materials, the ratio of the whole and parts, rhythm, etc.). The next technological step is to determine the methods of processing materials to obtain the planned result. Reflection and reasoning in the course of analysis, as the basis of the activity approach, implies the creation of one's own image of an object, the search through sketches of its appearance, design features, the rationale for the manufacturability of a particular material chosen, the determination of rational ways (necessary technological operations) of its manufacture, the determination of the sequence of practical implementation of the plan, solution of technical and technological problems. Practical manipulative activity involves the development of the basic technological methods necessary for the implementation of the plan, and the qualitative embodiment of the plan into a real material object. Particular attention is paid to the formation of elements of work culture among students.

Various types of practical work performed by students must meet the same requirements - practical significance (personal or public), accessibility, aesthetics, environmental friendliness. The teacher has the right to include his own variants of products, taking into account the regional component and his own aesthetic interests.

An important part of the practical work are exercises to master the basic technological methods and operations that underlie the manual processing of materials available to children of primary school age. Exercises are the key to high-quality performance of holistic work. The techniques mastered through the exercises are included in the practical work on the manufacture of products.

The proposed course «Technology» provides for the following types of work:

- the simplest observations and studies of the properties of materials, methods of their processing; analysis of structures, their properties, principles and methods of their creation;

- modeling, designing from different materials (according to a model, model);
- solving available design and technological problems (defining the search area, searching for missing information, determining the range of possible solutions, choosing the optimal solution), creative artistic tasks (general design, design);

- the simplest design (acceptance of an idea, search and selection of the necessary information, the final image of the object, determination of the design features and manufacturing technology of the product, selection of tools, materials, choice of methods for their processing, implementation of the idea with adjustment of the design and technology, testing the product in action, presentation (protection) of the process and result of work).

The regional component in the course is realized through acquaintance with culture and various types of creativity and work, the content of which reflects the local history orientation. These can be products related to the crafts and crafts of the area, other cultural traditions.

The activity of students initially has mainly an individual character. But the proportion of collective works is gradually increasing, especially creative, generalizing projects. Particular attention is paid to the issue of monitoring educational results, evaluating the activities of students in the classroom. The activity of students in the classroom is two-sided in nature. It includes creative thinking work and a practical part for the implementation of the plan. The quality of each of the components often does not match, and therefore often there cannot be one mark per lesson. For the successful advancement of the child in his development, it is important both to assess the quality of his activities in the lesson, and the assessment that reflects his creative searches and discoveries in the process of contemplation, reflection and self-realization. The mastered subject knowledge and skills are assessed, as well as universal learning activities. The results of practical work can be evaluated according to the following criteria: the quality of the implementation of individual (learned in the lesson) techniques and operations and work in general. An indicator of the level of formation of universal educational activities is the degree of independence, the nature of the activity (reproductive or productive). Creative searches and discoveries are encouraged in a verbal form of approval.

Literature:

1. Mirziyoyev Sh. Together with the brave and noble people, we will build our great future. M.: NOIU «Uzbekistan», 2017.

2. Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated April 6, 2017 No. 187 "On approval of state educational standards for general secondary and secondary specialized, vocational education". Collection of legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017.

3. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Koisinov G.O. Methods of teaching labor education, career guidance. Textbook. M.: TDPU, 2014.

4. Tokhirov 'O. Technological education is a state educational standard and a methodology for introducing the curriculum into educational practice. Methodical recommendation. M.: RTM, 2017.

РЕЗЮМЕ

Ushbu ma'ruzada O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimidagi boshlang'ich maktabda «texnologiya» fanining o'rni haqida so'z boradi.

Boshlang'ich sinflarda "Texnologiya" fani alohida o'rin tutadi, chunki u kuchli rivojlanish salohiyatiga ega. Bu darslarning eng muhim jihati shundaki, ular o'ziga xos psixologik-didaktik asos – fanga asoslangan amaliy faoliyat asosida qurilgan bo'lib, u boshlang'ich sinflarda ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishning (jumladan, mavhum tafakkurning) yaxlit jarayonining zarur bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. maktab yoshi. Kichik yoshdagi o'quvchi rivojlanishining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, texnologiya kursidagi o'quv jarayoni shunday qurilishi kerakki, bolaning mahsuldor ob'ektiv faoliyati uning kognitiv qobiliyatlarini, shu jumladan belgi-ramziy va ongni shakllantirish uchun asos bo'ladi. mantiqiy fikrlash. Faqat shu tarzda, bolaning funksional imkoniyatlari va uning rivojlanish qonuniyatlari haqiqiy hisob-kitoblarga asoslanib, kognitiv aqliy jarayonlarni faollashtirish va umuman o'rganishni faollashtirish imkoniyatini beradi.

РЕЗЮМЕ

В данном докладе говорится о роли школьного предмета «Технология» в начальной школе в системе народного образования Республики Узбекистан.

Предмет «Технология» занимает особое место в начальных классах, поскольку имеет мощный развивающий потенциал. Важнейшим аспектом этих занятий является то, что они построены на уникальной психолого-дидактической основе - практической деятельности, основанной на науке, которая является необходимой частью общего процесса духовно-нравственного и интеллектуального развития (в том числе абстрактного мышления). в начальных сортах. Служит в качестве удобрения. школьный возраст. Исходя из психологических особенностей развития младшего школьника, учебный процесс в курсе технологии должен быть построен таким образом, чтобы продуктивная предметная деятельность ребенка стала основой формирования его познавательных способностей, в том числе символов и сознания. . логическое мышление. Только таким образом функциональные возможности ребенка и законы его развития, основанные на реальных расчетах, дают возможность активизировать познавательные психические процессы и активизировать обучение в целом.

SUMMARY

This report discusses the role of the school subject «technology» in the elementary school of public education in the Republic of Uzbekistan.

The subject «Technology» in elementary school plays a special role, as it has a powerful developmental potential. The most important feature of these lessons is that they are built on a unique psychological and didactic base - subject-based practical activity, which serves as a necessary link in the holistic process of spiritual, moral and intellectual development (including abstract thinking) in primary school age. Due to the psychological characteristics of the development of a younger student, the educational process in the course of technology should be built in such a way that the child's productive objective activity becomes the basis for the formation of his cognitive abilities, including sign-symbolic and logical thinking. Only in this way, based on real accounting the functional capabilities of the child and the laws of his development provide the opportunity to activate cognitive mental processes and intensify learning in general.

СҮҶРЕТЛЕҲ ӨНЕРИ ХӘМ МУЗЫКА

MUSIQIY-EMOTSIONAL INTELLEKT – O‘QUVCHILARDA KREATIV VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK OMILI SIFATIDA

Ergashev M.I.

Andijon davlat pedagogika instituti

Tasviriy san`at va musiqa ta`limi kafedrasida dotsenti

Tayanch so‘zlar: musiqa, hissiy-emotsional intellekt, kuy, qo‘shiq, hissiyot, tasavvur, go‘zallik, festival, konsert, zavq, quvonch, konsepsiya.

Ключевые слова: музыка, эмоционально-эмоциональный интеллект, мелодия, песня, эмоция, воображение, красота, фестиваль, концерт, удовольствие, радость, концепция.

Key words: music, emotional-emotional intelligence, melody, song, emotion, imagination, beauty, festival, concert, pleasure, joy, concept.

Kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda bugungi kunga qadar yagona yondashuv mavjud emas. Buning natijasida ushbu sohada qo‘llaniladigan atamalarda ham turli-tuman talqinlar mavjud. Shuningdek, o‘quvchilarda ushbu kompetensiyalarni ta’lim muhitida o‘stirishga oid xilma xil yo‘nalishlar va qarashlar o‘z yechimini topmoqda. Ayniqsa, musiqa ta’limi orqali kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir izlanishlar salmog‘i ortib bormoqda.

Olimlar musiqa qanday his-tuyg‘ular bilan aloqadorligini aniqlashga harakat qilishdi, tadqiqotlar davomida har xil gipotezalar ilgari surildi, ammo aniq to‘xtamga kelinmadi. Fan obyektiv bo‘lishga intiladi, uning haqiqatlari hamma uchun bir xil bo‘ladi, lekin musiqa aynan subyektivlikda ifodalanadi. Agar ikkita insonni musiqa tinglashiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular his qilgan tuyg‘ular va holatlar haqida bergan tajribalari va talqinlari hech qachon bir xil bo‘lmaydi. Musiqani idrok etish yoshga, ma’lumotga, tug‘ilgan joy madaniyatiga va eng muhimi, har bir insonning temperamentiga bog‘liq.

Musiqa, kuy, qo‘shiq inson hayotining ajralmas qismidir. E’tibor qaratilsa, inson muttasil ovozlari, tovushlar qurshovida yashashi ayon bo‘ladi. Hatto jimjit tun qo‘ynida ham turfa xil ovozlari (tun qushlarining ovozi, qurbaqaning qurillashi, chigirtka ovozi, hayvonlari ovozi...) inson ruhiyatiga u yoki bu darajada ta’sir etadi. Ammo ovoz va tovushlarni, jumladan musiqani tinglashni, farqlashni,

undan ma'rifiy oziqlanishni, ma'naviy kuch olishni, ilhomlanishni hamma inson birday uddalay olmaydi.

Musiqadan ilhomlanishning birlamchi sharti – bu tinglashdir. Berilib, e'tibor bilan tinglash orqali inson musiqa, kuy, ohang ichiga kirib boradi. Nozik musiqiy fahm, muqim diqqat, tasuvvur qilish layoqati insonga musiqiy asarlardan ma'naviy-ma'rifiy, hissiy-estetik quvvat olish imkonini beradi. Natijada tinglovchida kreativlik, yaratuvchanlik imkoniyati kengayadi, ijtimoiy kompetensiyalari barqarorlashadi.

Musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilardagi hissiy intellekt kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirib boradi. O'zbek tilining izohli lug'atida hissiyot so'zi shunday izohlanadi: "Hissiyot – his – tuyg'ular va ularga berilganlik; hissiy holatlar. Kishi ruhiyatida yuzaga kelgan hissiy holat; shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlaridan kelib chiqadigan kechinmalari".

Psixolog olim Ergash G'oziyev hissiyot haqida umumiy tushuncha berib shunday yozadi: "Hissiyot – shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z - o'ziga bo'lgan munosabatlaridan kelib chiqadigan kechinmalari. ... Hissiyot ijtimoiy muhitdagi kishilar tomonidan o'zlashtirilgan g'oyalar, me'yorlar, qonun-qoidalar, nizomlar, qadriyatlarini aks ettiruvchi anglanilgan his-tuyg'ular, murakkab kechinmalarning vujudga kelishi jarayonidir. Masalan, mehnatdan lazzatlanish hislari, axloqiy, aqliy, nafosat tuyg'ulari hissiyotning o'zagi hisoblanadi".

Ayon bo'ladiki, hissiyot – bu zavq, quvonch, sevinch, g'urur, faxr, iftixor, shukronalik, umid, ishonch, empatiya kabi tuyg'ulardir. Shu bilan birgalikda, hissiyot ijobiy kechinmalarga zid o'laroq: g'azab, nafrat, o'kinch, umidsizlik, qo'rquv, hasad, qayg'u kabilarni ham ifodalashga xizmat qiladi.

Hissiyotlar inson faoliyatini tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun, his-tuyg'ular bilan qo'llab-quvvatlanadigan faoliyat faqat aqlning dalillari bilan boshqarilishiga qaraganda ancha muvaffaqiyatli bo'ladi. Baholash funktsiyasi bilan bir qatorda ba'zi his-tuyg'ular yana bir funktsiyaga ega: ular ijobiy mustaqil qadriyatlar, xatti-harakatlar motivi, o'z-o'zidan maqsad sifatida ishlaydi. Hissiyot va hissiy intellekt tushunchalari bir-biriga yaqin tursa-da, ularni farqlovchi muhim xususiyatlar mavjuddir.

Intellekt (lot.intelektus – aql, idrok, tasavvur). Kishining fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi; zehn. Intellektual – aql-idrok, bilish, tushunish. Ma'naviy ehtiyojlar bilan yashovchi yoki aqliy faoliyatning eng yuksak va murakkab turlari bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Hissiy intellekt (hissiy ko'rsatkich) – bu o'zining va boshqa odamlarning his-tuyg'ulari, niyatlari, motidlari, istaklarini tan olish va uni boshqarish qobiliyati.

Rivojlangan hissiy intellektga ega bo‘lgan odamlar boshqalar bilan muzokaralar olib borishlari, qarorlar qabul qilishlari va salbiy holatlarga to‘g‘ri javob berishlari mumkin. Hissiy intellekt zamirida ongli yondashuv, aqliy boshqaruv, empatiya tushunchalari yotadi. Yani, inson his-tuyg‘ularini aql, idrok asosida boshqaradi.

Olimlarning ushbu tadqiqotlaridagi asosiy fikrlar: rivojlangan “hissiy intellekt” insonga o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishga yordam beradi, bilim va samaradorlikni oshiradi, qaror qabul qilish va tashqi dunyo bilan uyg‘un munosabatlarni o‘rnatish qobiliyatini berishiga ishora qiladi.

Emotsional intellekt strukturasi asosiy predikatlari quyidagilardir:

- 1) idrok etish (reaktsiya - his-tuyg‘ularning namoyon bo‘lishi);
- 2) his-tuyg‘ularni tushunish va tan olish;
- 3) hissiyotlardan foydalanish;
- 4) o‘zi va boshqalarning his-tuyg‘ularini boshqarish.

Musiqashunos olim, musiqa sotsiologi, san‘atshunoslik fanlari doktori, professor Arnold Naumovich Soxorning fikriga ko‘ra: “Musika – voqelikni aks ettiradi va asosan ohanglardan tashkil topgan balandlik va vaqt bo‘yicha mazmunli va maxsus tashkil etilgan tovush ketma-ketligi orqali insonga ta‘sir qiladi”. Bu o‘rinda “ta‘sir qiladi” tushunchasini keng ma‘noda, insonning ruhiyatiga, ma‘naviy olamiga, ma‘rifiy qarashlariga ta‘sir etadi deb, idrok etish to‘g‘ri bo‘ladi. Musika mehnat jarayonidan so‘ng charchoqni, toliqishni tugatuvchi quvvatlanish manbai, dam olish chog‘larida ko‘ngilni yozuvchi oromiy ozuqa, ruhiy zo‘riqishlar davrida psixologik muolaja imkoniyati; ijodkorlik, yaratuvchanlik davrida ilhomlanish o‘zagi; olam va odamni idrok etishda falsafiy eruditsion omil sifatida “ta‘sir qilishini” e‘tirof etish joizdir. Shu



1-rasm. Musiqiy-emotsional intellekt orqali rivojlanuvchi kreativ va ijtimoiy kompetensiya sifatleri.

sababli musiqiy-emotsional intellekt orqali o'quvchilarda quyidagi kreativ va ijtimoiy kompetensiyalar rivojlanadi (2.1.1-rasmga qarang):

- umuminsoniy sifatlar: vatanparvarlik, yurtsevarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, tinchliksevarlik, fidoiylik, mardlik;
- axloqiy sifatlar: kamtarlik, ezgu ishlar qilish, diyonatli bo'lish, rostgo'ylik, halollik, oriyatlilik, hayoli bo'lish, kattalarni ulug'lash, kichiklarga izzatda bo'lish;
- boshqaruvchilik uquvi: guruh bilan ishlash, yetakchilik, murosaga kelish, ziddiyat, nizo, kelishmovchilik va mojarolarni oqilona hal eta bilish, ijro intizomi;
- mulqot odobi: xushmuomalalik, o'z fikrini aniq va ravon ifoda eta bilish, o'z galar fikrini tinglash, qabul qilish va munosabat bildira olish darajasi;
- fikrlash qobiliyatlari: tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash quvvatiga egalik;
- ijodkorlik qobiliyatlari: boy tasavvur, go'zallikni idrok etish va yaratishga intilish;
- tadqiqotchilik ko'nikmalari: tajriba, sinov, nazorat olib borish, statistik ma'lumotlarni qayd etish kabilar shakllanishiga, rivojlanib borishiga alohida urg'u beriladi, pedagogik faoliyat mazmuni shular asosiga quriladi.

Amerikalik yozuvchi, psixolog, ilmiy jurnalist Deniel Goulman boshchiligidagi ijtimoiy psixologlar va biznes boshqaruvi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan hissiy intellekt konsepsiyasiga ko'ra hissiy intellekt to'rt komponentni o'z ichiga olgan shaxsning ajralmas tuzilishi sifatida tushuniladi:

- o'z-o'zini anglash;
- o'zini o'zi boshqarish;
- ijtimoiy sezgirlik;
- boshqaruv qobiliyati.

Ma'lum bo'ladiki, hissiy intellekt shaxs kamolotining muhim psixologik omillaridan biridir. Deniel Goulman konsepsiyasida ta'kidlangan hissiy intellektning o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi boshqarish, ijtimoiy sezgirlik va boshqaruv qobiliyati kabi kompetensiyalar musiqa ta'limida, sozandalik, xonandalik, musavvirlik, teatr, haykaltaroshlik, me'morlik – umuman san'at voqeligi asosida yanada tez rivojlanadi.

O'z-o'zini anglash ijtimoiy kompetensiyasi. Musiqa ta'limi o'quvchilarda o'zini shaxs sifatida anglash, ijtimoiy o'zlikni idrok etish kompetensiyasini rivojlantirish quvvatiga ega. Shaxsning o'zini anglashi bu – odamning o'zini boshqa odamlardan va dunyodan farq qilishidir. Bu insonning o'ziga xosligini, o'z mustaqilligini, yaxlitligini idrok etishidir. U quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: insonning o'z ehtiyojlari, istaklari, fikrlari, his-tuyg'ulari va motivlarini

tushunishi, shuningdek, shaxsning dunyo va o‘zi bilan munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishi. O‘z-o‘zini bilishning asosi o‘z-o‘zini bilishdir.

Insonning shaxslik belgisi, avvalo, uning tafakkur yuritish layoqatida ko‘rinishi ayon bo‘ladi. Muayyan jamiyatning taraqqiyoti, birinchi navbatda, uni tashkil etgan insonlarning tafakkur salohiyati, fikr yuritish qobiliyati, qarashlarining ilg‘orligiga, ezguligiga bog‘liq. Rus yozuvchisi L.N.Tolstoy: “Butun gap fikrlashda. Hamma ishning boshlanishi – fikr. Shu boisdan ham takomillashishning bosh sharti fikr ustida ishlashdir” – deganida shuni nazarda tutgan.

Inson o‘z-o‘zini anglash chog‘ida yuz bergan voqelik, erishilgan yutuqlar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, kutilayotgan ezgulik yoki ko‘ngilsizliklar, oldinda turgan muhim vazifalar, muammo va ularning yechimlari; ruhiy holatlarning sabab va oqibatlari, mas‘uliyat va burch, umid va umidsizlik kabi masalalar xususida fikr yurita boshlaydi. Musiqa ta‘limi jarayonida o‘quvchilarda musiqa vositasida o‘z-o‘zini anglash, taftish qilish, baholash kabi kompetensiyalarni shakllantirilib borilishi ijobiy samara beradi.

O‘z-o‘zini anglash tushunchasini yanada kengroq ma’noda – milliy O‘zlikni anglash, millat, xalq tarixini idrok etish, o‘z ajdodlari, kelib chiqish ildizlarini tafakkur qilish, istiqbolini ko‘z oldiga keltirish tarzda tushunish shaxs dunyoqarashini yanada takomillashtiradi.

Musiqa, ayniqsa, yurt, Vatan madhi taranuum etilgan musiqiy asar, qo‘shiq, raqs ijrosi milliy O‘zlikni anglashni voqelantiradi, qalblarni to‘lqinlantiradi, faxr-iftixor tuyg‘ularni oshiradi, tafakkurni harakatga keltiradi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi, Erkin Vohidovning “Inson qasidasi”, “O‘zbekim”, Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman, O‘zbekistonni?”, Muhammad YUusufning “Vatanim”, Iqbol Mirzoning “Aytgil do‘stim!”, Xoldor Vulqonning “Vatan” kabi lirik asarlariga bastalangan kuy, ularning qo‘shiq ijrosi yangraganda inson ruhiyatida yuksalish kuzatiladi, shukronalik hissi ortadi, tasavvur va tafakkur uyg‘unlashadi: Vatan tarixi, millat o‘tmishi, yurt ravnaqi, olam va odam manzarasi ko‘z oldida kino lavhalaridek gavdalana boshlaydi, O‘zlikni, insoniyatni anglashga, idrok qilishga kirishiladi (2-ilova).

O‘z-o‘zini boshqarish ijtimoiy kompetensiyasi. O‘z-o‘zini boshqarish – bu shaxs yoki guruhning tartibga solish zarur bo‘lgan faoliyatni tashqi aralashuvlarsiz, boshqalarning ko‘rsatma va topshiriqlarisiz amalga oshira olish layoqatidir. Musiqiy ta‘limda o‘quvchilarda o‘zini o‘zi boshqarish hissiy intellektini rivojlantirish imkoniyati mavjud. O‘quvchilarda yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda: intiluvchanlik, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, etakchilik qilish, faollik singari ijobiy sifatlar, shuningdek, sho‘xlik, qaysarlik, o‘jarlik, odamovilik, urishqoqlik, gap uqmaslik kabi salbiy sifatlar ular bilan olib

ijtimoiy sergaklantiradi: taraddud ko‘rishga, ko‘cha, hovlilarni supurib tozalashga chaqiradi.

Tarixdan ma‘lumki, belgilangan musiqa asboblarning baland ovozda chalinishi dushman xavfidan ogoh bo‘lish, jangga chorlash, olg‘a yurish, chekinish kabi ijtimoiy sezgirlik ma‘nolarini kasb etgan. SHu ma‘noda, ijtimoiy sezgirlikka chaqiruvchi kuy, qo‘shiq va raqslarni shartli ravishda:

bayram-tadbirlarga, to‘y-hashamlarga chorlovchi – tantanavor kuylarga;

jangu jadallarga chaqiruvchi – jangavor kuylarga;

aza musibatlarida yangrovchi – motam kuylari kabi turlarga ajratish mumkin bo‘ladi.

Musiqa madaniyati fani o‘qitilishida o‘quvchilarni yuqorida qayd etilgan tantanavor, jangavor, motam kabi kuylarni tinglash, idrok qilish, ular xususida tafakkur yuritishga o‘rgatish orqali ularda ijtimoiy sezgirlik kompetensiyasi qaror toptiriladi.

Boshqaruvchanlik ijtimoiy kompetensiyasi. Musiqa, kuy, qo‘shiq, syujetli raqslar yordamida bir shaxsni yoki butun bir jamoani boshqarish mumkin bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangragan vaqtida uni tinglayotgan odamlar o‘z-o‘zini boshqarishga kirishadilar. Odob bilan qaddini tik tutadilar, o‘ng qo‘lini chap ko‘krak (qalb) ustiga qo‘yib iftixorga, g‘ururga beriladilar. Davlat madhiyasi inson tafakkuriga, ruhiyatiga, uning his-tuyg‘ulariga kuchli ta‘sir o‘tkazadi. Uning kuyi va qo‘shig‘i shaxsda vatanparvarlik, yurtsevarlik, fidoyilik, jasurlik, mardlik, shukronalik kabi juda ko‘plab ijtimoiy kompetensiya sifatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, chorlov, chaqiruv kuylari jamoani bir joyga jam bo‘lishini ta‘min etsa, jangovar kuy, qo‘shiq mardonavorlikka undashga xizmat qiladi. Aytaylik, oshiq o‘z yori uchun serenada kuyini chalib, qo‘shiq ijro etib uning his-tuyg‘ularini boshqarishga, mehrini qozonishga harakat qiladi. Ruhiiy zo‘riqishlardan toliqqan kishilar uchun yoqimli, mayin musiqa ostida ruhiy muolaja olib boriladi. Aqliy va jismoniy mehnatlardan so‘ng kishilar musiqa ko‘magida o‘z kuch-quvvatlarini tiklaydilar, sog‘ligini mustahkamlab oladilar. Bu kabi misollar musiqaning boshqarish quvvatiga egaligini yanada isbotlaydi. “Cho‘li Iroq”, “Ushshoq”, “Munojot”, “Farg‘ona tong otguncha”, “Mustahzod” kabi mumtoz, diltortar zamonaviy hamda dunyo va milliy musiqa uyg‘unligida yaratilgan kuy va qo‘shiq zamirida inson ruhiyatini boshqaruvchi ulkan musiqiy quvvat borligini inkor etib bo‘lmaydi.

Musiqa madaniyati fani o‘qitilishi jarayonida o‘quvchilarga musiqaning shaxs yoki jamoani boshqara olish quvvati mavjudligini, shaxsning boshqaruvchilik qobiliyatini rivojlantirish omillaridan biri ekanini idrok qilishga o‘rgatib boriladi. O‘quvchilarda musiqa vositasida o‘z-o‘zini boshqarish, ruhiy muvozanatini

yurak urishi tezlashadi va qon bosimi ko‘tariladi. G‘amgin, sekinroq va dissonant musiqa tinglaganda, bu kuzatilmaydi.

Tuyg‘ularning musiqa bilan bog‘liqligi masalasini o‘rganishga uchinchi yondashuv - bu turli xil musiqalarni tinglashda odamlarning turli xil yuz ifodalarini tan olishga harakat qilishlari. Odamlar quvnoq musiqani tinglaganlarida, ularning quvnoq, neytral va qayg‘uli yuzlari yanada quvnoq bo‘lib tuyuladi hamda ular qayg‘uli musiqa tinglaganlarida ko‘zlarida g‘amginlik aks etadi. Albatta, bu faqat his-tuyg‘ularning tashqi ko‘rinishlari, ammo bu shuni ko‘rsatadiki, musiqa insonlarga hissiy jihatdan ta‘sir qilgan, shuning uchun ular boshqalarning (musiqa ijodkorlari) his-tuyg‘ularini idrok etishgan. Demak, badiiy ijod mahsullari orqali ematsional intellektning kuchi insondagi kreativlik sifatlarining rivojlanishiga, keyinchalik insonning ma‘naviy va shaxsiy sohasiga ta‘sir qilish nuqtai nazaridan juda katta ekanligini ta‘kidlashimiz mumkin.

O‘quvchilarkreativliginirivojlantirishda, kognitiv layoqatini mustahkamlashda musiqa madaniyati fanining alohida o‘rni mavjud. Yoqimli musiqa, dilga yaqin kuy, qo‘shiq, nafis raqs ijrosi insonga motivatsiya beradi, uning tuyg‘ularini harakatga keltiradi, bilim olishga, ijod namunalarini yaratishga, bunyodkorlik qilishga undaydi. Ayniqsa, bilim olishga bo‘lgan qiziqish va intilishlarni kuchaytirishda musiqaning amaliy ahamiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Odatda, tafakkur sur‘ati sust, diqqati past, idrok etishi sekin, xotirasi zaif, xayoli tarqoq, tasavvur qilishi qiyin o‘quvchilarning bilimlarni puxta o‘zlashtirishlari talab darajasida bo‘lmaydi. Pedagogik amaliyotda bunday o‘quvchilarga tanbeh berish, uyaltirish, koyish, past baho qo‘yish, ota-onasiga arz qilish, rag‘batlantirishlardan chetlatish, e‘tiborsiz qoldirish, ma‘naviy tadbirlarga jalb qilmaslik kabi “jazo” choralari ko‘rilishi ko‘p uchraydi. Bizningcha, bu kabi vaziyatlarda o‘quvchilarga turli “jazo” choralari berishdan ko‘ra, ularga motivatsiya berish, izlanishga, ijodkorlikka chorlash, o‘z ustida ishlashga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Bunda musiqa, kuy, qo‘shiq, raqs, teatr, rassomlik, haykaltaroshlik kabi san‘at turlaridan uyg‘un foydalanish ijobiy samara beradi.

Musiqa, musiqa ta‘limi o‘quvchi yoshlardagi kreativlikni, iste‘dod, iqtidor uchqunlarini haqiqatga aylanishida, kamol topishida ilhom manbai, motivatsion quvvat asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Orombaxsh, ruhiy quvvat beruvchi, sezgi va tuyg‘ularga ijobiy ta‘sir o‘tkazuvchi musiqa, kuy, qo‘shiq kishini yaratuvchanlikka, ijodkorlikka undaydi. Bunday vaziyatlarda kishining tasavvur olami kengayadi, tafakkur va xayollari uyg‘unlashadi; nimadir yaratish, bunyod qilish, ezgu ishlar qilish istagi kuchayadi. Bu hol shoirlarda qo‘liga qalam tutib she‘r bitishga kirishish, musavvirlarda rang-bo‘yoqlar vositasida yangi ijod

namunasini yarata boshlash, bastakorlarda yangi musiqiy asarni notaga tushirish, tadbirkorlarda foydali ish rejasini tuzish kabilarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘quvchilarning kreativlik qobiliyatini musiqaga aloqadorlik asosida shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi emotsional intellektga ta‘sir etish usullaridan foydalanish mumkin:

Namuna keltirish. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga taniqli insonlar hayotidan namunalar keltiradi. Buyuk insonlarning muvaffaqiyatga erishuvida, kamolga etishuvida musiqaning ta‘siri muhim ahamiyat kasb etganligiga, ulug‘ kishilar musiqa san‘ati bilan hamnafas faoliyat yuritganligiga alohida urg‘u beradi (3-ilova).

O‘qituvchi taniqli insonlar, buyuk allomalar hayotida musiqaning muhim o‘rin tutganligini namuna keltirish bilan cheklanmaydi, o‘quvchilar bilan “Munozara”, “Aqliy hujum”, “Fikrlar bahsi” o‘tkazadi. O‘quvchilarda fanlarni o‘zlashtirishga, bilim olishga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini mustahkamlashga harakat qiladi.

Namoyish qilish. O‘quvchilarda kreativlikni oshirishda namoyish qilish, ko‘rsatish – ko‘rgazmalilik ijobiy samara beradi.

Ma‘lumki, anglanmagan, his etilmagan musiqiy asar o‘quvchiga ijodiy ilhom bermaydi. Bunda o‘qituvchi kinofilmlar, konsert, tanlovlar, teleko‘rsatuvlardan unumli foylanishi mumkin. Iste‘dodli, izlanuvchan, san‘at yo‘lida izlanishlar olib borayotgan yosh aktyorlar to‘g‘risidagi “Aktyor” ko‘rsatuvi, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali video materiallariga va boshqa manbalarga murojaat qilish orqali o‘quvchilarni musiqadan ilhomlanishga, uning vositasida o‘z kreativlik layoqatini shakllantirib borishga o‘rgatib boradi.

O‘qituvchi har qanday iste‘dod, iqtidor tinimsiz mehnat, izlanish, intilish natijasida voqelikka aylanishiga urg‘u beradi. Bu o‘rinda musiqa, kuy, qo‘shiq, teatr, rassomlik va boshqa san‘at turlarining imkoniyatlarini e‘tirof qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni u yoki bu kasbga, hunarga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini, ijodkorlik layoqatini musiqa yordamida rivojlantirishga o‘rgatib boradi. Musiqani idrok etib tinglash, undan zavqlanish, tuyg‘ulanish o‘quvchining kreativligini oshiradi, oldinga intilishiga amaliy ko‘mak beradi.

Odatda, biror faoliyat bilan, ishlab chiqarish, yaratuvchanlik bilan shug‘ullanayotgan insonlarning ish faoliyat jarayonida musiqa eshitib ishlayotganini ko‘p kuzatganmiz. Shovqinli holatlarda quloqchin taqib o‘z ishini musiqa uyg‘unligida olib boradiganlar ham oz emas. Chunki musiqa, kuy, qo‘shiq insonga ilhom beradi, ruhlantiradi, ish samaradorligini oshiradi. Aqliy mehnat kishilari ham yaratuvchanlik faoliyati davrida musiqa, kuy, qo‘shiq tinglaganliklari, musiqa asboblarining birini chalishni yaxshi bilganliklari, ba‘zilari hatto taniqli musiqachi va bastakor bo‘lganliklari fanga ma‘lumdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, musiqa hamma davrlarda insonlardagi kreativlikni, ijodkorlikni rivojlantirishga, ularni jamoa oldida o‘zini ijobiy namoyon etish qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilib kelgan. Hamma gap musiqani tuyishda, his qilishda, tinglay bilishdadir. Qachonki, tinglovchi musiqiy asarni jon qulog‘i bilan tinglasa, uni idrok qilsa, undan tuyg‘ulana olsa, haqiqiy ijodkorlik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik jarayoni boshlanadi. Musiqa madaniyati fani o‘qitilishi jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarda musiqani tinglash, uni tuyish, his qilish, uqish, idrok etish, undan ilhomlanish, tuyg‘ulanish, lazzatlanish kabi sifatlarni shakllantirib boradi. Bu esa o‘quvchi yoshlarda musiqa, teatr, rassomlik, hunarmandlik, chevarlik, oshpazlik, texnika sohalari va boshqa kasb-hunarlariga bo‘lgan ishtiyok, qiziqishning ortishiga, shu kabi kasb-hunarlarining chin egasi bo‘lish orzusining mustahkamlanishiga; o‘zi tanlagan kasb-hunar faoliyatida yangi g‘oyalarni ilgari surish, yaratish, bunyodkorlik qilishga zamin hozirlaydi; omma va jamoa oldida o‘zini namoyon etishga oid ko‘nikmalarini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати // иккинчи жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 252 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати // бешинчи жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 574.
3. Рыжов В.В., Архипова М.В. Эмоциональная креативность, музыка и развитие творческих иноязычных способностей // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 2-2. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=22433> (дата обращения: 12.08.2023).
4. Ғозиев Э. Умумий психологияси. Психология мутахассислиги учун дарслик. 1-китоб. – Т., 2002. – 173-175 б.
5. Ҳасанов Ш. Адабий таълим жараёнида талабаларда аналитик тафаккурни ривожлантириш технологиясини такомиллаштириш (Олий филологик таълим мисолида) педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражаси (PhD) учун ёзилган диссертация. – Наманган, 2020. – В. 17.
6. https://wellness-through-art.org/music-and-emotions/?gad=1&gclid=CjwKCAjwivemBhBhEiwAJxNWNxtpDlxBO1D6eBSHK1Zu-Rs29V_27mqrcw-S_PGf0XwT2gAlkuuQSB0CoxkQAvD_BwE
7. <https://trends.rbc.ru/trends/education/>
8. <https://yandex.ru/search/>
9. https://studme.org/2008021522518/psihologiya/kontseptsiya_emotsionalnogo_intellekta
10. <https://lifemotivation.online/razvitie-lichnosti/samopoznanie/samosoznanie>
11. <http://ippo.selfip.com:85/izvestia/nar>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchilardagi hissiy intellekt, kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish, o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatini musiqa aloqadorlik asosida shakllantirish va rivojlantirish masalalari bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье изложены вопросы развития эмоционального интеллекта, креативных и социальных компетенций учащихся в процессе музыкального образования, формирования и развития креативных способностей учащихся на основе их связи с музыкой.

SUMMARY

This article outlines the development of emotional intelligence, creative and social competencies of students in the process of music education, the formation and development of students’ creative abilities based on their connection with music.



MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOIIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI VA UNI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

Ergashev M.I.

Andijon davlat pedagogika instituti

Tasviriy san`at va musiqa ta`limi kafedrasi dotsenti

Tayanch so'zlar: musiqiy ta'lim, kompetensiya, metodika, maktab, musiqa madaniyati, kuy, qo'shiq, tafakkur, san'at, improvizatsiya.

Ключевые слова: музыкальное образование, компетенция, методика, школа, музыкальная культура, мелодия, песня, мышление, искусство, импровизация.

Key words: musical education, competence, methodology, school, musical culture, melody, song, thinking, art, improvisation.

Ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri bu – o'qitish metodikasini milliy va ilg'or xorijiy tajribalar uyg'unligida rivojlantirish, takomillashtirishdan iborat. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi", - deb alohida ta'kidlab o'tgan edi. Chindan ham o'qituvchining dars o'tish metodikasi mukammal, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, motivatsiya uyg'otuvchi, qiziqarli, tushunarli, ma'rifiy to'yintirilgan, ma'naviy boyitilgan ahamiyatga molik bo'lar ekan, shubhasiz, bunday darslarda o'quvchi bilimlarni puxta o'zlashtirib boradi.

Taniqli rus metodisti V.V.Golubkovning: "Barcha metodikalar, ular qaysi fanga tegishli ekanidan qat'i nazar, shu jihatdan bir-birlariga o'xshaydilarki, ular prinsiplar, materiallar va o'qituvchi metodlarini muayyan izchillikda tekshirishga qaratiladi va nimaga, nimani va qanday degan uch asosiy savolga javob beradi", - deb bergan ta'rifi metodikaning fanlararo mushtaraklik jihatini belgilashga xizmat qiladi.

Metodika istilohiga berilgan ta'riflar ichida rus metodist olimasi M.A.Ribnikovaning: "Metodika – bu vaqtni tejash, o'quvchilar kuchini oqilona ishlatish, o'quv materialidagi asosiy va bosh xususiyatlarni ko'ra olish ko'nikmasi, jamoa mehnatini tashkil etabilish san'ati; bu o'quvchilarga ularning individual xususiyatlarini ko'zda tutib ta'sir ko'rsatish tizimidir"

, deb bergan ta'rifi mukammalligi bilan ajralib turadi. Darslarda, o'quv mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metod va usullar, pedagogik texnologiyalar, grafik organayzerlar, umuman, dars sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan pedagogik tadbirlar har bir fan o'qitilishining mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani 5-7-sinflarda haftada bir soatdan o'qitilishi rejalashtirilgan. Bu o'quvchilar va o'qituvchiga musiqa faniga oid bilimlarni darsdan tashqari vaqtlarda, mustaqil o'zlashtirish vazifasini yanada kuchaytiradi. O'qituvchi darslar jarayonida o'quvchilar tafakkuriga musiqaning hayotiy zarurat ekanini, uning ko'rinmas, ammo yuksak kognitiv, emotsional, estetik, psixologik, refleksiv, empatik qudrati borligini singdirib boradi. Musiqaning o'quvchilardagi kreativlikni shakllanishi, ravnaq topishidagi o'rnini aniqlashtiradi. O'quvchilarda musiqaga qiziqish, mehr uyg'otadi, ularni rang-barang kuylar bilan musiqaga maftun etadi. Musiqaning go'zalligini, ohanglar jilosida inson sezimlariga, his-tuyg'ulariga ta'sir eta olish quvvatini tuyish ko'nikmasini shakllantiradi. Musiqaning san'atning boshqa turlari bilan hamda fanlararo aloqasini mustahkamlashga intiladi. O'quvchilarning u yoki bu kasbga bo'lgan qiziqishlarini, orzularni, kelajak maqsadlarini o'rganib, ularning ro'yobga chiqishida musiqadan motivatsiya olish ko'nikmasini hosil qiladi. O'quvchilarda tinglash, ijro etish, kuy bastalash, sahnalashtirish, improvizatsiya kabi musiqiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Musiqa darslarida improvizatsiya, ovozli o'yinlar, nutq mashqlari, musiqa haqida og'zaki ifodalash, qiziqarli musiqiy material tanlash, eshitish, musiqa asboblari bilan tanishtirish, notaga tushirish, ovoz yozish, dirijyorlik qilish, o'yinga tushish, yurish, sakrash, qarsak chalish, sahnalashtirish, musiqa asboblarni chalish kabi metod va usullar o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish yuksak samara beradi.

Ma'lumki, o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bu faqat maktab ta'limini qamrab olmaydi, balki oilada, maktabgacha ta'limda bolalardagi ijodkorlik, ijtimoiy layoqatlar shakllana boshlaydi. Maktab ta'limida o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishi yanada tezlashadi. Barcha fanlar qatori, musiqa ta'limi fani o'qitilishida o'quvchilardagi insoniy fazilatlar, go'zal axloqiy sifatlar, ijodkorlik kompetensiyalarining barqarorlashuviga, ijtimoiylashuviga alohida urg'u beriladi. Musiqa ta'limi fani nafosat, go'zallik, estetik ta'lim-tarbiya o'chog'i, tuyg'ular, sezimlar, hislar shakllanishiga kuchli ta'sir o'tkazuvchi nodir ruhiy quvvat manbai sifatida o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda yetakchi fanlardan biri hisoblanadi.

Musiqiy ta'lim vositasida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ularda quyidagi mashg'ulotlar bilan muntazam shug'ullanish ko'nikmasini qaror toptirish ijobiy samara beradi:

musiqa ilmiga oid kitoblar mutolaasi;

musiqa tinglash;

musiqani anglash, tafakkur yuritish;

qo'shiq ijro etish;

raqsga tushish;

cholg'u asbobida kuy chalish;

kuy, qo'shiq, raqs – san'at asarlari mavzusida esse, insho yozish;

test, krossvord, skanvord, rebus kabi boshqotirmalar ustida ishlash;

Tavsiya etilayogan mashg'ulotlar o'quvchilarning bilim olish jarayoniga halaqit bermaydi, aksinsa, eruditsiyasini oshiradi, tafakkurini charxlaydi. Bunday qiziqarli mashg'ulotlarni o'qitish mazmuniga singdirish, amaliy qo'llashni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Nemis pedagog olimi A. Disterverg "Har qanday ta'lim va tarbiyada eng asosiy narsa muallim, uning tafakkur dunyosidir", – deb ta'kidlaydi. Bundan anglashiladiki, o'qituvchining musiqiy tafakkur doirasi qanchalik keng bo'lsa, o'quvchilarning musiqa madaniyati borasidagi fikr yuritishi shuncha yuksalib boraveradi. O'qituvchining musiqiy bilimdonligi, kasbiy mahorati, tafakkur yuritish tezligi, fikrlash salohiyati o'z o'quvchilarida aks eta boshlaydi. O'qituvchi o'z tafakkur kuchi bilan, musiqiy bilimlar vositasida o'quvchilardagi ijodkorlikni yanada rivojlantiradi, ijtimoiy kompetensiyalarni barqarorlashga mustahkam zamin tayyorlaydi.

Musiqa ta'limi o'qitilishi jarayonida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini yanada shakllantirish uchun o'qituvchi: "Munozara", "Intellektual duel", "Fikrlar bahsi", "Xotira charxi" kabi interfaol metodlardan; induktiv, detektiv usullardan, "Fikriy hujum", "Bumerang", "Zinama-zina" kabi strategiyalardan; "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Muammoli taqdimot" kabi grafik tashkilotchilar (organayzerlar); vizual (namoyishlar, illyustratsiyalar, rasmlar...), kabi metod, usul va pedagogik texnologiyalaridan hamda musiqa madaniyati fani o'qitilishiga xos: "Musiqani top", "Musiqiy qadamlar", "Musiqiy salom", "Faol tinglash", "Musiqani kuzatish", "Musiqani davom ettir", "Musiqqa ijrolarini tomosha qilish", "Rolli o'yin", "Musiqiy dizayn", "Improvizatsiya", "Musiqiy viktorina", "Takroriy ritm", "Musiqqa haqida o'ylash", "Musiqiy empatiya", "Musiqani tavsiflash", "Musiqani tavsiflovchi she'riy qiyoslar, metaforalar, epitetlar", "Musiqqa haqida suhbat", "Musiqqa haqida hikoyalar", "Kompozitsiya yaratish", "Oldinga

yugurish va ortga qaytish”, “Qo‘shiq aytish”, “Musiqiy materialning qiziqarli tanlovi”, “Eshitish diqqatini faollashtirish (ohang, qismlar, kompozitsiyani o‘zgartirganda qo‘lni ko‘tarish)”, “Ovozni yozib ol”, “Harakat: dirijyorlik, yurish”, “Musiqaga mos sakrash, egilish, qarsak chalish...”, “Sahnalashtirish”, “Musiqaga asboblarda chalish” kabi metod va usullardan samarali foydalanishi o‘quvchilarni yanada faollashtiradi, ularning musiqa darslariga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Musiqa ta’limida dars metod va usullarini belgilashda quyidagi xususiyatlarni inobatga olish ijobiy samara beradi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Musiqa ta’limida dars metodlarini belgilash xususiyatlari.

Musiqa madaniyati fani o‘qitilishining ilmiy-nazariy hamda metodik asoslarini o‘rganish, bu jarayonga tizimli yondashish natijasida musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlarini belgilash imkoniga ega bo‘lindi.

Musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish besh bosqichdan iborat etib belgilandi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari

O‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari	
1-bosqich	Musiqa madaniyatini o‘rganishga motivatsiya hosil qilish
2-bosqich	Nazariy bilimlar olish
3-bosqich	Mustaqil amaliy faoliyat
4-bosqich	Natijalar tahlili
5-bosqich	Istiqbolli pedagogik strategiyani belgilash

Har bir bosqichda o‘quvchilarda musiqa madaniyatiga oid bilimlarni hosil qilish, rivojlantirishni, kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini qaror toptirishni hamda umumta’lim maktablari 5-7-sinflarda “Musiqaga madaniyati” fani

o'qitilishi doirasida, o'quvchilarga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq amalga oshirishni nazarda tutadi.

1-bosqich. Ushbu bosqichda o'quvchilarda musiqa, kuy, ohang, qo'shiq, raqs kabi san'at turlarini o'rganish ishtiyoqi, istagi, orzu, maqsadi, xohishi faollashtiriladi. Har qanday faoliyatning muvaffaqiyat omili, avvalo, shu faoliyatga bo'lgan qiziqish, intilish, istak, xohish, yondashuv, munosabat orqali belgilanadi. Agar insonda biror bir faoliyatni amalga oshirish uchun kuchli istak, maqsad hamda faol harakat mavjud bo'lsa, albatta, ko'zlangan niyatga erishiladi.

Rus nazariyotchifizikolimi N.A. Umov "O'quvchilarda tashabbus va o'z-o'zini faollik rivojlantirilmasa, barcha bilimlar jonsiz bo'lib qoladi; o'quvchilarni nafaqat fikrlashga, xohlashga ham o'rgatish kerak" ,- deb bildirgan fikrlari o'quvchilarda musiqa madaniyatini fanini o'rganish uchun ham dastlab kuchli ishtiyoq, xohish hosil qilish zarurligini dalillaydi. Faollashtirilgan ehtiyoj o'quvchilarda muntazam intilishni hosil qiladi, chunki bunday o'quvchilar musiqa inson hayotining ajralmas bir qismi, hayotiy zarurati ekanini anglab etgan bo'ladilar. Aslida har bir inson ruhiyatida, u qaysi yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, ichki intilish, ehtiyoj mavjud bo'ladi. O'quvchilardagi ana shu ichki ehtiyojni, istak va xohishni yuzaga chiqarish, kundalik faoliyatining ajralmas bir qismiga aylantirish faollashtirish hisoblanadi. Ehtiyoji faollashtirilgan o'quvchi o'zining kelajak faoliyatiga astoydil tayyorgarlik ko'radi, o'z ustida mustaqil ishlab bilim va ko'nikmalarini muntazam boyitib borishga o'rganadi.

Musiqa madaniyati fanini o'rganishga nisbatan shakllangan ehtiyojning bo'lishi o'quvchida faollikka intilish mexanizmini yuzaga keltiradi. Natijada uning o'qish va u bilan bog'liq barcha tadbirlarda ixtiyoriy tarzda faol qatnashishi va bu jarayonlarda o'zini namoyon qilishiga olib keladi.

O'quvchilarda musiqiy madaniyatimizni o'rganish ehtiyojni faollashtirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirgan holda tashkil etish, samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llash, barcha didaktik tadbirlarni o'quvchi shaxsidagi kreativlik va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodlardan foydalangan holda tashkil etish zarur bo'ladi. Qo'zg'atilgan ehtiyoj, istak, xohish nazariy bilimlar olish jarayonida reallikka aylanib boradi.

2-bosqich. Ma'lumki, ta'lim deganda, "shaxsning ma'rifat va tarbiyalanganlik darajasini orttirish orqali uning rivojlanishini ta'minlash maqsadida o'rgatuvchi bilan o'rganuvchilar o'zaro birgalikda amalga oshiradigan tizimli o'quv faoliyati, shaxsning aqliy taraqqiyotini ta'minlash niyatida ishga solinadigan didaktik chora-tadbirlar tizimi" tushuniladi. Ushbu ta'rifdan anglashiladiki, ta'limdan maqsad faqat bilim berish emas, balki o'rganuvchining ma'rifat va

tarbiyalanganlik darajasini ko‘tarish orqali uni rivojlantirish hamdir. Demak, ta’lim oxirgi maqsad emas, balki maqsad yo‘lidagi muhim vosita ekan. Ana shu vositasiz shakllangan zamonaviy odamni tasavvur ham qilib bo‘lmaydi.

Ushbu bosqichda o‘quvchilarga musiqa nazariyasi bo‘yicha bilimlar berish ko‘zda tutiladi. O‘quvchilarni musiqa madaniyati faniga xos nazariy bilimlar bilan qurollantirishda umumpedagogik, psixologik va metodik tamoyillarga izchil, uzviy yondashiladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, o‘zlashtirish imkoniyatlari, faollik darajasi, didaktik ta’minot holati va boshqa shu kabi unsurlar inobatga olinadi.

O‘quvchilar 5-7-sinflar kesimida musiqa madaniyatiga oid: kuy, ohang, zamonaviy musiqa, milliy musiqa, Sharq xalqlari musiqasi, Yevropa musiqasi, jahon musiqasi, musiqa shakllari, dinamik belgilar, takt va takt chizig‘i, pauzalar, usul, sur‘at, ritm, nota, ton va yarim ton; xor san‘ati, qo‘shiq, ashula, mumtoz ashula, maqom; xonandalik, duet, trio, kvartet, ansambl, orkestr; xalq aytimlari, lapar, xalq o‘yin-qo‘shiqlari; baxshichilik, kompozitor, milliy cholg‘ular, sozandalik, dirijyorlik san‘ati, raqs san‘ati, o‘zbek raqs maktablari, opera san‘ati, qo‘g‘irchoq san‘ati, teatr san‘ati va boshqa musiqa ilmiga oid nazariy bilimlarni o‘zlashtirib boradilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarga musiqaning inson hayotidagi mohiyati, shaxs ruhiyatidagi insoniy fazilatlar, axloqiy sifatlar, ijtimoiy kompetensiyalarni qaror topishidagi ma’naviy-ma’rifiy quvvati haqida; insonlardagi ijodkorlik, kreativlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik kabi layoqatlarning shakllanib rivoj topishida musiqa, kuy, raqs, teatr va boshqa san‘at turlarining ilhomiy manba, motivatsion qudrati xususida nazariy bilimlar beradi, ularni mustaqil amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

3-bosqich. Mustaqil amaliy faoliyat bosqichi o‘quvchilarda musiqa madaniyati fani bo‘yicha olingan nazariy bilimlarni amaliyotda mustaqil qo‘llay olish ko‘nikmasini hosil qilishni o‘z ichiga oladi. Ayni shu maqsadda o‘quvchilar mustaqil faoliyatga jalb etiladi. Ilmiy manbalarda subyektning biror faoliyatga tayyorligi uning bu faoliyat unsurlarini nazariy o‘zlashtirganlik darajasi bilan emas, balki ularni amaliyotga qanchalik qo‘llay olishi bilan belgilanishi isbotlangan. Shaxsning muayyan faoliyat bo‘yicha shakllangan individual tajribasi shu sohaga doir mavjud ijtimoiy tajribani qayta ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashsa, subyektning faoliyati obyektiv natija beradi. Shu tariqa mustaqil amaliy faoliyat mobaynida ta’lim jarayonida olingan nazariy bilimlarning amaliyotga keraklik darajasini sinab ko‘rish imkoni yuzaga keladi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan kuzatishlar, tahliliy natijalar musiqa madaniyati fani o'qitilishida o'quvchilarning mustaqil amaliy faoliyatini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha qaror toptirish to'g'ri ekanini tasdiqladi:

musiqani tinglash amaliy faoliyati;

kuylash – xonandalik amaliy faoliyati;

ijro etish – sozandalik amaliy faoliyati;

namoyish qilish – raqs, sahnalashtirish amaliy faoliyati.

Musiqani tinglash amaliy faoliyati. Tinglash – musiqa madaniyati fanini o'zlashtirishning eng zaruriy talablaridan biridir. Musiqiy asarni o'zlashtirishning ushbu amaliy faoliyati jarayonida o'quvchilar eng yorqin milliy va xorijiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, o'zaro taqqoslaydilar, baho beradilar. Ijrodagi har bir cholg'u asboblari tembrini farqlashga urinadilar, musiqiy asarning inson ruhiyatiga ta'siri, ma'naviy-ma'rifiy ozuqaviyligi, estetik zavqliligi xususida tafakkur yuritadilar. Tinglash jarayonida o'quvchilarda sabr-qanoatlilik, fahmlilik, kuzatuvchanlik, zehnlilik, e'tiborlilik, o'z-o'zini boshqarish, o'zgalarni hurmat qilish, xotirjamlik, muvozanatni saqlay bilish, tasavvur qilish, xotirlash, xayol qilish, tuyg'ulanish, zavqlanish, ruhiy oziqlanish, ma'naviy to'yinish, ma'rifiy quvvatlanish kabi layoqatlar shakllanib boradi.

O'quvchilarni musiqiy asarni tinglashga o'rgatish orqali ularda nutq odobi, muomala madaniyatini shakllantirish imkoniyati yanada kengayadi. Muloqot jarayonining eng muhim va nozik sharti – bu tinglashdir. Inson to'g'ri tafakkur yuritishi, o'z fikrini aniq, ravon ifoda etishi uchun, avvalo, tinglashni bilishi zarur. O'quvchilarda musiqiy asarlarni tinglash ko'nikmasi shakllantirilgan ekan, bu o'z navbatida, ularning odamlar bilan muloqot qilish, suhbat jarayonida o'zini tuta bilish, suhbat mavzusi bo'yicha so'zlash, suhbatdoshni hurmat qilish, muloqot o'rni, vaqti, mavzusi kabi omillarga e'tiborli bo'lish uquvining qaror topishiga ham xizmat qiladi. O'quvchilarda tinglash qobiliyatining barqarorlashuvi o'quv fanlarni o'zlashtirishda samaradorlikni orttiradi.

Kuylash – xonandalik amaliy faoliyati. Qo'shiq aytish o'quvchilarning eng sevimli musiqiy faoliyat turlaridan biridir. Bolalar qo'shiq aytishni musiqiy faoliyatning boshqa turlariga nisbatan ancha engil, qulay qabul qiladilar. Qo'shiq aytishga tayyorgarlik jarayonida o'quvchilarda matn ustida ishlash, yod olish, xotirada saqlash, ovozni sozlash, musiqa bilan uyg'unlashish, musiqadagi tembr balandligi va ritmik o'zgarishlarni his qilish kabi qobiliyatlar shakllana boshlaydi.

Qo'shiq aytish o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlanishga yordam beradi. So'zlarni to'g'ri va cho'zilgan ovoz bilan yoqimli talaffuz qilish

talab etiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning so‘zlarni aniq, ravon, to‘g‘ri talaffuz etishini nazorat qilib boradi. Qo‘shiq aytish tovush hosil bo‘lishining murakkab jarayoni bo‘lib, unda eshitish va ovozni muvofiqlashtirish juda muhimdir.

Qo‘shiq aytish bolalar ruhiyatiga ijobiy ta‘sir o‘tkazadi, kayfiyatini ko‘taradi. Jo‘r bo‘lib kuylash esa, ularni birgalikda faol harakat qilishga undaydi. Jo‘shqin kuylash orqali bolalarning musiqaga qiziqishi yanada ortadi, musiqiy qobiliyati rivojlanadi.

O‘quvchilarni qo‘shiq aytishga o‘rgatishda, birinchi navbatda, har bir o‘quvchining ovoz diapazonini aniqlash zarur bo‘ladi. O‘quvchilar ovoz diapazoniga ortiqcha kuch berish, ovozni asramaslik salbiy holatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bolalarning ovozini va eshitishini himoya qilishga hissa qo‘shadigan “qulay ovoz muhiti”ni yaratish talab etiladi.

Qo‘shiq aytish o‘quvchilarda – kreativlikni rivojlantirishning eng samarador yo‘li hisoblanadi. Ayniqsa, jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanish, biror hunar bilan mashg‘ul bo‘lish vaqtida qo‘shiq aytish, xirgoyi qilish ish unumdorligini oshiradi, yangilik yaratish ilhomini beradi. Masalan, rassomlik qobiliyati shakllanayotgan o‘quvchi ijod davrida o‘zi uchun sevimli qo‘shiqni xirgoyi qilar ekan, uning tasavvur olami, xayolot ufqi yanada kengayadi. Diltortar, yoqimli qo‘shiq o‘quvchiga motivatsiya beradi, uni faolroq harakat qilishga undaydi.

Qo‘shiq o‘quvchilarda go‘zal axloqiy sifatlarni, insoniy fazilatlarni shakllanishiga amaliy yordam beradi. Vatan madhi, yurt muhabbati, ota-ona hurmati, do‘stlik ulug‘vorligi, tabiat go‘zalligi, mehr-oqibat qadrliligi va shu kabi mavzularni tarannum etuvchi qo‘shiqlar o‘quvchilarda vatanparvarlik, yurtsevarlik, elparvarlik, fidoyilik, mehribonlik, mehnatsevarlik, g‘amxo‘rlik, saxovatpeshalik, mehr-oqibatlilik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik singari ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Ijro etish – sozandalik amaliy faoliyati. Maktab o‘quvchilariga cholg‘u asboblari chalishni o‘rgatish ularda musiqa savodxonligi yanada yuksalishiga olib keladi. O‘quvchilar musiqiy tovushlar olamiga kirib boradilar, milliy va dunyo xalqlari cholg‘u asboblari haqida bilimga ega bo‘ladilar. Har bir cholg‘u asbobining o‘ziga xos ovozi, shakliy tuzilishi, ijro qilish usuli ularning diqqat-e‘tiborini tortadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni milliy va dunyo xalqlari cholg‘u asboblari bilan tanishtirishda “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali video materiallaridan unumli foydalanishi tavsiya etiladi. Bunda o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida cholg‘u asboblari ijrosi, xonandalik mahorati, sahna madaniyati sirlaridan voqif bo‘ladilar. Turli millat va ellatlarning “Sharq taronalari” xalqaro musiqa

bayramida birlashishi, tilak va maqsadlarining uyg'unlashuvi o'quvchilarda millatparvarlik, yurtsevarlik, tinchlikning qadriga etish, shukronalik, do'stlik, birodarlik, inoqlik, axillik, o'zaro hamkorlik, tashabbuskorlik kabi ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanishiga amaliy yordam beradi.

Musiqa asbobida chalish o'quvchida diqqat, xotira kabi psixologik holatlarni yanada yaxshilaydi. O'quvchi cholg'u asbobida biror bir kuyni ijro etishni o'rganar ekan unda ijodkorlik, yaratuvchilik, bunyodkorlik kompetensiyasi shakllana boradi. Sozandalik o'quvchini mehnatsevarlikka o'rgatadi, sabr-qanoatli, irodali, matonatli bo'lishga undaydi. Musiqa asbobida chalish o'quvchida bir vaqtning o'zida ko'rish, tinglash, ijro qilish, tuyg'ulanish layoqatlarini harakatga keltiradi, faollikka odatlantiradi. O'quvchining o'z ijrosidagi yoqimli kuy, ohang, navo uning his-tuyg'ulariga ijobiy ta'sir etadi, uni go'zallikni qadrlashga, e'zozlashga chorlaydi.

Odatda, musiqa asboblarini chala oladigan o'quvchilar tengqurlariga nisbatan aqlli, izlanuvchan, ijodkor, a'lochi bo'ladilar. Bu narsa bolalarni, albatta, biror bir cholg'u asbobini chalishga o'rgatish zarur ekanligini anglatadi.

Namoyish qilish–raqs, sahnalashtirish amaliy faoliyati. O'quvchilarning raqs, teatr, improvizatsiya, boshlovchilik kabi faoliyatlari amaliy mustahkamlanadi. O'quvchilarning o'zbek raqs san'ati, teatr, musiqali drama va komediya bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish musiqiy ta'lim sifatini yuksalish omillaridan sanaladi.

O'quvchilarni raqsga tushishga o'rgatish matematika, ona tili va boshqa aniq fanlarni o'rganishga bo'lgan e'tibordan kam bo'lmasligi lozim. Raqs o'quvchidan faol jismoniy harakatni, aqliy faoliyatni talab etadi. Raqs o'quvchilarning ham jismonan, aqlan barkamol bo'lib voyaga etishlari uchun juda katta quvvat manbaiga ega bo'lgan san'at turi hisoblanadi. Raqs pedagogika, tibbiyot, psixologiya kabi fanlarni bir maqsad yo'lida birlashtiradi.

Raqs o'quvchilarda jamoaviylik, birgalikda harakat qilish, o'zaro hurmat, bir birini tushunish, hamdardlik, bir-birini qo'llab quvvatlash kabi fazilatlarini qaror toptiradi. Raqsga tushish o'quvchilar kayfiyatini ko'taradi; norozilik, tundlik, xafalik, tushkunlik holatlarini bartaraf etadi. Bu narsa bolalarning jismonan sog'lom bo'lishiga olib keladi. Sog'lom tanada, albatta, sog'lom aql mavjud bo'ladi.

O'qituvchi milliy va boshqa xalqlar raqslari, ularning ijro murakkabliklari, raqsni anglash, tushunish, uqish, u xususida tafakkur yuritish borasida o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar hosil qiladi. Raqs o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning eng qulay, keng qamrovli san'at turidir.

Musiqa darslarida o'quvchilarni teatr san'ati bilan yaqindan tanishtirish ulkan ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Kichik bir sahna ko'rinishida, oddiy epizodik rol ijro etgan o'quvchi umri davomida o'zining bu faoliyatini maroq bilan eslaydi, kezi kelganda farzandlariga so'zlab beradi. Men maktabda "shum bola"ni o'ynaganman, "Jamilani" men o'ynagan edim kabi xotiralar o'quvchi qalbida bir umr yashaydi.

O'zbek ma'rifatpavar ziyolisi Munavvarqori Abdurashidxonovning: "Teatr sahnasi barcha tomondan shishalangan xonaga o'xshar, unga kim kirsar, o'z go'zalligi va xunukligini, kamchilik va yutuqlarini ko'rib, ibrat oladi" ,- deb bildigan xulosalaridan ayon bo'ladiki, teatr – ibratxonar. O'quvchilarni ana shu ibratxonada tarbiyalash, ularga ma'naviy-ma'rifiy ozuqa berish pedagogik maqsad va vazifalar ro'yobini ta'minlashga xizmat qiladi.

Rolli o'yinlar, insenirovkar, o'qilgan badiiy asarlardan parchalar sahnalashtirish, improvizatsiyar, boshlovchilik – suxandonlik o'quvchilarda ijodkorlikni yuksaltiradi, go'zal axloqiy sifatlarni rivojlantiradi. Ushbu bosqichda bajarilgan ishlar monitoringi to'rtinchi Natijalar tahlili bosqichida amalga oshiriladi.

4-bosqich. Bu bosqichda o'quvchilarning musiqa madaniyati fanidan olgan nazariy va amaliy bilim, ko'nikma hamda malakalarining amaldagi holatini tahlil etish ko'zda tutiladi. Savol tug'iladi – o'quvchilar musiqa madaniyati fani o'qitilishida nimani olishlari kerak? Albatta, bilim olishlari kerak. Malaka talablarida belgilangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari lozim. Mantiqan qaralganda, bu javoblar to'g'ri ekaniga shubha yo'q. Bizningcha, musiqa madaniyati fanidan olingan bilimlar darajasi, amaliy natijalarni tahlil qilishda o'quvchilarning ijodkorligi, ijtimoiy kompetensiyalarga ega bo'lganligi, musiqa, san'at bilan hayotini bog'lay olishi, undan umri davomida ijobiy, ijodiy foydalana olish layoqatiga ega bo'lganligi inobatga olinishi zarur. Natijalarni tahlil qilishda o'quvchilarning mustaqil amaliy faoliyat bosqichida erishgan yutuqlari, kamchiliklari monitoringi alohida e'tiborga olinadi. O'quvchilarning musiqa madaniyati fanidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarining mustaqil amaliy faoliyatda qo'llay olish layoqati ushbu fan yuzasidan olib borilgan pedagogik jarayonning sarhisobi – natijalar tahlilining asosiy mezoni hisoblanadi. Bunda har bir o'quvchining musiqiy savodxonligi, erishgan yutuqlari, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklari tahlil etiladi, tavsif beriladi. Musiqa – bu ijodiy jaryon, u inson sezimlariga, tuyg'ulariga u yoki bu darajada ta'sir etadi. Musiqani anglash, idrok qilish o'quvchining ijodiy qobiliyatiga bog'liq bo'lgan nozik emotsional – eruditsion layoqat, iqtidor, iste'dod hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, o'quvchilarning musiqa madaniyati fanidan olgan bilimlarini baholash, natijalarni aniqlash borasida ko'p pedagogik bahs-munozaralar mavjud. Bu esa jarayonning murakkabligidan, ayni paytda, ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. O'quvchilarning haftalik o'quv soatlarining cheklanganligi, yosh xususiyatlari, didaktik ta'minot muammolari kabi omillarning o'ziyoq bu sohada yechimini kutayotgan dolzarb masalalar borligini anglatadi. Musiqaning o'quvchilarning ichki dunyosiga, ruhiyatiga ta'siri, his-tuyg'ulanish darajasini o'lchash mumkin emasligi uning musiqa fanida olgan bilim natijalarini belgilashni qiyinlashtiradi. Tajribali o'qituvchi bu kabi muammolarni hal qilishiga kreativ yondashadi, pedagogik izlanishlar olib boradi, metodik bilimlarini boyitish uchun tinmay izlanadi, o'z ustida ishlaydi, vaqtdan unumli foydalanadi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar bilan mustaqil shug'ullanishni tashkil etadi, o'quvchilar bilan yakka, jamoaviy ish olib boradi, diagnostik tahlillar yuritadi.

O'quvchining musiqa madaniyati fanidan olgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyasi quyidagi natijalarda namoyon bo'ladi:

- musiqa nazariyasiga oid bilimlarni o'zlashtirganlik;
- musiqiy obrazlarning mazmuni va tabiatini, musiqiy tilni idrok eta bilish qobiliyatiga egalik;
- musiqani turli shakllarda: yakkaxon, ansambl, xorda kuylash;
- cholg'u asboblari chalishni o'zlashtirganlik;
- improvizatsiya, tasvir, imo-ishora, yuz ifodalariga hissiy sezgirlik;
- musiqiy hodisalarni tahlil qilish usullarini egallaganlik;
- bastakorlar ijodiga oid insho, referat yoza olish ko'nikmasiga egalik;
- esse yoza olish (tinglagan musiqiy asaridan olgan taassurotlari asosida);
- test bilimdonligi;
- san'at tadbirlarida faol ishtiroki;
- boshqa fanlarni o'zlashtirish natijalarining ijobiyligi;
- o'quvchi shaxsida axloqiy, ma'naviy fazilatlarining yuksalib borayotgani;
- o'quvchining ijtimoiylashuvi: maktab, oila, jamiyat hayotida faolligi ortib borayotganligi;
- o'quvchi shaxsida ijodkorlik, tadbirkorlik, izlanuvchanlik sifatlarining rivojlanib borayotganligi;
- musiqa bo'yicha olingan bilimlardan mustaqil amaliy foydalana olish layoqatiga egalik.

O'quvchilarning musiqa madaniyati fani bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari natijalari ular bilan ishlashning istiqbol pedagogik strategiyasini belgilashga xizmat qiladi.

5-bosqich. Ushbu so‘nggi bosqich musiqa madaniyati fani o‘qituvchisining istiqbol pedagogik faoliyati mazmunini belgilashni nazarda tutadi.

Pedagogik strategiya – pedagogik faoliyatga muvofiq mohir rahbarlik, istiqbolli, pedagogik maqsad va vazifalar belgilangan, izchil va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan, harakat, faoliyatlar majmuini anglatadi.

Pedagogik strategiya – pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini istiqbolli nazariy, amaliy rivojlantirishning eng yuqori darajasi. U uslubiy xarakterdagi kasbiy mahoratda amalga oshiriladi: hodisaning mohiyatini, uning haqiqiy ma‘nosini, aniq va yashirin sabablarini tushunish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish, ta‘lim-tarbiya maqsadlarini belgilash, tamoyillari, pedagogik o‘zaro ta‘sirning shartlari va vositalarini tanlashni bildiradi.

Musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi o‘quvchilarning musiqiy savodxonligi, o‘zlashtirgan bilimlari, amaliy faoliyatlari natijalarini tahlil qilar ekan, o‘z pedagogik faoliyati davomida kuzatilgan xato va kamchiliklarini chuqur tahlil qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning bilim olishdagi salbiy natijalar omillarini o‘quvchilardan emas, avvalo, o‘zidan qidiradi. Fransuz faylasuf va yozuvchisi Jan-Jak Russoning ta‘lim-tarbiya nazariyasi haqida: “Yomon o‘quvchilar yo‘q, yomoq o‘qituvchilar bor”,- deb yozgan fiklari mazmunida ham, o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatiga doimo tanqidiy munosabatda bo‘lishi zarurligi anglashiladi.

Musiqa madaniyati o‘qituvchisi istiqbol pedagogik strategiyasini belgilashda o‘quvchilarning bu fanni o‘zlashtirishdagi muammolarining obyektiv, subyektiv jihatlariga kuchli e‘tibor qaratishi talab etiladi. Buning uchun mavjud muammolarni tasniflaydi, yuzaga kelish omillarini belgilaydi, hal etish yo‘llarini aniqlab oladi. O‘quvchilarning musiqani tinglash, tushunish, idrok etish, tafakkur qilish; cholg‘u asboblari bilan ishlash; qo‘shiq aytish, raqsga tushish, improvizatsiya, sahnaviy mahorat kabi yo‘nalishlarda yo‘l qo‘yayotgan kamchiliklarning tub ildizlarini aniqlab olish ularni bartaraf etishning mustahkam zamini hisoblanadi.

O‘qituvchi mavjud subyektiv muammolarni hal etishda o‘z bilim va tajribasiga, o‘quvchilar jamoasiga, hamkasblari yordamiga tayanadi. Obyektiv muammolarni maktab rahbariyati, mutasaddi tashkilotlar bilan hal etilishida o‘z munosabatlarini ochiq bildirib boradi.

O‘qituvchining istiqbol pedagogik strategiyasi qog‘ozlarda qolib ketadigan, rasmiyatchilik uchun taqdim etiladigan hujjatga aylanib qolmasligi kerak. Istiqbol pedagogik strategiya o‘qituvchiga motivatsiya beradigan harakat manbai, quvvat o‘chog‘i vazifasini o‘tashi lozim.

Musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichi o'zaro aylanma harakatni yuzaga keltiradi: biri ikkinchisini taqozo etadi, to'ldiradi, bir butun pedagogik faoliyatni yuzaga keltiradi.

Bugungi zamonaviy jamiyatning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim tizimi muhitida musiqa ta'limini o'qitilishi hamda o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini yanada shakllantirish uchun o'qituvchi pedagogik amaliyotda keng foydalanilib kelinayotgan interfaol metodlardan; induktiv, deduktiv usullardan; grafik tashkilotchilar – organayzerlardan; vizual namoyishlar, illyustratsiyalar, rasmlardan, pedagogik texnologiyalaridan, axborot kommunikatsiya vositalaridan, musiqa madaniyati fani o'qitilishiga xos xususiy metod va usullardan samaralisini tanlash maqsadga erishni kafolatlaydi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасида таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жадаллаштириш масалалари муҳокамаси” бўйича видеоселектор йиғилиши материаллари. Т., 30.10.2020 йил. Электрон манба: <https://aniq.uz/yangiliklar/mirziyov-maktabda-ucitish-metodikasi-uzgarmasa-talim-sifati-ham-mazmuni-ham-muhit-ham-uzgarmaydi>.
2. Голубков В. В. Методика преподавания литературы. –Москва: Госучпедиз, 1962. – С. 7.
3. Богданова О., Леонов С., Чертов В. Методика преподавания литературы.– Москва:«АКАДЕМА», 2004. С.4.
4. Тафаккур гулшани // Ватандош ҳамда хорижий алломаларнинг афоризмлари ва ҳикматли сўзлари. тўпловчи Воронцов В. –Т.: Ғафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1989. – 123 б.
5. https://vk.com/wall-133367173_378
6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т.3. – Т.: 2002. – 243 б.
7. https://uza.uz/uz/posts/mahmudxozha-behbudiy-ona-yurt-fidoyisi_191156
8. https://studopedia.su/15_31588_strategii-pedagogicheskoy-deyatelnosti.html
9. Электрон манба: <https://infourok.ru/esse-sovremenniy-uchite>

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada musiqiy ta'lim vositasida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulotlarning roli, musiqa ta'limida dars metodlarini belgilashning o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari xususida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается роль обучения в развитии креативных и социальных компетенций учащихся посредством музыкального образования, особенности методов обучения в музыкальном образовании, этапы развития креативных и социальных компетенций учащихся.

SUMMARY

The article discusses the role of teaching in the development of creative and social competencies of students through music education, the features of teaching methods in music education, the stages of development of creative and social competencies of students.

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ТАЛАБАЛАР БИЛИМ ОЛИШ ЖАРАЁНИДА МАЪНАВИЙ ВА ЖИСМОНИЙ БАРКАМОЛЛИК ЎРТАСИДАГИ МУВОЗАНАТНИ САҚЛАШ

Жўраев Б.

Андижон давлат университети стажёр-тадқиқотчиси

Таянч сўзлар: жисмоний ҳаракатлар, талабалар, трансформация, олий таълим, глобал муаммо, саломатлигини мустаҳкамлаш.

Ключевые слова: физическая активность, студенты, трансформация, высшее образование, глобальная проблема, укрепление здоровья.

Key words: physical activity, students, transformation, higher education, global problem, health promotion.

Маълумки, инсонийятнинг пайдо бўлиши ва эволюцияси жараёнида жисмоний фаоллик бирламчи хусусиятга эга бўлган омиллардан бўлган. Қадимдан бошлаб инсонлар ўз ҳаётини сақлаб қолиш ва насилини давом эттириш учун мудом жисмоний фаол бўлиши талаб этилган. Озиқ-овқатга ва хавфсизликни таъминлаш учун аждодларимиз ўта катта ҳажмдаги жисмоний ҳаракатларни бажаришга мажбур бўлган. Бу эса эволюция натижасида ҳозирги тана тузилишига таъсир кўрсатиб боришини антропологлар томонидан ёппасига эътироф этилган. Шу билан бирга қатор олимлар онгнинг пайдо бўлиши ва жисмоний фаоллик ўртасидаги алоқаларга ҳам эътибор қаратадилар. Демак, классик ва замонавий олимларнинг илмий изланишларига эътироб қаратадиган бўлсак, ақлий тафаккурнинг ривожланиши жисмоний фаоллик билан узвий равишда кечганлигини тушунишимиз мумкин бўлади.

Шу билан бирга олиб борилган тадқиқотлардан маълум бўлмоқдаки: "...талабаларнинг тахминан 50 фоизи жисмоний машқлар билан ҳафтасига 2-3 соат шуғулланади, 45 фоизи эса умуман шуғулланмайди." Ижтимоий тармоқларнинг жадал ривожланиши ва замонавий тараққиёт натижасида камҳаракатлилик одатий тусга эга бўлиб бормоқда. Мавжуд гаджетлар эндиликда жисмоний фаолликсиз ҳам ўз мақсадига эришиш имкониятини яратиб бермоқда. Бу каби дегредатив хусусиятга эга бўлган парадигманинг салбий оқибатлари аллақачон намоён бўлмоқда.

Муаммонинг яна бир жиҳати мавжуд жисмоний тарбия дарсларидаги фаоллик, улардан қониқиш ва шахсий баркамолликнинг воситаси сифатида тан олиш масаласидир. Маълум бўлишича: “...(талабаларнинг) машғулотларда ҳаракатли ўйинлар ҳақидаги билимлари етарли эмаслиги, жисмоний сифатлар ва соғломлаштириш учун ҳаракатли ўйинлар муҳим аҳамият кашф этиши, миллий халқ ўйинлари ҳамда миллий қадриятларимизни тарғиб қилишда муҳим роль ўйнаши ҳақида бефарқ эканликларини маълум қилдилар.” Бу эса жисмоний фаолликнинг камайиши натижасида унга стимул берувчи омилларни ҳам четлаб ўтиш, жисмоний ҳаракатларни инсон борлигининг таркибий қисми сифатида тасаввур қила олмасликка олиб келаётгани маълум бўлди.

Бу ўриндаги муҳим масалалардан бири талабалар жисмоний фаоллиги билан жисмоний маданият дарслари ўртасидаги алоқадорликдир. Маълумки, аксарият олий таълим муассасасларида жисмоний маданият дарслари иккинчи даражали фанлар сифатида эътироф этилади. Шу сабабли бўлса керак талабаларнинг ундаги иштироки ҳам чекланган. Чунки, бир томондан талабалар жисмоний маданиятнинг аҳамиятини тўлиқ англаб етмаган бўлса, иккинчи томондан жисмоний маданият машғулотлари дарс сифатида қараш сақланиб турибди. Жисмоний фаолликни ҳаёт тарзи ва ижтимоий мавжудликнинг асосий шарт сифатидаги дунёқараш ҳали шаклланиб улгурмади. Ҳозирги кунда ёшлар ўртасида бир томондан ижтимоий тармоқларга муккасидан кетиш кузатилаётган бўлса, иккинчи томондан фан, санъат ва маданият соҳасида маълум бир ютуқларга қандай қилиб бўлса ҳам эришиш, бу борада тиббий гигиена ва жисмоний фаолликка эътибор қаратмаслик кузатилмоқда. Бу эса кейинчалик қатор касалликларнинг келиб чиқишига ва охир оқибатда инсоннинг ижтимоий муносабатлардан четда қолишига олиб келиши мумкин бўлади.

Соҳа мутахассисларининг маълум қилишича: “Таълим муассасаларини тугаллаётган аксарият талаба ёшларнинг саломатлик ҳолати замонавий ишлаб чиқариш, жамият ва замон талабларига жавоб бермайди. Бунга асосий сабаб атроф-муҳит вва экологик шароит нафақат мамлакатимиз, бутун дунёда ёмонлашиб бораётгани эканлиги исботланган. Жумладан, ҳаёт даражасини пасайиши, ўқиш, меҳнат, дам олиш шароитларининг ёмонлашуви, стресс, юкламаларнинг оғирлашиб бораётгани, шу жумладан аҳолининг деярли барча ижтимоий-демографик гуруҳлари жисмоний тайёргарлик ва жисмоний ривожланиш даражасининг пасайиб кетиши каби ижтимоий-иқтисодий омиллар катта ўрин тутаяди.” Муаллифнинг қатор фикрларига қўшилган ҳолда айрим ўринларда талабалар саломат-

лиги билан боғлиқ айрим масалаларда кўпол умумлаштирмалар кузатилади. Мисол учун, ўқиш, меҳнат ва дам олиш шароитларининг ёмонлашуви эмас, балки яхшиланиб бораётгани кузатилмоқда. Ҳалқаро микёсда тан олинган Легатиум институтининг маълум қилишича Ўзбекистондаги фаровонлик кўрсаткичи 102-ўриндан 97-ўринга ижобий томонга қараб кўтарилган. Аслида талабалар саломатлигининг салбий томонга ўзгариши иқтисодий қийинчиликдан эмас, иқтисодий фарвонликнинг ортишидан ҳам бўлиши мумкин. Мисол учун, ҳозирги кунда барча олий таълим муассасалари кенг полосали интернет тармоғи билан жиҳозланган. Талабалар кун бўйича интернет тармоғидаги ижтимоий тармоқлардан бепул фойдаланиши мумкин. Айниқса, талабалар турар жойларидаги бепул wi-fi зоналарига барча талабалар тўлиқ уланган. Кузатишлардан маълум бўляптики, аксарият талабалар ўқишдан бўш вақтларини оммавий спорт мусобақалари, маданий-маърифий тадбирлар ва ниҳоят таълимнинг асосий мазмунини ташкил этувчи кутубхонада эмас, балки ижтимоий тармоқларда ўтказётгани маълум бўлмоқда. Ҳолбуки, интернет тармоғига уланиш ва алоқа сифатини сақлаб туриш учун маълум бир ҳаражат талаб қилинади. Бу эса иқтисодий фаровонлик жисмоний фаоллика салбий таъсир кўрсатётганини кўрсатиб турибди.

Қайд этиб ўтиш керакки, нофаоликка асосланган талабалик турмуш тарзи асосида шаклланган жисмоний кўрсаткичлар келгусида маълум бир касбларни эгаллашга тўсқинлик қилиши мумкин. Мисол учун, тиббиёт, таълим ва техника соҳаларида фаолият кўрсатадиган мутхассислар юксак ақлий меҳнат билан бирга фаол жисмоний ҳаракатларни амалга ошириши талаб этилади. Айниқса, педагоглар ўқувчилар билан биргаликда ҳаракат темпини сақлаб туриш, ҳар куни уч-тўрт соат давомида асосан тик турган ҳолда машғулотларни ташкил этиши талаб этилади. Шу сабабли ҳам келгусида касб касалликлари пайдо бўлмаслиги учун талабалик давриданок жисмоний фаолликни сақлаб туриш чоралари кўриш зарур бўлади.

Олий таълим трансформация шароитидаги жисмоний фаоллик муаммоси олий таълим тизимида талабалар сонининг кескин кўпайиши, лекин мавжуд моддий техника базасининг кенгаймагани билан ҳам боғлиқдир. Экспертларнинг қайд этишича: “Олий таълим муассасалари сони 141 тага етди, қабул ўринлари 66 мингтадан 182 мингтага ошди. Хорижий мамлакатлар таълим муассасаларининг 26 та филиалида мутахассислар тайёрлаш йўлга қўйилди. Олий таълимнинг қамров даражасини босқич-ма-босқич ошириш, тизимда соғлом рақобат муҳитини шакллантириш, ўқув юкламаларини мақбуллаштириш, таълим жараёнига рақамли тех-

нологияларни жорий этиш, олий таълим муассасаларининг молиявий мустақиллигини таъминлаш, профессор-ўқитувчиларнинг маоши ўртача 3,5 баробарга оширилиши — олий таълим ислохотларининг дастлабки натижаларидир.” Сўнги маълумотларга қараганда олий таълим билан камраб олинган талабалар сони 1 миллионга яқинлаши. Белгиланган кўрсаткичларнинг ортидан қувиш, моддий-техника базасининг заифлиги, меҳнат бозори билан олий таълим квоталарининг уйғун эмаслиги сабаб оммавий равишда олий таълимга ўқишга кириш тенденцияси барқарор равишда кучайиб бормоқда. Айниқса, меҳнат бозорида хотин-қизлар учун муносиб иш ўринлари топишдаги муаммолар сабаб, асосан қизлар педагогика йўналишидаги олий таълим муассасаларига ўқишга киришга интилади. Лекин, халқ таълими ва мактабагача таълим вазирлиги томонидан мавжуд кадрларга бўлган эҳтиёж очиқланмаган ва айрим экспертларнинг фикрича таклиф талабдан бир неча баробар юқоридир. Мана шунда улкан талабалар контингентини олий таълим муассасалари ўз бағрига сиғдириш учун энг охирги чораларни қўллашга мажбур бўлмоқда. Айрим олий ўқув юртлирида ўқиш 3 сменада йўлга қўйилган. Ётоқхоналарда икки қаватли кроватлар жойлаштириш одатий ҳолга кирмоқда. Имкон қадар ёрдамчи майдонлар ҳисобидан аудиторияларни кўпайтириш ҳолатлари кузатилмоқда. Буларнинг ҳаммаси ҳам талабаларнинг жисмоний фаоллигига путур етказадиган, уни чеклайдиган ва нормал ҳаракат маршрутини издан чиқарадиган салбий оқибатларга олиб келади. Айниқса, икки ярусли кроват талабаларнинг эркин ҳаракатланишини чеклаб, уларнинг бир жойда ўтириши ёки ётишини рағбатлантиради.

Нодавлат олий таълим муассасаларида ҳам талабаларнинг жисмоний фаоллигини рағбатлантириш масалалари тўла ҳал қилинмаган. Айрим олий ўқув юртлири ишлаб чиқариш корхоналари, маиший хизмат муассасалари ва бошқа мослаштирилган биноларда жойлашган. Шу сабабли ҳам жисмоний фаолликни намоён этиш имкониятлари жуда чекланган бўлиб, бу ўзининг салбий оқибатини аста-секин келтириб чиқариши мумкин.

Жисмоний фаоллик пасайишнинг умуммиллий кўрсаткичлари маълум эмас. Шу билан биргаликда олий таълим муассасалари талабаларининг ҳам жисмоний фаоллиги кўрсаткичларини умуммиллий миқёсда ўрганиш бўйича кенг қамровли илмий тадқиқотлар олиб борилмаган. Ҳозирги кунда олий таълим трансформациясинининг асосий йўналишлари – кредит-модул тизимига муваффақиятли ўтиш, чет тиллари ва ахборот коммуникацион технологияларини пухта эгаллаш, тегшли касб доираси чуқур билим, кўникма ва малакага эга бўлиш каби устувор вазифалари белги-

ланган. Талабаларнинг жисмоний фаоллиги эса олий таълим трансформацияси жараёнида энг асосий вазифалар сирасига кирмайди.

Шу нуқтаи назардан ҳам жисмоний фаоллик инсон томонидан ўз олдига қўйган мақсадларга эришиш, саломатлигини мустаҳкамлаш ва жисмоний баркамолликка қаратилган ўзига хос фаолиятидир. Жисмоний фаоллик натижасида инсоннинг ижтимоий фаоллигини ошади, насл қолдириш, оиласига ғамхўрлик қилиш ва ўзинини ўзи ҳимоя қилиш имконияти пайдо бўлади. Талабанинг ижтимоий фаоллиги эса олган билимларини узоқ йиллар давомида қўллаш ва шу орқали ижтимоий алоқаларни сақлаб қолиш, билим олиш жараёнида маънавий ва жисмоний баркамоллик ўртасидаги мувозанатни сақлаш имконияти пайдо бўлади.

Машҳур педагог олимлардан И.Г.Герашенко айтганидек: “билим олиш ҳам меҳнатдир” Яъни, оламни англаш, ўқиш ва ўрганиш жараёни бевосита жисмоний фаоллик билан бирга кечадиган жараён. Бу диалектик алоқани бир биридан мустақил равишда тасаввур қилиб бўлмайди. Юқорридаги қайд этилганидек, жисмоний фаоллик инсон тадрижидида катта роль ўйнаган бўлса, унинг келгусидаги камолотида ҳам жуда катта аҳамиятга эга бўлади.

Олий таълимдаги жисмоний фаоллик билан боғлиқ муҳим масалалардан бири “жисмоний маданият” дарсларининг қисқариши билан боғлиқдир. Ҳозирги олий таълимга либерал ёндашувнинг негизида буюртмачи ва иш берувчининг талабидаги мутахассини тайёрлаш ётади. Касб-ҳунарларнинг йўқолиб бориши, янгиларининг вужудга келиши ва бир умр таълим олиш тамойиллари тоборо кенгайиб боарётган бир шароитда кадрлар буюртмачи бўлган (Ўзбекистон шароитида ота-оналар) субъектлар имккон қадар фарзандларини узоқ йиллар эгаллаган касбида барқарор ишлашини орзу қилади. Бунинг учун эса таълим муассасаси маркетинг сиёсати *soft skills* – юмшоқ кўникмалар, яъни мослашувчан характерга эга бўлган компетенцияларни шакллантиришга урғу беради. Мослашувчан компетенциялар – бу келгусидаги мураккаб хусусиятга эга ўзгаришлар шароитида ҳам кадрнинг талабгирлигини сақлаб қолади. Бунга хорижий тилларни ўзлаштирганлиги, ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланиш маҳорати ҳамда қийин вазиятларда психологик жиҳатдан ўзини йўқотмаслик каби хусусиятларни критиш мумкин. Шу сабабли бўлса керак ҳозирги кунда олий таълим тизимида “мухатасиликка алоқаси бўлмаган фанлар” деган атама пайдо бўлган. Бу олий таълим тизимига нисбатан прагматик ёндашув натижаси бўлиб, маълум бир омиллардан келиб чиқиб бу каби қарашлар пайдо бўлди. Ота-оналар

хам буюртмаси сифатида “мутахассисликка алоқаси бўлмаган фанлар”ни камаййтиришдан манфаатдордир. Чунки, ҳар бир ўқув режадаги фан ота-оналарнинг шартнома тўловларида акс этади. Шу сабабли сўнги вақтлар “жисмоний маданият” ўқув машғулоти аста-секинлик билан ўқув режалардан қисқариб бормоқда. Аксарият мутахассислар (улар жисмоний маданият фани ўқитувчиси бўлганлиги сабабли) ҳозирги кундаги жисмоний фаолликни камайишини тўғридан тўғри жисмоний маданият фанининг қисқартириш билан боғлаб қўйишади. Бу каби ёндашувлар муаммоларнинг ечимига нисбатан юзаки қараш деб ҳисоблаш мумкин. Юқоридаги таҳлилилардан аён бўлдики, жисмоний фаолликни камайиши глобал ҳусусиятга эга ва фақат талабалар ҳаётида учрайдиган муаммо эмас. Шунинг учун ҳам жисмоний маданият фани учун соатларни кўпайтириш ёки камайитириш масаласида чуқур тадқиқотлар олиб бориб кейингига маълум бир хулоса қилиш мумкин.

Олий таълим трансформацияси шароитида жисмоний фаоллик билан боғлиқ муаммолар тизимлаштирилган қуйидагича вазият юзга келади.

Биринчидан, жисмоний фаолликнинг камайиши глобал муаммо бўлиб, бутун дунё миқёсидаги техник тараққиёт натижасида инсонлар ҳаётига салбий таъсир кўрсатмоқда.

Иккинчидан, Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти томонидан жисмоний фаоллик тушунчасига таъриф берилган ва унинг камайиши ўлимга олиб келувчи оғир касалликларни келтириб чиқариши ҳусусида хулосалар мавжуд.

Учинчидан, Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти томонидан жисмоний фаолликни сақлаб туриш бўйича тавсия ва нормативлар ишлаб чиқилган.

Тўртинчидан, олий таълим трансформацияси кўп векторли амалга ошмоқда ва шу сабабли ҳозирги босқичда талабаларнинг жисмоний фаоллигини масаласи бирор бир олий таълим муассасининг маркетинг сиёсати ёки бошқа дастурлари акс этгани йўқ.

Бешинчидан эса, олий таълим тараққиётининг ҳозирги босқичи билан узвий боғлаган ҳолда талабалар жисмоний фаоллигини илмий жиҳатдан ўрганишга бағишланган педагогик тадқиқотлар долзарб аҳамиятга эгадир.

Адабиётлар:

1. Selection against variants in the genome associated with educational attainment. Wayback Machine, Augustine Konga, Michael L. Friggea, Gudmar Thorleifssona, Hreinn Stefanssona, Alexander I. Youngc, Florian Zinka, Gudrun A. Jonsdottira, Aysu Okbayd, Patrick Sulema, Gisli Massona, Daniel F. Gudbjartssona, Agnar Helgasona, Gyda Bjornsdottira, Unnur Thorsteinsdottira, and Kari Stefanssona. Edited by Andrew G. Clark, Cornell University, Ithaca, NY, 2016.